

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

N.S.Ismailova, D.R. Ergashev, U.R.Xalikov

**JAHON BOZORI KONYUNKTURASI
TAHLILI**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim
vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan.*

TOSHKENT – 2022

UO‘K: 33M (575.1)
KBK

N.S.Ismailova, D.R.Ergashev, U.R.Xalikov. “Jahon bozori konyunkturasi”, Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022 - 241 b.

“Jahon bozori kon’yunkturasi tahlili” fanidan tayyorlangan darslik talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko’nikmalar, zamonaviy jahon bozorida ro’y berayotgan hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ularning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Darslik 70411901 – “Jahon iqtisodiyoti” (mintaqa va faoliyat turlari bo’yicha) mutaxassisligi uchun mo’ljallangan.

Учебник подготовлен по курсу “Анализ конъюнктуры мирового рынка”. Данный курс формирует у студентов теоретические и практические навыки, раскрывает современные процессы и события, происходящие в мировой и национальной экономике, способствует формированию научного мировоззрения.

Учебник предназначен для специальности 70411901 – “Мировая экономика” (по регионам и видам деятельности).

The textbook "Analysis of the world market situation" gives students theoretical knowledge, practical skills, a methodological approach to phenomena and processes in the modern world market, and also forms their scientific outlook.

The textbook is intended for the specialties 70411901 - "World Economy" (by region and type of activity).

UO‘K: 33M (575.1)
KBK

Tuzuvchilar:

- | | |
|----------------------|--|
| N.S.Ismailova | – TDIU, “Jahon iqtisodiyoti” kafedrası mudiri, i.f.n., dotsent |
| D.R.Ergashev | – TDIU, “Jahon iqtisodiyoti” kafedrası katta o’qituvchisi |
| U.R.Xalikov | – TDIU, Korporativ boshqaruv fakulteti dekani, i.f.n., dotsent |

Taqrizchilar:

- | | |
|----------------------|--|
| A.A.Isadjanov | – O’XIA “Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrası professori, iqtisod fanlari doktori. |
| Y.Qoriyeva | – TDIU professor, iqtisod fanlari doktori. |

ISBN

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022.

KIRISH

O'zbekiston milliy iqtisodiyotini rivojlantirish, tarkibiy yangilash va modernizatstsia qilish bo'yicha tanlagan strategiyamizni va Inqirozga qarshi qabul qilingan dasturlarimizni amalga oshirish natijasida mamlakatimizda zamonaviy texnologiyalar asosida va "Made in Uzbekistan" tamg'asi ostida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarimizni jahon bozorlaridan munosib joy olayotganligi barchamizga katta mamnuniyat va iftixor bag'ishlaydi, albatta.

Mustaqillik davri mobaynida mamlakatimiz jahon xo'jaligida o'zining munosib o'rnini topishga muvaffaq bo'ldi. So'nggi yillarda "Yangi O'zbekiston" milliy iqtisodiyotini rivojlantirish borasida qo'lga kiritilgan natijalar Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa bir qator nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan yuksak baholanmoqda.

Jahon bozorini rivojlantirish, undagi mahsulot va xomashyolar narhlarini aniqlash va belgilash, shuningdek, jahon bozorlaridagi pandemiyaning ta'siri va unga bog'liq muammolar, bugungi kunda dunyo mamlakatlari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Ayniqsa, 2022 yilda jahon siyosiy inqirozi sharoitida mamlakatlararo savdo munosabatlarini erinlashtirishda jahon bozoridagi narx-navolarni barqarorlashtirish, mintaqalar ko'lamida o'zaro savdo to'siqlarini va iqtisodiy jazo to'siqlarni bartaraf etish kabi masalalar bugungi kunda jahon hamjamiyatining oldida turgan eng asosiy dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu "Jahon bozori kon'yunkturasi tahlili" darsligi orqali talabalarga jahon bozorlaridagi xomashyo va tovar mahsulotlari narhini aniqlash va tahlil qilish, ularning mohiyati va kon'yunkturning asosiy yo'nalishlarini nazariy jihatdan asoslab beradi.

Jahondagi har bir milliy iqtisodiyotning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirok etishi jahon bozoridagi faol ishtirokiga ham bog'liqdir. Albatta, milliy iqtisodiyotlarda ishlab chiqarilayotgan eksportbop sanoat mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqishi va uning evaziga xorijiy valyutalarning olinishi har bir mustaqil mamlakatning valyuta zahiralarini jamg'arilishiga o'z hissasini qo'shadi.

Ushbu darslik o'z oldiga jahon bozorlaridagi holat va vaziyatni tubdan aniqlash va doimiy tahlil qilish hamda dunyonign turli mintaqalaridagi jahon bozorlaridagi mahsulot va xomashyolar narhini tahliliy monitoring qilgan holda o'zbek mahsulotlari eksporti oqimini ko'paytirish, yangi bozorlarni izlash va

ularning yo'nalishlari to'g'risida to'liq tasavvur shakllantirish uchun zarur bo'lgan barcha masalalarni umumiy ko'rinishda ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. SHu maqsadda jahon bozori kon'yunkturasi tahlili masalalari va muammolari jahon iqtisodiyoti bilan bevosita bog'liqlikda tahlil qilingan.

Darslik tarkibi mantiqan uning maqsadidan kelib chiqqan holda "Jahon bozori kon'yunkturasi tahlili" fani predmetining nazariy va amaliy jihatlarini yoritib berishga qaratilgan.

Shu kabi maqsadlarni amalga oshirishda yurtimizda ko'plab samarali loyihalar olib borilmoqda. Jumladan kadrlar tayyorlash tizimida ham keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Oliy ta'limning modul-kredit tizimiga o'tishi mana shunday istiqbolli loyihalaridan biri hisoblanadi. Mualliflar ushbu xayrli ishga oz bo'lsada samarali hissa qo'shish uchun magistratura bosqichida o'qitiladigan "Jahon bozori kon'yunkturasi tahlili" modulida foydalanish uchun darslik tayyorladilar.

Ushbu darslik magistratura bosqichining "Tashqi iqtisodiy faoliyat (Tarmoqlar va faoliyat turlari bo'yicha)", "Jahon iqtisodiyoti (mintaqalar va faoliyat turlari bo'yicha)" mutaxassisliklari uchun tayyorlandi.

Ushbu darslik mavzularida keltirilayotgan asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar AQSh dollarida bo'lganligi sababli, barcha mavzulardagi "dollar" so'zi - AQSh dollari ko'rinishida o'qilishini so'raymiz.

I BOB. “JAHON BOZORI KON’YUNKTURASINI TAHLILI” FANINING DOLZARBLIGI, MAQSADI VA VAZIFALARI

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasidan kelib chiqqan holda fanni o‘qitilishining dolzarbligi.

1.2. “JAHON BOZORI KON’YUNKTURASINI TAHLILI” fanining maqsad va vazifalari.

1.3. Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi va unda tashqi savdoni ko‘paytirish chora-tadbirlari.

1.4. Mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyatining 2021 yilgi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili.

***Tayanch iboralari:** Murojaatnoma, “Yangi O‘zbekiston”, taraqqiyot strategiyasi, kon’yunktura, jahon iqtisodiyoti, milliy iqtisodiyot, jahon bozori, jahon tovar bozori, tashqi savdo, eksport, import, saldo, ochiq iqtisodiyot, erkin iqtisodiyot.*

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasidan kelib chiqqan holda fanning o‘qitilishini dolzarbligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar, tadbir qilingan dasturlarni nihoyasiga etkazish, ishlab chiqarish samaradorligini rivojlantirish, shuningdek, 2020 yilning boshlarida yuzaga kelgan pandemiyaning jahon iqtisodiyotiga salbiy ta’siri, jahon iqtisodiyotidagi bir qator muammolar, xalqaro jahon bozorlardagi bugungi dolzarb holatlar bo‘yicha o‘z ma‘ruzalarida to‘xtalib o‘tdilar.

Eng muhimi, ayni paytda, jahon bozorida eksport salohiyatimizning o‘rish sur‘atlarini qanday rivojlantirish va ilg‘or texnologiyalar orqali ishlab chiqarilayotgan milliy mahsulotlarimizni jahon bozoridan munosib joy olishi hamda davom etayotgan pandemiya sharoiti mamlakatimizning eksport salohiyati va valyuta tushumiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasdan qolmasligini ta’kidlab o‘tdilar.

Murojaatnomada yurtboshimiz jahon iqtisodiyotini inqirozga yuz tutgan bevosita pandemiya sharoitiga to'xtalib o'tib: bugungi kunda butun insoniyat koronavirus pandemiyasi degan global ofatni boshidan o'tkazmoqda. Bunday ulkan falokat jahon miqyosida so'nggi yuz yilda ro'y bermagan, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.¹

Pandemiya jahon iqtisodiyoti uchun – shunga e'tibor bering – har oyda qariyb 400 milliard dollar miqdorida zarar keltirmoqda. Bugungi kunga qadar dunyo bo'yicha 500 millionta ish o'rni yo'qotilgan².

Pandemiya oqibatlarini yumshatish va bartaraf etish uchun davlat tomonidan jami 82 trillion so'mlik kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, Inqirozga qarshi jamg'arma tashkil etilib, koronavirusga qarshi kurashish, aholi va korxonalarni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq tadbirlarga byudjetdan 16 trln.so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi.

Pandemiyaga qarshi kurashda bizga amaliy ko'mak bergan BMT, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, xalqaro moliya institutlari, Rossiya, Xitoy, AQSh, Turkiya, BAA, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya kabi davlatlar o'z iqtisodiy yordamlarini berishdi va ushbu mamlakalarning rahbarlariga minnatdorchilik bildirib o'tildi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi va xalqaro reyting agentliklari tahlillariga ko'ra, pandemiya sharoitiga qaramasdan, O'zbekiston dunyoning sanoqli davlatlari qatorida ijobiy o'sish sur'atlarini saqlab qoldi.

O'zbekiston "Ochiq ma'lumotlarni kuzatish" xalqaro indeksida 125 pog'onaga ko'tarilib, 44-o'rinni egalladi. Bunda davlat va jamiyat boshqaruvi sohasidagi 20 ta yo'nalish bo'yicha ko'rsatkichlarni oshkor qilib borish amaliyoti joriy etilgani muhim ahamiyat kasb etdi.

"Iqtisodiy erkinlik" reytingida ham mamlakatimizning 26 pog'ona ko'tarilgani islohotlarimizning xalqaro maydondagi yana bir e'tirofi bo'ldi.

Yana bir masala – hozirgi kunda O'zbekistonning davlat tashqi qarzi Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi me'zonlariga ko'ra xavfsiz hisoblanadi. SHuningdek, davlat nomidan tashqi qarz olish kamaytirilib, investisiya va infratuzilma loyihalariga ko'proq xususiy kapital jalb etiladi. SHuningdek,

¹https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-oliy-mazhlisga-murozhaatnomasi_198650

²https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-oliy-mazhlisga-murozhaatnomasi_198650

mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etilishini ta'kidlab o'tdi va aynan 2021 yilning oxirida ushbu masala yuzasidan Toshkent shahrida yirik xalqaro konferentsiya bo'lib o'tdi.

Yangi eksport bozorlariga chiqish Hukumatning eng asosiy vazifalaridan biri bo'lib qoladi va bugungi kunda mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga a'zolik masalasi hamda Yevropa Ittifoqi bilan keng qamrovli hamkorlik bo'yicha ishlar faollashmoqda.

O'zbekiston yaqinda Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomini oldi. Ushbu tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlar bozorlarida to'laqonli ishtirok etish uchun milliy texnik tartibga solish me'yorlarini ularning talablariga moslashtirish bo'yicha ishlarni jadallashtirish zarur.

Murojaatnomada berilgan topshiriqlarga asosan, mamlakatimiz korxonalarga xomashyo sotib olish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish uchun Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan 100 million dollar ajratildi va eksport qiluvchilarga chet elda savdo uylari va do'konlar ochish hamda reklama xarajatlarining 50 foizi qoplab berildi.

Asosiy xorijiy sheriklarimiz hisoblangan Rossiya, Xitoy, AQSh, Turkiya, Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Hindiston, Pokiston, BAA va boshqa davlatlar bilan ko'p qirrali va o'zaro manfaatli aloqalar yanada kengaytirilmoqda.

Hozirgi kunda Markaziy Osiyoni Hind okeani bilan bog'laydigan Trans-afg'on transport yo'lagini barpo etish borasida dastlabki amaliy qadamlar tashlandi. Bu loyihaning ro'yobga chiqarilishi butun mintaqamizda barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga beqiyos xizmat qiladi.

2020 yil 24 yanvardagi Murojaatnomada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagi so'zlarini: "Bizning tashqi savdoga chiqadigan yuklarimizning 80 foizi Qozog'iston, Qirg'iziston va Rossiyaning tranzit yo'laklari orqali o'tadi. Shuningdek, tayyor mahsulotlarimiz eksportining 50 foizi, ayrim tovarlar bo'yicha esa 80 foizi Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston hissasiga to'g'ri keladi.

Ana shu omillarni inobatga olib hamda Rossiya va Qozog'istonga ishlash uchun borgan fuqarolarimizga qulay shart-sharoit yaratish maqsadida bugungi kunda O'zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorlik qilish bilan

bog'liq masalalar o'rganilmoqda. Biz, albatta, ushbu jiddiy masalada, eng avvalo, xalqimizning manfaatlaridan kelib chiqib, uning xohish-irodasiga tayanamiz.

Shuningdek, biz boshqa xalqaro va mintaqaviy iqtisodiy tashkilotlardagi ishtirokimizni yanada kuchaytiramiz”³.

Albatta, yurtboshimiz tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarning asosiy omillari – ichki bozor, ochiq va xalqaro bozor, kapital bozori, xomashyo bozori, turizm bozori kabi bozorlar kon'yunkturasini tahlil qilish muhim ahamiyati kasb etadi va har bir vazifaning omili milliy iqtisodiyotning taraqqiyotida o'zining ma'lum bir xususiyatiga ega bo'lib, avvalo jahon bozorlariga chiqishda ulkan ishlarni amalga oshirilishini talab etadi.

1.2. “JAHON BOZORI KON'YUNKTURASINI TAHLILI” fanining maqsadi va vazifalari

“Jahon bozori kon'yunkturasini tahlili” fanining o'qitilishi jarayonida har bir jahon bozorlarini tahlil qilib, avvalo, xalqaro bozorlarga chiqishda O'zbekistonning imkoniyati va shart-sharoitlari, jahon bozorlari faoliyatida mamlakatimizning ulushini yanada oshirishda xalqaro tajribalardan foydalanish borasida taklif va tavsiyalar beriladi.

Jahondagi har bir milliy iqtisodiyotning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirok etishi jahon bozoridagi faol ishtirokiga ham bog'liqdir. Albatta, milliy iqtisoditlarda ishlab chiqarilayotgan eksportbop sanoat mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqishi va uning evaziga xorijiy valyutalarning olinishi mamlakatning valyuta zahiralarining jamg'arilishiga o'z hissasini qo'shadi.

“Jahon bozori kon'yunkturasini tahlili” fanining maqsadi – jahon bozori kon'yunkturasini tahlil qilishdan iboratdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilishni o'z ichiga oladi:

- jahon bozoridagi holat va vaziyatni aniqlash;
- jahon bozorida narh-navo dinamikasini tahlil qilish;
- jahon bozorida narhni iqtisodiy ko'rsatkichlar yordamida aniqlash;
- talab va taklif kabi omillar yig'indisining o'zaro munosabati orqali o'rganishdan iboratdir.

“Jahon bozori kon’yunkturasini tahlil qilish” fanining o’qitilish maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda, quyidagi asosiy mavzularni o’z ichiga oladi:

- xalqaro jahon bozorlarini kechagi, bugungi va istiqboldagi faoliyati va ahvoli-holatlarini tahlil qilish;
- jahon bozori kon’yunkturasini tahlili va tahlil qilish uslublarini o’rganish;
- xalqaro va ichki bozor segmentatsiyasini, baholarni shakllanishi va iste’molchilarga servis xizmat ko’rsatishni strategiyalarini, tovar va xizmatlar sotilishini kengaytirish imkoniyatlari va uni raqobatga bardosh bera olish strategiya usul va yo’llarini o’rganish;
- jahon bozori kon’yunkturasini tahlili va tahlil qilish uslublari, tamoyillarini ko’rib chiqish;
- jahon bozori kon’yunkturasini tahlil qilish natijalari asosida istiqbol rejaralarini ishlab chiqish hamda ularni qo’llashni o’rganishdan iboratdir.

SHuningdek, “Jahon bozori kon’yunkturasini tahlili” fani orqali jahon iqtisodiyotida muhim bo’lgan – jahon bozorida mahsulotlar, xomashyo, moliya, kapital, mehnat, xizmat kabi bozorlarning bugungi holatini va ularning faoliyatini tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, ushbu fan orqali quyidagi mavzular, jumladan:

- Jahon bozori kon’yunkturasini o’rganishning nazariy asoslarini o’rganish;
- Jahon xomashyo tovarlari bozori kon’yunkturasining o’ziga xos jihatlari yoritib berish;
- Jahon tovar bozori kon’yunkturasini, jahon moliya bozorini, jahon kapital bozorini tahlil qilish;
- Jahon mehnat bozorining xususiyatlarini aniqlash;
- Jahon iqtisodiyotida xizmatlar bozorining o’rni va ahamiyatini ko’rib chiqish;
- O’zbekistonning jahon bozorida tutgan o’rnini iqtisodiy ko’rsatkichlar yordamida tahlil qilish kabi xususiyatlarini ko’rib chiqishdan iboratdir.

Albatta, yuqorida ta’kidlab o’tilgan vazifalarni amalga oshirishda, jahon xo’jaligidagi xalqaro bozorlarning bugungi holati, uning asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlari va jahon iqtisodiyotidagi maqei va jahon iqtisodiyotidagi ulushi, shuningdek, COVID-19 ta’sirida yuzaga kelgan iqtisodiy inqirozning salbiy ta’sirlari va yo’qotishlari chuqur tahlillar orqali ko’rib chiqiladi.

³https://nrm.uz/contentf?doc=612868_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidenti_shav

1.3. Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi va unda tashqi savdoni ko'paytirish chora-tadbirlari

“Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosida keyingi yaqin yillarda mamlakatimizda amalga oshiriladigan islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslarini yaratib berishga qaratilgan Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi davlat dasturi ishlab chiqildi.

Taraqqiyot strategiyasidan o'rin olgan 7 ta ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblangan - milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirishning zamirida jahon bozorida o'zbek mahsulotlari turlarini ko'paytirish va ularning ulushlari hamda xajmini oshirishga olib keladi. Bu esa o'z navbatatida eksport salohiyatimizni yanada oshirish orqaligina amalga oshirish lozim bo'ladi.

Taraqqiyot strategiyasidan o'rin olgan “Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash” yo'nalishi quyidagi iqtisodiy sohalarni va ularning iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirishdan iboratdir, ya'ni:

- YaIMni 100 milliard dollardan oshirib, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni 1,4 baravarga ko'paytirish va kambag'allik darajasini kamida 2 baravarga qisqartirish;
- 2022 yilda inflyatsiya darajasini 9 foizdan oshirmaslik;
- 2022 yilda oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida 10 trln.so'm kreditlarni “mahallabay” kafolatli etib borishini ta'minlash;
- byudjet taqchilligini YAIMga nisbatan 3 foizdan oshirmaslik;
- dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravarga oshirib, agrar tarmoqda yillik o'sishni kamida 5 foizga etkazish;
- turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish va yurtimizga keladigan turistlar sonini 7,5 millionga etkazish;
- yaqin besh yilda iqtisodiyotga 120 mlrd.dollar, shu jumladan 70 mlrd. dollar xorijiy investitsiyalar jalb etish, eksport hajmini yiliga 30 mlrd.dollardan

oshirishdan iborat bo'lgan g'oyat ulkan vazifa va chora-tadbirlar belgilanib olingan.

2022 yilda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar qatorida mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish va mamlakatimizning jahon bozoridan munosib joy olishi maqsadida quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilab olindi:

- iste'mol bozorida oziq-ovqat mahsulotlari narxi barqarorligini ta'minlashning yagona yo'li – meva-sabzavot, chorvachilik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari etishtirish hajmini ko'paytirish;

- iqtisodiyotni yuqori sur'atlar bilan rivojlantirish uchun faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirish lozimligi;

- barqaror iqtisodiy o'sishning eng muhim garovi – raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish, ular uchun yangi xalqaro bozorlar topish va eksportni ko'paytirish, tranzit salohiyatidan to'liq foydalanish hisoblanadi.

Demak, yuqorida ta'kidlab o'tilgan chora-tadbirlar va vazifalar asosiy dolzarb vazifalardir. Albatta ushbu vazifalarni amaga oshirishda jahonda yuzaga kelgan pandemiya va siyosiy inqirozning ham salbiy ta'sirini engib o'tishga to'g'ri keladi.

1.4. Mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyatining 2021 yilgi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili

Pandemiyaning ilk boshlanish davrlaridayoq, yuzaga kelgan jahon iqtisodiy inqirozi jahon bozoridagi holatga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Mamlakatimizning 2020 yildagi umumiy tashqi savdo aylanmasi 2019 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada pasaydi, chunki yuzaga kelgan pandemiya 2020 yil davomida nafaqat O'zbekiston tashqi savdosi, balki jahondagi aksariyat mamlakatlarning tashqi savdosi ham oldingi yillarga nisbatan 5-15 foizgacha pasayib ketdi.

2020 yilning boshida jahon iqtisodiyotida COVID-19 ta'sirida yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz mamlakatimizning ba'zi iqtisodiy sohalari taraqqiyotiga qattiq salbiy ta'sir qilgan bo'lsa-da, 2020 yilning 15 aprelida mamlakatimiz rahbari boshchiligidagi o'tkazilgan videoyig'ilishida 2020 yilda o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni qiyinchiliklarga qaramay amalga oshirilishini ta'kidlab o'tdilar. Bu iqtisodiy inqirozga qarshi kurash va bartaroaf etish maqsadida O'zbekiston Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi va Frantsiya rivojlanish uyushmalaridan jami 2,0

mlrd.AQSh dollari miqdoridagi “olinadigan qarz”larni safarbar qilinishi ta’kidlab o’tilgan edi.

Yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramasdan va xukumatimiz tomonidan amalga oshirilgan samarali chora-tadbirlari natijasida pandemiyaning 2000-2021 yilarida iqtisodiyotimizning barcha yo’nalishlarida ijobiy siljishlar ro’y berdi.

YaIM. 2021 yil yakunlari bo’yicha O’zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi 734,6 trln so’mni yoki 69 mlrd.dollarini hamda aholi jon boshiga YaAIM 21 mln so’m yoki 1983 dollarini tashkil qilgan hamda bu ko’rsatkich 2020-yilga nisbatan 5,3 foizga oshgan.

O’zbekiston Respublikasi Markaziy bank tomonidan 2021 yil yakunlari bo’yicha to’lov balansi dastlabki ko’rsatkichlari ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilindi⁴.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko’ra, to’lov balansining joriy operatsiyalar hisobi defitsiti 4,6 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bunda, savdo balansi (tovarlar va xizmatlar) manfiy saldosi (11,3 mlrd. dollar), birlamchi va ikkilamchi daromadlarning ijobiy saldosi (6,7 mlrd. dollar) hisobiga qisman qoplandi.

Birlamchi daromadlar. Birlamchi daromadlar saldosi 397 mln. dollar miqdorida ijobiy bo’lib shakllandi. Bunda, jahonda iqtisodiy faollikning o’sishi, xorijda qisqa muddatli ishchilarning soni ko’payishiga va ularning daromadlariga ijobiy ta’sir etgan bo’lsa, xarajatlar qismida jalb qilingan tashqi qarzlarga hisoblangan foizlar va xorijiy investorlarning daromadlarida o’sish kuzatildi.

Ikkilamchi daromadlar. Ikkilamchi daromadlarning ijobiy sal’dosi 6,3 mlrd. dollarni tashkil etib, o’tgan yilga nisbatan 21 foiz yoki 1,1 mlrd. dollarga ko’proq bo’ldi.

Demak, xabaringiz bor, 2021 yil yakunlari uchun to’lov balansi, xalqaro investitsion pozitsiyasi va tashqi qarzi ko’rsatkichlarining yakuniy hisoboti foydalanuvchilarga 2022 yilning mart oyida taqdim qilinishi belgilangan.

Tashqi savdo⁵. Umumiy tashqi savdo aylanmasi 2021 yil yakuni bo’yicha jami 42,1 mlrd.dollarni (2020 yil – 36,2 mlrd.doll.; 2019 yil – 41,7 mlrd.dollar) tashkil qilgan va O’zbekiston o’z tarixida ilk bor jahonning 182 mamlakati bilan tashqi savdo hamkorligini olib bordi .

⁴ https://cbu.uz/oz/press_center/reviews/584864/ “O’zbekiston Respublikasi Markaziy bank tomonidan 2021 yil yakunlari bo’yicha to’lov balansi”

⁵ <https://kun.uz/77667180> “Asosiy hamkorlar, oltin va mashinalar — O’zbekistonning 2021 yilgi tashqi savdosi”

Eksport. 2021 yil yakunlari bo'yicha jami tovarlar eksporti 16,6 mlrd. dollarni (2020 yilda 12,8 mlrd. dollar, 2019 yilda 13,9 mlrd. dollar) tashkil etdi.

Bunda, 4,3 milliard dollarlik sanoat tovarlari, 4,1 milliard dollarlik oltin, 2 milliard dollarlik xizmatlar va 1,3 milliard dollarlik oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa mahsulotlar eksport qilingan.

Garchi oltin borasidagi statistik ma'lumotlar batafsil keltirilmagan bo'lsa ham, avvalgi yillarga qaraganda oltin sotishdan kamroq daromad olinganini ko'rish mumkin. Masalan, 2020 yilda O'zbekiston eksportida oltin eng yuqori ulushga ega bo'lgan, ya'ni 5,8 milliard dollarlik oltin sotilgan. 2019 yilda esa 4,9 milliard dollarlik oltin sotilgan. Shuningdek, kimyoviy va mineral mahsulotlar, mashinalar va transport uskunalari, nooziq-ovqat mahsulotlari hamda turli xil tayyor buyumlar ham sotilgan.

Import. Tovarlar importi 26,0 mlrd. dollarni (2020 yilda 19,0 mlrd. dollar, 2019 yilda 21,2 mlrd. dollar) tashkil qildi.

2021 yil O'zbekiston importida eng ko'p ulush mashinalar va transport asbob uskunalariga to'g'ri kelayotganini ko'rsatmoqda – 32,4 foiz. Bu 8 milliard dollardan ortiq degani. O'zbekiston eng ko'p sotib oladigan mashinalar va asbob-uskunalar Xitoy, Koreya, Rossiya, Turkiya va Germaniya hisobiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, sanoat tovarlari, kimyoviy vositalar, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hamda xizmatlar hissasi ham importimizda yuqori o'rinlarga ega.

Tashqi savdo hamkorlarimiz. Umumiy tashqi savdoda asosiy tashqi savdo hamkorlarimiz Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Janubiy Koreya, Turkiya kabi mamlakatlarni tashkil qilgan.

Agarda O'zbekistonning umumiy tashqi savdosi dinamikasini tahlil qilsak, uzoq yillardan buyon (mustaqillikka erishgan yillardan buyon) O'zbekistonning tashqi savdo-sotiq jarayonlaridagi eng asosiy hamkor mamlakati bu – Rossiyadir (biroq 2018-2020 yillarda uning o'rnini Xitoy egallagan edi). SHunga ko'ra, Rossiya yil yakunlari bo'yicha so'nggi 3 yildan buyon tashqi savdodagi eng yirik hamkorimiz Xitoyni quvib o'tishga muvaffaq bo'ldi. Ekspertlarning tahlillariga ko'ra, yaqin 10 yillik istiqbol yillarda ham mamlakatimizning tashqi savdodagi eng asosiy sheriklari Rossiya, Xitoy va Qozog'iston mamlakatlari bo'lishi taxmin qilinmoqda.

Demak, 7,5 mlrd.dollarlik savdo aylanmasi bilan Rossiya 2021 yilda O'zbekistonning eng katta sherigi bo'lib turibdi

Keyingi o'rinda Xitoy: ikki tomonlama tovar ayriboshlash hajmi 7,4 mlrd.dollar.

O'tgan oyda ikkinchi ittifoqchimizga aylangan Qozog'iston savdodagi 3-raqamli hamkorimiz bo'lib turibdi. Tovar ayirboshlash hajmi 3,9 milliard dollar.

Keyingi o'rinda Turkiya – so'nggi yillarda faol tashqi siyosat olib borayotgan Markaziy Osiyo mintaqasining iqtisodiyoti tez rivojlanib borayotgan etakchisi bilan tashqi savdo aylanmasi 3,4 milliard dollarga yaqin.

Tashqi savdoda milliard dollik marradan oshgan so'nggi hamkorimiz Janubiy Koreya hisoblanadi. Aylanma 1,9 milliard dollarga yaqin.

Ushbu 5 ta mamlakat O'zbekiston tashqi savdosida 55 foizdan ortiq ulushga ega. Undan keyingi o'rinlardagi Qirg'iziston, Turkmaniston, Germaniya, Ukraina va Afg'oniston top o'nlikni yakunlaydi.

Tashqi qarz. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotiga ko'ra, mamlakatimiz tashqi qarzining umumiy hajmi 2022 yil holatiga ko'ra - 36,0 mlrd.dollarni tashkil qilgan.

Pul o'tkazmalar. 2021 yilda O'zbekistonga xorijiy mamlakatlardan pul o'tkazmalari hajmi 8,1 milliard dollarni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 34 foizga ortiqni tashkil etdi.

Qayd etilishicha, 2021 yil yakunlari bo'yicha so'm almashuv kursi devalvatsiyasi 3,4 foizni tashkil etib, so'nggi uch yillikdagi eng past ko'rsatkichni qayd etgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston iqtisodiyoti tarixida ilk bor 2019 yilda 1 mlrd.dollarlik miqdordagi obligatsiyalarni jahon moliya bozoriga joylashtirdi.

Bobning qisqacha xulosasi:

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi jarayonida milliy iqtisodiyotimizda faoliyat ko'rsatayotgan minglab korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarimiz jahon bozorlaridan munosib o'rin olmoqda.

Yangi O'zbekiston shiori ostida xukumatimiz tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan dolzarb vazifalardan biri ham aynan jahon bozoriga eksportbop mahsulotlar ko'lamini oshirishdan iboratdir.

“Jahon bozori kon'yunkturasini tahlili” fani orqali ichki bozor, ochiq va xalqaro bozor, kapital bozori, xomashyo bozori, turizm bozori kabi bozorlar kon'yunkturasini tahlil qilish orqali “Made in Uzbekistan” tamg'asi ostida milliy mahsulotlarimiz ulushini jahon bozorlariga oli chiqishda yanada ularning ko'lamini oshirishda kerakli nazariy va amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat savollari:

1. 2020 yilning 24 yanvaridagi Murojaatnomada yurtboshimiz tomonidan ta'kidlab o'tilgan iqtisodiyotimizda qanday ulkan ishlar va vazifalar amalga oshirildi?

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida jahon bozori borasida qanday fikrlarni berdi?

3. Murojaatnomadan kelib chiqqan holda “Jahon bozori kon'yunkturasini tahlili” fanini o'qitilishi dolzarbligining mohiyatini ayting?

4. “Jahon bozori kon'yunkturasini tahlili” fanining maqsadi nima?

5. “Jahon bozori kon'yunkturasini tahlili” fanining vazifalarini sanab o'ting?

6. “Jahon bozori kon'yunkturasini tahlili” fani oqali qanday mavzular tahlil qilinadi?

7. Jahon bozori kon'yunkturasini tahlilining mohiyatini hamda hozirgi davrdagi o'ziga xos xususiyatlarini ayting?

8. Murojaatnomadan kelib chiqqib, iste'mol bozorida oziq-ovqat mahsulotlari narxi barqarorligini ta'minlashning yagona yo'li – “daladan do'kongacha” bo'lgan uzluksiz zanjirni yaratilishining mohiyatini tushuntiring?

9. Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi va unda tashqi savdoni ko'paytirish bo'yicha qanday chora-tadbirlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan?

10. Taraqqiyot strategiyasidan o'rin olgan “Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash” yo'nalishining mohiyatini ayting?

11. Mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyatining 2021 yilgi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini ayting?

12. "Yangi O'zbekiston"ning jahon bozoridagi hozirgi holati yuzasidan fikringizni ayting?

13. Jahon bozori kon'yunkturasini o'rganishda asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning mohiyatini ayting?

14. Mamlakatimizning eksporti va importi qanchani tashkil qildi va oldingi yilga nisbatan qanchalik foizda o'zgardi?

15. O'zbekistonning tashqi savdodagi eng yaqin hamkor mamlakatlarini ayting?

Uyga vazifa!

Talabalarning "Jahon bozori kon'yunkturasini tahlili" fanining dolzarbligi, maqsadi va vazifalari mavzusini chuqur o'zlashtirishi hamda amaliyot darsiga puxta tayyorgarlik ko'rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

1) Har bir magistr talaba O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini qunt bilan o'qib chiqilishi tavsiya qilinadi;

2) mavzu boshida berilgan "Tayanch iboralari" so'zlarining tushunchasiga ega bo'lish;

3) mavzu so'nggida berilgan "Nazorat savollari"ga tayyorgarlik ko'rish;

4) magistr talabalar jahon iqtisodiyoti va jahon bozorlarida yuz berayotgan eng muhim siyosiy-iqtisodiy o'zgarishlarni mahalliy ijtimoiy tarmoqlar orqali o'qib borishi tavsiya qilinadi.

II BOB. JAHON BOZORI KON'YUNKTURASI TAHLILI VA UNING NAZARIY ASOSLARI

2.1. Kon'yunktura tushunchasi.

2.2. Jahon bozori kon'yunkturasini tahlilining mohiyati va ahamiyati hamda uning hozirgi davrdagi o'ziga xos xususiyatlari.

2.3 Jahon bozori konyunkturasi va unga ta'sir etuvchi omillar

2.4. Kon'yunktura tahlilining bosqichlari.

Tayanch iboralari: kon'yunktura, jahon bozori, bozor segmenti, pandemiya, inqiroz, marketing, trend modeli, firma, jahon bozorini tadqiq qilish, prognoz, kon'yunktura axborotnomasi, kon'yunktura tahlili, kon'yunktura istiqboli.

2.1. Kon'yunktura tushunchasi

Avvalo “Kon'yunktura” so'zining ma'nosi nima?

Mahalliy va xorijiy adabiyotlarda kon'yunkturaga quyidagicha tarif berilgan: kon'yunktura - bu muayyan tovarlarga to'lash (to'lov) imkoniyati va uning taklifi o'rtasidagi nisbatdir.

Kon'yunktura tub mazmuni bilan bozor iqtisodiyotining kategoriyasi bo'lib, u bozor holati va undan xabardor bo'lib turishdan iboratdir. Bozor sharoitida iqtisodiy faoliyat oldindan belgilangan rejalar va ko'rsatmalar yo'li bilan amalga oshmaydi, balki o'zining ichki qonuniyatlari, kategoriya va qonunlarining harakati asosida yuz beradi.

Demak, oddiy so'z bilan aytganda, **kon'yunktura** - bu bozor holati bo'lib, qisqa vaqt ichida yuzaga kelgan vaziyatdir. Bozor kon'yunkturasi (lotinchadan olingan bo'lib, “conjungere” - bog'layman, aloqa ma'nosini beradi) ma'lum vaqt mobaynida omillar, kuchlar va shartlar ta'siri ostida yuzaga kelgan bozor holati yoki aniq iqtisodiy vaziyatdir.

“**Holat**” termini lotin tilida “situacio” – ahvol yoki holat degan ma'noni bildiradi. Bozor holati va bozor kon'yunkturasi bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Bozor o'ziga xos tarkibga ega bo'lgan murakkab tizimdir. SHunga ko'ra, u bir necha turlarga bo'linadi. Kon'yunktura bozorning asosiy elementi

bo'lib, muayyan davrdagi bozor holati, bozordagi muvozanatning mavjudligi yoki buzilganligi bilan ajralib turadi.

Har qanday strategiyalarni ishlab chiqish, rejalashtirish, bozor segmentini tanlash, yangi tovarni ishlab chiqarishga doir qarorlar, savdo shartnomalarini tuzish, bozorni tadqiq etish, narxlarni o'zgartirish va firmaning bozordagi o'rnini va bozor holatini e'tiborga olgan holda amalga oshiriladi.

2.2. Jahon bozori kon'yunkturasini tahlilining mohiyati va ahamiyati hamda uning hozirgi davrdagi o'ziga xos xususiyatlari

Jahon tovar bozorlari kon'yunkturasini umumjahon kon'yunkturasidan farq qilib alohida aniq tovarlar ishlab chiqarish va sotish sohasidagi joriy o'zgarishlarni hamda tebranishlarni o'rganadi.

Bozor o'ziga xos tarkibiga ega bo'lgan murakkab tizimdir. Kon'yunktura bozorning asosiy elementi bo'lib, muayyan davrdagi bozor holati, bozorda muvozanatning mavjudligi yoki buzilganligi bilan xarakterlanadi. Shunga ko'ra u bir necha turlarga bo'linadi.

Jahon tovar bozorlari kon'yunkturasini umumjahon kon'yunkturasidan farq qilib alohida aniq tovarlar ishlab chiqarish va sotish sohasidagi joriy o'zgarishlar hamda tebranishlarni o'rganadi.

Marketing faoliyatida bozorni o'rganishning asosiy elementlaridan biri - bozor kon'yunkturasini o'rganish bilan bog'liq bo'ladi.

Kon'yunktura deganda ma'lum omillarning ta'siri natijasida vujudga keladigan qisqa muddatli shart-sharoitlar tushuniladi. Omillarning o'zgarishi kon'yunkturaning o'zgarishiga olib keladi.

Jahon bozori kon'yunkturasini tahlilining muhim xususiyatlaridan biri sifatida - tashqi bozorlarda jahonning etakchi rivojlangan mamlakatlarning yirik kompaniyalari, korxonalari va firmalarining xukmronligi rol o'ynaydi. Tashqi savdoda esa sotiladigan tovarlar uchun avvalo pul hisobida "oltin", ya'ni tovarlarning qiymat o'lchovi rol o'ynaydi.

Bozor kon'yunkturasini o'rganish zarurati quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- odatda bozorning sig'imi va segmentlanishi o'zgarib boradi, shu sababli ularning monitoringini doimiy ravishda amalga oshirish lozim;
- bozordagi omillar kompleks ravishda ta'sir o'tkazish sababli ularni alohida o'rganish tegishli samara bermaydi;

- bozor to'g'risidagi ma'lumotlar odatda istiqbolli vaziyatga ega, shu sababli, rejalashtirish uchun maxsus usullar talab qilinadi.

Bozor kon'yunkturasini o'rganish mazmuni va tartibi ishlab chiqaruvchi tomonidan ko'zlangan maqsadga bog'liq bo'ladi.

Bozor kon'yunkturasi uch turga bo'linadi:

- kon'yunktura axborotnomasi;
- kon'yunktura tahlili;
- kon'yunktura istiqboli (prognozi).

Kon'yunktura axborotnomasi – bu bozor kon'yunkturasining hozirgi holati va uning asosiy xususiyatlarini aks ettiruvchi hujjatdir. Bu kon'yunkturani o'rganishning eng sodda shakli bo'lib, odatda savdo assortimentining maqbulligini baholash uchun foydalaniladi. SHuningdek Kon'yunktura axborotnomasi – bozor kon'yunkturasi haqidagi batafsil tahlillar ma'lumotnomasidir.

Jahon bozori kon'yunkturasining muhim xususiyatlaridan biri - tashqi bozorlarda jahonning etakchi rivojlangan mamlakatlarning yirik kompaniyalari, korxonalari va firmalarining xukmronligi rol o'ynaydi. Tashqi savdoda esa sotiladigan tovarlar uchun avvalo pul hisobida “oltin”, ya'ni tovarlarning qiymat o'lchovi muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday davlatning tashqi savdo siyosati hukumatning umumiy iqtisodiy yo'nalishining muhim tarkibiy qismi sanaladi, yanada tor ma'noda esa eksport-import tovar oqimlari hajmi, tovar tarkibi va jug'rofiy yo'nalishini tartibga solish bilan bog'liq byudjet-soliq faoliyati sohalaridan biridir.

2.3. Jahon bozori konyunkturasi va unga ta'sir etuvchi omillar

Hozirgi zamonaviy jahon iqtisodiyoti rivojlanishining muhim xususiyatlaridan biri - jahon bozorlarga xomashyo emas balki tayyor mahsulot ishlab chiqarish bugungi kunda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning eksport bozorlarini egallashining asosiy maqsadlaridandir.

Xalqaro savdoning zamonaviy nazariyalarida shunday tahlillar berilgan: agar bir mamlakatni boshqa mamlakat bilan solishtirganda nisbiy kamroq xarajatlar bilan ishlab chiqara oladigan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashsa, u holda ularning birida ishlab chiqarish boshqasiga nisbatan mutloq samaraliroq bo'lishidan qat'iy nazar o'zaro savdo har ikki mamlakat uchun foydali ekanligi aytib o'tilgan.

Jahon bozori - xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish bilan o'zaro bog'langan mamlakatlar o'rtasidagi barqaror tovar-pul munosabatlari tizimi. Xalqaro savdo munosabatlari qadimda ham mavjud bo'lgan, mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy va siyosiy aloqalar milliy davlatlarning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan, ammo ko'pgina mamlakatlar, so'ngra jaxondagi barcha mamlakatlar savdosini qamraydigan jahon bozori faqat yirik mashinalashgan industriyaga o'tish bilan shakllana boshladi va XX asr boshlariga kelib qaror topdi.

Yirik industrlashgan ishlab chiqarishga o'tish milliy bozor chegaralarini kengaytirdi va tashqi savdo u yoki bu mamlakatning ichki taraqqiyotini to'ldiradigan omildan mamlakat xo'jaligi taraqqiyotining zaruriy shartiga aylandi. Ixtisoslashuv bir mamlakatda muayyan tovarni arzon va sifatli ishlab chiqarish imkonini bersa, tovarlarni ishlab chiqarishda resurslardan samarali foydalanishni ta'minlasa, shu tovarlar ko'plab yaratiladi va jahon bozoriga etkazib beriladi.

Biror mamlakatda resurslarni sarflash qulay bo'lmagan yoki ishlab chiqarish imkoni bo'lmagan tovarlar esa jahon bozoridan sotib olinadi. Jahon bozorida alohida narxlar - jahon narxlari amal qiladi, ayirboshlash ulgurji shaklda va xalqaro birjalar vositasida olib boriladi hamda narhni tahlil qilishda, albatta kon'yunktura tahlilidan foydalaniladi.

Xo'sh, "kon'yunktura" so'zining ma'nosi nima? Mahalliy va xorijiy adabiyotlarda kon'yunkturaga quyidagi tarif berilgan: – "bu muayyan tovarlarga to'lash imkoniyati va uning taklifi o'rtasidagi nisbatdir". Kon'yunktura tub mazmuni bilan bozor iqtisodiyoti kategoriyasidir. U bozor holati, undan xabardor bo'lib turishdan iboratdir. Bozor sharoitida iqtisodiy faoliyat oldindan belgilangan rejalar, ko'rsatmalar yo'li bilan amalga oshmaydi, balki o'zining ichki qonuniyatlari, kategoriya va qonunlarining harakati asosida yuz beradi.

Shuningdek, mahalliy iqtisodchi olim A.V.Vaxabov o'zining "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" darsligida "kon'yunktura deganda mo'ayyan davriy va geografik miqyosda qator omillar ta'sirida vujudga keladigan bozorning aniq holati tushuniladi", deb ta'kidlagan⁶.

Demak, oddiy so'z bilan aytganda, kon'yunktura - bu bozor holati bo'lib, qisqa vaqt ichida yuzaga kelgan vaziyatdir. Bozor kon'yunkturasi (lotinchadan olingan bo'lib, conjungere - bog'layman, aloqa) ma'lum vaqt mobaynida omillar, kuchlar va shartlar ta'siri ostida yuzaga kelgan bozor holati yoki aniq iqtisodiy

vaziyatdir. “Holat” termini lotin tilida “situacio” - ahvol, holat degan ma’noni bildiradi. Bozor holati va bozor kon’yunkturasi bir-biri bilan chambarchas bog’liqdir.

Bozor o’ziga xos tarkibiga ega bo’lgan murakkab tizimdir. SHunga ko’ra u bir necha turlarga bo’linadi. Kon’yunktura bozorning asosiy elementi bo’lib, muayyan davrdagi bozor holati, bozorda muvozanatning mavjudligi yoki buzilganligi bilan xarakterlanadi.

Har qanday strategiyalarni ishlab chiqish, rejalashtirish, bozor segmentini tanlash, yangi tovarni ishlab chiqarishga doir qarorlar savdo shartnomalarini tuzish, bozorni tadqiq etish, narxlarni o’zgartirish va boshqalar firmaning bozordagi o’rnini va bozor holatini e’tiborga olgan holda amalga oshiriladi.

Jahon tovar bozorlari kon’yunkturasi umumjahon kon’yunkturasidan farq qilib alohida aniq tovarlar ishlab chiqarish va sotish sohasidagi joriy o’zgarishlar hamda tebranishlarni o’rganadi.

Marketing faoliyatida bozorni o’rganishning asosiy elementlaridan biri - bozor kon’yunkturasini o’rganish bilan bog’liq bo’ladi. Kon’yunktura deganda ma’lum omillarning ta’siri natijasida vujudga keladigan qisqa muddatli shart-sharoitlar tushuniladi. Omillarning o’zgarishi kon’yunkturaning o’zgarishiga olib keladi.

Jahon bozori xalqaro birjalar, savdo uylari, banklar, sug’urta kompaniyalaridan iborat bo’lgan o’z infratuzilmasiga ega. Jahon bozorida to’lovlar va hisob-kitoblar xalqaro pul vazifasini o’tovchi barqaror, erkin almashtiriladigan valyutalarda (asosan AQSh dollari, yevro, funt sterling, yen va boshqalar) olib boriladi.

Jahon bozorida sanoati rivojlangan mamlakatlar ishtiroki ustunlik qiladi va ular tayyor mahsulot bilan (jahon tovar eksportining 70 foizidan ko’prog’i) qatnashadilar, rivojlanayotgan mamlakatlar asosan xomashyo va ishchi kuchi eksporti bilan ishtirok etadilar.

Respublikamizning mahalliy olimlaridan biri profesor A.V.Vaxabov, xalqaro savdo qatnashchilarini, birinchi navbatda, tovar bozorlari kon’yunkturasi qiziqtirishini hamda tovarlar bozorining turli-tumanligi ularni guruhlashtirishni

⁶ Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik /A.V. Vaxabov, D.A. Tadjibaeva, SH.X. Xajibakiev. — Toshkent: Baktria press, 2015. — 326 b.

taqozo etishini ta'kidlaydi⁷ va ushbu bozorlar hududiy qamroviga ko'ra quyidagilarga ajratiladi:

- ichki bozor — bu barcha ishlab chiqarilgan va sotishga moijallangan mahsulotlarni ichki bozorda sotishda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar sohasi;

- milliy bozor — bu muayyan mamlakat bozori bo'lib, uning bir qismi xalqaro

ayriboshlash (mahsulot va xizmatlar eksporti va importi) bilan bog'liq;

- xalqaro bozor — bu xorijiy bozorlar bilan bog'liq va xorijiy xaridor hamda sotuvchiga yo'naltirilgan milliy bozorlar segmentining yaxlitligi;

- jahon bozori — bu jahonning barcha mamlakatlar bozorlarini umumlashtiruvchi sintetik tushuncha.

Bundan tashqari, jahon tovarlar bozori ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xususiyatlariga ko'ra yopiq, ochiq, preferensial bozorlarga bo'linadi.

Shuningdek, A.V.Vaxabov jahon bozorini tizimli yondashuv asosida tahlil qilganda uning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi:

- jahon bozorining shakllanishiga makroiqtisodiy subektlarni samarali xalqaro ayriboshlashni amalga oshirish maqsadida milliy chegaralardan chiqishlari sabab bo'lgan;

- tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati jahon bozori konyunkturasida o'z aksini topadi;

- jahon bozori ishlab chiqarish omillarining samaradorligi yuqori bo'lgan sohalarga yo'naltirish orqali ulardan foydalanishni optimallashtiradi.


- jahon bozori mahsulotlar bo'yicha o'ziga xos filtr vazifasini bajarib, xalqaro sifat andozalari va xalqaro raqobatning qat'iy talablariga mos kelmagan mahsulotlarni xalqaro ayriboshlashdan chiqarib yuboradi⁸.

Ammo xalqaro savdoda har qanday mahsulot ham ishtirok eta olmaydi. YA'ni mahsulotlarni ikki guruhga: savdo qilinadigan va savdo qilinmaydigan mahsulotlarga bo'lish mumkin. Savdo qilinadigan mahsulotlar deganda xorijiy bozorlarda ayriboshlanadigan raqobatdosh mahsulotlar tushuniladi va aksincha,

⁷ Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik /A.V. Vaxabov, D.A. Tadjibaeva, SH.X. Xajibakiev. — Toshkent: Baktria press, 2015. — 325 b.

⁸ Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik /A.V. Vaxabov, D.A. Tadjibaeva, SH.X. Xajibakiev. — Toshkent: Baktria press, 2015. — 325 b.

savdo qilinmaydigan mahsulotlar deganda ishlab chiqarilgan mamlakat bozorida sotilib, xalqaro ayirboshlashda ishtirok etmaydigan mahsulotlar tushuniladi.



2.1- rasm. Jahon bozori konyunkturasiga ta'sir etuvchi omillar.

Manba: Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik /A.V. Vaxabov, D.A. Tadjibaeva, Sh.X. Xajibakiev. — Toshkent: Baktria press, 2015. — 327 b.dan olingan

Jahon bozori konyunkturasini turli darajalarda farqlanadi:

- umumiy iqtisodiy konyunktura (mamlakatlar iqtisodiyoti yoki jahon xo'jaligi);
- jahon bozorining alohida segmentlari va tarmoq konyunkturasini;
- ayrim mahsulot va xizmatlar konyunkturasini (u yoki bu tovar va xizmatlarning milliy yoki jahon bozori).

Vaqt me'zonlari bo'yicha jahon bozori konyunkturasini uchga bo'linadi:

- joriy konyunktura;
- qisqa va o'rta muddatli konyunktura;
- uzoq muddatli konyunktura.

1.1-rasmdan ko'rinib turibdi-ki, jahon bozori konyunkturasiga ta'sir etuvchi omillar ikki guruhga bo'lingan. Birinchi guruhga iqtisodiy, ilmiy-texnik; siyosiy va ijtimoiy omillar ta'sir qilsa; ikkinchi guruhga esa, doimiy va o'zgaruvchan, tsiklik va notsiklik, bozor rivojlanishini rag'batlantiruvchi va cheklovchi, qisqa, o'rta va uzoq muddatli ta'sirga ega bo'lgan.

Bozor konyunkturasining o'zgarishi iqtisodiy rivojlanishning tsiklik xususiyati bilan bevosita bog'likdir. Bunda bozor konyunkturasining uzun tsikllari (to'lqinlar) ajratiladi. Bunday tsikllar Kondratev tsikllari deb nomlanib, rossiyalik iqtisodchi olim N.D.Kondratev ilmiy tadqiqotlari bilan bog'liq.

Jahon bozori konyunkturasini tahlil qilishda bozorlarni iste'mol va investitsion tovarlarga bo'lish muhim ahamiyatga ega. Chunki bu bozorlar narxlarning shakllanish xususiyatlari va iqtisodiy tsikllarga bog'liqlik darajasi bilan bir-biridan ajralib turadi.

Jahon bozorining holati, konyunkturasi va u bilan bog'liq narxlar xalqaro savdo qatnashchilarining doimiy diqqat markazida bo'ladi. Keng ma'noda konyunktura, deganda muayyan davriy va geografik miqyosda qator omillar ta'sirida vujudga keladigan bozorning aniq holati tushuniladi. Konyunkturaga ta'sir qiluvchi omillar, narxlar darajasi, ularning o'tgan davrda, hozirda va kelajakda o'zgarish dinamikasiga asoslangan jahon bozori konyunkturasining rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash uchun murakkab tahliliy va istiqbolli tadqiqotlar amalga oshiriladi.

2.4. Kon'yunktura tahlilining bosqichlari

Avvalo kon'yunktura tahliliga to'xtalib o'tsak maqsadga muvofiqdir. **Kon'yunktura tahlili** – kon'yunkturani mavjud holatda keltirgan omillarning tahlilini o'z ichiga oladigan hujjat hisoblanadi. Amalda tahlil bozor kon'yunkturasining maxsus izlanishlarini aks ettiradi va omillarning ta'sir doirasini aniqlashga xizmat qiladi.

Kon'yunktura prognozi bozordagi holatni ma'lum davr ichida oldindan ko'rish va tahlil qilish hamda uning asosiy parametrlarini aniqlashni o'z ichiga oladi.

Demak, **kon'yunktura prognozining maqsadi** - bunda kon'yunkturaga ta'sir o'tkazuvchi omillarning yaqin istiqboldagi xususiyatlarini aniqlashga e'tibor qaratiladi.

Umuman olganda “prognoz” - bu ehtimol yo'nalishlar, ob'ektlar va hodisalarning rivojlanishi natijalari. Prognozlash - bu ob'ektni rivojlantirish istiqbolini belgilab beradigan maxsus ilmiy tadqiqotlardir. Prognozlash nima bo'lishi mumkinligini ko'rsatib beradi; rejalashtirish - bo'lishi shart degan ma'noni bildiradi.

2.1-jadvalda Xalqaro valyuta fondi (XVF) tomonidan pandemiya sharoitida jahon iqtisodiyotida tashqi savdoning istiqbollari hamda hozirgi Jahon bankining 2021 yilda jahon tashqi savdosidagi iqtisodiy ko'rsatkichlarning tahlillari shuni ko'rsatib turibdiki, jahon bozorlaridagi holat va vaziyat so'nggi 3 yil davomida

oldingi yillarga nisbatan ancha pasayish yuzaga kelgan.

2020 yil yanvardagi holat va 2020 yil oktyabr oylaridagi prognozlariga umumiy nuqtai nazar tasvirlangan. Jadvalda asosiy e'tibor 2019-2021 yillarga berilgan. Bunda ko'rsatkichlar jahon savdo hajmi, eksport va import ko'rsatkichlarida berilgan. E'tiborga molik jihatlardan yana biri rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning o'zaro solishtirilganligidir.

2.1-jadval

**Pandemiya sharoitida jahon iqtisodiyotida
tashqi savdoning istiqbollari**

(foizda)

		Prognozlar		2020 yil yanvar oyidagi WEO prognozi bilan farq		2020 yil oktyabr oyidagi WEO prognozi bilan farq	
	2019	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jahon savdo hajmi (tovarlar va xizmatlar)	0,9	-11,0	8,4	-13,9	4,7	-14,2	4,6
Import							
Rivojlangan bozorlar va mamlakatlar	1,5	-11,5	7,5	-13,8	4,3	-14,2	4,2
Rivojlanayotgan bozorlar va Mamlakatlar	-0,8	-8,2	9,1	-12,5	4,0	-12,5	4,0
Eksport							
Rivojlangan bozorlar va mamlakatlar	1,2	-12,8	7,4	-14,9	4,4	-15,3	4,3
Rivojlanayotgan bozorlar va mamlakatlar	0,8	-9,6	11,0	-13,7	6,8	-13,7	6,6

Manba: World Economic Outlook

2022 yilning boshlarida jahon siyosiy inqirozi natijasida jahon bozoridagi asosiy strategik mahsulotlar va xomashyolar eksportining narhi jiddiy ravishda

ko'tarilib ketdi va bu jarayon jahon tashqi savdosiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi. XVF ekspertlari tomonidan berilgan tahlillarga ko'ra, pandemiya shroitidan endigina qutilgan jahon mamlakatlari 2022 yilning boshlariga kelib ikkinchi to'siqqa duch kelishdi, ya'ni Yevropada yuz bergan siyosiy inqiroz jahon savdosiga o'z ta'sirini ko'rsatdi va bu holatni 2.2-jadval orqali tahlil qilishimiz mumkin, albatta.

2.2-jadval

2022 yilda yuzaga kelgan jahon siyosiy inqirozi sharoitida jahon iqtisodiyotida tashqi savdoning istiqbollari

(foizda)

	Prognozlar			2021 yil yanvar oyidagi WEO prognozi bilan farq		2021 yil dekabr oyidagi WEO prognozi bilan farq	
	2021	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jahon savdo hajmi (tovarlar va xizmatlar)	2,4	-3,0	4,7	1,7	6,8	2,3	5,0
Import							
Rivojlangan bozorlar va mamlakatlar	1,5	-5,5	5,6	3,5	4,9	4,4	3,8
Rivojlanayotgan bozorlar va Mamlakatlar	-0,8	1,5	6,2	5,3	6,2	6,6	8,2
Eksport							
Rivojlangan bozorlar va mamlakatlar	1,2	-4,7	4,0	4,1	7,1	6,0	7,5
Rivojlanayotgan bozorlar va mamlakatlar	0,8	1,5	9,0	7,6	5,4	7,8	4,1

Manba: World Economic Outlook

Shuni e'tiborga olish lozimki kon'yunktura tahlil va prognozida uning o'ziga emas, balki kon'yunkturaga ta'sir qiluvchi omillarni ajratish maqsadga

muvofiq bo'ladi.

Har qanday **bozor kon'yunkturasini belgilab beruvchi omillarni** ikki guruhga bo'lish mumkin:

- makroiqtisodiy omillar;
- mikroiktisodiy omillar, ya'ni mazkur bozordagi talab va taklif, narx va raqobat omillari.

Hech qanday alohida tovar bozori mamlakat iqtisodiyotidan ajralgan holda rivojlana olmaydi. SHu sababli, iqtisodiyot qanday holatda, uning jahon bozorida tutgan o'rni qanday, milliy boyliklar qay darajada qo'llanilmoqda - degan savollarga javob topish lozim bo'ladi.

Kon'yunkturani o'rganishning va uning tahlilini birinchi bosqichi - iqtisodiyotning holatini tahlil qilishdan boshlanadi. YAlpi milliy mahsulot, milliy daromad, eksport hajmi, investitsiyalar va iste'mol darajasi va boshqa bir qator ko'rsatkichlar ichki bozorning rivojlanganlik darajasini aniqlashga yordam beradi.

Bozor kon'yunkturasining hozirgi holati iqtisodiy siyosatning bir-ikki yil oldin bajarilgan harakatlarning mahsuli bo'lganligi sababli, makroiqtisodiy tahlil kamida ikki yillik muddatni qamrab olishi maqsadga muvofiq.

Kon'yunkturani o'rganishning va uning tahlilini ikkinchi bosqichi - bozorni shakllantiruvchi sohaning tahliliga bag'ishlanadi. Bunda quyidagi savollarga javob topish lozim bo'ladi:

- sohaning iqtisodiyotdagi o'rni qanday?
- soha texnologik jihatdan hayotiy qaysi bosqichida?
- sohaning rivojlanish sur'atlari qanday?
- sohada qanday muammolar mavjud?

Bunday izlanish natijasida taklifning umumiy iqtisodiy imkoniyatlari ma'lum bo'ladi. SHunisi e'tiborliki, makroiqtisodiy omillarning tahlili kompleks ravishda olib borilishi va olingan ma'lumotlar keng doiradagi kon'yunktura tahlilarda qo'llanilishi mumkin.

Shu sababli jahondagi ko'plab mamlakatlardagi, shu jumladan, O'zbekistonda bunday axborotlarni davlatning maxsus organlari va halqaro tashkilotlarni vakolatxonalari tomonidan tahlil qilinib boriladi.

Masalan, BMTning inson taraqqiyoti hisobotlari TESIS dasturining iqtisodiy rivojlanish axborotnomalari, O'zbekiston Respublikasi statistika

qo'mitasi tahlililiy axborotlari va hk.larni keltirish mumkin.

Yuqorida sanab o'tilganidek, mikroiqtisodiy omillarga ushbu bozordagi talab, taklif, narx va raqobat kiradi.

Jahon bozori kon'yunkturasi tahlilida talabning barcha jihatlarini o'rganishga alohida e'tibor beriladi. Jumladan: talabning geografik taqsimlanishi, assortimentning kengligi va chuqurligi bo'yicha taqsimlanishi, iste'mol intensivligi, hajmi va boshqa xususiyatlarni o'rganish zarur bo'ladi. Talabni o'rganishda avvalo qondirilgan talab, so'ng va alohida turlari bo'yicha tahlil qilish orqali qondirilgan talab o'rganiladi, qondirilmagan talab esa sotuvchilar va xaridorlarning fikrini o'rganish usullari yordamida aniqlanadi.

Kon'yunkturaga ta'sir qiluvchi eng muhim omilning yana biri - bu tovar taklifidir. Taklifni o'rganishda avvalo tovar manbalariga, sotishga taklif etiladigan tovar hajmi va tarkibiga, tovar zaxiralariga e'tibor beriladi. Tovar manbalarini tahlil qilish savdo tizimiga mahsulot etkazib beruvchi korxonalar ro'yxatini tuzish va ularning imkoniyatlarini o'rganishdan iborat bo'ladi.

Ishlab chiqaruvchilar tovarlarining assortimenti va etkazib berish muddatlari taklifning tarkibini aniqlashga yordam beradi. SHundan so'ng bozor ishtirokchilaridagi tovar zahiralarini tahlil qilinadi. Zahiraning hajmi va tarkibi, qachon vujudga kelganligi, zahiraning almashib borish dinamikasi va boshqa ko'rsatkichlar taklifning talabga nisbatini aniqlashga xizmat qiladi. savdo tashkilotlarida yuritiladigan hisob tizimining ma'lumotlari, inventarizatsiya natijalariva maxsus izlanishlar tovar zahiralarini kompleks o'rganish asos bo'ladi.⁹

Bobning qisqacha xulosasi:

Jahon bozori kon'yunkturasini tahlilining mohiyati va ahamiyati hamda uning hozirgi davrdagi o'ziga xos xususiyatlari tahlilidan ko'rinib turibdi-ki, kon'yunktura – bu oddiy so'z bilan aytganda, - bozor holati bo'lib, qisqa vaqt ichida yuzaga kelgan vaziyat holati tushuniladi, ya'ni bozor kon'yunkturasi ma'lum vaqt mobaynida omillar, kuchlar va shartlar ta'siri ostida yuzaga kelgan bozor holati yoki aniq iqtisodiy vaziyatga tushuniladi.

Albatta, bozor o'ziga xos tarkibiga ega bo'lgan murakkab tizim hisoblanadi. SHunga ko'ra u bir necha turlarga bo'linadi. Kon'yunktura bozorning

asosiy elementi bo'lib, muayyan davrdagi bozor holati, bozorda muvozanatning mavjudligi yoki buzilganligi bilan xarakterlanadi.

Demak, jahon tovar bozorlari kon'yunkturasi umumjahon kon'yunkturasidan farq qilib alohida aniq tovarlar ishlab chiqarish va sotish sohasidagi joriy o'zgarishlar hamda tebranishlarni o'rganadi.

Nazorat savollari:

1. Kon'yunktura qanday tushunchaga ega?
2. Jahon bozori kon'yunkturasini tahlilining mohiyatini ayting?
3. Jahon bozori kon'yunkturasining ahamiyati hamda uning hozirgi davrdagi o'ziga xos xususiyatlarini ayting?
4. Bozor kon'yunkturasining nechta turi mavjud va ularning mohiyatini ayting?
5. Kon'yunktura tahlilining bosqichlarini ayting?
6. "Bozor kon'yunktura"si so'zi qaysi so'zlashuvdan olingan?
7. Kon'yunkturaga tarif bering?
8. Bozor kon'yunkturasiga tarif bering?
9. "Holat" tushunchasi nima?
10. Kon'yunktura istiqboli (prognozi)ning mohiyatini ayting?
11. Kon'yunktura axborotnomasiga tarif bering va uning mohiyatini ayting?
12. Kon'yunktura prognozi qanday tushunchaga ega?
13. Bozor kon'yunkturasini belgilab beruvchi omillarni ayting?

Uyga vazifa!

Talabalarning "Jahon bozori kon'yunkturasi tahlili va uning nazariy asoslari" mavzusini chuqur o'zlashtirishi hamda amaliyot darsiga puxta tayyorgarlik ko'rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu boshida berilgan "Tayanch iboralari" so'zlarining tushunchasiga ega bo'lish;
- 2) mavzu so'ngida berilgan "Nazorat savollari"ga tayyorgarlik ko'rish;

⁹ Aliev.M.G, Ishonxodjaeva.D.A., Xachiev.G.A. Ekonomika i finansi regionov mira v

3) talabalar jahon bozoridagi muhim bo'lgan strategik xomashyolarning (tanlama ravishda: neft, paxta, oltin, gaz, uran, alyuminiy, po'lat va boshqalar) so'nggi 5 yildagi narx dinamikasini va hozirgi jahondagi iqtisodiy-siyosiy holatdan kelib chiqib istiqboldagi 2 yillik prognozini ishlab chiqish hamda ushbu tahlillar bo'yicha talabalar tomonidan guruhlariga bo'lingan holda "Taqdimot" o'tkaziladi.

III BOB. JAHON BOZORI VA JAHON BOZORI KON'YUNKTURASINI O'RGANISH USLUBIYOTI

3.1. Tovar bozori tushunchasi va tovar bozori turlari.

3.2. Jahon bozori va ichki bozor tushunchalari hamda ularning bevosita uzviy bog'liqligi.

3.3. Kon'yunkturani shakllantiruvchi omillar.

3.4. Jahon xomashyo tovarlari bozorida narhning shakllanish qonuniyatlarini o'rganish.

3.5. Jahon bozorida asosiy strategik mahsulotlar narhining aniqlanishi va ularning narhiga ta'sir etuvchi omillar.

3.6. Jahon tovar bozorlari kon'yunkturalarini o'rganish uslubiyoti.

3.7. Jahon bozorlarida strategik xomashyo va mahsulotlarning hozirgi holati tahlili

Tayanch iboralari: tovar, tovar bozori, jahon bozori, ichki bozor, ochiq bozor, iste'mol tovarlari bozori, qimmatli qog'ozlar bozori, mehnat bozori.

3.1. Tovar bozori tushunchasi va tovar bozori turlari

Avvalo "bozor" (market) so'zining ma'nosiga to'xtalib o'tsak:

Bozor - keng ma'noda muomala sohasi bo'lib, tovar ayirboshlash munosabatlari va jarayonlari majmuidir.

Bunda tovar bilan oldi-sotdi munosabatlari tovar ishlab chiqarish, tovar ayirboshlash va pul muomalasi qonunlari asosida amalga oshadi.

Ko'pincha, marketingda bozor deganda ma'lum tarmoq tovarlariga ehtiyoj sezuvchi va uni qondirish imkoniyatiga ega bo'lgan potentsial iste'molchilarning majmui tushuniladi.

Bozor o'ziga xos tarkibiga ega bo'lgan murakkab tizimdir. SHunga ko'ra u bir necha turlarga bo'linadi.

Bozor ma'lum bir qiymatga ega bo'lgan, u turli xil ob'ektlar bo'yicha tashkil etilishi mumkin, masalan:

- iste'mol tovarlari bozori;
- qimmatli qog'ozlar bozori;
- mehnat bozori;

- kapital bozor va boshqalar shular jumlasidandir.

Iste'molchilarning turiga qarab iste'mol bozori, korxonalar (tashkilot) bozoriga hamda davlat tashkilotlari bozoriga bo'linadi.

Iste'mol bozori – bu tovarlarni va xizmatlarni o'zining shaxsiy ehtiyoji uchun sotib oladigan yakka shaxslar va oilalar majmuidan iborat bo'lib, ommaviy iste'molchilarga egaligi, raqobatning hilma-hilligi va markazlashmagan tarkibiga ega ekanligi bilan xarakterlanadi.

Korxonalar (tashkilotlar) bozori, o'z navbatida, ishlab chiqarish – texnik maqsadlarda boshqa tovarlar ishlab chiqarishda qo'llaniladigan tovarlar va xizmatlarni sotib oluvchi korxonalar va shaxobchalarning majmui tushuniladi.

Davlat tashkilotlari bozori deganda esa o'z faoliyatlarini yuritish uchun tovarlar va xizmatlarni sotib oluvchi yoki ijaraga oluvchi hamma bo'g'indagi davlat tashkilotlari tushuniladi.

Ishlab chiqarish – texnik maqsadlarda foydalaniladigan mahsulotlar bozori kam sonli xaridorlarga egaligi, lekin tovarlarning katta miqdorda sotilishi bilan xarakterlanadi.

Bozorda kim etakchilik qilishiga qarab bozorlar “sotuvchi bozori” va “xaridor bozori”ga bo'linadi.

“Sotuvchi bozori” – unda tovarga bo'lgan talab taklifdan oshib ketadi. Bunday bozorda sotuvchi hukmronlik qiladi, xaridorning esa faol ishtirokchi bo'lishiga to'g'ri keladi. Bunday holatda “pul tovar orqasidan yuguradi”.

“Xaridor bozori” – bunday bozorda taklif talabdan ko'p, shuning uchun xaridor (iste'molchilar) taklif etilayotgan tovarlar va xizmatlar orasidan hohlaganini tanlash imkoniyatiga ega. Bunday bozorda xaridorlar ustunlikka ega bo'lib, ishlab chiqaruvchi va sotuvchilar bozorning eng faol ishtirokchilariga aylanadilar. Bunday holatda “tovar pul orasida yuguriladi”.

Talab va taklifning miqdori va tarkibi jihatidan bir-biriga muvofiq kelishi **“muvozanatli bozor”** deb yuritiladi.

Muvozanatli bozorni ta'minlashning asosiy yo'llari quyidagilar hisoblanadi:

- ishlab chiqarishni talab ta'minlashning asosiy bozorni to'yintirish;
- etarli darajada mahsulot zahirasini barpo etish;
- xaridorgir mahsulotlar narxini oshirish va aksincha, talab uncha mavjud bo'lmagan mahsulotlar narxini pasaytirish va boshqalar.

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti dunyoning ko'pchilik mamlakatlari uchun xos bo'lib, u turli mamlakatlarda har xil darajada va o'ziga xos xususiyatlar bilan amal qilmoqda va rivojlanmoqda. Bu iqtisodiyotning amal qilish mexanizmi ko'plab asrlar davomida tarkib topib, shakllanib, hozirgi davrda madaniylashgan shaklni kasb etdi va ko'pgina mamlakatlarda hukmron iqtisodiy tizimga aylandi.

Narxlar nisbati o'zgarib turadi, shuning uchun narx ishlab chiqaruvchi uchun ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi zarurligini aniqlashda yoki ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Talab va taklif hamda raqobatchilik muhitidagi o'zgarishlar o'z navbatida, narxlardagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Talab tushunchasi va talab qonuni. Bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan qoida va qonunlar borki, bu mexanizmlarsiz bozor munosabatlari harakat qila olmaydi. Ana shunday qonunlardan biri talab va taklif qonunidir.

Kishilarda mavjud bo'lgan va u doimo o'sib borayotgan extiyojlar bozor iqtisodiyotida talab tushunchasini tashkil etadi. Talab extiyojdan farq qilib, mustaqil iqtisodiy kategoriya (toifa, ilmiy tushuncha) sifatida kishilarni narsalarga bo'lgan talabini bozorda nomoyon qiladi.

Ma'lumki, bozorda ikki tomonlama sub'ektlar uchrashadilar, ya'ni tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar va tovarlarni, xizmatlarni iste'mol qiluvchilar o'rtasida ayirboshlash sodir bo'ladi.

Iste'mol qiluvchilarning bozorlarda extiyojlarini aniq ifodasi talab ko'rinishida ro'yobga chiqadi. Extiyojning faqat pul bilan ta'minlangan qismi talabga aylanadi. Demak, talab iqtisodiy kategoriya ko'rinishida pul bilan ta'minlangan extiyojdir. Talabni asosida extiyoj yotadi. Extiyoj bo'lib, to'lovga qodir bo'lmasa, talab real ko'rinishiga ega bo'lmaydi.

Talab-shunchaki extiyoj emas, to'lovga qobil, pul bilan ta'minlanadigan extiyojdir. Narxlarining mavjud darajasida tovarlar va xizmatlarni sotib olish qurbiga ega bo'lgan extiyoj talab deyiladi.

Masalan, avtomashinaga bo'lgan extiyoj, uni sotib olish imkoniyati bulsa, extiyoj qondirilgan bo'ladi va aksincha.

Talab, yakka, guruxiy va jamiyat miqyosida bo'lishi mumkin. SHundan kelib chiqib, aynan bir tovarni miqdori va xajmi aniqlanadi. Bir kishi, xaridorlar guruxi, butun jamiyat, xarid qilib olishni istayotgan tayin tovar xajmi - talab qilingan tovar miqdori deyiladi.

Tovarlar va xizmatlarni sotib olishga bo'lgan xoxish bilan, ularni real sotib olish o'rtasida doimo farq bo'ladi. Talab qilinadigan tovarlar miqdorini quyidagi omillar belgilaydi:

- tovarlar va xizmatlar narxi;
- xaridorlarni daromadi;
- xaridorlarni didi;
- o'rinbosar tovarlarni va xizmatlarni narxi;
- xaridor iste'molchilarning umumiy soni;
- inflyatsiya extimoli va boshqalar.

Talabni narxga bog'liqligini quyidagi misolda ko'rishimiz va tahlil qilishimiz mumkin:

Olmani bir kilogrami – 10 000 so'm bo'lsa, talab miqdori - 10 kg bo'ladi, olma - 5000 so'm bo'lsa, talab esa 20 kg bo'ladi.

Narx darajasi va sotib olinadigan tovar miqdori o'rtasida bo'ladigan teskari bog'liqlik talab qonuni deyiladi.

Yuqori narx iste'molchini xarid qurbini pasaytiradi, past narx esa xaridni ko'paytiradi.

SHunday tovarlar borki, uni iste'mol qilinishi narx bilan cheklab bo'lmaydi. Masalan, non iste'mol qilinmasdan yoki kiyim-kechak kiyimasdan yashab bo'lmaydi. Bunday holatda, boshqa tovarlarni iste'mol qilish cheklanadi yoki qisqaradi, shuningdek batamom to'xtaydi (masalan, har xil konfetlar, avtomashina va boshqalar).

Tovar va xizmatni iste'mol qilishdan keladigan qoniqishga naf deb aytiladi. Bozorda mavjud bo'lgan tovarlar rang-barang bo'ladi va ularni turlari qancha ko'p bo'lsa, xaridor o'zining didiga mos bo'lgan tovarlarni xarid qiladi va unga talab oshib boradi va aksincha bo'lishi mumkin.

Iste'molchilarni daromadi oshib borishi, tovarlarni xarid qilishga talab ortib boradi. Xaridorlar sifati yuqori bo'lgan tovarlarni ko'proq iste'mol qiladilar. Daromad ma'lum darajadan oshsa, iste'molchilar kamroq non yoki kartoshka xarid qilishlari mumkin, chunki oshgan daromad ularga yuqori oqsilli oziq-ovqat mahsulotlar, masalan: tuxum, go'sht, asal sotib olish imkoniyatini beradi.

Rivojlangan mamlakatlarda daromadlarini ortib borishiga qarab, xizmatlarga bo'lgan extiyojlari ko'payib boradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarga extiyoj yuqori bo'ladi. Talabni o'zgarishiga daromad samarasi ham ta'sir qiladi. Tovarni narxi pasaysa, xarid

qiluvchining real daromad yoki xarid qobiliyati ortadi. Real daromadni ortishi sotib olingan tovarlar miqdorining o'sishida ko'rinadi. Masalan, bir kishining ma'lum davridagi daromadi 300 ming bo'lsa, u narxning mavjud holatida 2 ta oyoq kiyim sotib olgan bo'lishi yoki narx pasaysa shu pulning 200 ming so'miga 2 ta oyoq kiyim xarid qilishi mumkin. Yana unga 100 ming so'm qoladi.

Demak, yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, har qanday bozor milliy iqtisodiyotni tartibga solishda asosan to'rtta tarkibiy qismdan iborat bo'lib - narx, talab, taklif, raqobatdir.

3.2. Jahon bozori va ichki bozor tushunchalari va ularning bevosita uzviy bog'liqligi

Jahon bozori - xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish bilan o'zaro bog'langan mamlakatlar o'rtasidagi barqaror tovar-pul munosabatlari tizimidir. Xalqaro savdo munosabatlari qadimda ham mavjud bo'lgan. U XX asrning boshlariga kelganda yuzaga keldi.

Jahon bozori mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy va siyosiy aloqalar milliy davlatlarning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan, ammo ko'pgina mamlakatlar, so'ngra jahondagi barcha mamlakatlar savdosini qamraydigan Jahon bozori (uning negizida jahon xo'jaligi) faqat yirik sanoat industriyasiga o'tish bilan shakllana boshladi.

Yirik sanoat industriyasining ishlab chiqarish tizimiga o'tish jarayoni bilan milliy bozor chegaralarini kengaytirdi, tashqi savdo u yoki bu mamlakatning ichki taraqqiyotini to'ldiradigan omildan mamlakat xo'jaligi taraqqiyotining zaruriy shartiga aylandi. Ixtisoslashuv bir mamlakatda muayyan tovarni arzon va sifatli ishlab chiqarish imkonini bersa hamda tovarlarni ishlab chiqarishda resurslardan samarali foydalanishni ta'minlasa, shu tovarlar ko'plab yaratiladi va Jahon bozoriga etkazib beriladi, yakunda eksport qilinadi.

Biror mamlakatda resurslarni sarflash qulay bo'lmagan yoki ishlab chiqarish imkoni bo'lmagan tovarlar Jahon bozoridan sotib olinadi, ya'ni import qilinadi. Jahon bozorida alohida narxlar, ya'ni jahon narxlari amal qiladi va ayirboshlash ulgurji shaklda hamda xalqaro birjalar vositasida olib boriladi.

Demak, **jahon bozori** - bu mamlakatlar o'rtasidagi oldi-sotdi, ya'ni tovar-pul munosabatlardan iborat bo'lib, bunda tovar-pul munosabatlari xalqaro kelishilgan narxlarda va xalqaro valyuta hisobida amalga oshiriladi. SHu bilan

birga, jahon bozori - moddiylashtirilgan va moddiylashtirilmagan ko'rinishdagi ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol bosqichlarni o'z ichiga oluvchi xalqaro iqtisodiy munosabatlar sub'ektlarining (milliy va hududiy iqtisodiyotlar, xalqaro tashkilotlar) o'zaro iqtisodiy ta'sirlashish jarayonidagi global muhitdir.

Jahon bozori tovar, mehnat, kapital va valyuta bozorlari majmuidan tashkil topadi (masalan: kapital bozori, mehnat bozori, ishchi kuchi bozori va x.k.). Jahon bozorida barcha mamlakatlar tashqi savdosining majmuini ifoda etadigan xalqaro savdo amalga oshiriladi. Bu tarkiban jahon miqyosidagi eksport va importdan iborat, ularning qiymat bo'yicha nisbati savdo balansi deb yuritiladi.

Jahon bozori xalqaro birjalar, savdo uylari, banklar, sug'urta kompaniyalaridan iborat bo'lgan o'z infratuzilmasiga ega. Jahon bozori to'lovlar va hisob-kitoblar xalqaro pul vazifasini o'tovchi barqaror, erkin almashtiriladigan valyutalar, xususan: dollar (AQSh), yevro, funt sterling (Buyukbritaniya), yen (Yaponiya), shveytsariya franki, yuan (Xitoy), rubl (Rossiya) Yaponiya ienasi va yevroda olib boriladi.

Jahon bozori ixtisoslashgan xalqaro birjalardan iborat yirik segmentlariga egadir, masalan: NASDAQ (National Association of Securities Dealers Automated Quotation – Qimmatbaho qog'ozlarni avtomatlashtirilgan kotirovkalari bo'yicha dilerlar xizmatining Milliy uyushmasi), Nyu-York fond birjasi va boshqa o'nlab jahon moliya bozorlari, Chikago don birjasi, Liverpool paxta birjasi, London rangli metallar birjasi va boshqa yuzlab yirik bozorlardan ibratdir.

Jahon bozorida savdo-sotiq xalqaro birja bitimlari, ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama birjadan tashqari bitimlar yo'nalishlarida olib boriladi.

Jahon savdo tashkiloti esa jahon bozoridagi savdo-sotiq jarayonlarini tartibga soladi va ushbu maxsus tashkilot jahon savdosini boshqarib boradi. SHuningdek, davlatlararo savdo tartibi va qoidalarini belgilab beradi va unga a'zo bo'lganlar o'zlari uchun qulay savdo qilish huquqini oladilar.

Jahon bozorining ulkan salohiyati milliy bozorlarga juda katta ta'sir o'tkazadi, bu ta'sir mamlakatlarning manfaatlari nuqtai nazaridan ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Jahon bozori sig'imi jami mamlakatlar bozor talabining import hisobiga qondiriladigan qismlari yig'indisiga tengdir.

Tahlillarga ko'ra, jahon bozorida sanoati rivojlangan mamlakatlar ishtiroki ustunlik qiladi va ular tayyor mahsulot bilan (jahon tovar eksportining salkam 70

foizidan ko'prog'i) qatnashadilar, rivojlanayotgan mamlakatlar asosan xomashyo va ishchi kuchi eksporti bilan ishtirok etadilar.

Barchaga ma'lumki, jahon bozorida tovarlar taklifi talabga bog'liq bo'ladi, shuning uchun ham zamonaviy xalqaro savdo nazariyasi tovarlar talab va taklifiga birdek e'tibor beradi. Jahon bozorida tovarlar taklifining ortishi nisbiy narxlarning pasayishiga olib keladi. Chunki har bir mamlakat nisbiy narxi ortib borayotgan import tovarlarini ilgari miqdorda sotib olish uchun nisbiy narxlari tushib borayotgan o'zlarining eksport tovarlarini yanada ko'proq miqdorda sotishga majbur bo'lishadi hamda eksportni kengaytirishga qaratilgan o'sish harakati mamlakat savdo shartini savdo hamkorlari foydasiga yaxshilanishiga olib keladi.

Shuningdek, jahon bozori deganda mamlakatlar o'rtasida ularning ijtimoiy mahsulotlarining bir qismini sotish bo'yicha o'zaro munosabatlari tizimi tushuniladi. Bu iqtisodiy munosabatlar yoki ayirboshlash quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- xalqaro savdo;
- ishlab chiqarish kooperatsiyasi;
- kapital migratsiyasi;
- ishchi kuchi migratsiyasi;
- o'zaro to'lovlar va hisob valyuta operatsiyalari.



3.1-rasm. Jahon bozori tuzilmasi.

Demak, jahon bozori tuzilmasi o'z tarkibiga yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, tovar, xomashyo va xizmatlar bozori; kapital bozori; moliya va valyuta bozori; axborot resurslari bozori; fan-texnika va texnologiyalar bozori; mehnat bozori va ishchi kuchi migratsiyasi va boshqalarni tashkil qiladi.

3.1-rasmdan ko'rinib turibdiki, jahon bozori tuzilmasi o'z tarkibiga quyidagi bozorlarni, jumladan:

- fan-texnika va texnologiyalar bozori;
- axborot resurslari bozori;
- kapital bozori;
- moliya va valyuta bozori;
- tovar (xomashyo) va xizmatlar bozori;
- mehnat bozori va ishchi kuchi migratsiyasi;
- va boshqa bozorlarni tashkil qiladi.

Xo'sh, jahon bozori bilan tashqi bozor o'rtasida qanday farq bor?

Tashqi bozor - bu mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning zamonaviy texnologiyada ishlab chiqarilishi, jahon standartlariga mos keladigan mahsulotlarni ishlab chiqarilishi, jahon xo'jaligida va bozorida raqobat qila oladigan mahsulotlarni mamlakatdan tashqariga savdo uchun olib chiqilishi tushuniladi. Qisqacha aytganda, tashqi bozor muayyan mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning boshqa mamlakatlarga sotilish jarayoni tushuniladi. Bunda bir mamlakatdan tashqi bozorga olib chiqilgan mahsulotlar eksport hisoblanadi.

Jahon xo'jaligi tarixidan ma'lumki, eksport - import operatsiyalarida jahonning barcha davlatlari ishtirok etadi. Quyidagi alohida bir jihatga e'tibor qaratamiz: Xitoy mamlakati 2000 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tarkibidagi barcha mamlakatlar bilan ham eksport va ham import shartnomalarini tuzgan hamda mazkur shartnomalar bilan jahoning barcha mamlakatlari bilan tashqi savdoni amalga oshirgan eng birinchi mamlakat sifatida jahon iqtisodiyoti tarixidan joy oldi.

O'z navbatida, "jahon bozori" va "tashqi bozor"larni "ichki bozor"dan to'liq farqlash maqsadida ichki bozor tushunchasiga ham to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Ichki bozor tushunchasi bu - mamlakat ichidagi barcha ishlab-chiqarish vositalari mamlakat ehtiyoji uchun ishlab-chiqarilishi, mamlakat ichidagi xo'jaligini tiklanishida va uni taraqqiy etishida, hamda mamlakat iqtisodiyotining yuqori darajada rivojlanishi, mamlakat aholining turmush darajasini yuqori

ko'rsatkichga olib chiqilishi, mamlakat ichidagi tovar mahsulotlarining ayirboshlanishini qamrab oladi.

Ichki bozorga mamlakat ehtiyoji uchun kerakli bo'lgan mahsulotlar mamlakat tashqarisidan olib kelinsa, mamlakat ichiga olib kelingan mahsulotlar ichki bozorda import deb yuritiladi, ya'ni mamlakat ichki bozoriga xorijdan tovarlar sotib olib keltirishdan iborat bo'ladi.

Ichki bozor rivojlangan sari ishlab-chiqarish vositalarga, texnologiya va asbob-uskunalarga talab orta boradi, natijada iste'mol buyumlariga talab ham kuchayadi. Umuman ichki bozorning maqsadi - mamlakat aholisining turmush darajasini va yashash farvonligini oshirishdan iborat. Ichki bozorning rivojlanishi natijasida sanoatning barcha sohalarini zamonaviy tarzda rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda tashqi bozorda jahonning etakchi mamlakatlarning quyidagi asosiy milliy valyutalari muomalada bo'lmoqda: umumiy xalqaro savdoning 85 foizi AQSh dollarida (\$) va undan tashqari, Yevropa Ittifoqining "yevro" pul birligi, Yaponiyaning "yen"i, Buyuk Britaniyaning "funt sterling"i, Xitoyning "yuan"i va boshqa ba'zi mamlakatlarning milliy valyutalari xalqaro hisob-kitoblarda muhim valyuta rolini bajarmoqdalar. Xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan tahliliy hisob-kitoblari asosan AQSh dollarida beriladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan etakchi milliy valyutalarning jahon bozorida muomalada bo'lishi ushbu milliy valyuta egalarining jahon iqtisodiyotidagi nufuziga va jahon bozoridagi faoliyatiga ham o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

3.3. Kon'yunkturani shakllantiruvchi omillar

Kon'yunkturaga ta'sir etishiga qarab davriy bo'lmagan kon'yunkturani shakllantiruvchi omillar ikki turga bo'linadi:

- doimiy, ya'ni: ilmiy-texnik taraqqiyot, tashqi sharoitlarni o'zgarishi, monopoliyalarning ta'siri, davlat boshqaruvi va inflyatsiya kabilar;
- doimiy bo'lmagan, ya'ni: mavsumiylik, ijtimoiy nizolar, siyosiy inqirozlar, tabiiy ofaatlar kabi turlarga ajratiladi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot ishlab chiqaruvchi kuchlarning keskin rivojlanishiga sabab bo'lib, u birinchi navbatda iqtisodiyotning an'anaviy tarmoqlarida asosiy kapitalni (vositalarni) yangilanishini tezlashtirdi.

Monopoliyalarning ta'siri. Hozirgi davr sharoitidan kelib chiqib ishlab chiqarish va kapital kontsentratsiyasining kuchayishi monopoliyalarning qudrati va ta'sirini keskin o'sishiga olib keldi.

Davlat boshqaruvi (ta'siri). Davlat tovar bozorlarida sotib oluvchi va sotuvchi sifatida faoliyat ko'rsatuvchi qudratli kuchni namoyon qila oladi va u o'z qo'lidagi ma'muriy kuchlar orqali iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatadi.

Inflyatsiyaning ta'siri. Inflyatsiya bu - tovar aylanmasi ehtiyojidan ortiqcha bo'lgan qog'oz pullarni muomalaga kiritish oqibatida yuzaga keladigan pulning qadrsizlanish jarayonidir. Inflyatsiya asosan tovar narxlarini o'sishida yaqqol ko'rinadi. Inflyatsiyaning kon'yunkturaga ta'siri qarama-qarshi holatlarni keltirib chiqaradi.

Kon'yunkturani rivojlanishiga qisman ta'sir etuvchi doimiy va davriy bo'lmagan omillar ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Mavsumiylik ba'zi bir tovarlarni yil davomida bozorga doimiy tarzda etkazilmasligi va sotish hajmlaridagi tebranishlarda aks etadi.

3.4. Jahon xomashyo tovarlari bozorida narhning shakllanish qonuniyatlarini o'rganish

Tashqi savdodagi narhning shakllanishi mamlakat ichidagi narhning shakllanishidan sezilarli ravishda farq qiladi. Eksport va import tovarlarining narhi qoida bo'yicha hamkorlik yuzasidan o'tkazilayotgan muloqot jarayonlarida o'rnatiladi.

Bu narhlar, albatta jahon bozorlaridagi narhga asoslangan bo'ladi. Jahon bozoridagi narhning shakllanish sohasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lish bilan bir qatorda, xuddi mamlakat ichidagi narhning shakllanishi kabi qiymat qonuni asosida boshqariladi.

Xo'sh, jahon tovarlari bozorida narxlar qaysti omillarga ko'ra qanday shakllanadi?

Birinchidan: tashqi savdoda narxning shakllanishi mamlakatdagi narxning shakllanishidan sezilarli darajada farq qiladi. Eksport va import tovarlarining narxi xalqaro qoidalar bo'yicha hamkorlik yuzasidan o'tkazilayotgan muloqot jarayonlari davomida o'rnatiladi;

Ikkinchidan, tovarlarga belgilanadigan narxlar, albatta jahon bozorlaridagi narxlarga asoslangan bo'ladi;

Uchinchidan esa, jahon bozoridagi narxlarning shakllanishi jahon birjalardagi kotirovkalar orqali belgilanadi va aniqlanadi.

Umuman olganda, narhning shakllanishiga boshqa turdagi, ya'ni qiymat asosidan chetlashgan **omillar ham ta'sir etadi, ya'ni:**

- talab va taklifni tebranishlari;
- bozorlarni monopollashtirish;
- davlat tomonidan narhni tartibga solish;
- inflyatsiya va boshqalar kiradi.

Endi, bevosita jahon tovarlari bozorida narxlarning "tebranishi" esa quyidagi omillarga bog'liqdir:

- monopoliyalarning narxga ta'siri (transmilliy kompaniyalar);
- iqtisodiy inqirozlar (COVID-19, moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar va boshqalar);
- fors-major holatlari (qurg'oqchilik, tabiiy ofat va boshqalar);
- siyosiy inqirozlar (hududiy mojarolar, urushlar va boshqalar);
- siyosiy "o'yinlar" (neft bozori, trans chegaraviy daryolar, xalqaro tranzit yo'llari va x.k.).

Xo'sh, narx o'zi nima – degan savol tug'iladi. **Narh bu** - tovar qiymatining pul ko'rinishidagi ifodasidir.

Qiymat o'z navbatida har bir mahsulotni ishlab chiqarish uchun ketgan zaruriy mehnat xarajatlari miqdori yordamida aniqlanadi. Tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ish vaqtining o'zgarishi ishlab chiqarish jarayonini o'zgarishi bilan bog'liqdir.

Monopoliyalarning narx-navoga ta'siri. Hozirgi sharoitda transmilliy kompaniyalarning jahon bozoridagi narxlarga ta'siri qiymat qonuni va talab mexanizmini puchga chiqara olmasa-da, biroq narx harakatini va uning sezilarli darajada o'zgarishiga olib keladi.

Odatda jahon xo'jaligidagi bir qator rivojlanayotgan milliy iqtisodiyotlarda asosiy daromad keltiruvchi bo'lgan mahsulotlarni ba'zi etakchi kompaniyalar tomonidan nazorat olib borishi natijasida mazkur mamlakatlarda monopoliya jarayonini egallab olishadi. Buning natijasida iqtisodiyotda raqobat bo'lmay mahsulotning sifat darajasi va uning zamonaviy rivojlanish darajasi o'zgarmaydi hamda davr o'tgan sari ham o'zgarish jarayoni amalga oshirilmaydi.

Jahon bozoridagi narh shakllanishini o'rganish jarayonining qiyinligi, narhlarning doimiy ravishda tebranishlari ular haqidagi xaqiqiy va to'g'ri ma'lumotlarni olish imkonini bermasligidan iboratdir.

Demak, tovar ichki yoki tashqi bozorlarda sotilishiga ko'ra, ichki va eksport narxlarga ajratiladi. Odatda eksport narxlari ichki bozor narxlaridan pastroq bo'ladi. Chunki bu holat jahon bozoridagi keskin raqobat sharoiti bilan bog'liqdir.

Jahondagi buyuk iqtisodchilardan biri, hind olimi Manxoman Singh quyidagi tahlilni 2006 yilda BMT qoshidagi Jahon oziq-ovqat tashkilotiga taqdim qilgan edi: agarda Hindiston 5 mln.tonna sholini jahon bozoriga eksport qiladigan bo'lsa jahon bozorida sholining narxi 20 foizga tushib ketadi. Bordi-yu, agar 5 mln.tonna sholini Hindiston jahon bozoriidan import qilgudek bo'lsa, u holda sholining narxi jahon bozorida 70 foizga ko'tarilib ketdi. SHuning uchun ham, Hindiston jahon bozorida sholi eksportidan yoki sholi importidan "uzoqda" turadi va mamlakatda etishtiriladigan sholining iste'molidan ortgan qismini faqat "Oziq-ovqat zahirasi"ga g'amlaydi.

Jahondagi ko'plab mamlakatlar, jahon xomashyo bozorlarida turli sabablar, iqtisodiy inqirozlar yoki fors-major holatlariga ko'ra narxlarning keskin pasayishi tufayli bir qator yirik shartnomalarni tuzishga kirishishadi.

Jumladan, 2020 yilning boshida "COVID-19" pandemiyasini boshlanishi bilan yuzaga kelgan jahon iqtisodiy inqirozi sharoitida ko'plab jahon bozorlarida xomashyolarning narxi bir necha barobarga tushib ketganligi sababli, jahonning ba'zi mamlakatlari xomashyolarning arzon paytidan foydalangan holda yirik xajmda import qilishni afzal ko'rishdi va xomashyolar zahirasini shakllantirib olishdi.

Masalan, 2020 yil aprel oyida AQSh Prezidenti D.Trampning ko'rsatmasiga ko'ra, mamlakatdagi neft-gaz sektorida faoliyat ko'rsatayotgan barcha kompaniyalarga neft narxining jahon bozorida o'zining eng minimum davriga kelganligini hisobga olib, jahon neft bozoriidan imkon boricha 8-10 yillik zahiralarini yaratish maqsadida ko'plab miqdordagi neft xomashyolarni import qildi va yirik miqdorda milliy neft zahirasini yaratishdi. Ortiqcha miqdorda neft xomashyosini mamlakat milliy zahirasi uchun sotib olinishi AQSh iqtisodiyoti tarixida hali kuzatilmagan edi.

3.5. Jahon bozorida asosiy strategik mahsulotlar narhining aniqlanishi va ularning narhiga ta'sir etuvchi omillar

Jahon xo'jaligidagi eng asosiy va muhim bo'lgan bozordagi tovar va xomashyolar kon'yunkturasini o'rganishda o'zining alohida narh kelib chiqish xususiyatlariga egadir. Biz quyida jahon bozoridagi eng muhim bo'lgan tovarlar narxining kelib chiqish jarayonlari va aniqlashi xususida to'xtalib o'tamiz.

Paxta (aniqrog'i paxta tolasi). Umuman olganda jahon paxta bozorlarida narxni Nyu-York va Liverpool birjalari tomonidan aniqlanadi. Masalan, AQSH paxta bozorida paxta tolasi funt bilan o'lchanadi, ya'ni 1 funt – taxminan 0,45 kg.ni tashkil qiladi.

Birja mahsulot haqida to'liq axborotga ega bo'ladi va xaridor shartnoma imzolashdan oldin ushbu sotlayotgan mahsulotlar haqida to'liq majmuaviy ma'lumotlarga ega bo'ladi, ya'ni uning qaysi mamlakatda yoki hududda ishlab chiqilganligi, qaysi nav yoki klass, minimal partiyasi qancha miqdorda va h.k. Masalan Nyu-york birjasida (NYMEX) 1 ta paxta sotish ("xlopkoviy" kontrakt) shartnomasi kamida 50 000 funtni (taxminan 22,68 tn) tashkil qiladi.

Jahondagi paxta sotish bilan shug'ullanadigan bir qator yirik birjalar mavjud bo'lib, ular qatoriga quyidagilarni ketma-ketlik reyting bo'yicha, ya'ni:

Nyu-York (New York Mercantile Exchange (NYMEX)), Kontinentlararo birja (ICE – Intercontinental Exchange), Chjenchjou (Zhengzhou Commodity Exchange, ZCE), Hindiston paxta birjasi (The Multi Commodity Exchange of India Limited (MCX)) va Liverpool paxta birjalarini kiritish mumkin.

Paxta tolasi narhi birjada bir qator omillar ta'sirida shakllanadi, masalan:

- umumiy paxta tolasini ishlab chiqarilish miqdori (1 yilda) tahlili;
- hosildorlik ko'rsatkichi (tsentner) tahlili;
- bozordagi talab va ehtiyoj tahlili;
- valyuta kursi jarayoni;
- fors-major holatlari (qurg'oqchilik, uragan, do'l orqali erni zararlantirilishi, urush, siyosiy omillar (iqtisodiy jazo yoki bolalar mehnatidan foydalanish);
- iqtisodiy inqirozlar va h.k.

Masalan, o'zbek paxta tolasining narhini aniqlashda biz quyidagi iqtisodiy ko'rsatkichlarga tayanamiz: 1 tonna paxta tolasi narhini ishlab chiqishda London birjasidagi kotirovkadan, masalan 2021 yilning 2-yarmida o'rtacha kotirovka 80 funt bo'lgan deylik.

Ushbu ko'rsatkichni Yevroosiyo mamlakatlari paxtasi uchun belgilangan indeksga ya'ni - 22,046 ga ko'paytiramiz hamda o'rtacha har bir tonna uchun savdo kompaniyalarga belgilangan "narxni tushurib berish imtiyozlari"ni (skidka, ya'ni fors-major holati, vagonda yonib ketishi, quyosh issig'idan bug'lanish, vagondagi issiq havoda konditsion og'irligini yo'qotishi va boshqa ba'zi ob'ektiv sabablarga ko'ra beriladigan imtiyozlar toifasidir), ya'ni har bir tonna paxta tolasidan 155 dollarni olib tashlaymiz. Demak, mamlakatimizda o'rtacha paxta tolasining narhi – 1608,7 dollarni tashkil qildi.

Po'lat. Po'lat turi temir rudasiga qorishilgan boshqa elementlar turiga ko'ra farqlanadi. Unga asosan temir, karbon, fosfor, sulfat, silikon, nikkell va xrom kabi elementlar qo'shiladi. Temir, po'latdan farqli ravishda standart bo'lgani uchun bozori doimiy va narxlar xam nisbatan barqaror. Aksariyat qora metal turlari forward va options bitimlari orqali elektron savdo tizimida yuritiladi.

Po'lat mahsuloti narxining kelib chiqish sabablari va uning narhiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- narxlar nafaqat bugungi talab va taklifga bog'liq, balki kelajakda sotib oladigan tovar uchun bugun to'lashga bo'lgan narxga ham bog'liqdir. Kelajakdagi narxlarni bugun orqali indeks qilish prognoz turiga kirganligi tufayli, narxlar sakrab yoki suzib yuruvchi bo'lishi mumkin;

- narxga ta'sir qiluvchi boshqa bir omil – mamlakatning xo'jaligida mavjud bo'lgan ikkilamchi po'lat miqdoridir;

- Xitoydagi qurilish soxasi statistik ma'lumotlar ta'sir etadi, chunki qurilish jadal sur'atlarda davom etsa po'latga bo'lgan talab kuchayadi va narx ko'tariladi. Ma'lumki po'latga talabning 2/3 qismi qurilish sohasiga to'g'ri keladi;

- ishlab chiqarishni qisqartirishga yo'naltirilgan ekologik cheklovlar. Ma'lumki, xalqaro tashkilotlar metal ishlab chiqaruvchi davlatlarning ko'p miqdorda SO₂ning chiqishiga sababchi bo'lmoqdalar, va buning uchun cheklovlarga duch kelmoqdalar;

- ko'mir – po'latga ishlov berish uchun katta miqdorda ko'mir yoqiladi, demak ko'mir xam bilvosita po'lat narxiga ta'sir etadi;

- temir rudasiga bo'lgan talab va taklif;

- bugungi kunda Xitoyga temir rudasini etkazib etkazib beruvchi eng yirik ikki davlat - Avstraliya va Braziliya, etkazib berilayotgan xomashyoning jami 85 foizi ushbu ikki davlat ulushiga to'g'ri keladi ¹⁰;

- transport xarajatlari. Xar qanday tovarning narxida transport xarajatlari mavjud bo'lganligi kabi, po'lat narxiga xam ushbu xarajatlar kiritiladi;

- po'lat ishlab chiqaruchi kompaniyalar xarajatlari – ishchilarga maosh va kompaniya daromadlari;

- shuningdek, metal narxining birjalarda shakllanishining asosiy sababi, metal kombinatlari yirik buyurtmalar orqali ishlaydi, va kombinatlarda ma'lum turda ashyo ishlab chiqarishga sozlansa, ushbu sozlama asosida bir oy ishlashni davom etadi;

- bundan tashqari, jahon bozorida 1 barrel (159 litr) neftning narhi, yoki ko'plab boshqa rangli va qora metal mahsulotlarining jahon bozorlarida kelib chiqishini iqtisodiy ko'rsatkichlar yordamida aniqlash mumkin, albatta.

3.6. Jahon tovar bozorlari kon'yunkturalarini o'rganish uslubiyoti

Jahon tovar bozorlari kon'yunkturalarini o'rganish uslubiyoti bu - kon'yunkturani yaqin kelajakdagi rivojlanish istiqbolini ishlab chiqish va bozorda yuzaga kelgan holatni tahlil qilish imkonini beruvchi aniq tadqiq etish usullarining to'plami hamda harakatlar ketma-ketligidir. SHunga ko'ra, kon'yunkturani o'rganishda quyidagi umumiy uslubiy talablariga rioya etish maqsadga muvofiqdir.

1. Iqtisodiy va jamiyat hayotidagi holatlarning umumiy bog'lanishlarini hisobga olish zarur. Kon'yunktura tadqiqotlarida har qanday tovar bozorini alohida o'rganish mumkin emas, ya'ni umumiy iqtisodiy kon'yunktura hamda boshqa tarmoqdagi holatlarni ham o'rganish lozim.

2. Mavjud bozor tendentsiyasini boshqa bozorga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish kerak emas, xatto ular bir qator o'xshashliklarga ega bo'lsa ham. Masalan, umumiy iqtisodiy kon'yunkturadagi o'zgarishlarni barcha tarmoq bozorlariga avtomatik tarzda ko'chirish mumkin emas.

3. Kon'yunkturaning beqarorligi hamda bozorlardagi o'zgarishlar bozorlarni to'xtovsiz va doimiy ravishda kuzatib borishni talab etadi. Bu asosan

¹⁰ <https://bcs-express.ru/novosti-i-analitika/rynok-stali-cto-nuzhno-znat-o-sektore>.

turli hil siyosiy inqirozlar, ijtimoiy hamda tasodifiy omillar bozorlarga kuchli ta'sir etuvchi xususiyatlardir.

4. Tovar bozorlari kon'yunkturasini o'rganish ma'lum bir ketma-ketlikda o'rganilishi kerak. Eng avvalo, bozorning asosiy qirralari va xususiyatlarini tadqiq etish zarur. Bunday o'rganish kon'yunktura tadqiqotining boshlang'ich bosqichi hisoblanadi.

Demak, yuqoridagi tahlillarga ko'ra xulosa qilish mumkinki, jahon bozori kon'yunkturasini o'rganish uslubiyoti quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- ishlab chiqarishni tahlil etish (iqtisodiy nazariya);
- iste'mol va talabni tahlil etish (marketing);
- xalqaro savdoni tahlil etish (jahon iqtisodiyoti);
- narxni tahlil etish (jahon bozori kon'yunkturasi).

Yuqoridagi jahon bozori kon'yunkturasini o'rganish uslubiyotidan ko'rinib turibdiki, mazkur tahlillarni to'liq amalga oshirish uchun albatta, iqtisodiy nazariya, marketing va jahon iqtisodiyoti fanlari bilan o'zaro chambarchas uzviy bog'liqlikka egadir.

3.7. Jahon bozorlarida strategik xomashyo va mahsulotlarning hozirgi holati tahlili

2022 yilning o'rtalariga kelib dunyo aholisi uchun eng muhim bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlaridan biri hisoblangan bug'doy narhi Yevropa Ittifoqi hududida sezilarli darajada o'sgan. Biroq jahonda bug'doy zaxiralari rekord darajaga etganligi va ba'zi mamlakatlar eksport narxining pasayganligi ommaviy axborot vositalarda e'lon qilindi. Masalan, Rossiya bug'doyining bir tonnasi 198-200 dollaridan 193-195 dollargacha tushgan.

AQSh Qishloq xo'jaligi vazirligi yangi (USDA) hisobotni e'lon qilganidan so'ng, jahon bozorida bug'doy narxi pasayishni boshladi. Mazkur hisobotda dunyo bug'doy zaxiralari joriy mavsumda 310 million tonnagacha (rekord daraja) o'sishi prognoz qilingan. Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi va Rossiyaning janubida kuzatilgan yog'ingarchiliklar tufayli yangi bug'doy hosilining holati yaxshilangan.

USDA ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya yangi mavsumda 35 million tonna bilan dunyodagi eng yirik bug'doy eksportchisi bo'lib qolaveradi. 2022 yil mavsum boshidan 14 maygacha Rossiya 35,3 million tonna don, shu jumladan

30,2 million tonna bug'doy eksport qilgan. Yiliga etkazib berish mos ravishda 12-9 foizga kamaygan.

Jahon bozorida neft, metall, g'alla va boshqa asosiy xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlari narxi yanvar oyi holatida avvalgi yilga nisbatan o'rtacha 46 foizga oshdi. Bu 1995 yildan buyon eng yuqori ko'tarilish bo'ldi, deb yozmoqda Yaponiyaning etakchi Nikkei iqtisodiy gazetasi ekspertlar hisob-kitobiga tayanib.

Narxlar o'sishiga ko'p omillar sabab bo'layotgani aytilmoqda. Masalan, narx oshishiga bir qator etakchi mamlakatlarda epidemiologik vaziyat engillashgani barobarida xalqaro iqtisodiy kon'yunkturaning yaxshilanishi va iste'mol talabining oshishi sabab bo'lgan. SHuningdek, narx oshishi sayyoramizning bir qator mintaqalarida vaziyat barqaror emasligi tufayli ta'minotdagi kuzatilayotgan uzilishlarga ham bog'liq.

Jahon bozorida 22 ta asosiy xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlaridan to'qqiztasining narxi bir yilda 50 foizdan ko'pga oshgan. Xususan, qahva narxi 91 foizga, paxta tolasi 58 foizga, alyuminiy 53 foizga ko'tarilgan. Eng muhimi, tabiiy gaz narxiga Ukraina atrofidagi voqealar kuchli ta'sir ko'rsatgan va xamon o'z ta'sirini yo'qotganicha yo'q. Chunki ushbu strategik xomashyoga bo'lgan talab va iste'molni faqat Rossiyaning nisbatan arzon tabiiy gazi Yevropa Ittifoqi mamlakatlarini to'laqonli ravishda ta'minlab berish imkoniyatiga egadir.

Narxlarning oshishi pandemiyadan katta zarar ko'rgan dunyo iqtisodiyotining tez tiklanishiga ham to'sqinlik qilmoqda. Jahon bozorida uy-joy narxlari o'rtacha 7,3 foizga qimmatlashgan. Tadqiqotlarga ko'ra, dunyo miqyosida uy-joy narxlari keskin oshgan. Bu boradagi eng katta o'sish Turkiyada qayd etilib, 32 foizni tashkil qilgan.

Butun dunyo bo'ylab uy-joy narxlari oshib bormoqda. 56 ta mamlakatda Knight Frank tomonidan o'rtacha narxlarni taqqoslash natijasida olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, o'tgan yilning mart oyidan joriy yilning mart oyigacha uy-joy narxlari o'rtacha 7,3 foizga qimmatlashgan.

Masalan Turkiya ketma-ket 2021-2022 yillarda narxlarning yillik o'sishi reytingida etakchilik qilmoqda. Mamlakatda hisobotda ko'rsatilgan davr mobaynida uy-joy narxlari 32 foizga oshgan. Turkiyadan tashqari birinchi o'nlikdan asosan rivojlangan davlatlar, jumladan, YAngi Zelandiya (22,1 foiz), AQSh (13,2 foiz), Shvetsiya (13 foiz), Avstriya (12,3 foiz), Rossiyada (11,1 foiz) va Norvegiya (10,9 foiz) o'rin olgan. Shu bilan bir qatorda, ba'zi bir yirik

iqtisodiyotlar, xususan, Hindiston (-1,6 foiz) va Ispaniya (-1,8 foiz)da ko'chmas mulk narxlari arzonlashgan.

Xo'sh, O'zbekistonda bu borada vaziyat qanday? Tahlillarga ko'ra, 2021 yil may oyida Toshkentdagi kvartira sektorida (ikkilamchi bozor) uy-joylarning o'rtacha etkazib berish narxi kvadrat metr uchun 717 dollarga etgan (oylik o'sish sur'ati 2,1 foiz). Bir yillik o'sish esa dollarda hisoblaganda 9,3 foizdan iborat bo'lgan. Bu raqamlar so'mda ko'rsatilganda, bir yillik o'sish sur'ati 13,8 foizni tashkil etgan. Milliy valyutadagi ko'rsatkichlarning sezilarli darajada o'sishini o'tgan o'n ikki oy davomida milliy valyutaning dollarga nisbatan zaiflashishi bilan izohlash mumkin. 2022 yilning may oyida esa uy-joy narhlari o'tgan 2021 yilga nisbatan o'rtacha 15 foizga ko'tarilgan.

Jahon bozorida paxtaning bir funti yoki 455 grammi so'nggi 10 yilda ilk marta 1 AQSH dollaridan qimmatlashdi. Narx 8,8 foizga oshib, 1,07 dollargacha etgan. Bu birjada sotilayotgan tovarlar orasidagi eng yuqori narx o'sishi. Paxta narxining qimmatlashishiga ta'minotdagi uzilishlar, elektr energiyasi o'chishi bilan bog'liq muammolar va tovar zaxiralari qisqarishi kabi omillar sabab bo'lgan. Paxtaning qimmatlashuvi tekstil mahsulotlari narxlari oshishiga turki beradi.

O'zbekistonda 2022 yilning 1 iyunidan boshlab g'allani davlat tomonidan sotib olish va sotishda bozor narxlariga o'tilishi belgilandi. Bunda, eng avvalo, davlat resurslari uchun sotib olinadigan 1 tonna bug'doy narxi o'tgan yildagi 1 million 550 ming so'mdan joriy yil hosili uchun 3 million so'mga, ya'ni 2 baravarga oshirilishi ma'lum qilindi.

Bobning qisqacha xulosasi:

XXI asrning ikkinchi dekadasi dunyo ahli uchun juda omadsiz yillar bo'lmoqda. Chunki avvaliga 2020 yilda boshlangan pandemiya davri va 2022 yilda boshlangan Yevropadagi siyosiy inqiroz butun jahon iqtisodiyotiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Buning natijasida jahon bozorlaridagi xomashyolar va mahsulotlarning narhi tobora ko'tarilishda davom etmoqda.

2022 yilning o'rtalariga kelib dunyo aholisi uchun eng muhim bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, xususan: un va yog' mahsulotlari, neft mahsulotlari, aholi iste'moli mahsulotlari va boshqa bir qator muhim bo'lgan strategik mahsulotlarning narhlarini o'sishiga olib keldi.

Jahon bozorida xomashyo va mahsulotlarning tobora o'sib borishidan jahonning etakchi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlariga BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti ketma-ket bong urmoqda. Shuningdek, ushbu tashkilot tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini jahon bozorida salmog'ini ko'paytirishga chaqirishmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev: - "Bugun dunyo tahlikali bo'lib borayapti. Har daqiqa sinovli bo'layapti. Bu bizga ham ta'sir qiladimi? Albatta ta'sir qiladi. Lekin xalqimiz hayotiga shu ta'sirni kamaytirish bo'yicha choralar ko'ryapmiz"¹¹.

Nazorat savollari:

1. Tovar bozori tushunchasi va tovar bozori turlari.
2. Jahon bozori va ichki bozor tushunchalari hamda ularning bevosita uzviy bog'liqligi.
3. Kon'yunkturani shakllantiruvchi omillar va jahon bozori kon'yunkturasini o'rganishdagi asosiy ko'rsatkichlar.
4. Jahon tovar bozorlari kon'yunkturalarini o'rganish uslubiyoti.
5. Jahon bozori kon'yunkturasini o'rganish uslubiyoti qanday ketma-ketlik xususiyatlar bilan amalga oshiriladi?
6. Paxta tolasining narhini aniqlashda qanday omillarga asoslanadi va uning narhi qanday hisoblanadi?
7. "Bozor" so'ziga tarif bering va uning mohiyatini ayting?
8. Jahon bozoriga tarif bering?
9. Ichki bozorning tushunchasini ayting?
10. Tashqi bozorning tushunchasini ayting?
11. Jahon tashqi savdo-sotiqda qaysi xorijiy valyutalarning ulushi katta?
12. Jahon tashqi savdo-sotiqda dollardan so'ng qaysi xorijiy valyutaning ulushi katta?
13. Yevropa Ittifoqi uyushmasining nechta mamlakatida rasman yevro valyutasi muomalasi joriy qilingan?
14. Kon'yunkturaga ta'sir etishiga qarab davriy bo'lmagan kon'yunkturani shakllantiruvchi omillar qanday turlarga bo'linadi?

¹¹<https://kun.uz/news/2022/05/09/bugun-dunyo-tahlikali-bolib-boryapti-shavkat-mirziyoyev>

15. Paxta tolasining narhini aniqlashda qanday omillarga asoslanadi?
16. Paxtaning narhi qanday hisoblanadi?
17. Jahon bozorlarida strategik xomashyolarning narxi qanday o'lchov birliklarida hisoblanadi?
18. Kon'yunkturani o'rganishda qaysi uslubiy talablarga rioya etish zarur?
19. O'zbekistonning paxta tolasining narhi qaysi jahon paxta bozori birjasida shakllanadi?
20. Narhning shakllanishiga qaysi omillar ta'sir etadi?
21. Narhga tarif bering?
22. Monopoliyalarning narh-navoga ta'siri jarayonini tushuntiring?

Uyga vazifa!

1) Talabalarning "Jahon bozori va jahon bozori kon'yunkturasini o'rganish uslubiyoti" mavzusini chuqur o'zlashtirishi hamda amaliyot darsiga puxta tayyorgarlik ko'rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu boshida berilgan "Tayanch iboralari" so'zlarining tushunchasiga ega bo'lish;
- 2) mavzu so'nggida berilgan "Nazorat savollari"ga tayyorgarlik ko'rish;
- 3) O'zbek mahsulotlarining jahon bozoridagi o'rni va salohiyati bo'yicha tahlillarni talabalar tomonidan guruhlariga bo'lingan holda "Taqqidmot" o'tkaziladi.

IV BOB. JAHON TOVAR BOZORI KON'YUNKTURASINING ISTIQBOLLASH USULLARI

4.1. Tovar bozori kon'yunkturasini istiqbollash bo'yicha asosiy yondashuvlar

4.2. Ekstrapolyatsiya usullarini jahon tovar bozorlari kon'yunkturalarini istiqbollashda qo'llash.

4.3. Marketingda jahon tovar bozorlari kon'yunkturalarini istiqbollash.

4.4. Korxonalar faoliyatida turli hil istiqbollash usullaridan foydalanish.

Tayanch iboralari: kon'yunktura, tovar bozori, tovar bozorini kon'yunkturasi, istiqbol, ekstrapolyatsiya, marketing, jahon tovar bozorlari kon'yunkturasi, matematik yondashuv, murakkab kombinatsiya, model, trend, firma, bozor, bozorni o'rganish, alohida tovarlar bozori, maxsus tovarlar bozori, demping, demping siyosati.

4.1. Tovar bozori kon'yunkturasini istiqbollash bo'yicha asosiy yondashuvlar.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon xo'jaligida bir qator mamlakatlarning "iqtisodiy mo''jiza"ni vujudga keltirishi va Yangi industrial mamlakatlarni paydo bo'lishi jahon bozorida yangi mahsulotlarning va umuman, tashqi savdo miqdorining yil sayin oshishiga olib keldi. Albatta, bu sezilarli o'zgarishlarning jahon iqtisodiyotida milliy iqtisodiyotlarning "ochiqlik" jarayonlari bilan rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etdi.

Albatta, ochiq iqtisodiyot - bu shunday iqtisodiyotki, unda mamlakatning barcha fuqarolari xalqaro tovar va kapital bozorida oldi-berdilarni cheklanmagan holda amalga oshirishlari mumkin.

2020 yil 24 yanvardagi Murojaatnomada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagi so'zlarini: "Ochiq bozor – mahsulot sifatini oshirish, tannarxni pasaytirish, yangi texnologiyalar olib kelishga majbur qiladi, bozor islohotlarini jadal rivojlantiradi. Sodda qilib aytsak, jahon ishlab chiqarish zanjirlariga, dunyo bozori talablariga va iqtisodiy integratsiya jarayonlariga

hamohang bo'lishimiz lozim. Mana, nima uchun bizga iqtisodiy integratsiya kerak!"¹², degan iboralarini yana bir bor o'rni kelanda ta'kidlash joiz.

Jahon tovar bozori va tashqi savdoning umumiy jihatlari ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Jahon mamlakatlari bo'yicha eksport-import, ya'ni hamma mamlakatlarning tashqi savdo-sotig'i pandemiya davrigacha qariyb o'rtacha 1 yil davomida 38 trln. dollarini tashkil qilgan.

Xo'sh, istiqbol yillarda uning tashqi savdo xukmronligi yana qancha davom etadi? Qaysi mamlakatlar tashqi savdo miqdori bo'yicha Xitoyni quvib o'tishi mumkin? Xitoy tovar bozori kon'yunkturasini qanday istiqbollash mumkin? Albatta, savollar ko'p. Biz bu haqida tashqi bozordagi eksport-import jarayonlari tahlillari to'g'risidagi keyingi ma'ruzalarda batafsil ko'rib chiqamiz.

Hozirgi davrda kon'yunkturani tadqiq etish amaliyotida quyidagi ikki xil yondashuvni keltirish mumkin:

- a) iqtisodiy tahlilga asoslangan yondashuv;
- b) iqtisodiy - matematik yondashuv.

Iqtisodiy tahlilga asoslangan yondashuv kon'yunkturani o'rganish istiqbollashning eng keng tarqalgan hamda an'anaviy yondashuvlaridan biri hisoblanadi.

Bu yondashuv ekspertlarning mantiqiy-hissiy xulosalariga tayanish va ularning sub'ektiv qarashlaridan iborat bo'ladi. Ushbu yondashuv asosida istiqbollash kon'yunkturani shakllantiruvchi omillarni kelgusi davrdagi o'zgarishlarini sub'ektiv tarzda ko'rib chiqishni taqazo etadi. Bundan tashqari, iqtisodiyotning uzoq muddatli rivojlanish tendentsiyalarini o'rganish bilan bir qatorda, yangi paydo bo'lgan holat va jarayonlarni chuqur tahlil qilishni ham nazarda tutadi.

Mazkur yondashuv kon'yunkturani istiqbollashda miqdoriy usullardan foydalanish zarurati bo'lmaganda yoki ba'zi bir sabablarga ko'ra ulardan foydalanish imkoniyati bo'lmagan holatlarda qo'llaniladi.

Murakkab kombinatsiyali yoki kompleks tahlil usullari, bu usullardan asosan makro-iqtisodiy ko'rsatkichlarni istiqbollashda qo'llaniladi. Ularga istiqbollashning grafik usullarini kiritish mumkin.

Oldingi ma'ruzalarda ham ta'kidlab o'tganimizdek, mahsulotlar bozoridagi narhlarni o'zgarib turishi bir qator siyosiy-iqtisodiy holatlarga ham bog'liq

¹²https://nrm.uz/contentf?doc=612868_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidenti_sha

jarayondir. SHuning uchun ham mahsulotlar bozoridagi narhlarni istiqbollash jarayonida ham real iqtisodiy holat darajasi va ham siyosiy “o’yin”lar natijasida keskin tub burilishlar yuzaga kelishi mumkin.

Masalan, “Brent” markali neftning jahon bozoridagi narhi 2020 yilning 20 aprel kuni 1 barrel neft xomashyoning narhi 19 dollargacha tushib ketdi va u 2002 yildagi narhiga tenglashdi.

Xo’sh, jahon iqtisodiyotidagi eng muhim bo’lgan ushbu xomashyoning narhini keskin darajada tushib ketishi va jahon neft bozoridagi inqiroz ko’plab yirik mamlakatlarning milliy iqtisodiyotining daromadlarini keskin tushib ketishiga va milliy iqtisodiyotining rivojiga juda ham katta salbiy ta’sir ko’rsatishiga “siyosiy o’yin”ning dahli bormi yoki jahon neft bozoridagi “iqtisodiy tanglik” bu “siyosiy o’yinmi”?

Fikrimizcha, yo’q, albatta. OPEK, Rossiya va shu kabi siyosiy sabablar bu erda umuman rol o’ynamaydi. Neft narhining kun sayin keskin tushib ketish jarayoni jahon xo’jaligidagi yirik neft importchilarni ancha sarosimaga tushirdi, chunki neft narhi xamon pasaymoqda va qancha narhgacha tushishini biron bir aniq omil bilan hozirgi sharoitda istiqbollab bo’lmaydi, chunki, 2020 yilning boshlarida yuzga kelgan jahondagi pandemiya jarayoni yana qancha vaqtni o’z ichiga olishini aniqlash xatto Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti ekspertlari ham ojizdir.

Jahon iqtisodiy inqirozi sharoitida neftga bo’lgan talab tobora tushib ketdi va natijada uning narhi eng minimum darajaga keldi. Nimaga narh yanada pastga tushdi?

Sababi oddiy, ishlab chiqarilgan neftni hech kim ishlatmayotgani uchun neft qo’yishga joy yo’qligi. Neftga moslashtirilgan barcha yirik tankerlar neft bilan to’ldirilgan va ularning hammasi hamon o’z manzilini dengiz portlarida kutishga majbur bo’lishdi.

Shuning uchun ham, nihoyat 2020 yilning 11 aprelida bo’lib o’tgan “OPEK+” videomuhokamada OPEKning barcha a’zolari va OPEKka a’zo bo’lmagan neft ishlab chiqaruvchi mamlakatlar bosqichma-bosqich 2 yil davomida neft qazish hajmini kamaytirishga kelishib olishdi.

4.2. Ekstrapolyatsiya usullarini jahon tovar bozorlari kon'yunkturalarini istiqbollashda qo'llash

Avvalo ekstrapolyatsiya so'zining mohiyatiga to'xtalib o'tsak maqsadga muvofiqdir. Ekstrapolyatsiya – bu, ob'ektning bo'lishi mumkin bo'lgan rivojlanishini o'rganish va uning kelajakdagi rivojlanish qonuniyligidir.¹³

Ekstrapolyatsiya usuli prognozlashning asosiy usullaridan biri bo'lib, u avvalgi yillarda (shu bilan birga 5 – 8 yildan kam bo'lmagan) bo'lib o'tgan ko'rsatkichlar tahlilini hisobga olgan holda hodisalarni prognoz qilishga asoslangan. Hozirgi vaqtda jarayonlarning tendentsiyalarini aniqlashga imkon beradigan va hodisaning chiziqli oddiy bog'liqligini va kvadratik bog'liqlikni taxmin qilishga imkon beradigan uch yuzga yaqin tenglamalar mavjud.¹⁴

Masalan, tabiiy gazning narxi 1000 m.kubga 1000 dollar bo'lsa, yiliga o'rta hisobda 200 dollardan oshib borish jarayonini oldindan tahlil qilish mumkin bo'ladi.

Ekstrapolyatsiya so'zi lotinchadan olingan bo'lib, “extra”- “tashqarida” yoki “tashqari uchun” ma'noni anglatadi hamda lotinchadan “polire” so'zi esa – “to'g'rilayman”, “tekislayman” va o'zgartiraman so'zlarini bildiradi. Ekstrapolyatsiya funktsiyaning qo'zg'almas qiymatlar orasida emas, balki berilgan intervaldan tashqarida approksimatsiya qilinadigan maxsus yaqinlashuvchi turidir.

Boshqacha qilib aytganda, ekstrapolyatsiya-bu funktsiyaning segmentdan tashqarida joylashgan nuqtalardagi qiymatlarini uning nuqtalardagi qiymatlari bilan taxminiy aniqlash tushuniladi.

Ekstrapolyatsiya usullari bozor kon'yunkturasining turli ko'rsatkichlari va xususiyatlarini istiqbollashda qo'llaniladi. Ekstrapolyatsiya hodisalar yoki jarayonlarning kelgusidagi holati qonunlari, nazariyalari hamda tajribasini keng yoyishni taqozo qiladi. YA'ni bu holda ekstrapolyatsiya istiqbollash amalga oshirilayotgan ob'ektning ilgarigi rivojlanish tendentsiyalariga tayanadi.

1) Ekstrapolyatsiya usullari (metod). Ko'p hollarda ekstrapolyatsiya usullari interpolatsiya usullariga o'xshaydi. Ekstrapolyatsiyaning eng keng tarqalgan usuli bu parabolik ekstrapolyatsiya bo'lib, unda belgilangan qiymatlarni nuqtada qabul qiladigan darajadagi polinomning (ko'phad) qiymati olinadi. Parabolik ekstrapolyatsiya uchun interpolatsiya formulalaridan foydalaniladi.

¹³<https://biznes-prost.ru/metod-ekstrapolyacii-2.html>

2) Ekstrapolyatsiya usulini tadbqiqilinishi. Umumiy ma'no - bu hodisaning bir qismini kuzatish natijasida olingan xulosalarni boshqa qismiga kengaytirish. Marketingda bu o'rganilayotgan mavzuni kelajak uchun rivojlanishning aniqlangan shakllarini tarqatishdir.

Statistikada esa bu o'tmishda o'rnatilgan tendentsiyalarning kelajakka tarqalishi yoki vaqt bo'yicha ekstrapolyatsiya aholining istiqbolli hisob-kitoblari uchun ishlatiladi.

Iqtisodiy hodisalarni qisqa muddatli prognozlashning keng tarqalgan usullaridan biri bu - hodisaning bir qismini va uning boshqa qismini kuzatishlardan olingan xulosalarni kengaytirishdan iborat bo'lgan ilmiy tadqiqotlar usulidir.

3) Ekstrapolyatsiya prognozi (istiqbollash). Ekstrapolyatsiya hozirgi va o'tmishda rivojlangan iqtisodiy rivojlanishning barqaror tendentsiyalarini va ularni kelajakka o'tkazishni o'rganishdan iborat. Ushbu prognozning maqsadi - o'tmishda bo'lgani kabi shunga o'xshash tezlashuv yoki tezlik bilan harakatlanayotganda kelajakda qanday natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatishdir.

Prognoz ushbu iqtisodiy rivojlanishning kutilayotgan variantlarini o'tgan davrning asosiy omillari va tendentsiyalari istiqbol uchun saqlanib qolganligi haqidagi gipotezaga asoslanib belgilaydi. Tahlil qilinadigan yillar, ya'ni davr yoki ko'rib chiqilgan istiqbol yillarda ularning o'zgarish yo'nalishini aniqlash va hisobga olish mumkin bo'ladi.

Bunday gipoteza iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni davriyligini hisobga olgan holda ilgari suriladi. Prognozlashda ekstrapolyatsiya umumiy turdagi ekstrapolyatsiyaning davriy qatorlarini o'rganishda qo'llaniladi, funktsiyaning ma'lum qiymati dinamika qatoridagi ko'rsatkich darajalarning o'zgarish xususiyatlariga qanday bog'liqligini tasavvur qilish mumkin.

4) Ekstrapolyatsiyaning turli usullari. Ekstrapolyatsiyaning nomlangan usullarini batafsil ko'rib chiqamiz. Davomiylikning o'rtacha darajasiga asoslanib, ekstrapolyatsiya qilishda bashorat qilingan daraja davomiylikning o'tgan darajalarini o'rtacha qiymatiga teng bo'lgan printsip qo'llaniladi. Bu vaziyatda, ekstrapolyatsiya bir nuqta istiqbolli baholash beradi. Ushbu taxminlarning haqiqiy ma'lumotlar bilan aniq mos kelishi ehtimoldan yiroq hodisadir.

¹⁴<https://biznes-prost.ru/metod-ekstrapolyacii-2.html>

Shunday qilib, prognoz qiymatlar oralig'i shaklida bo'lishi kerak. Olingan ishonch oralig'i o'rtacha qiymatni baholash bilan bog'liq noaniqlikni hisobga oladi. Biroq, ko'rib chiqilgan davr yondashuvlarining kamchiliklari shundan iborat-ki, bunda ishonch oralig'i ogohlantirish davri bilan bog'liq emas. Balki o'rtacha mutlaq o'sish darajasi bo'yicha ekstrapolyatsiya hodisaning umumiy rivojlanish tendentsiyasi chiziqli deb hisoblangandagina amalga oshirilishi mumkin.

O'rtacha o'sish sur'ati bo'yicha ekstrapolyatsiya bir qator dinamikaning umumiy tendentsiyasi eksponent egri chiziq bilan tavsiflanadi deb hisoblash uchun asos bo'lganda amalga oshirilishi mumkin. O'rtacha o'sish sur'ati prognozining ishonch intervalini faqat o'rtacha o'sish sur'ati ko'rsatkichli egri parametrlarini statistik baholash yordamida hisoblangandagina aniqlash mumkin.

Ekstrapolyatsiyaning murakkab usullari asosiy tendentsiyani aniqlashni, ya'ni tendentsiyani tavsiflovchi statistik formulalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ushbu guruh usullarini ikkita asosiy turga bo'lish mumkin: adaptiv va analitik (o'sish egri chiziqlari).

Ekstrapolyatsiyaning bozor tadqiqotlarida qo'llaniladigan asosiy modellaridan biri bu - Trend (Trend) modellaridir. **Trend modellari** jarayonlarni vaqtga nisbatan o'zgarishning asosiy yo'nalishlarini ko'rsatadi.

Bozorning har bir rivojlanish xususiyatiga alohida trend modeli mos keladi, faqatgina rivojlanish modeli to'g'ri tanlanib istiqbollash amalga oshirilsagina bozorning kelgusidagi rivojlanishi aniq belgilanadi. Natijada firmaning bozordagi o'zgarishlarga qarata ko'radigan chora-tadbiri samarali bo'ladi.

5) Prognozlashning analitik usullari. Analitik prognozlash usullarining asosi (o'sish egri chiziqlari) eng kichik kvadratlar usuli yordamida asosiy tendentsiyani tavsiflovchi deterministik komponentning bahosini olish tamoyilidir.

Adaptiv prognozlash usullari ularni amalga oshirish jarayoni bashorat qilingan indikatorning vaqt o'tishi bilan izchil bo'lgan qiymatlarini, o'tgan darajalarning ta'sir darajasini hisobga olgan holda hisoblashdan iboratligiga asoslanadi. Bularga iqtisodiy ko'rsatkichli usuli kiradi.

Analitik tendentsiyalarni moslashtirish usuli (eng kam kvadratlar usuli) faqat hodisaning rivojlanishi qurilgan model tomonidan juda yaxshi tavsiflangan va o'tmishda rivojlanish tendentsiyasini belgilaydigan shartlar kelajakda sezilarli darajada o'zgarmagan taqdirdagina ishlatilishi mumkin. Ushbu talablar bajarilganda, prognozlash ogohlantirish davri qiymatidagi mustaqil

o'zgaruvchining qiymatlarini trend tenglamasiga almashtirish orqali amalga oshiriladi.

Analitik tendentsiyalarni moslashtirish uchun prognozni yaratish tartibi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- 1) trendni ko'rsatadigan egri shaklini tanlash;
- 2) o'zgarish tendentsiyalarini miqdor jihatdan tavsiflovchi ko'rsatkichlar ta'rifi;
- 3) bashoratli hisob-kitoblar ehtimolini baholash.

Egri shaklini tanlash grafikani tuzish asosida amalga oshirilishi mumkin, uning umumiy turi odatda quyidagilarni o'rnatishga imkon beradi:

- a) indikatorning dinamik diapazoni aniq ifodalangan tendentsiyaga ega bo'lgan;
- b) agar shunday bo'lsa, keyin bu tendentsiya gorizonttal ko'rinishda bo'ladi;
- c) tendentsiyaning xususiyatiga ko'ra.

Ushbu savollarga javob berib, grafikaning tashqi soddaligi noto'g'ri ekanligini unutmaslik lozim. Har bir dinamik vazifa statistik holatga qaraganda ancha murakkab va egri chiziqning har bir nuqtasi vaqt va makonda hodisaning o'zgarishi natijasidir.

Shu nuqtai nazardan, mavjud tendentsiyani aniqroq aniqlash uchun grafikani ishonchliligi va haqiqiylikini oshirish uchun ba'zi analitik funktsiyalar uchun variantlarni hisoblashni amalga oshirish va statistik hamda ekspert baholari asosida eng yaxshi shaklini aniqlash kerak.

Ikkinchi bosqichda esa qo'shish tenglamasining parametrlarini aniqlash kerak. Ularni topish uchun kichik kvadratlar usulidan foydalaniladi. Bu vaziyatda tekislovchi funktsiya ko'rsatkichlarning haqiqiy qiymatlari orasida bu holatni egallaydi.

Prognoz uchun logarifmik, chiziqli, bosqichma-bosqich, ko'phad va ko'rsatkichli kabi funktsiyalar tanlanadi.

6) Eksponentsial tekislash usuli. Eksponentsial tekislash - bu dinamik davomiyligini tekislash, juda o'zgaruvchan, barqaror prognozlash maqsadlari ushbu usul bilan dinamikaviy davomiyligiga asoslangan oqilona prognozlarni berish, vaqt o'tishi bilan o'rtacha aloqaga ega bo'lish va so'nggi yillarda erishilgan ko'rsatkichlarni ko'proq ko'rib chiqish mumkin. Usulning mohiyati eksponentsial qonunga bo'ysunadigan tortilgan oqimni o'rtacha yordamida yillar davomiyligini tekislashda hosil bo'ladi.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, ekstrapolyatsiya usulini to'g'ri tanlash mavjud ma'lumotlar nuqtalarini yaratgan jarayonning oldingi bilimlariga asoslanadi. Ba'zi mutaxassislar ekstrapolyatsiya usullarini baholashda sababiy kuchlardan foydalanishni taklif qilganlar hamda eng muhim savollar, masalan, ma'lumotlarni doimiy, silliq, ehtimol davriy va boshqalar deb hisoblash mumkinmi.

Chiziqli ekstrapolyatsiya ma'lum ma'lumotlar oxirida teginish chizig'ini yaratishni va uni shu chegaradan tashqariga chiqarishni anglatadi. Chiziqli ekstrapolyatsiya faqat taxminan chiziqli funktsiya grafigini kengaytirish uchun yoki ma'lum ma'lumotlardan tashqarida bo'lmaganda yaxshi natijalar beradi.

Agar ekstrapolyatsiya qilingan nuqtaga eng yaqin bo'lgan ikkita ma'lumot nuqtasi bo'lsa undan keyin quyidagi chiziqli ekstrapolyatsiya funktsiyani beradi, ya'ni agar chiziqli interpolyatsiya bilan bir xil bo'lsa.

Matematikada ekstrapolyatsiya quyidagicha tushuniladi: agar funktsiyaning ahamiyati biror interval oralig'ida $[X_0, X_n]$ yotgan nuqtalarda $x_0 < x_1 < x_2 \dots x_n$ ma'lum bo'lsa, funktsiyaning $f(x)$ qiymatini intervaldan tashqarida $[X_0, X_n]$ yotgan x nuqtalarda belgilash ekstrapolyatsiya deyiladi. Lekin istiqbollash shu soha ichida amalga oshirilsa, bunga interpolyatsiya deyiladi.

4.3. Marketingda jahon tovar bozorlari kon'yunkturalarini istiqbollash

Barchamizga ma'lumki, jahon bozorida tovarlar taklifi talabga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham zamonaviy xalqaro savdo nazariyasi tovarlar talab va taklifiga birdek e'tibor beradi. Jahon bozorida tovarlar taklifining ortishi nisbiy narxlarning pasayishiga olib keladi.

Chunki har bir mamlakat nisbiy narxi ortib borayotgan import tovarlarini ilgari miqdorda sotib olish uchun nisbiy narxlari tushib borayotgan o'zlarining milliy eksport tovarlarini yanada ko'proq miqdorda sotishga majbur bo'lishadi. Buning natijasida eksportni kengaytirishga qaratilgan iqtisodiy taraqqiyotning rivojlanish modelida mamlakatning savdo sharti xorijiy hamkorlari foydasiga yaxshilanishiga olib keladi.

Jahon bozorida tovarlar eksport va import ko'rinishida harakatda bo'ladi. Har qaysi milliy iqtisodiyot uchun eksport miqdorining import miqdoridan ustun darajasi ijobiy saldo tushuniladi. Albatta, saldo darajasi ijobiy bo'lsa, bu milliy

iqtisodiyotning rivojlanishidan dalolat beradi hamda xorijiy valyutalarning jamg'arilishiga olib keladi.

Bozor kon'yunkturasini o'rganishda zamonaviy marketingning o'rnini kattadir. Shuning uchun kon'yunkturaning tahlilida marketing tahlili va marketing tadqiqotlari uning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu marketing tsiklining hamma bosqichiga katta ta'sir ko'rsatadi. Firmaning bozordagi holati, kelajakdagi imkoniyatlari marketing faoliyatidagi strategiyalar etarli darajada tashqi shart-sharoitlarga va bozor kon'yunkturasiga bog'liqdir.

Marketing - bu bozorni o'rganish, ya'ni bozorda mahsulotlarga nisbatan taklif, talab va ehtiyojlarni o'ziga qamrab oladi. Jahon xo'jaligidagi har bir mamlakat sanoat tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarishda ichki va tashqi bozor imkoniyatlarini o'rganib, talab va ehtiyoj, ichki va tashqi bozorlarni zarur mahsulotlar bilan to'ldirish kabi marketing faoliyatini olib borishga majbur bo'ladi.

Marketing o'z tarkibiga qaysi xususiyatlar orqaligina o'z maqsadiga erishishi mumkin?

Biz quyida marketing jarayoni orqali xususiyatlarni ko'rib chiqishimiz mumkin:

- korxonalarda tarkibiy o'zgartirishlarni o'tkazish va ortiqcha ishchi kuchini kamaytirish;

- yangi tashqi bozorlarga chiqish va jahon bozorlarini egallash;

- ichki va tashqi bozorda mahsulotga bo'lgan talab va ehtiyojni to'la o'rganish;

- zamonaviy mahsulotlarni ishlab-chiqarilish bilan eksport mahsulotlarining ko'paytirish;

- daromadlarni investitsiya uchun sarflash.

Demak, har bir marketing faoliyatining yakuniy maqsadi bu bozorni egallashdan iborat bo'ladi.

4.4. Korxonalar faoliyatida turli hil istiqbollash usullaridan foydalanish

Kompaniyalar hozirgi davrda juda ko'p turdagi kon'yunkturani istiqbollash usullaridan foydalanishadi. Ulardan eng keng tarqalganlari:

- **ekspert baholash va so'rov** (firma rahbariyati fikrlarini umumlashtirish yordamida istiqbollash, iste'molchilarning orasida so'rov o'tkazish natijalari bo'yicha istiqbollash);

- iqtisodiy - matematik usullar (ekstrapolyatsiya va ko'p omilli modellashtirish).

Bozor kon'yunkturasi tahlilida ularning aniqlik darajasi ham alohida e'tiborga loyiq, chunki istiqbollash natijasida olingan va xaqiqiy ko'rsatkichlar orasidagi farqlarning kattaligi qabul qilinadigan qarorlar to'g'riligiga aks ta'sir ko'rsatishi mumkin. SHuning uchun ham istiqbollashning aniqlik darajasini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, jahon tovar bozorlari kon'yunkturasi umumjahon kon'yunkturasidan farq qilib alohida aniq tovarlar ishlab chiqarish va sotish sohasidagi joriy o'zgarishlar hamda tebranishlarni o'rganadi. Shuningdek, milliy iqtisodiyotlarda ishlab chiqariladigan ichki va tashqi bozorga mo'ljallangan alohida metal mahsulotlari ixtisoslashtirilgan tovarlarga moslashtirilgan bo'lib, tarixiy va prognozli narxlarni, tovar bozori rivojlanishini tahlil qilishni hamda har tomonlama tarixiy va prognoz qilinadigan bozor ma'lumotlarini taqdim etadi.

Bobning qisqacha xulosasi:

Hozirgi davrda kon'yunkturani tadqiq etish amaliyotida quyidagi ikki xil yondashuvni keltirish mumkin:

- a) iqtisodiy tahlilga asoslangan yondashuv;
- b) iqtisodiy - matematik yondashuv.

Demak, Ekstrapolyatsiya usullari murakkab va sodda bo'lishi mumkin. Oddiy ekstrapolyatsiya usullari darajalarning mutlaq qiymatlari, o'rtacha mutlaq o'sish, davomiyligining o'rtacha darajasi, o'rtacha o'sish sur'atlarining kelajakdagi nisbiy barqarorligini taxmin qilishga asoslangan.

Jahon tovar bozori kon'yunkturalarini istiqbollashda "ekstrapolyatsiya usuli", ya'ni matematik statistikaning keng qo'llashga asoslanadi.

SHuningdek, bozor kon'yunkturasini o'rganishda zamonaviy marketingning o'rnini kattadir. SHuning uchun kon'yunkturaning tahlilida marketing tahlili va marketing tadqiqotlari uning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu marketing tsiklining hamma bosqichiga katta ta'sir ko'rsatadi. Firmaning

bozordagi holati, kelajakdagi imkoniyatlari marketing faoliyatidagi strategiyalar etarli darajada tashqi shart-sharoitlarga va bozor kon'yunkturasiga bog'liqdir.

Nazorat savollari:

1. Tovar bozori kon'yunkturasini istiqbollash bo'yicha asosiy yondashuvlarni ayting?
2. Ekstrapolyatsiya usullarini jahon tovar bozorlari kon'yunkturalarini istiqbollashda qo'llash mexanizmini ayting?
3. Marketingda jahon tovar bozorlari kon'yunkturalarini istiqbollash yo'nalishlari?
4. Korxonalar faoliyatida turli hil istiqbollash usullaridan foydalanish yo'llari?
5. Ochiq iqtisodiyotning mohiyatini ayting?
6. 2020 yil 24 yanvardagi Murojaatnomada, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "ochiq iqtisodiyot" bo'yicha qanday fikrni berganlar?
7. Istiqbol yillarda Xitoyning tashqi savdo xukmronligi yana qancha davom etadi?
8. Qaysi mamlakatlar tashqi savdo miqdori bo'yicha Xitoyni quvib o'tishi mumkin yoki iqtisodiy salohiyati etarli?
9. Xitoy tovar bozori kon'yunkturasini qanday istiqbollash mumkin?
10. Hozirgi davrda kon'yunkturani tadqiq etishning necha hil yondashuvni mavjud?
11. Iqtisodiy tahlilga asoslangan yondashuv kon'yunkturani o'rganishning mohiyatini ayting?
12. Murakkab kombinatsiyali yoki kompleks tahlil usullarini tushuntiring?
13. Ekstrapolyatsiya usulining mohiyatini ayting?
14. Interpolyatsiya nima degani?
15. Trend modellari nima degani?
16. Marketing – nima degani?
17. Marketing o'z tarkibida qanday xususiyatlarga ega?
18. O'zbekistonda marketing faoliyatini yanada qanday rivojlantirish mumkin?

Uyga vazifa!

Talabalarning “Jahon tovar bozori kon’yunkturasining istiqbollash usullari” mavzusini chuqur o’zlashtirishi hamda amaliyot darsiga puxta tayyorgarlik ko’rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

1) mavzu boshida berilgan “Tayanch iboralari” so’zlarining tushunchasiga ega bo’lish;

2) mavzu so’nggida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko’rish;

3) Jahon tashqi savdo-sotiqni pandemiya davrigacha, pandemiya davrida va pandemiya davridan so’nggi holati, asosiy tovarlar tarkibi va undagi o’zgarishlar dinamikasi tahlillari bo’yicha talabalar tomonidan guruhlariga bo’lingan holda “Taqdimot” o’tkaziladi.

V BOB. JAHON BOZORIDA XOMASHYO TOVARLARI SAVDOSI VA XOMASHYO TOVARLARI BOZORI KON'YUNKTURASI TADQIQOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

5.1. Jahon bozorida xomashyo tovarlari savdosi.

5.2. Jahon xomashyo tovarlari bozori kon'yunkturasi tadqiqotining o'ziga xos xususiyatlari.

5.3. Jahon xomashyo bozorining hozirgi holati.

5.4. Jahon neft va neft mahsulotlari bozorida narx shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari.

Tayanch iboralari: kon'yunktura, jahon bozori, xomashyo, iqtisodiy sanksiya, neft, saldo, “siyosiy o'yin”, savdo imtiyozlari, dollar, rubl, jahon neft bozori, iqtisodiy inqiroz, siyosiy inqiroz, “OPEK+”, marketing, jahon bozorlarini tadqiq qilish.

5.1. Jahon bozorida xomashyo tovarlari savdosi

So'nggi yillarda jahon savdo aylanmasida xomashyo tovarlarining ulushi tobora kamayib borayotganini kuzatishimiz mumkin. Xo'sh, buning asosiy sabablari nimada?

Birinchidan: jahon savdosida xomashyodan ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlar savdosini kengayishi;

Ikkinchidan: tayyor mahsulotlar bahosining xomashyo tovarlari bahosiga nisbatan ortib borayotganligi;

Uchinchidan esa, jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish resurslarining tobora kamayib borishidir.

Buning sabablari quyidagilardan iboratdir:

Ammo ba'zi davriy bo'lmagan omillar ta'sirida xomashyo tovarlarning narxi jahon bozorida sezilarli darajada ko'tarilishi yoki pastlashi mumkin. Bu jarayonlar iqtisodiy inqirozlar davrida, ayniqsa, pandemiya sharoitida yaqqol yuzaga chiqdi.

Agarda jahon tashqi savdo tarkibini ko'rib chiqsak, rivojlanayotgan mamlakatlarning eksporti tarkibida xomashyo mahsulotlari asosiy ulushni tashkil qilishini ko'rish mumkin. Hammamizga ma'lumki, jahonning bir qator sanoati

rivojlangan Yaponiya, Singapur, Gonkong kabi mamlakatlari xomashyoni deyarli 99-100 miqdorida, shuningdek, Yevropa Ittifoqining ham ayrim sanoati rivojlangan mamlakatlari sanoat tarmoqlari uchun asosiy xomashyoni 50-60 foizini jahon bozoridan import qiladi. SHuningdek, jahon tashqi savdosida xomashyolarning ulushi 7 foizni tashkil qiladi.

Bugungi zamonaviy jahon xo'jaligida mineral xomashyo bozori kon'yunkturalarini shakllanishiga bu sohaga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalar miqdorining ko'payishi ta'sir etmoqda. Shu bilan birgalikda, dengiz va okean tublaridan mineral xomashyolarni qazib chiqarish va qidiruv ishlari uchun xomashyoga muhtoj bo'lgan mamlakatlar salmoqli pul mablag'larini sarflanmoqda. Biz yuqorida ta'kidlab o'tgan aynan Yaponiya, Singapur va Gonkong mamlakatlari ushbu xususiyatga yaqqol misol bo'ladi.

Yangi industrial mamlakatlarida sanoat sohasining rivojlanishi tahlillaridan kelib chiqib aytish mumkinki, ularning sanoat sohasini rivojlanishiga sabab bo'lgan eng asosiy omil - bu ushbu mamlakatlar hududlarida muhim bo'lgan tabiiy resurslarning mavjudligidir.

Masalan AQSh, Kanada, Braziliya, Hindiston, Rossiya, Xitoy, Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari mineral resurslarga boy bo'lib, ularning sanoat tarmoqlari uchun bir qator muhim bo'lgan, neft, gaz, ko'mir, qora va rangli metal, oltin va qurilish xomashyolari kabilar mavjuddir. Fors ko'rfazi va Shimoliy Afrika mintaqasida joylashgan arab mamlakatlari esa neft va gaz kabi yirik energetik resurslarga boy hisoblanishadi.

Geologik-qidiruv natijalari va BMTning ma'lumotlariga ko'ra, jahon xo'jaligida tabiiy va mineral resurslarga boy bo'lgan materik - bu Osiyo materigidir. SHuning uchun ham jahon bozorlariga xomashyoning asosiy qismini Osiyo mamlakatlari etkazib bermoqda.

XX asrning oxirlariga kelib Fors ko'rfazi mamlakatlari tomonidan mavjud neft xomashyosining eksporti evaziga jamg'arilgan yirik kapitallari natijasida jahon xo'jaligida moliyaviy jihatdan yirik donor mamlakatlariga aylanishdi.

Masalan, Fors Ko'rfazi xududidagi Saudiya Arabistoni, BAA, Qatar, Quvayt, Bahreyn, Iroq va Eron kabi mamlakatlarning aynan iqtisodiy taraqqiyoti neft xomashyosi eksporti evaziga olingan xorijiy valyutalar tushumining milliy iqtisodiyotning boshqa sohalarini rivojlantirishga yo'naltirishdi va yo'naltirishmoqda. YAqin istiqbol yillarda ham ushbu an'ana davom etishiga shakshubha yo'qdir.

Biroq jahon xomashyo savdosi va undagi narxlar so'nggi yillarda jahondagi iqtisodiy va siyosiy jihatdan yuqori bo'lgan mamlakatlarning "siyosiy o'qinlari" va "siyosiy holat"dan kelib chiqqan holda turli o'zgarishlarni, xususan, narxning birdaniga ko'tarilishi yoki pasayishini kuzatish mumkin.

5.2. Jahon xomashyo tovarlari bozori kon'yunkturasi tadqiqotining o'ziga xos xususiyatlari

Mineral xomashyo va yoqilg'i bozorlari rivojlanishida milliy iqtisodiyotlardagi davriy va tarkibiy o'zgarishlar, jumladan sanoatni asosiy turdagi xomashyo va materiallar bilan ta'minlashda o'z aksini topmoqda.

Bunday sharoitlarda mazkur bozorlar kon'yunkturasining shakllanishiga joriy talabning cheklanganligi, ishlab chiqarish quvvatlarining to'liq yuklanmaganligi hamda mahsulot ishlab chiqarish birligiga sarflanadigan xomashyo va materiallarni tejaydigan ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish ta'sir etadi.

Kon'yunkturaga yana iste'molchilarning to'xtovsiz ravishda ularni xomashyo bilan ta'minlash kafolatlari hamda yuqori darajadagi tijorat zahiralarini ushlab turish ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Ba'zi xomashyo tovarlari bozori kon'yunkturasi xalqaro kelishuvlar va shartnomalar ta'sir qiladi.

Masalan, mamlakatimizda paxta tolasini eksport qilishda jahon tajribasida qo'llaniladigan uslubga ko'ra, xorijiy kompaniyalar bilan eksport shartnomasini imzolashda asosan belgilangan kontraktatsiya shartnomalariga muvofiq amalga oshirilishi tajribasi uzoq yillardan buyon mavjuddir.

Ya'ni xomashyoga ega bo'lgan mahalliy kompaniya xorijiy hamkorga mahsulot tayyor bo'lmagan (yoki hosil pishmagan) bo'lsa-da mazkur mahsulotni 6 oy yoki keyingi yili xarid qilishi uchun oldindan ayni paytdagi jahon narxiga asoslangan holda, ya'ni kotirovkaga (narxning shakllanish jarayoni) asoslanib kontraktatsiya shartnomasini tuzishi mumkin. Mamlakatimizning paxta tolasiga bo'lgan kotirovka narxi Liverpool birjasiga asoslanadi.

Bunday tajribalarni biz jahon qishloq xo'jaligida eng oliy paxta tolasi naviga ega bo'lgan Misr va Italiya kompaniyalari o'rtasidagi eksport shartnomalarini ham misol tariqasida ta'kidlashimiz mumkin. Bunda Italiyaning yirik to'qimachilik kompaniyalari Misr dalalarida hali pishmagan va etishtirilmagan paxta tolasi uchun kamida 1 yil oldin kontraktatsiya

shartnomalarini tuzib qo'yishadi va narxning kelishuvi shartnoma tuzilayotgan paytdagi narxdan kelib chiqqan holda imzolanadi.

Albatta, bunday kelishuvlarning maqsadi xomashyolar narxining kelishilgan darajada ushlab turish va ularni eksport kvotalari hamda barqaror fondlarni (bufer zahiralar) tashkil etish orqali boshqarishdir.

Yoki boshqa bir misolni olaylik, AQShdagi deyarli barcha sanoat kompaniyalarning neftga bo'lgan ehtiyoji va talabi hozirgi kunda ham katta. Neft xomashyosi mamlakat hududlarida etarlicha bo'lsada, AQShning iqtisodiy siyosatidan kelib chiqib, hozirgi sharoitda asosiy xomashyoni xorijdan import qiladi. Bundan ko'zlangan maqsad - o'zining hududlaridagi ko'plab xomashyolarning zahiralarini kelajak avlod uchun saqlab qo'yish chorasini ko'radi. Bu jarayon, albatta, jahon neft bozorida neft narxining me'yoriy jihatdan bir tekis turishiga ma'lum bir imkon beradi.

Shuning uchun ham, 1973 yilgacha, ya'ni Birinchi jahon neft inqirozigacha AQSh ishlab-chiqarish korxonalari neft narhining jahon bozorida bir me'yorda bo'lganligi tufayli sanoat tishlab chiqarilishi jarayoni bir tekis ishlashiga imkon bergan. Ma'lumki, Birinchi jahon neft inqirozi 1973 yilda sodir bo'lgan va uning eng asosiy sababi neft narhining 4 marotabaga oshirilishi natijasida ro'y bergan edi.

O'z o'rnida ta'kidlash joizki, jahon neft bozorida eng oliy neft markasi Liviyaga tegishlidir, ya'ni eng oliy navli va sifati yuqori bo'lgan neftni Liviya Yevropa mamlakatlariga etkazib beradi. Shuning uchun ham Yevropaning ko'plab yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat tarmoqlari asosan Liviyaning neftiga moslashtirilgan. Bundan tashqari Jazoir, Tunis va Misrning neft xomashyolariga bo'lgan talab va ehtiyoj Yevropa kompaniyalaridan yuqoridir.

Shunday qilib, **xomashyo tovarlari bozori kon'yunkturasining tahlili** quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1) O'rganilayotgan ma'lum bir davrdagi xomashyo tovarlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilishdagi o'zgarishlar, xomashyo bozori tarkibidagi o'zgarishlar, xomashyo tovarlarining xalqaro savdosining hajmi, shuningdek, ushbu tovarlarning geografik yo'nalishlari, narx shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari, bozordagi narx darajalari dinamikasidagi o'zgarishlar aniqlanadi (ishlab chiqaruvchi va iste'molchi mamlakatlar kesimida, bir va yarim yillik yakunlari bo'yicha).

2) Tahlil qilinayotgan davrdagi tovarni ishlab chiqarish, uning muomalasi va iste'moli sohalarida yuz bergan o'zgarishlarga sababchi bo'lgan omillar aniqlanadi va o'rganiladi. Tashqi savdoda narxning shakllanishi mamlakatdagi narxning shakllanishidan sezilarli darajada farq qiladi. Eksport va import tovarlarining narxi xalqaro qoidalar bo'yicha hamkorlik yuzasidan o'tkazilayotgan muloqot jarayonlari davomida o'rnatiladi.

5.3. Jahon xomashyo bozorining hozirgi holati

Jahon xomashyo bozoridagi ahvoli va undagi narx-navo holati 2022 yilning boshlariga kelib o'ta tahlikalik holat yuzaga keldi. AQSh hukumatining 2022 yil 8 mart kuni bergan bayonotiga ko'ra, "agar kerak bo'lsa, yoqilg'i narxini pasaytirish uchun neftni zaxiralardan bozorlarga olib chiqishi mumkin" (J.Bayden). Demak, AQSh Rossiyadan neft va gaz importini rasman 2022 yilning 8 martidan ta'qiqladi. SHuningdek, Buyukbritaniya Bosh vaziri ham 2022 yil oxirigacha Rossiya neftidan voz kechishini ma'lum qildi.

Demak Shell kompaniyasi Rossiya neft va gazidan voz kechganini e'lon qildi? Xabaringiz bor, "Shell Oil Company" Germaniyaning "Royal Dutch Shell" kompaniyasining sho'ba korxonasidir. U AQShda joylashgan jahondagi yirik neft kompaniyasidir. SHuningdek ushbu kompaniya anglo-golland hamkorligidagi "Oil major" TMKga tegishlidir.

Britaniyaning British Petroleum neft korporatsiyasi ham Rossiyadan neft va gaz sotib olish bo'yicha yangi bitimlar tuzishni deyarli to'xtatdi.

Buning ta'sirida jahon xomashyo bozorida keskinlik vaziyat tus olmoqda. Xususan ko'plab mamlakatlarda bir qator xomashyolarning narxi kun sayin tobora ko'tarilib bormoqda.

AQShda benzin narxi tobora o'sib bormoqda va narx rekord darajada oshib ketdi. 2008-yilda eng qimmat darajaga ko'tarilib, 1 gallon(taxminan 4,5 litr) uchun 4,17 dollarga chiqqandi. Hozir esa 1 gallon (4,5 litr) uchun 5 dollargacha ko'tarilib ketgan. Kaliforniya shtatida hattoki 8 dollargacha chiqib ketgan.

Demak, 2022 yil fevral oyining 2-dekadasidan boshlab Ukrainadagi harbiy harakatlar sabab neft narxi oshishda davom etmoqda.

Hozirda Brent tipidagi neftning 1 barrel narxi 130 dollargacha qimmatlashib ketgan. Bu 2012- yildan beri eng yuqori narx.

Umuman tarixda neft narxi eng qimmat bo'lgan vaqti 2008-yilda 1 barrel uchun 146 dollarga chiqqan. YAqin kunlarda tarixan maksimum narxga qaytsa ajab emas.

Uranning spot narxi bir funt uchun **59,75** dollarga etdi. Bu 2011 yilda Fukusima-1 atom elektr stantsiyasidagi avariya dan keyingi eng yuqori ko'rsatkich bo'lib, undan keyin narxlar keskin tushib ketgan.

Narxlarning bugungi o'sishiga Rossiyadan jahon bozoriga uran etkazib berish to'xtab qolishi haqidagi xavotirlar sabab bo'lmoqda.

London metall birjasida alyuminiy narxi o'zining tarixiy rekordini yangiladi. Bir tonna alyuminiy narxi 3600 dollardan oshdi.

Ukrainadagi mojar o Xitoyda ko'mir narxining oshishiga olib keldi. Xitoyning ko'mir rejalari energiya narxining oshishi tufayli izdan chiqish xavfi ostida. Bu esa mamlakatning iqtisodiy o'sishiga yana bir zarba berishi mumkin. Ukrainadagi mojar o energiya ta'minotini to'xtatib qo'yishi mumkinligidan qo'rquv yoqilg'iga bo'lgan talabning oshishiga sabab bo'layotgani sababli ko'mir narxi oshib bormoqda. Xitoyning Davlat rejalashtirish agentligi ko'mir narxini pasaytirish bo'yicha chora-tadbirlarning navbatdagi bosqichini e'lon qildi va agar ma'lum bir diapazon buzilgan taqdirda, unga aralashish bilan tahdid qildi.

Yevropada gaz narxi shiddat bilan oshib bormoqda. Jahon birjalarida 1000 m³ gaz narxi doimiy barqororlikka ega emas. Har kuni narx "o'ynamoqda". Bugun 1800 dollar bo'lsa, ertaga 2000 dollargacha ko'tarilib ketmoqda yoki indinga 1300 dollarga tushmoqda.

Masalan, 2022 yilning yanvar oyida Yevropada Rossiya gazi 1000 m³ uchun 700-800 dollar atrofida edi. Harbiy harakatlar sabab gaz narxi keskin, deyarli 2,5 barobarga oshib ketdi, ya'ni Yevropada gaz narxi 2021-yil 23-dekabr dan beri birinchi marta fevral oyining boshlariga kelib 1000 kub metr uchun 1800 dollardan oshdi, fevralning 2-yarmiga kelib esa 3000 dollargacha ko'tarildi.

Yevropada gaz zaxiralari deyarli tugab bo'ldi. Yevropani gaz bilan aynan Rossiya etkazib berish hajmida ta'minlay oladigan boshqa resurs yo'q hozircha. AQSh yoki Qatar varianti bor, lekin ular hozircha butun Yevropa sanoati uchun gaz etkazib berish imkoniga ega emas (zaxirasi bor, etkazib berish infrastrukturasini yo'q). Xabaringiz bor, 2022 yilning 10 martidan boshlab aksariyat Yevropa mamlakatlarida gaz iste'moli uchun narx 26-35 foizgacha ko'tarildi.

Eng qizig'i gaz narxi 1000 m³ uchun butun dunyoda 900 dollarga yaqin bo'lib turganida, Rossiya Germaniyaga "Shimoliy oqim-2" yo'nalishi bo'yicha uch

barobar arzon - 1000 m³ gaz uchun 300 dollardan etkazib berishga rozi edi. Shuning uchun Germaniya tish-tirnog'i bilan urushga qarshilik qildi.

Endi Yevropa AQShdan 1000 m³ gazni kamida 2000 dollardan olishga tayyorgarlik ko'rmoqda. G'alati paradoks.

Ayni paytda Yevropa Ittifoqi o'z gazining 40 foizga yaqinini Rossiyadan oladi. "Transport & Environment" tadqiqot guruhi ma'lumotlariga ko'ra, gaz sotib olish kuniga taxminan 118 million dollarni tashkil etadi.

2022 yilning ilk oyida Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tabiiy gazni Rossiyadan 1000 m³ gaz narxi 1000 dollardan import qilishgan bo'lsa, fevral oyiga kelib uning narhi xatto 3000 dollargacha ko'tarildi. Agarda siyosiy vaziyat o'zgarmasa gazning narhi yanada ko'tarilishi kutilmoqda. Yevropada esa gaz zaxirasi esa tugab bormoqda.

5.1 - jadval

Jahonning "Eng qimmat shaharlari" reytingi (2022 y.)

№	Shaharlar nomi	Mamlakat	№	Shaharlar nomi	Mamlakat
1	Tsyurix	Shveytsariya	37	Vankuver	Kanada
2	Tokio	Yaponiya	40	Moskva	Rossiya
3	Jeneva	Shveytsariya	41	Los-Anjeles	AQSh
4	Osaka	Yaponiya	42	Shanxay	Xitoy
5	Kobe	Yaponiya	47	Nyu-York	AQSh
6	Sidney	Avstraliya	59	Pekin	Xitoy
7	Melburn	Avstraliya	430	Muskat (Maskat)	Ummon
8	Singapur	Singapur	437	Mumbay (Bombey)	Hindiston
9	Oslo	Norvegiya	438	Dehli	Hindiston
10	Parij	Frantsiya	496	Katmandu	Nepal
11	Frankfurt Mayn	Germaniya	498	Karachi	Pokiston

Manba: jadval "Economist Intelligence Unit" ma'lumotlari asosida ishlab chiqildi.

BMT ekspertlari tahlillariga ko'ra, Shveytsariyaning Syurix shahri mahsulotlar narxlarini qimmatligi jihatidan "Jahonning eng qimmat shahri" sifatida tan olindi. Tahlillar 400 ta muhim mahsulotlar iste'moli va 160 hildagi kundalik

tovarlar va xizmatlar (kiyim-kechak, oziq-ovqat, transport, meditsina xizmati, ijara, kommunal to'lovlar, kundalik ehtiyojlar va xususiy maktab va bog'chalardagi to'lovlar orqali jami 150 mamlakatning 500 ta shahrida o'tkazilgan (qarang: 5.1-jadval).

Umuman olganda oxirgi 3 yil davomida jahon xo'jaligida iste'mol mahsulotlar narhining holati bo'yicha ishlab chiqilgan jahon reytingida doimiy ravishda Shveytsariya, Yaponiya, Avstraliya kabi mamlakatlar va ularning shaharlari yuqori uchlik qatoridan joy egallab kelishgan. Shuningdek, iste'mol mahsulotlarining arzonligi bo'yicha jahon reytingida esa, so'nggi yillarda doimiy ravishda Pokiston, Nepal va Hindiston kabi mamlakatlar o'rin olishgan.

5.4. Jahon neft va neft mahsulotlari bozorida narx shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari

Bugungi kunda dunyo neft zahiralarini 1551 mlrd.barrelni tashkil qiladigan bo'lsa, shundan Arab davlatlarining ulushi 48 foiz yoki 744,5 mlrd. barrelni tashkil qiladi.

Dunyo mamlakatlarining neftga bo'lgan kunlik ehtiyojlari qariyb 90 mln.barrelni tashkil qilsa, shundan 50 foizdan ko'proq qismi "Arab dunyosi" mamlakatlari tomonidan ta'minlanadi. Shuningdek, jami jahon bo'yicha neft ehtiyojining 3/1 qismini, ya'ni 30 mln.barrelni Osiyo mamlakatlariga to'g'ri keladi. Demak, jahon neft zahiralarining 48 foizi "Arab dunyosi"ga to'g'ri kelsa, uning salkam 60 foiz zahirasi Fors ko'rfazi mamlakatlarida joylashgan, chunki Eron mamlakati ham dunyo neft zahirasi 10 foizini tashkil qiladi.

Ko'plab mahalliy va xorijiy adabiyotlarda Saudiya Arabistoni 2012 yilgacha dunyodagi eng yirik neft zahirasi ega bo'lgan mamlakat sifatida e'tirof qilinar edi. Biroq 2010-2012 yillarda Venesuelada neft geologik-qidiruv ishlaridan so'ng isbotlangan neft zahiralarini miqdori aniqlangach, ushbu mamlakat neft zahirasi bo'yicha jahon xo'jaligida 1-o'ringa ko'tarildi. Neft zahiralarini so'nggi 2-3 yil ichida jahonning Venesuela, Eron, Iroq, Rossiya, Saudiya Arabistoni kabi mamlakatlarda topilayotgan yirik neft konlari hisobiga dunyo mamlakatlariga bo'lgan ulush ko'rsatkichlari ham tobora o'zgarib bormoqda.

Demak, 5.2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, dunyo mamlakatlari ichida neft xomashyosiga va uning zahirasi eng boy bo'lgan davlat – bu Venesuela hisoblanadi. Ayni paytda Saudiya Arabistonida neft zahirasi qariyb 266,2 mlrd.barrel deb baholanmoqda. OPEK ekspertlarining tahlillariga ko'ra, agarda

Saudiya Arabistoni mamlakati so'nggi 3 yil davomida qazigan neft xomashyosining jarayoni shu tarzda davom etgudek bo'lsa, u holda mazkur mamlakatning neft zahirasi tugash davri uzog'i bilan 75 yilga etishini taxmin qilishgan.

5.2 - jadval

Jahon mamlakatlari geologik-qidiruv ishlariga asosan isbotlangan neft zahiralarini va ishlab chiqarish bo'yicha ko'rsatkichlar (2021y.)

№	Mamlakatlar nomi	Zahira miqdori (mlrd.barrel)	Dunyo bo'yicha zahira ulushi
1.	Venesuela	303,8	19,6
2.	Saudiya Arabistoni	266,2	17,2
3.	Kanada	170,5	11,0
4.	Eron	157,2	10,1
5.	Irok	148,8	9,6
6.	Quvayt	101,5	6,5
7.	BAA	97,8	6,3
8.	Rossiya	80,0	5,2
9.	Liviya	48,4	3,1
10.	Nigeriya	37,5	2,4
...43	Turkmaniston	0,6	0,04
44	O'zbekiston	0,6	0,04
.....	Qolgan mamlakatlar	138,1	8,9
	Dunyo zahiralarini	1.551	100,0

Manba: <https://www.nonews.co/directory/lists/countries/oil-reserves> va finanz.ru/novosti/aktsii/dokazanniye-zapasy ma'lumotlari asosida jadval shakliga keltirildi.

Jahon neft bozoridagi savdo hajmi. Neft hozirgi davrda birinchi darajali energiya asosiy manbasi bo'lib qolmoqda. Undan keng darajada foydalanish jahon iqtisodiyotining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Shu bilan birgalikda, energetika va kimyo sanoatida neft va neft mahsulotlaridan xomashyo sifatida foydalanish yil sayin tobora ortib bormoqda. Jahon neft savdo hajmi 2021 yilda 644 mlrd. doll.dan oshib ketdi, bu jahon tovar ayirboshlash hajmining atigi 4 foizini tashkil qilsa-da,

biroq mana shu 4 foizlik savdo ulushi jahon sanoat bozorining asosiy fundamentidir¹⁵.

2021 yilga kelib jahon neft importi 3 432 mln.tonnaga etdi. Bu raqamni foiz ulushlarida ko'rsak hududlarga quyidagicha taqsimlanadi: Yevropa - 33,9 foiz, Osiyo – 33,5 foiz, Shimoliy va Markaziy Amerika - 27 foiz, Janubiy Amerika - 2,4 foiz, Afrika - 2,1 foiz, Okeaniya - 1,1 foiz.

Agarda mamlakatlar miqyosida ko'radigan bo'lsak, u holda jahonning eng yirik neft importchilari: AQSh - 851,6 mln.tonna; Xitoy - 559,7 mln.tonna; Hindiston - 195,5 mln.tonna va Yaponiya - 189,6 mln.tonna neft xomashyosini import qilgan¹⁶. Jahon neft bozorida neft xomashyosini 133 ta davlat sotib olgan, shulardan 82 tasi yiliga 1 mln.tonnadan ziyod neftni import qiladi hamda 30 ta davlat nisbatan ko'p neft xomashyo xarid kiluvchi davlatlar qatoriga kiradi.

OPEKning eng asosiy a'zosi hisoblangan Saudiya Arabistonining neft sanoati jahon neft bozori bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ba'zi holatlarda neft qazish kvotasini oshirib yoki kamaytirib jahon neft bozoridagi holatiga keskin ta'sir ko'rsatishi mumkin. Saudiya qariyb 10 yildan buyon jahon neft bozorida neft qazish kvotasini salkam 25 foizga oshirishga muvaffaq bo'lgan. Chunki 2012 yilda xalqaro xamjamiyat tomonidan Eronning neft eksportiga nisbatan qo'yilgan "iqtisodiy jazo" tufayli, Saudiyaning neft qazish miqdori Eron hisobiga ko'paytirilgan edi. Jahon neft bozorida asosiy siyosiy o'yinlar "ikki gigant tanker": Saudiya va Rossiyaning iqtisodiy siyosatiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, jahon neft bozorida 1 barrel "Brent" markali neft xomashyosining narxi 2020 yilning 20 aprelida rekord darajada, ya'ni 19 dollargacha tushib ketdi va u 2002 yildagi narxiga tenglashgan edi. Ushbu "Brent" markali neft xomashyosining jahon neft bozoridagi eng baland eksport narxi - 2008 yilning 16 mayida sodir bo'lgan bo'lib, o'shanda 152 dollargacha ko'tarilgan edi. 2020 yilning 20 aprel kuni birja savdolarida amerikaning neft narxi ham tarixda ilk bor manfiy darajaga tushib ketdi va xomashyoga bo'lgan talabning keskin pasayishi neft bozorining texnik xususiyati bilan ham bog'liq bo'ldi.

Ammo ko'plab neft xomashyosiga ega bo'lgan mamlakatlar neft narxi tushib ketgan bo'lsa-da, biroq ular tomonidan neftning arzon narxda sotishni istashmadi va ular eksport kontraktlarini, ya'ni kontraktatsiyalarini faqatgina 1 barrel neft bahosini 30 dollardan yuqori narxlarda tuzishlarini belgilashdi.

¹⁵<https://www.google.com/search?client=ms>

Albatta, neft xomashyosining sifati va o'zining turiga qarab narxlar neft bozorida turlicha belgilangan. 2020 yilning boshlarida yuzaga kelgan neft inqirozi barcha navlarining narxlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Masalan, jahon neft bozorida asosan Yevropa mamlakatlari tomonidan xarid qilinadigan va dunyodagi eng namunaviy "Brent Crude" neft navining narxi ham 2019 yil dekabr oyidagi belgilangan 84 dollardan 2020 yilning aprel oyining o'rtalariga kelganda 26 dollargacha arzonlashdi.

Xatto 2020 yilning I-choragida Yevropa mamlakatlari mazkur oliy sifatga ega bo'lgan neft xomashyosini 2020 yilning aprel-iyun oylarida ham jahon neft bozorida yuzaga keladigan narxning qanday bo'lishidan qat'iy nazar - 26 dollardan xarid qilinishi belgilab qo'yildi.

2020 yilning 26 martida jahon bozorida neftning narhi 27 dollarga tushganda Rossiya va Xitoy o'rtasida juda katta miqdordagi neftni eksport qilish bo'yicha "Neft bitimi" imzolandi. Biroq, mazkur bitimning qiymati, narhi va to'lovlari haqiqatda jahon matbuotiga oshkor qilinmadi.

Bobning qisqacha xulosasi:

Jahon bozorida va uning savdo aylanmasida xomashyo tovarlarining ulushi tobora kamayib borayotganligini asosiy sabablari sifatida jahon savdosida xomashyodan ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlar savdosini kengayishi va ular bahosining xomashyo tovarlari bahosiga nisbatan ortib borayotganligi ma'lum bo'ldi. Ammo ba'zi davriy bo'lmagan omillar ta'sirida ham xomashyo tovarlari narxi jahon bozorida sezilarli darajada ko'tarilishi yoki pastlashi mumkinligini ko'rib chiqdik.

Bugungi zamonaviy jahon xo'jaligida mineral xomashyo bozori kon'yunkturalarini shakllanishiga bu sohaga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalar miqdorining ko'payishi ta'sir etmoqda. SHu bilan birgalikda, dengiz va okean tublaridan mineral xomashyolarni qazib chiqarish va qidiruv ishlari uchun xomashyoga muhtoj bo'lgan mamlakatlar salmoqli pul mablag'larini sarflanmoqda.

¹⁶ <https://www.google.com/search?ie=UTF-8&>.

Nazorat savollari:

1. Jahon bozorida xomashyo tovarlari savdosini mohiyatini ayting?
2. Jahon neft bozoridagi savdo hajmi tahlilini ayting?
3. Xomashyo tovarlari bozori kon'yunkturasining tahlilini ketma-ketlik tartibda ayting?
4. Jahon xomashyo tovarlari bozori kon'yunkturasi tadqiqotining o'ziga xos xususiyatlari.
5. Jahon neft va neft mahsulotlari bozorida narx shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari.
6. Jahon xomashyo bozoridagi ahvol va xomashyolarning narxlari 2022 yilning boshlariga kelib qanday tus oldi?
7. Jahon neft bozoridagi narxning keskin o'zgarish dinamikasini eng muhim sabablarini ayting?
8. Jahon bozorida xomashyo tovarlari savdosi deganda nimani tushunasiz?
9. Jahon xomashyo tovarlari bozorida nar qanday shakllanadi?
10. Jahonning qaysi xududlari yirik mineral resurslarga boy hisoblanadi?
11. Jahon xomashyo bozorining savdosida mahsulotlar eksporti va importi jihatidan qaysi mamlakatlar etakchi hisoblanishadi?
12. Nima sababdan jahon tashqi savdoda xomashyolar savdosining ulushi tobora kamayib bormoqda?
13. 2022 yilning boshlarida jahon bozorida qaysi strategik xomashyolarning narhi ko'tarildi yoki pasayib ketdi? Nima uchun?
14. Kontraktatsiya deganda nimani tushunasiz va uning mohiyatini ayting?
15. Jahonning qaysi mamlakatlari neft zahiralariga boy hisoblanishadi?
16. Jahon neft bozori OPEK tashkiloti qanday tartibga solib turadi?
17. Jahon savdo-sotiqda neft savdosining ulushi necha foizni tashkil qiladi?
18. Mahsulotning ichki va eksport narhlari o'rtasida tafovut bo'ladimi?
19. Nima sababdan AQSh pandemiya davrida jahon neft bozoridan ko'plab miqdorda neft xomashyosini sotib oldi?

Uyga vazifa!

Talabalarning “Jahon bozorida xomashyo tovarlari savdosi va xomashyo tovarlari bozori kon'yunkturasi tadqiqotining o'ziga xos xususiyatlari” mavzusini

chuqur o'zlashtirishi hamda amaliyot darsiga puxta tayyorgarlik ko'rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

1) mavzu boshida berilgan "Tayanch iboralari" so'zlarining tushunchasiga ega bo'lish;

2) mavzu so'nggida berilgan "Nazorat savollari"ga tayyorgarlik ko'rish;

3) har bir talaba tomonidan mustaqil ravishda jahon tashqi savdo-sotiqda xomashyolar ulushini tahlil qilish asosida jadval ishlab chiqishi lozim.

VI BOB. JAHON BOZORIDA TOVARLAR AYLANMASI VA UNDA EKSPORT-IMPORTNING UZVIY BOG'LIQLIGI

6.1. Jahon tashqi savdosining tarkibi va uning ulushlari.

6.2. Jahon bozorining asosiy ishtirokchi mamlakatlari.

6.3. Jahon bozorida eksport va importning uzviy bog'liqligi.

6.4. Jahon bozorida rivojlanayotgan mamlakatlarning faol qatnashish imkoniyatining asosiy omillari.

Tayanch iboralari: tashqi savdo, eksport, import, demping, dimping siyosati, saldo, konsignatsiya, maxsus eksport, boj, boj tarifi, fors-major, kelishuv, shartnoma, reeksport, susidiya, dotatsiya.

6.1. Jahon tashqi savdosining tarkibi va uning ulushlari

Jahon tashqi savdosida eksport muhim ahamiyat kasb etadi va u har qanday milliy iqtisodiyotning davlat byujetini xorijiy valyutalar bilan ta'minlaydi, shuningdek, eksport evaziga olinadigan valyuta tushumlari mamlakatning valyuta zahirasini jamg'arilishida asosiy manba hisoblanadi.

Xo'sh, umumiy eksportning mahsulotlarga ulushi bo'yicha qaysi mahsulotlarni ulushi yuqori hisoblanadi? Tahlillarga ko'ra, umumiy eksportning quyidagi tarkibini ta'kidlash joiz:

- umumiy eksportning qariyb 61,3 foizi mahsulotlar;
- umumiy eksportning 7,4 foizi kapital (ya'ni 1,3 trln.dollarini kapital eksporti tashkil qilgan;
- umumiy eksportning 7 foizi xomashyolar;
- umumiy eksportning 1,6 foizi maxsus ekport;
- umumiy eksportning 16,4 foizi xizmat ko'rsatish sohasi (deyarli 3 trln.dollari) shundan:
 - turizm 10,3 foizi turizm (1,9 trln.dollar);
 - boshqa xizmatlar 6,2 foiz (1,1 trln.doll);
 - umumiy eksportning 1,7 foizi (312,0 mlrd.dollari) ishchi kuchi eksporti;
 - umumiy eksportning 1,3 foizi (187,2 mlrd.dollari) reeksport;
 - qolgan 3,3 foiz esa boshqa mahsulotlarni tashkil qiladi.

Demak jahon tashqi savdosining eksporti tarkibida mahsulotlarning ulushlarini 6.1-jadval orqali tahlil qimlish mumkin.

6.1-jadval

Jahon tashqi savdoda eksportdagi mahsulotlarning ulushi

T/r	Mamlakatlar	Umumiy eksport (mlrd.dollar)	Jahon eksportidagi ulushi (foizda)
1	Mahsulotlar	11,5	61,3
2	Xizmat ko'rsatish	2,9	16,4
3	shundan turizm	1,9	10,3
4	Boshqa xizmatlar	1,1	6,2
5	kapital	1,3	7,4
6	xomashyo	1,2	7,0
7	ishchi kuchi eksport	0,3	1,7
8	maxsus eksport	0,3	1,6
9	reeksport	0,2	1,3
10	Boshqa mahsulotlar	5,9	3,3
	Jahon bo'yicha jami eksport	18,1	100,0

Jahon bozorida qovun savdosi. 2018 yili jahon bo'yicha qariyb 35 mln.tonna qovun etishtirilgan va bu natija 2017 yilga nisbatan 1,6 foiz ko'pdir. Qiymat jihatidan jahon bozoridagi qovun savdosining umumiy hajmi \$28,4 mlrd.dan iborat bo'ldi (avvalgi yilga nisbatan 2,2 foiz ko'p). Qiymat ifodasida bozorning umumiy hajmi logistik chiqimlar, chakana marketing xarajatlari va riteyrlarning foydalarini hisobga olmagan holda aks ettirilgan.

2007 yildan 2021 yilgacha jahon bozorida qovun savdosining umumiy qiymati yiliga o'rtacha 2,1 foiz o'sib bordi. Tahlilchilar prognoziga ko'ra, yaqin o'n yillikda qovunga ehtiyojning oshib borishi iste'mol hajmi o'sishiga olib keladi. O'sish dinamikasi yiliga 0,9 foiz darajasida bashorat qilinmoqda. Bu degani, 2030 yilga borib, jahon miqyosida qovun etishtirish hajmi 36 mln. tonnaga etadi. Eng ko'p qovun iste'mol qiluvchi mamlakat Xitoy hisoblanadi. Bu erda yiliga 13 mln.dan 17 mln. tonnagacha qovun xarid qilinar ekan. Qovunxo'rlikda ikkinchi o'rinni Turkiya (1,7 mln. tonna), uchinchi o'rinni Eron (1,6 mln. tonna), 4-o'rinni Hindiston (1,2 mln. tonna) egallaydi.

Ayni paytda bu mamlakatlar jahon miqyosidagi eng yirik qovun etishtiruvchi davlatlar ham hisoblanadi. Xususan, jahonda etishtiriladigan qovunlarning deyarli yarmi Xitoy hissasiga to'g'ri keladi, qolgan uch mamlakatdan har biriga 4-6 foizgacha ulushi to'g'ri keladi. Ushbu mamlakatlar mahsulotning juda kam qismini eksport qiladi va shuning uchun ham ular jahondagi eng yirik qovun eksportchilari ro'yxatiga kirmaydi.

Aholi jon boshiga qovun iste'mol qilinishi ko'rsatkichi bo'yicha Markaziy Osiyo mamlakatlari, Turkiya, Eron va Marokash etakchilardandir. Bu mamlakatlarda aholi jon boshiga hisoblansa, qovun iste'moli hajmi yiliga 15 dan 22 kg.gacha miqdorni tashkil qiladi. SHu o'rinda aytish joizki, jahon miqyosida aholi jon boshiga qovun iste'mol qilish yiliga bir kishi hisobiga o'rtacha 4,25 kg.dir.

Jahon miqyosida etishtirilgan qovunlar umumiy hajmining 85 foizi 14 mamlakat, ya'ni Xitoy, Turkiya, Eron, Hindiston, Qozog'iston, AQSH, O'zbekiston, Misr, Ispaniya, Gvatemala, Italiya, Meksika, Braziliya va Marokash hissasiga to'g'ri keladi. 2021 yili jahondagi 1,2 mln. gektar er maydonida qovun etishtirilgan, o'rtacha hosildorlik – gektariga 27 tonnani tashkil etdi. Hosildorlik ko'rsatkichi esa 2007 yildan 2021 yilgacha o'rtacha 1,3 foizdan o'sdi.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yili jahon miqyosida umumiy qiymati 2 mlrd.ga teng 2,5 mln. tonna qovun eksport qilingan. Eng yirik qovun eksportchilari Ispaniya, Gvatemala, Braziliya, Gonduras, AQSH, Gollandiya, Meksika va Kosta-Rika hisoblanadi. Mazkur sakkiz mamlakatning jahon bozoridagi qovun eksporti bo'yicha umumiy ulushi taxminan 80 foizni tashkil qiladi. Jahon bo'yicha qovun eksportining uchdan bir qismi ikki mamlakat - Ispaniya va Gvatemala hissasiga to'g'ri keladi.

Qovunning o'rtacha eksport narxi bir tonna uchun 800 dollarni tashkil qildi. Har bir mamlakatning eksport narxi bir-biridan keskin farq qiladi, qovunni eng yuqori narxlarda Gollandiya eksport qilgan bo'lsa (bir tonnasi 1155 dollar), eng past narx esa Gvatemala eksportida kuzatilgan (tonnasi 594 dollar).

Jahonda qovun import qiluvchi mamlakatlar orasida eng yiriklari – AQSH, Gollandiya, Frantsiya, Angliya, Kanada, Germaniya va Iroqdir. Qovun importining 65-70 foiziga yaqini bu etti mamlakatnig umumiy hissasiga to'g'ri keladi. Gollandiya eng yirik eksportchi hamda importchilar ro'yxatidan o'rin olgani uning yirik reeksportyor ekanligi bilan izohlanadi.

6.2. Jahon bozorining asosiy ishtirokchi mamakatlari

So'nggi yillarda jahon bozorida tashqi savdo aylanmasida yaqqol pekeshqadam mamlakatlar - Xitoy, AQSh va Germaniya mamlakatlarini ta'kidlash joizdir.

Ayniqsa, Xitoy mamlakati 2000-yillarning o'rtalariga kelib uning tashqi savdo xajmi deyarli 2 marotabaga ortib avvaliga Yaponiya, keyin Germaniya va AQShni ortda qoldirib jahon iqtisodiyotida umumiy tashqi savdo aylanmasi miqdori jihatidan 1-o'ringa ko'tarildi.

Tahlillarga ko'ra, yaqin 3-4 yil ichida umumiy tashqi savdo aylanmasi miqdori bo'yicha jahonning biron bir mamlakati Xitoyni quvib o'tish imkoniyatiga ega emasdir.

Jahon tashqi savdosidagi eng asosiy "yuqori uchlik mamlakatlar" ("Top-3" reytingini egallagan) - Xitoy, AQSh va Germaniya;

Jahon savdosida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng asosiy xomashyoni import qiluvchi mamlakatlar ("Top-3" reytingini egallagan) - Yaponiya, Singapur va Gonkong;

Jahon xomashyo bozorida eng ko'p miqdorda import qiluvchilar – Xitoy, AQSh, Germaniya, Yaponiya va "Yangi industrial mamlakatlar";

Jahon xo'jaligida mineral resurs va tabiiy boyliklarga boy bo'lgan mamlakatlar - AQSh, Kanada, Braziliya, Hindiston, Rossiya, Xitoy, Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlar;

Jahon bozorida mineral resurs va xomashyolarni eksport qiluvchi asosiy eksportyor mamlakatlar – Kanada, Braziliya, Rossiya va Markaziy Osiyo mamlakatlarini tashkil qiladi.

Jahon tashqi savdosi 2020 yilda ro'y bergan pandemiya o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi va oldingi 2019 yilga nisbatan sezilarli darajada pasayib ketdi. 6.2-jadvaldagi "Jahon tashqi savdosidagi etakchi mamlakatlar reytingi"ga ko'ra, jahon mamlakatlarining umumiy tashqi savdo-sotig'i 2019 yil yakuni bo'yicha qariyb 36,4 trln.dollarini tashkil qilgan. Bundan eksport miqdori – 18,1 trln.dollar va import – 18,3 trln.dollarni tashkil qilgan.

Jahon iqtisodiyotida tashqi savdo aylanmasi miqdori bo'yicha Xitoy, AQSh, Germaniya kabi mamlakatlar etakchilikni o'z qo'liga olishgan. 6.2-jadval, 6.3-jadval va 6.4-jadvallardan ko'rinib turibdi-ki, Xitoy jahon tashqi savdoda eng asosiy eksportyordir.

Uning umumiy eksporti - 2,5 trln.dollarni tashkil qilib jahon eksportining 13,8 foiz ulushi to'g'ri keladi. AQSh esa, jahon tashqi savdoda eng asosiy importyor mamlakatdir. Uning umumiy importi - 2,57 trln.dollarni bo'lib jahon importining 14 foiz ulushi to'g'ri keladi.

6.2-jadval

Jahon tashqi savdosidagi etakchi mamlakatlar reytingi

mlrd.doll.

T/r	Mamlakatlar	Umumiy tashqi savdo	eksport	import
1	Xitoy	4 567,6	2 498,6	2 069,0
2	AQSH	4 211,8	1 644,3	2 567,5
3	Germaniya	2 733,3	1 492,8	1 240,5
4	Yaponiya	1 426,5	705,6	720,9
5	Frantsiya	1 199,6	556,4	643,2
6	Buyuk Britaniya	1 160,8	468,3	692,5
7	Gonkong	1 114,3	535,7	578,6
8	Gollandiya	1 092,1	577,6	514,5
9	Janubiy Koreya	1 045,5	542,2	503,3
10	Italiya	1 006,3	532,7	473,6
....21	Rossiya	673,9	426,7	247,2
....55	Qozog'iston	96,1	57,7	38,4
...62	O'zbekiston	36,8	14,9	21,9
...101	Qirg'iziston	7,0	2,0	5,0
....	Jahon bo'yicha	36410,1	18 097,7	18 312,4

Manba: ushbu jadval <https://trendeconomy.ru> ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

2020 yilda jahon iqtisodiyotida ro'y bergan pandemiya ta'sirida Xitoy tashqi savdosining ko'rsatkichlari birinchi marta so'nggi 20 yil ichida 2019 yilga nisbatan pasaydi. Xitoy tashqi savdosining pasayishiga pandemiya birinchi sababi bo'lsa, ikkinchidan AQSh-Xitoy o'rtasidagi savdo munosabatlarining ziddiyatlashuvi sabab bo'ldi.

Jahon tashqi savdoda eng etakchi eksportyor mamlakatlar reytingi*mlrd.doll.*

T/r	Mamlakatlar	Umumiy eksport (mlrd.dollar)	Jahon eksportidagi ulushi (foizda)
1	Xitoy	2 498,6	13,8
2	AQSH	1 644,3	9,1
3	Germaniya	1 492,8	8,2
4	Yaponiya	705,6	3,9
5	Gollandiya	577,6	3,2
6	Frantsiya	556,4	3,1
7	Janubiy Koreya	542,2	3,0
8	Gonkong	535,7	3,0
9	Italiya	532,7	2,9
10	Buyuk Britaniya	468,3	2,6
....	Boshqalar	8 543,5	47,2
	Jahon bo'yicha	18 097,7	100

Manba: ushbu jadval <https://trendeconomy.ru> ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Iqtisodiy inqirozning chuqurlashuvi va Xitoy tovarlariga tashqi talabning qisqarishi mamlakat eksport hajmining pasayishiga olib keldi. Mamlakat iqtisodiyotining yuqori darajada eksportga yo'naltirilganligi sharoitida Xitoy jahon bozoridagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy holatga bevosita bog'lanib bormoqda. Mamlakat tashqi savdosi saldosinga o'zgarishi ko'plab vaqtinchalik va doimiy omillar orqali izohlanishi mumkin, albatta.

Jahon iqtisodiy inqirozining ta'sirida mamlakat eksportining qisqarishi va valyuta tishumlarning kamayishiga qaramasdan, Xitoy tashqi savdoni rag'batlantirishga harakat qilmoqda. Tahlillarga ko'ra, Xitoyning eksport mahsulotlari xalqaro bozorlarda yuqori raqobatbardoshlikka ega va bu mahsulotlarga bo'lgan talab muayyan vaqtga qadar saqlanib qolishi mumkin.

Jahon tashqi savdoda eng etakchi importyor mamlakatlar reytingi*mlrd.doll.*

T/r	Mamlakatlar	Umumiy import (mlrd.dollar)	Jahon importidagi ulushi (foizda)
1	AQSh	2 567,5	14,0
2	Xitoy	2 069,0	11,3
3	Germaniya	1 240,5	6,8
4	Yaponiya	720,9	3,9
5	Buyuk Britaniya	692,5	3,8
6	Gollandiya	514,5	3,8
7	Frantsiya	643,2	3,5
8	Gonkong	578,6	3,2
9	Janubiy Koreya	503,3	2,7
10	Italiya	473,6	2,6
...	Boshqalar	8 758,2	47,8
	Jahon bo'yicha	18 312,4	100,0

Manba: ushbu jadval <https://trendeconomy.ru> ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

6.3. Jahon bozorida eksport va importning uzviy bog'liqligi

Jahon tashqi savdoning tarkibi eksport va importdan iboratdir.

Har bir rivojlanayotgan mustaqil mamlakat ishlab chiqarish sohalarini kenrgaytirib eksport miqdorlarini oshirishga harakat qiladi. Chunki, maqsadi – imkon boricha xorijiy valyuta mablag'ini ishlash.

Zamonaviy texnologiyalarsiz boshlang'ich eksportni ko'paytirilishida, avvalo mamlakat tomonidan xorij mamlakatlarga xomashyoni eksport qilishi maqsadga muvofiqdir. Jumladan, jahon xo'jaligida Yangi industrial mamlakatlarda, xususan Braziliya, Meksika va Turkiya kabi mamlakatlar boshlang'ich eksportda xomashyoni eksport qilishganlar.

Yaponiya va Janubiy Koreya mamlakatlari boshlang'ich eksportni rivojlantirishda chetdan faqat zarur bo'lgan xomashyo mahsulotlarini valyutaga sotib olib, asosiy ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni eksportga chiqarishi uning iqtisodiy taraqqiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. SHuning uchun ham, Yaponiya va

Janubiy Koreya iqtisodiyoti taraqqiyotidagi eng asosiy omili- bu eksportga katta e'tibor berganligidir.

Eksport salohiyatini oshirish uchun Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Tayvan mamlakatlari xukumatlari eng asosan, eksport qiluvchi korxonalarga davlat tomonidan subsidiyalarini berish, ushbu korxonalarga davlat tomonidan imtiyozli kreditlarni berish, hamda turli hil soliq turlaridan ozod qilinishi natijasida eksport yuqori darajada o'sdi.

Yangi industrial mamlakatlarda eksportni yildan-yilga yuqori ko'rsatkichlarga o'stirish uchun asosan ikki muhim sanoat tarmog'iga, ya'ni: elektronika va avtomobilsozlik sanoat tarmoqlariga katta ahamiyat berildi.

Eksportni rivojlantirish bevosita importga ham bog'liq bo'lib, bugungi kunda jahon xo'jaligida rivojlangan mamlakatlarning sanoat tarmoqlari asosan rivojlanayotgan mamlakatlarning resurslari hisobida ishlab chiqarish tarmoqlari faoliyat ko'rsatmoqda.

6.4. Jahon bozorida rivojlanayotgan mamlakatlarning faol qatnashish imkoniyatining asosiy omillari

Bugungi o'zgaruvchan sharoitda iqtisodiyotimizni barqaror o'sishini ta'minlashning eng samarali yo'li – ichki imkoniyatlarni ishga solish, ya'ni import bo'layotgan tayyor mahsulotlarni o'zimizda ishlab chiqarish va mahalliy sanoatni yanada rivojlantirishdan iborat. Bu milliy iqtisodiyotimizning ustuvor yo'nalishi bo'lishi kerak.

Jahondagi rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ko'plab mamlakatlar mavjud tabiiy resurslarning eksporti orqali xorijiy valyutalarga ega bo'lmoqda. Xususan, Indoneziyaning "iqtisodiy mo'jiza"ni vujudga keltirishda neft va kshplab boshqa tabiiy resurslarni eksport qilishi orqali milliy iqtisodiyotda sanotning shakllanishi uchun xorijiy texnologiyalarni va turizm industriyasini rivojlantira boshlagan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarni jahon bozorlarida faol qatnashish imkoniyatining asosiy omillari sifqatida eksportni yanada qanday rivojlantirish mumkin?

1. Ishchi kuchini, ya'ni mehnat resurslarni ishlab chiqarish sanoat tarmoqlariga jalb qilinishi (qishloq xo'jaligi tarmoqlaridagi ortiqcha ishchilarni

sanoat tarmoqlariga jalb qilish, ya'ni Xitoy, Janubiy Koreya, Tayvan va Braziliya tajribalaridan foydalanish);

2. Milliy pulning boshqa etakchi xorijiy valyutalariga muammosiz ayirboshlash (konvertatsiya);

3. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarhi va ularning narhi jahon bozori narhlaridan oshib ketmasligi lozim;

4. Xomashyo muammosiga barham berish (Yaponiya, Gonkong, Isroil va Singapur tajribalaridan foydalanish);

5. Eksportdan kelib tushadigan valyuta tushumlaridan davlatga sotiladigan majburiy sotuv foiz miqdorlarini kamaytirish (o'zbekistonda bekor qilingan; Rossiya, Tojikiston, Qirg'iziston kabi mamlakatlarda 100 foiz majburiy sotuv tartibi joriy qilingan);

6. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning turli halqaro ko'rgazmalarda namoyish qilish va marketingni oqilona olib borish.

7. Qishloq joylarda va aholi zich joylashgan xududlarda kichik va o'rta biznes korxonalarini ko'plab tashkil qilish va ularni xorijiy texnologiyalar bilan ta'minlash natijasida eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish, hamda Tayvan va Misr modellari tajribasidan foydalanish. Hozirda, ko'plab etakchi mamlakatlarning davlat sektoridagi korxonalarda ishchilarning oylik maoshlari xususiy sektordagi korxonalarga qaraganda kamdir.

Bobning qisqacha xulosasi:

2020 yilda jahon iqtisodiyotida ro'y bergan pandemiya ta'sirida jahon mamlakatlarining tashqi savdo ko'lami ancha pasayib ketdi. Xususan, jahon bozorining xukmdori bo'lgan Xitoy tashqi savdosining ko'rsatkichlari birinchi marta so'nggi 20 yil ichida 2019 yilga nisbatan pasaydi. Xitoy tashqi savdosining pasayishiga pandemiya birinchi sababi bo'lsa, ikkinchidan AQSH-Xitoy o'rtasidagi savdo munosabatlarining ziddiyatlashuvi sabab bo'ldi.

Iqtisodiy inqirozning chuqurlashuvi va Xitoy tovarlariga tashqi talabning qisqarishi mamlakat eksport hajmining pasayishiga olib keldi. Mamlakat iqtisodiyotining yuqori darajada eksportga yo'naltirilganligi sharoitida Xitoy jahon bozoridagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy holatga bevosita bog'lanib bevosita bog'lanib bormoqda. Mamlakat tashqi savdosi saldosining

o'zgarishi ko'plab vaqtinchalik va doimiy omillar orqali izohlanishi mumkin, albatta.

Nazorat savollari:

1. Jahon bozorida xomashyo tovarlari savdosini mohiyatini ayting?
2. Jahon neft bozoridagi savdo hajmi tahlilini ayting?
3. Jahon bozorida eksport va importning uzviy bog'liqligi.
4. Jahon bozorida rivojlanayotgan mamlakatlarning faol qatnashish imkoniyatining asosiy omillarini ayting?
5. Jahon tashqi savdo tarkibi, miqdorlari va uning asosiy etakchi mamlakatlarini ayting?
6. Jahon tovar bozoridagi asosiy mahsulotlar tarkibida qaysi mahsulotlar o'rin olgan?
7. Jahon tovar bozoridagi asosiy mahsulotlar tarkibida qaysi mahsulotlarning ulushi katta?
8. Jahonning qaysi mamlakatlar jahon bozoriga chiqishda ikki mamlakat xududidan kesib o'tishga majbur?
9. Jahon bozorini yaqin yillar ichida o'z qo'liga olgan Xitoyning 1 yildagi umumiy tashqi savdo miqdori taxminan qanchani tashkil qiladi va qachondan jahonda tashqi savdo bo'yicha etakchilikni o'z qo'liga olgan?
10. Jahon xo'jaligida xomashyoning eksport qiluvchi mamlakatlar asosini qanday guruhdagi mamlakatlar tashkil qiladi?
11. Jahonning qaysi mamlakati jahonning barcha mamlakatlari bilan eksport-import operatsiyalarini amalga oshirganligi bilan jahon iqtisodiyoti tarixidan joy olgan?

Uyga vazifa!

- 1) mavzu boshida berilgan "Tayanch iboralar" so'zlarining tushunchasiga ega bo'lish;
- 2) mavzu so'nggida berilgan "Nazorat savollari"ga tayyorgarlik ko'rish;
- 3) har bir talaba tomonidan jahon tashqi savdo-sotiqda mahsulotlar ulushini tahlil qilish asosida jadval ishlab chiqish lozim.

VII BOB. JAHON BOZORIDA EKSPORTNING TURLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI

7.1. Eksport – jahon bozorining asoschisi.

7.2. Jahon bozorida eksportning turlari va ularning xususiyatlari.

7.3. Jahon bozorida demping siyosati.

Tayanch iboralar: eksport, import, saldo, oddiy eksport, markazlashgan eksport, nomarkazlashgan eksport, maxsus eksport, barter, reeksport, konsignatsiya, ishchi kuchi eksporti, kapital eksporti, xizmat qilish eksporti, demping, demping siyosati, valyuta tushumi, valyuta zahirasi.

7.1. Eksport – jahon bozorining asoschisi

Eksport (ingliz va lotin tillarida - olib chiqaman yoki, chetga chiqaraman) - tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish. Tovarlarni bir mamlakat orqali olib o'tish (tranzit) va bir mamlakatdan olib kelingan tovarlarni boshqa mamlakatlarga sotish uchun chiqarqsh (reeksport) ham Eksportga kiradi.

Mamlakatning o'zida ishlab chiqarilgan moddiy boyliklar Eksport tarkibi (ko'rinmas Eksport) milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari, uning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rni bilan bog'liqdir.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarga sanoat mahsulotlari, ayniqsa, mashinasozlik mahsulotlari va texnologiyalar Eksport qilish xos bo'lsa, qoloq agrar iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakatlar Eksportida xomashyo va oziq-ovqat asosiy rol o'ynaydi.

Yuklarni tashish, vositachilik operatsiyalari, turizm, ilmiy-texnika aloqalaridan va boshqalar xizmatlarni sotishdan olinadigan daromadlar ko'rinmas Eksportni tashkil etadi va iqtisodiyoti rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda uning ahamiyati yil sayin tobora ortib bormoqda.

Har qanday davlat uchun Eksport- import va chet ellarda boshqa xarajatlarni to'lash uchun zarur bo'lgan chet el valyutasining asosiy manbai hisoblanadi. Jahonning ko'plab mamlakatlarida eksportni evaziga tushadigan valyuta tushumlaridan majburiy sotuv tartibi joriy qilingan.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosatida Eksportni kengaytirish muhim masala hisoblanadi va davlat eksport uchun mo'ljallangan ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashning turli shakllarini keng qo'llaydi (soliq imtiyozlari va boshqalar moliyaviy ko'maklar; Eksportni davlat tomonidan kreditlash).

Eksportni cheklash (Kvota) aksariyat hollarda muayyan mamlakatlar bilan olib boriladigan savdoga embargo joriy etish yo'li bilan siyosiy maqsadlarda amalga oshiriladi. Jahon bozorida eksportni cheklash va umuman qat'iyan eksport mahsulotlarini olib chiqishda jahon hamjamiyati tomonidan bir qator mamlakatlarga "iqtisodiy jazo" qo'llanilgan, jumladan: Rossiya, Eron, Venesuela, Shimoliy Koreya va boshqa mamlakatlarni misol qilish mumkin

Ayrim tovarlar Eksporti ba'zan iqtisodiy yoki ekologik sabablarga ko'ra cheklanadi (mazkur tovarning mamlakat iqtisodiyoti uchun muhimligi, yo'qolib borayotgan hayvonlar yoki o'simliklar turlarini, milliy madaniy-badiiy boyliklarni asrash va boshqalar).

7.2. Jahon bozorida eksportning turlari va ularning xususiyatlari

Jahon tashqi savdosida eksport muhim ahamiyat kasb etadi va u har qanday milliy iqtisodiyotning davlat byujetini xorijiy valyutalar bilan ta'minlaydi, shuningdek, eksport evaziga olinadigan valyuta tushumlari mamlakatning valyuta zahirasini jamg'arilishida asosiy manba hisoblanadi. Jahon bozorida eksportning quyidagi turlari mavjud:

1) Oddiy eksport (nomarkazlashgan). Eksport - bu mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotni xorij mamlakatiga chiqarilishi (sotish) tushuniladi. Xitoy 2000 yilda jahon xo'jaligida o'z mahsulotlarini eksport shartnomalari orqali jahonning barcha mamlakatlariga eksport qilgan eng birinchi mamlakatdir. SHuningdek, jahon iqtisodiyotida Janubiy Koreya 1960 yildan 1990 yillargacha eksport miqdorini yiliga o'rtacha 30 foizdan o'sishini ta'minlagan va ushbu ko'rsatkichni yaqin istiqbol yillarda ma'lum bir mamlakat tomonidan yangilashiga qodir emas.

2) Markazlashgan eksport - korxona va tashkilotlarning davlat tomonidan rejali eksport shartnomalarini tuzib xorijga mahsulot chiqarilishi (sotish) tushuniladi. Masalan, mamlakatimizda paxta tolasining eksportini markazlashgan

eksportning turiga kiritishimiz mumkin. Mamlakatimizda paxta tolasi eksportini O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tasarrufidagi tashqi savdo kompaniyalari tomonidan malga oshiriladi.

3) Maxsus eksport - bu mamlakatdan chetga oltin, qimmatbaho rangli metallarni sotish va boshqa ba'zi bir maxsus tovarlarni sotish demakdir. Lekin oltindan ishlangan qimmatbaho mahsulotlar eksportning ushbu turiga kirmaydi, chunki oltindan ishlangan mahsulotlar oddiy eksport turiga kiritiladi.

4) Kapitalning eksporti – bu xorijiy mamlakatlarga daromad olish maqsadida kapitalni chiqarilishi tushuniladi. Jahon xo'jaligida AQSH XX yillarning 50-yillaridan, Yaponiya esa 60-yillardan boshlab kapitalning xorijiy mamlakatlarga eksport qilgan eng birinchi mamlakatlar hisoblanishadi. Bugungi kunda Xitoy xorijiy mamlakatlarga jami 3,2 trln.dollar miqdorida kapital eksport qilgan. Jahonda kapital eksporti miqdori bo'yicha Xitoy, AQSH va Yaponiya mamlakatlari etakchilik qilishadi.

5) Barter asosida eksport qilish turi – bu ikki mamlakat o'rtasida mahsulotlarning qiymatiga qarab mahsulot ayirboshlash tushuniladi.

6) Birja orqali eksport qilish turi - bu mahalliy korxonalarning (xo'jalik sub'ektlari) mahsulotlarini birja orqali chetga chiqarilishi (sotish) tushuniladi.

7) Xizmat qilish eksporti - bu mahalliy xo'jalik sub'ektlarining xizmatlari evaziga kelib tushadigan xorijiy valyuta tushumlari tushuniladi (masalan turizm, ta'lim, meditsina, qurilish, savdo, bank-moliya va boshqa o'nlab sohalarda xizmat ko'rsatish turlari).

Jahondagi ko'plab mamlakatlar, xususan Frantsiya, Ispaniya, Italiya, Chexiya, Xorvatiya, Avstriya, Singapur, Malayziya, Gonkong, Tailand, BAA va boshqa o'nlab mamlakatlar xalqaro turizm sohasidan katta daromad oladi.

Ayniqsa Chexiya, Avstriya, Xorvatiya, Tailand, Maldiv va Nepal kabi mamlakatlarning YAIMning deyarli 30 foizi turizm sohasi va unga ixtisoslashgan xizmat ko'rsatish tarmoqlaridan tushadigan valyuta tushumlari tashkil qiladi.

2020 yilda yuzaga kelgan pandemiya sharoitida ham Maldiv, Turkiya va BAA kabi mamlakatlarning asosiy e'tibori turizm sohasiga qaratildi. 2020 yilda ushbu mamlakatlarning YaIMning asosiy ulushi aynan turizmdan tushgan daromadlar tashkil qildi. Turizm sohasidan valyuta ishlash va eksportda asosiy ulushlarni tashkil qilayotganligi sababli ham, turizmni jahon xo'jaligida "eksportning ko'rinmas turi" deyishadi.

Jahon turizm sohasidan eng ko'p daromad oluvchi va eng ko'p sayyohlar oqimi bo'yicha etakchi mamlakatlar reytingi (2019 y.)

Daromad bo'yicha¹⁷

№	Mamlakatlar nomi	Daromad (mlrd.doll.)
1	AQSh	100,5
2	Ispaniya	30,9
3	Frantsiya	30,9
4	Italiya	27,4
5	Buyuk Britaniya	21,7
6	Germaniya	17,6
7	Xitoy	16,2
8	Kanada	10,6
9	Avstriya	10,0
10	Avstraliya	8,4

Sayyohlar soni bo'yicha¹⁸

№	Mamlakatlar nomi	Sayyohlar soni (mln.kishi)
1	Frantsiya	90,2
2	Ispaniya	83,8
3	AQSh	78,7
4	Xitoy	67,5
5	Italiya	64,6
6	Turkiya	52,5
7	Meksika	44,9
8	Tailand	39,7
9	Germaniya	39,4
10	Buyukbritaniya	36,9

Jahondagi nufuzli Mastercard'ning Global Destination Cities Index reytingiga ko'ra, 2019 yilda Tailand poytaxti Bangkok shahri dunyo sayyohlarining eng ko'p qabul qiluvchi shahri deb e'lon qilingan va ushbu shaharga qariyb 25 mln. kishi tashrif buyurgan.

Undan keyingi o'rinlarni esa, Parij (19,3 mln.kishi), London (19,1 mln.kishi), Dubay (16,4 mln.kishi), Singapur (14,6 mln.kishi), Kuala-Lumpur (13,7 mln.kishi), Nyu-York (13,6 mln.kishi), Istanbul (13,4 mln.kishi), Tokio (12,9 mln.kishi) hamda Antalya (12,4 mln.kishi) egallagan. Ushbu reyting Jahon sayohatlar va turizm kengashi hamda havo transporti xalqaro uyushmasi ma'lumotlariga ko'ra tayyorlangan. Bunda tunash uchun qolgan xorijiy mehmonlar soni va ularning xarajatlari hisobga olingan.

¹⁷ <https://studopedia.org/4-122265/html>

¹⁸ <https://www.google.com/search?ie=UTF-8&client=ms->

7.1-jadvalga ko'ra, jahon turizm sohasidan eng ko'p daromal oluvchi mamlakat AQSh bo'lsa, eng ko'p sayyohlarning tashrif soni bo'yicha Frantsiya mamlakati etakchilikni o'z qo'liga olgan.

Sayyohlarning umumiy xarajatlari bo'yicha birinchi o'rinni 30,8 mlrd. dollarlik ko'rsatkich bilan BAAning yirik ishbilarmon shahri – Dubay shahri va keyingi o'rinni esa Saudiya Arabistonidagi Makka shahri - 20,9 mlrd dollarlik ko'rsatkich bilan egallagan.

8) Ishchi kuchi eksporti – bu xorijiy mamlakatlarga mehnat resurslarini eksport qilib ularning mehnat faoliyati evaziga olinadigan xorijiy valyuta tushuniladi. Jahondagi ko'plab mamlakatlar, jumladan Misr, Jazoir, Ukraina, Belorussiya, Hindiston, Pokiston, Nepal, Tojikiston va Qirg'iziston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan mehnat resurslarini eksport qilinishi xorijiy valyuta daromadlarining eng muhim manbasidan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu mamlakatlarning mehnat resurslari ishchi kuchi eksportiga ixtisoslashgan.

- Masalan, qo'shni Tojikiston YaIMda deyarli 32 foiz xorijiy valyuta tushumi mehnat resurslarining eksportidan tushgan daromad tashkil qilgan va YaIMda ishchi kuchi eksporti miqdori bo'yicha jahon mamlakatlari ichida 1-o'rinda turadi (Nepal – 31 foiz; Qirg'iziston – 26 foiz va boshqalar);

- Jahon bankining ma'lumotiga ko'ra, 2019 yilda jahonning 62 ta mamlakati ishchi kuchi eksportidan 1 mlrd.dollari miqdoridan ortiq xorijiy valyuta tushumlariga ega bo'lgan, xususan O'zbekiston ham.

9) Eksportning reeksport turi - bu mamlakatga xorijdan import qilingan yoki bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga eksport qilinib ushbu mahsulotni uchinchi mamlakatga qayta sotilish jarayoniga tushuniladi. Jahonda Gonkong "iqtisodiy mo'jiza"ga erishishidagi asosiy omillaridan biri aynan reeksport jarayoni bilan bog'liqdir. Umumiy eksportda reeksport ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlar reytingida: Gonkong - 72 foiz; Singapur - 33 foiz va BAA - 17 foizni tashkil qiladi.

10) Konsignatsiya usuli orqali eksport qilish - bu shunday usulki, bunda mahsulot xorijga chiqarilganda, sotib oluvchilar tovarlarni majburiyatsiz sotib oladilar va tovar sotilganidan keyingina xorijiy valyuta tushumi olinadi. Agar tovar sotilmay qolsa, unda u egasiga qaytariladi.

11) Demping siyosati orqali eksport qilish turi – bu mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari tannarhidan arzon baholarda chetga eksport qilib tashqi bozorlarni egallash tushuniladi.

7.3. Jahon bozorida “demping siyosati”

Milliy iqtisodiyotlardagi har bir korxona mahsulot ishlab-chiqarganda uni eksport qilish yo'llarini va usullarini o'rgana boshlaydi, va uning mahsulotlarini tezroq jahon bozoriga olib chiqishni mo'ljallaydi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlari jahon bozorlarida talabga javob bermasa yoki taklif bo'lmasa u holda mahsulotlarini “majburiy o'tkazishi” uchun boshqa usuldan foydalanishga majbur bo'lishadi, ya'ni “demping siyosati”dan.

Demping - bu tashqi bozorni egallash uchun mahsulotni ishlab-chiqarish xarajatlaridan past, arzon baholarda chetga eksport qilish, ishlab-chiqarilgan mahsulotlarni tashqi bozorda ichki bozorga nisbatan arzon sotish tushuniladi.

Shuningdek, tashqi bozorda eksport uchun chiqarilgan mahsulotlar xatto ichki bozorga nisbatan ham arzon narhlarda sotiladi. Jahon xo'jaligida XX asrning 90-yillarida Xitoy demping siyosati orqali jahon bozorlarini egallagan.

Demping siyosati orqali tashqi bozor uchun kurashda o'z raqobatchilarini jahon bozorida “turtib chiqarish” va ularni “sindirish”ga olib keladi. Shuningdek, demping eksporti orqali ko'rilgan zarar ichki bozorda yuqori narxlarda sotilgan tovarlardan olingan foyda va davlat byudjeti hisobidan qo'shimcha mablag'lar evaziga qoplanadi.

Ushbu jarayon orqali tashqi bozor uchun kurash bilan birga o'z raqobatlarini “sindirish”ga olib keladi. Ko'rilgan zarar ichki bozorda yuqori narxlarda sotilgan tovardan olingan foyda yoki boshqa holatlarda davlat byudjeti hisobidan qoplanadi.

Haqiqattan ham rivojlanayotgan mamlakatlardagi endigina tashkil qilingan va «oyoqqa» turgan korxona va firmalarning ishlab-chiqargan mahsulotlarning birdaniga jahon bozorlariga olib chiqishlari ushbu mamlakat sanoatining sifati obro'siga putur etkazishi mumkin. Qolaversa ushbu mahsulotlarni jahon bozorlari standartiga javob bermaydigan bo'lsa ishlab-chiqarmaslik lozim.

Avvalo ishlab-chiqarishda ishlab-chiqarilgan mahsulotlar ichki bozorda sotilishi va ichki bozorni qoniqtirgandan keyingina tashqi bozorga olib chiqilishi lozim. Bundan tashqari ortiqcha xomashyo ketadigan va sarflanadigan juda chiroyli mahsulotlarni ishlab-chiqarishni chegaralab qo'yilishi endigina rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Osiyo mamlakatlardagi ko'pgina korxonalarning ishlab-chiqarishida foydalanilgan texnologiyasi va ishlab-chiqarishdagi dastgoxlari 10 yil oldin bu

korxonalarga ko'pdan-ko'p foyda keltirgandi. Ammo hozirgi davrga kelib ushbu korxonalarning ishlab-chiqarishidagi texnologiyalari va dastgoxlari zamonaviy ishlab-chiqarishga to'la javob bermaydi, chunki hozirgi davrning bozor talabi va ehtiyoji zamonaviy tarzda ishlab-chiqarilgan mahsulotlarga qondiradi, qolaversa, ushbu ishlab-chiqarilgan mahsulotlar jahon bozorida boshqa mamlakatlarning ishlab-chiqarishi bilan raqobatlasha olmaydi.

Xitoy Xalq Respublikasi 1990 yillarning boshida ishlab-chiqarayotgan mahsulotlari jahon standartiga mos kelmasada ko'plab jahon bozorlariga, ayniqsa talab va ehtiyoj yuqori bo'lgan davrda Markaziy Osiyo mamlakatlariga eksportga chiqargan edi.

Ayniqsa, O'zbekiston xududlaridagi barcha bozorlaridagi mahsulotlarining deyarli 90 foizi Xitoyda ishlab-chiqarilgan mahsulotlarni tashkil qiladi. 1993-94 yillari Xitoydan olib kelingan tovar mahsulotlari aholi talab-extiyojini qondirgan edi, chunki 1993-94 yillari olib kelingan tovar mahsulotlari hozirgi mahsulotlardan tubdan farq qilar edi. Yillar o'tgan sari, ya'ni rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarish tarmoqlari kengaygan sari talabga javob bermaydigan mahsulotlarga bo'lgan ehtiyoj o'z-o'zidan yo'qola boshlaydi.

Shuningdek, misol qilib avtomobilsozlik sanoatini olaylik:

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida 2017-2019 yillar davomida yiliga qariyb 15,1 mln. dona avtomobil ishlab chiqarildi (Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoyning ishlab-chiqarish miqdori bunga kirmaydi). Lekin ushbu mintaqadagi talab va ehtiyoj faqat salkam 10 mln. dona avtomobilni tashkil qiladi. Xo'sh, qolgan 5 mln.dona avtomobilni nima qilish kerak?

Ularning avtomobillari jahonda raqobatlasha olmaydi (Jahonda eng yaxshi avtomobillar Yaponiya, AQSh, Italiya, Germaniya kabi mamlakatlarda ishlab chiqariladi) va ularning ortiqcha avtomobillarini eksport qilib bo'lmaydi. Xatto eksportga chiqarish tugul ba'zi avtomobillar o'zlarining mamlakatlarida (Indoneziya, Filippin va Tailand) ham talab va sifatga ham javob bermaydi. Ushbu mintaqadagi deyarli barcha mamlakatlar asosan Yaponiya, AQSh, Germaniyada ishlab-chiqarilgan avtomobillarni xarid qilishadi yoki ba'zi hollarda Janubiy Koreyada ishlab-chiqarilgan avtomobillarni sotib olishadi.

Yoki har kuni AQSh mamlakatidan Lotin Amerika davlatlariga 5 mingga yaqin yaxshi holatdagi va deyarli yangidek saqlangan "ikkilamchi" avtomobillar (ularning aksariyati o'g'irlangan) chiqariladi, ya'ni turli tadbirkorlar tomonidan eksport qilinadi.

Jahon xo'jaligida "demping siyosati"dan unumli va samarali ravishda foydalanish, shuningdek eksport miqdorini amalga oshirish borasida Xitoyga bas keladigan mamlakat hozircha yo'q. Shuningdek, eksportning ushbu turidan jahonning bir qator mamlakatlari Turkiya, Meksika, Gonkong, Tayvan, Polsha kabi mamlakatlar jahon bozorlarini egallash maqsadida demping siyosatini qo'llaganlar.

Bobning qisqacha xulosasi:

Jahon bozorida va uning savdo aylanmasida xomashyo tovarlarining ulushi tobora kamayib borayotganligini asosiy sabablari sifatida jahon savdosida xomashyodan ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlar savdosini kengayishi va ular bahosining xomashyo tovarlari bahosiga nisbatan ortib borayotganligi ma'lum bo'ldi. Ammo ba'zi davriy bo'lmagan omillar ta'sirida ham xomashyo tovarlari narxi jahon bozorida sezilarli darajada ko'tarilishi yoki pastlashi mumkinligini ko'rib chiqdik.

Jahon iqtisodiyoti inqirozi sharoitida jahon bozorlaridagi ko'plab xomashyolar narxini keskin tushib ketganligi yoki ba'zi mahsulotlar narxining ko'tarilganligi milliy iqtisodiyotlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi va ham ijobiy foyda keltirishi mumkin ekan.

Nazorat savollari:

1. Jahon iqtisodiyotida eksportning turlari va ularning mohiyati?
2. Maxsus eksport va uning tarkibini ayting?
3. Xizmat qilish eksporti va uning tarkibini ayting?
4. Jahon bozorida ishchi kuchi eksporti va uning mohiyatini ayting?
5. Jahon bozorida demping siyosati va uning mohiyatini ayting?
6. Eksportning qaysi turini "eksportning ko'rinmas turi" deyishadi va nima uchun?
7. Demping nima va uning xususiyatini ayting?
8. Jahon xo'jaligidagi ba'zi mamlakatlar nima uchun "demping siyosati"dan foydalanishadi?
9. Jahonning qaysi mamlakatlari eksportning demping usulidan foydalanishgan?
10. Eksportning konsignatsiya usuli va uning mohiyatini ayting?

11. Eksportning reeksport usuli va uning mohiyatini ayting?
12. Jahon bozorida eksportning muammolarini ayting?

Uyga vazifa!

Talabalarning “Jahon bozorida eksportning turlari va ularning xususiyatlari” mavzusini chuqur o’zlashtirishi hamda amaliyot darsiga puxta tayyorgarlik ko’rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu boshida berilgan “Tayanch iboralari” so’zlarining tushunchasiga ega bo’lish;
- 2) mavzu so’nggida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko’rish;
- 3) har bir talaba tomonidan eksportning turlari bo’yicha jahon bozoridagi “Top-5” mamlakatlari reytingini jadval shaklida ishlab chiqish lozim.

VIII BOB. JAHON METAL BOZORI KON'YUNKTURASI VA UNING NARHINI SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

8.1. Jahon metal bozori tasnifi va uning xususiyatlari

8.2. Jahon metal bozori kon'yunkturasi.

8.3. Jahon metal bozorida narh shakllanishining asosiy xususiyatlari.

8.4. Jahon metal bozorlari va ularning asosiy ko'rinishlari.

8.5. Jahon oltin bozori va uning xususiyatlari.

8.6. Jahon metal bozorining asosiy ishtirokchi mamlakatlari va metal mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi

Tayanch iboralar: jahon metal bozori, metal, metallom, rangli metal, temir ruda, po'lat, metallurgiya, oltin, kumash, bronza, oltin zahirasi, oltin eksporti.

8.1. Jahon metal bozori tasnifi va uning xususiyatlari

Jahon sanoati uchun metal xomashyosi shu qadar muhimki, sanoat ishlab chiqarish tarmoqlaridagi boshqa hech qanday material yoki xomashyo metaldek qattiq va shakllilik darajasi hamda ko'p qirralikning o'ziga xos noyob kombinatsiyasiga ega emas. Jahon xo'jaligida sanoat ishlab chiqaruvchilar har qanday sohada metalning turli xomashyolaridan bardoshli, engil dizaynlarni amalga oshirishga imkon beradigan metalning yangi avlodlarini ishlab chiqarilishi zamon taraqqiyoti bilan metalning yangi avlodlarini ishlab chiqarilishi davom etmoqda.

Jahon metal bozorini tahlil qilayotganda rangli va qora metal bozorlarini alohida, ikkilamchi metal bozorini ham alohida o'rganib chiqishimiz maqsadga muvofiqdir. Garchi ushbu tasnifni ilmiy jihatdan berish biroz mushkul bo'lsa-da, soddaroq tasnif berishga harakat qildik.

Aslida, jahon xo'jaligida metallarni guruhlayotganda, uning qaysi jihatiga ko'proq e'tibor berishimizga qarab aloxida guruhlarga ajratiladi. Masalan, fizik xususiyatlariga ko'ra qora metal guruhiga magnit-kimyoviy elementlar kiritilsa, texnik nuqtai nazardan qora metallar ro'yxati yana biroz o'zgaradi. SHuning uchun jahon metal bozorini taxlil qilayotganda har bir metal turini aloxida e'tiborga olib, uning bozor konyukturasi aloxida o'rganiladi.

Demak, jahon metal bozorini qimmatbaho va qora metal guruhlariga bo'lishimiz mumkin. Qora metallar o'zining zichligi, yuqori haroratda erishi va mustahkamligi bilan farq qilinsa, rangli metal - nisbatan pastroq haroratda erishi, elektr va issiqlikni o'tkazish xususiyatlari yuqori bo'lishi bilan ajralib turadi.

Rangli metal sanoatida maxsus tarmoqlar mavjud bo'lib, ularni ikki asosiy belgisiga qarab guruhlashimiz mumkin: xomashyoni qazib chiqarish, tayyor maxsulot ishlab chiqarish bosqichlariga ko'ra va tovarning asosiy turiga ko'ra. Ushbu holatda birinchi belgisiga ko'ra, tog'-konlardan qazib chiqarish sanoati, metallurgik sanoat, metalga qayta ishlov berish sanoati va ta'mirlash-qurilish sanoatlarini kiritish mumkin.

Jahon metal bozorida o'zining qiymat darajasi yuqori bo'lgan metalning "rangli metallar" guruhidan joy olgan oltin, kumush va boshqa bir qator nodir metallar joy olgan alyuminiy, manganets, qo'rg'oshin, mis va hokazo kabi va eng asosiysi po'lat xomashyosining "qora metal" guruhiga kiruvchi metallarning ham o'z bozorlari mavjud.

8.2. Jahon metal bozori kon'yunkturasi va narhni shakllanishi

Milliy iqtisodiyotlarda ishlab chiqariladigan ichki va tashqi bozorga mo'ljallangan alohida metal mahsulotlari ixtisoslashtirilgan tovarlarga moslashtirilgan bo'lib, tarixiy va prognozli narxlarni, tovar bozori rivojlanishini tahlil qilishni hamda har tomonlama tarixiy va prognoz qilinadigan bozor ma'lumotlarini taqdim etadi.

Jahon metal bozori uchun maxsus "Market Outlooks" hisoboti har uch oyda bir marta chop etiladigan xalqaro ma'lumotnoma doimiy jahon bozoridagi narhlarni o'zgarib borishi, jahon metal bozoridagi narhlarning yangilanishlari va metal bozori tushunchalari bilan to'liq hisobotni nashr etadi. Ba'zi jahon metal bozorlaridagi istiqbolga mo'ljallangan 25 yillik talab, taklif va narxlarning prognozini "Market Outlook"ga ilova sifatida yoki alohida hisobot sifatida e'lon qilib boriladi.

Jahon metal bozori kon'yunkturasining 2025 yilga qadar holati va istiqboli yuzasidan 2021 yilda nashr qilingan "Market Outlook" hisoboti endilikda pandemiya tufayli jahon metal bozorining inqirozga yuz tutishi tufayli, ayni paytda 2030 yilgacha bo'lgan istiqboli yuzasidan tahlillar olib borilmoqda.

Jahon metal bozori jahon iqtisodiyotining mintaq va hududlariga ko'ra:

- Shimoliy Amerika va Markaziy / Janubiy Amerika talabi;
- Yevropa talabi;
- SHarqiy Osiyo (Xitoy, va ASEAN mamlakatlari), YAaoniya, YAqin SHarq talabi;
- Hindiston, Afrika kabi hududlardagi mavjud jahon metal bozorlari mahsulot va xomashyolarning quvvati;
- ishlab chiqarishdagi o'zgarishlar va xarajatlar;
- narxlar, savdo va balanslaridan kelib chiqqan holda narhlar belgilanib boriladi.

Albatta, jahon metal bozoridagi narhlar doimiy ravishda o'zgaruvchidir.


Masalan, Jahon alyuminiy bozorining istiqbolini tahlil qilsak...:

- 1) birlamchi alyuminiyga bo'lgan talabning istiqbollari to'g'risida qisqacha tahlil qilish;
- 2) ishlab chiqarish istiqbollari;
- 3) talab va taklif balansi;
- 4) narxlar istiqbollari;
- 5) xavf-xatar, siyosiy va iqtisodiy inqirozlar;
- 6) sanoat va iqtisodiy istiqbollarni o'z ichiga olgan qo'shimchalar;
- 7) alyuminiyning yarim tayyor mahsuloti va birlamchi alyuminiy iste'moli bo'yicha asosiy mamlakatlar uchun besh yillik prognozlar;
- 8) yirik ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarish quvvati va ishlab chiqarishning taxminiy prognozlari;
- 9) dunyoda eritish quvvati va dunyoda eritish bo'yicha besh yillik hisob-kitoblar;
- 10) yarim tayyor mahsulotlarga talab, dastlabki talabning istiqbollari;
- 11) ishlab chiqarish istiqbollari;
- 12) loyiha xarajatlari va energiya sarfi;
- 13) shuningdek, uzoq muddatli narxlar istiqbollari va eritish quvvati talablari bo'yicha tahlillar orqali alyuminiy xomashyosining narhi majmuaviy tahlillar asosida aniqlanadi.

2025 yilgacha yirik mintaqalar bo'yicha alyuminiyning bozor balansi, shu bilan birga, jahondagi yirik kompaniyalarning ishlab chiqarish hajmi va quvvati e'lon qilinadi. Alyuminiy prokat mahsulotlari bozorining istiqboli asosan Xitoy, SHimoliy Amerika va Yevropadagi metal bozorlari o'rtasida farqlanish mavjud bo'lib, unda transport, qadoqlash va sanoat bozorlariga yo'naltirilgan bozor

tendentsiyalarini tahlil qilinadi. Bundan tashqari, sanoat va iqtisodiy istiqbollar, aktivlarga egalik huquqi va kompaniyalarning moliyaviy balanslari ham tahlil qilinib boriladi.

Shunday qilib, jahon metal bozoridagi talab va taklif, taklifning muvozanati va narxlar haqidagi tushuntirishlar amalga oshirilib, keyingi bey yillik istiqbol yillar ichida bozorni 100 foiz ishlab chiqarish smetalari bilan chuqur tahlil qilinishini ta'minlaydi¹⁹.



8.1-rasm. Jahon metal bozorining 2019 yil konyukturasi²⁰.

Xo'sh, jahon metal bozorida xomashyolarning narhi qanday aniqlanadi va belgilanadi? Demak, qisqacha va sodda qilib ta'kidlaganda, har bir metal xomashyosi o'zining guruhidagi tasnifidan kelib chiqib hamda jahon bozorlaridagi taklif va extiyoj tahliliga ko'ra jahon birjalarida asosan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi ham metal xomashyolarning narxlarining belgilanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

8.1-rasmda keltirilgan 18 metal (rangli va qora metal aralash) turi 2019 yilda jahon bozoridagi aylanmasini milliard dollar o'lchovida ko'rsatilgan bo'lib,

¹⁹ [crugroup.com/analysis/market-outlooks](https://www.crugroup.com/analysis/market-outlooks)

²⁰ <https://www.statista.com/statistics/655194/commodity-metals-global-market-size/#statisticContainer>

unda eng katta ko'rsatkich oltinga to'g'ri keladi, ya'ni 2019 yilning dastlabki 8 oyida jahon bo'ylab oltin savdosi 170 mlrd.dollarga teng bo'lgan.

Ma'lumki, oltin rangli metallar sirasida eng qimmat turlariga kiradi va o'zining doimiy talabga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Jahon bozoridagi alyuminiy, mis va temir rudasi ulushi mos ravishda 165 mlrd.dollar, 155 mlrd.dollar va 137 mlrd.dollarni tashkil etgan. Alyuminiy va misning katta talabga egaligi, uning elektr tokini yaxshi o'tkazuvchanligi, korroziyaga chidamliligi va qarshilik kuchi pastligi bilan farqlanadi.

Eng quyi ko'rsatkich litiumga tegishli bo'lib, 3 mlrd.dollar bilan to'g'ri keladi. Litiumga bo'lgan talab ham, mutaxassislarining fikriga ko'ra, 2024 yilga borib ikki barobariga ortishi kutilmoqda²¹. Jahon metal bozorida litiumga bo'lgan talabning ortishi, jahondagi etakchi mamlakatlarning elektromobillarga o'tishi, quyosh energiyasini ishlab chiqarishda energiyani jamlab turuvchi akumulyatorlarga talabning ortishi bilan xam bog'lash mumkin.

8.3. Jahon metal bozorida narh shakllanishining asosiy xususiyatlari

Jahon metal bozoridagi eng asosiy xomashyo hisoblangan po'latning narxiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlab o'tish joiz:

1. Po'lat - temir rudasiga qorishilgan boshqa elementlar turiga ko'ra farqlanadi. Unga asosan temir, karbon, fosfor, sulfat, silikon, nikel va xrom kabi elementlar qo'shiladi. Temir po'latdan farqli ravishda standart bo'lgani uchun uning bozori doimiy va narxlar ham nisbatan barqarordir. Aksariyat qora metal turlari forward bitimlari orqali elektron savdo tizimida yuritiladi.

2. Po'lat narxi nafaqat bugungi talab va taklifga bog'liq, balki kelajakda sotib oladigan tovar uchun bugungi to'lovga bo'lgan narxga ham bog'liqdir. Kelajakdagi narxlarni bugun indeks qilish orqali prognoz turiga kirganligi tufayli ham, narxlar sakrab yoki suzib yuruvchi bo'lishi mumkin.

3. Po'lat narhiga ta'sir qiluvchi boshqa bir omil – milliy iqtisodiyotlarda mavjud bo'lgan ikkilamchi po'lat (metallomdan qayta ishlab chiqarilgan xomashyo) miqdoridir.

4. Jahon sanoat ishlab chiqarishni qisqartirishga yo'naltirilgan ekologik cheklovlar. Ma'lumki, xalqaro tashkilotlar metal ishlab chiqaruvchi davlatlarning

²¹ <https://www.nsenergybusiness.com/news/industry-news/global-lithium-demand-2024/>

ko'p miqdorda SO₂ning chiqishiga sababchi bo'lmoqdalar va buning uchun ishlab chiqaruvchilar turli cheklovlarga duch kelmoqdalar.

5. Ko'mir – po'latga ishlov berish uchun katta miqdorda ko'mir iste'mol qilinadi (yoqiladi). Demak ko'mir ham bilvosita po'lat narxiga ta'sir etadi.

6. Jahon bozorida temir rudasiga bo'lgan talab va taklifning tobora ortib borishi. Bugungi kunda jahonda temirning eng asosiy iste'molchisi hisoblangan Xitoyga xomashyoni etkazib beruvchi jahon metal bozoridagi eng yirik ikki mamlakat - Avstraliya va Braziliyadir. Ushbu mamlakatlar tomonidan Xitoyga eksport qilinayotgan xomashyoning jami 85 foizi aynan ushbu ikki davlat ulushiga to'g'ri keladi²².

7. Po'lat narhiga bevosita ta'sir qiluvchi - transport xarajatlari. Xar qanday eksport qilinuvchi tovarning narxida transport xarajatlari mavjud bo'lganligi kabi, po'lat narxiga xam ushbu xarajatlar kiritiladi

8. Va so'nggisi, albatta, har bir mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarning turli xarajatlari, jumladan: soliq, kommunal xizmat to'lovlari, ishchilarga beriladigan oylik maoshlari va boshqa turli xarajatlarni sanab o'tish mumkin. Po'lat ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan jahon metal bozoriga mahsulot eksport qilinayotganda, albatta o'zining ichki xarajatlari ham hisobga olinib mahsulotning eksport narhiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

So'nggi o'n yilliklarda yuz bergan yirik iqtisodiy inqirozlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlarning narxlari, talab va taklif dinamikasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, har bir hodisani o'zining xususiyatlariga qarab to'rtta alohida bosqichga ajratish mumkin va ushbu har bir bosqich o'zining xususiyati bilan alohida tarixiy hodisaga qarab har xil davomiylik darajada bo'ladi. Har bir iqtisodiy inqiroz narxlar shoki davrida, so'ngra talab shokida, talab va taklif muvozanatida davom etadi va nihoyat tiklanish davrini talab qiladi.

Birinchi bosqich: narx shoki bo'lib, u ikki haftadan ikki oygacha bo'lgan davrni o'z ichiga olishi mumkin hamda ushbu bosqichda narxlar shoklari bilan tavsiflanadi. Narxlarning keskin ko'tarilishi inqirozdan oldingi narxga bog'liq bo'lib, tovarlarning narxlari sezilarli darajada oshib, chegara narxlari eng yuqori darajaga tushadi.

²² <https://bcs-express.ru/novosti-i-analitika/rynok-stali-chto-nuzhno-znat-o-sektore>

Ikkinchi bosqichi esa uch oydan ikki yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olishi mumkin hamda ushbu bosqichda eng muhim bo'lgan xomashyolarga bo'lgan talab minimal darajada pasayadi.

Uchinchi bosqich: talab va taklifning yangi muvozanati bo'lib, u bir yildan uch yilgacha davrni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqich ishlab chiqaruvchilar tomonidan talab va taklifning yangi dinamikasiga javoban yuqori narxlardagi takliflari bilan tavsiflanadi. Natijada talab va taklifning yangi muvozanati paydo bo'ladi. Bozorning dastlabki ikki bosqichidagi o'zgarish jarayonlari savdo oqimlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi va buning natijasida narxlarning turlicha o'zgaruvchanlik holatiga olib kelishi mumkin.

To'rtinchi bosqich: talabni tiklash va keyingi barqarorlik holat bo'lib, ushbu bosqich bir yildan besh yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Dastlabki shokdan bir yil o'tgach va bir yildan besh yilgacha davom etishi mumkin bo'lgan yakuniy bosqich global tiklanishni yirik iqtisodiyotlar boshqarayotgani va jahon iqtisodiyotida xomashyolarga tanqislik paydo bo'lishi bilan narxlar tiklanib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Albatta, kapital xarajatlarining etishmasligi, mavjud aktivlarning tugashi va talabning tabaqalashtirilgan shakli tovarlarning turlicha munosabatda bo'lishiga olib keladi.

8.4. Jahon metal bozorlari va ularning asosiy ko'rinishlari

Jahon bozorida metal xomashyosi va mahsulotlarining sotish tijorati hizmatlari yillar davomida takomillashib kelgan. Ushbu xizmat turlari narx tadqiqoti, narxlar bayonoti, metal turlari bo'yicha konsalting kabilardir.

Bugungi jahon xo'jaligida metal bozorlarining Yevropa va AQShda 2 ta asosiy yirik metal bozorlari mavjuddir.

1. Buyuk Britaniyaning London shahrida joylashgan – “.LME: London Metal Exchange” (London Metal Birjasi);

2. AQShning Nyu-York shahrida joylashgan “COMEX: New York Mercantile Commodity Exchange” (Nyu York tovar birjasi) (CME Group).

Bu birjalarning yangi birjalardan asosiy farqi shundaki, ular o'nlab yillar davomida ma'lumotlar yig'ib kelganlar, tadqiqotlar va prognozlar qilganlar. SHuning uchun bu birjalarning metalga bergan bahosi ishonchliroq deb bilinadi. Bundan tashqari yana bir qator metal birjalari mavjud, shulardan bir nechtasini 8.1-jadval orqali ko'rish mumkin.

Metal birjalarida, xususan, London Metal Birjasida po'lat armatura va lom shaklida sotiladi. 2021 yilning mart oyidan boshlab 1 tonna po'lat lomi 420 dollardan 470 gacha ko'tarilib ketgan va shu yilning, ya'ni 2022 yilning 16 mart holatiga ko'ra, 1 tonna lom narxi 440 dollarni tashkil etadi. Po'latning HRC China (Hotrolled coil) narxi tonnasiga 720-750 dollar atrofida o'zgarib turibdi. SHimoliy Amerikadagi HRC po'lat tonnasiga 1300 dollarni tashkil etadi²³.

8.1-jadval

Jahon metal bozoridagi ba'zi birjalar ro'yxati

Birja nomi	Qisqartma nomi	Joylashgan hududi	Tovar turi
London Metal Exchange	LME	London, Buyuk Britaniya	Metallar
COMEX: New York Mercantile Commodity Exchange	NMCE	Nyu-York, AQSH	Metallar
NRC China		SHanxay, Xitoy	Metallar
Burs Afrika		Eben, Mavritaniya	Metal
Meerchantayl Madagaskar	MEX	Antananarivo, Madagaskar	Metal, qishloq xo'jaligi, energetika
Nadeks Ekscheyndj	HEGX	Chikago, AQSh	Energetika, metal
Uzbek tovar xomashyo birjasi	XCET	Toshkent, O'zbekiston	Metal va boshqa sanoat maxsulotlari
Tokio xomashyo birjasi	XTKT	Tokio, Yaponiya	Energiya, metallar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari

Manba: ushbu jadval "Economist Intelligence Unit" ma'lumotlari asosida ishlab chiqildi.

Ikkilamchi metal bozori 2020 yildan 2025 gacha 630 mln.tonnadan 890,7 mln. tonnagacha, ya'ni 52 mlrd.dollardan 76 mlrd.dollargacha o'sishi prognoz

²³ London Metal Exchange

qilingan edi. Yillik o'sish darajasi CAGR (compounding annual growth rate) 7,1 foizni tashkil etadi. 2019 yil natijasiga ko'ra, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari jahon bo'ylab eng katta ikkilamchi metal bozorini tashkil qilganliklarini qayd etish mumkin²⁴.

2021 yilda jahon bo'yicha ikkilamchi metalni qayta ishlash bozorining 50 foizidan ortig'i Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlariga (asosan Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreya) to'g'ri kelgan.

Yevropada ikkilamchi metal bozoridagi eng asosiy ishtirokchi mamlakat bu Lyuksemburgdir, ya'ni "ArcelorMittal" kompaniyasidir. Ikkilamchi metalni qayta ishlash bozori 2 ta ko'rinishi mavjud (ikkilamchi metal turiga ko'ra):

- 1) Yangi ikkilamchi metal (ishlab chiqarish jarayonida vujudga kelgan);
- 2) Eski ikkilamchi metal (tayyor mahsulotlarning hayotiylik davri tugaganida).

Shuningdek, Ikkilamchi metalni qayta ishlash bozorining 2 ta turi (bozor turiga ko'ra) mavjud:

- 1) Rangli metal bozori;
- 2) Qora metal bozori

Jahon po'lat bozorlari. Qora metal bozori o'z ichiga temir, margana, litium, xrom va boshqalarni oladi. Bu bozor tushunchasi juda keng bo'lganligi uchun, ulardan biri - po'lat bozorini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Po'lat qurilish, uy jixozlari, mashinasozlik, ko'priksizlik va boshqa sohalarda keng qo'llaniladi.

8.2-jadvalda jahon po'lat bozoridagi eng yirik ishtirok etuvchi 10 korporatsiyalar ro'yxati berilgan. Ushbu kompaniyalarning aksariyati Transmilliy korporatsiyalardir, chunki metalni izlab topish, qazib chiqarish va unga qayta ishlov berish ulkan mablag'lar va xalqaro kelishuvlarni talab qiladi.

"ArcelorMittal" ("Arselór Míttal") - Jahon metal bozoridagi eng yirik kompaniyalardan biri bo'lib, u Lyuksemburgda ro'yxatdan o'tgan. 18 davlat va 4 mintaqada ishlab chiqarish kuchlari mavjud, maxsulotlari 160 davlatda sotiladi. 2 va 3-o'rinlarda Xitoy (China Baowu Group) va Yaponiya (Nippon Steel Corporation) mamlakatlariga tegishli bo'lgan kompaniyalar egallagan va ularning po'latni yillik ishlab chiqarish xajmi mos ravishda 95 va 51 tonnadir. 4-o'rinni yana Xitoy kompaniyasi egallab tursa, 5-o'rinni esa Janubiy Koreyaning POSCO

²⁴ Metal Recycling market, mart 2020

korxonasiga to'g'ri keladi. Ushbu korxona 28 million tonna xom po'lat ishlab chiqarish uchun 29000dan ortiq ish kuchi mehnat faoliyatini olib boradi.

8.2-jadval

Jahon po'lat bozoridagi eng yirik "Top-10" korporatsiyalar ro'yxati (2020 yil)

Jahondagi reytingi	Kompaniyalarnig nomlari	Mln.tn.	Mamlakat
1	ArcelorMittal	97,31	Lyuksemburg
2	China Baowu Group	95,47	Xitoy, SHanxay
3	Nippon Steel Corporation	51,68	Yaponiya
4	HBIS Group	46,56	Xitoy
5	POSCO	43,12	Janubiy Koreya
6	Shagang Group	41,10	Xitoy
7	Ansteel Group	39,20	Xitoy
8	Jianlong Group	31,19	Xitoy
9	Tata Steel Group	30,15	Hindiston
10	Shougang Group	29,34	Xitoy

Manba: ushbu jadval "Economist Intelligence Unit" ma'lumotlari asosida ishlab chiqildi.

8.5. Jahon oltin bozori va uning xususiyatlari

Oltin bu eng asosiy qimmat baho metallardan biri sanaladi va mamlakat iqtisodiyotida muhim rol o'ynaydi. Oltin bozori – oltin bilan oldi-sotdi operatsiyalarini doimiy ravishda amalga amalga oshiruvchi markaz hisoblanadi.

Oltinning narhi 1919 yildan boshlab London metal birjasida (London banklararo bozorida) fiksatsiya (Gold Fixing) London Gold Market Fixing Limited kompaniyasi tomonidan belgilanadi. Uning narhi mazkur birjada 1 sutkada 2 marta aniqlanadi, ya'ni ertalab va kechki payt. Oltinni o'lchov birligi untsiya hisoblanadi, ya'ni 1 untsiya 31 grammni tashkil qiladi. 2015 yildan boshlab oltinning narhi elektron auksion tizimda aniqlanish yo'lga qo'yildi.

Jahon oltin bozori mintaqaviy bozorlardan tarkib topadi. Ularning eng yiriklari – London, TSyurix, Nyu-York, Jeneva, Melburn shaharlarida joylashgan. 1919 yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelayotgan London Oltin bozorida kun

davomida 2 marotaba oltinning maxsus narxi (fiksing) belgilash tartibi joriy etilgan. London Oltin bozoridagi narxlar eng qulay hisoblanib, turli hisob-kitoblar uchun baza vazifasini bajaradi. Va uzoq, muddatli shartnomalarda narxlarni belgilash uchun qo'llaniladi.

TSyurix Oltin bozori 1970-yildan faoliyatini boshlagan bo'lib, muddatli shartnomalarda narxlarni belgilash uchun qo'llaniladi. TSyurix Oltin bozori 1980-yilarga kelib eng yirik markazlardan biriga aylandi, jahonda oltinga bo'lgan talabning asosiy qismi ushbu bozor orqali qondiriladigan bo'ldi. Bugungi kunda ham jahon bo'yicha oltin savdosining kamida 40 foizi SHveytsariya o'tkaziladi. SHveytsariya banklarining afzallik tomonlari shundan iboratki, ular jahonning barcha hududlaridagi oltin bozorlarida joylashgan.

Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilning 19 yanvar kuni oltin narxi 2021 yil noyabr oyining o'rtalaridan beri maksimal darajagacha ko'tarilgan. Bir untsiya bahosi bir kunda 27 dollardan 1840 dollargacha qimmatlashgan, 20 yanvar kuni sotuvlar boshida esa oltin narxi bir untsiya uchun 1844,15 dollarga etgan.

Oltin narxini belgilovchi asosiy omillardan biri - Amerika regulyatori siyosati hisoblanadi. AQShning Federal zaxira tizimi rahbarlari o'zlarining oxirgi bayonotlarida joriy yilda uchta asosiy stavkaning oshishi ehtimoli haqida ogohlantirdi.

Jahon oltin kengashi (WGC) tahlilchilarining qayd etishlaricha, boshqa regulyatorlar bunday qat'iy yo'l tutmaydi. Masalan, Yevropa markaziy bankining ta'kidlashicha, 2022 yilda ular uchun foiz stavkalarini oshirish inflyatsiya haqidagi rekord darajali so'ngi ma'lumotlarga qaramasdan «ehtimoldan juda yiroq»dir.

Angliya banki dekabrda foiz stavkalarini oshirdi, ammo uning Pul siyosati bo'yicha kengashi kelgusida narxlarni minimal darajada ko'tarishni rejalashtirayotganga o'xshaydi, deyiladi WGC hisobotida.

Xitoy xalq banki esa tijorat banklarining majburiy zaxira normalarini kamaytirishi bilanoq, mamlakatdagi og'ir iqtisodiy vaziyatni yumshatish uchun dekabr oyida asosiy hisob stavkalaridan birini qisqartirdi.

World Gold Council tahlillariga ko'ra, jahon iqtisodiyoti tarixida ham olib qalganda, oltin yuqori inflyatsiya sharoitlarida o'zini yaxshi ko'rsata oladi. Inflyatsiya 3 foizga etgan yillarda oltin narxi o'rtacha 14 foizga ko'tarilgan.

2020 yilning III-choragida dunyo bozorida oltinning narhi o'zining tarixidagi eng yuqori narhga ko'tarildi, albatta yuzaga kelgan pandemiya tufayli. 2020 yilning avgust oyida 1 untsiya oltinning narhi 2450 dollargacha ko'tarildi.

Aynan jahon oltin bozorida narxning keskin ko'tarilishi sababli, oltin ishlab chiqaruvchi jahonning ko'plab mamlakatlari o'z oltin mahsulotlarini jahon bozoriga chiqarib qo'shimcha xorijiy valyutaga ega bo'lishdi.

2022 yilda oltin bozoridagi minimal qiymat uchinchi chorakning oxiri va to'rtinchi chorakning boshiga kelib barqarorlashishi, yil so'ngiga kelib esa yuqoriga ko'tarilishi ehtimoli mavjud.

Oltin O'zbekistonga qanday ta'sir ko'rsatadi? Oltin bo'yicha jahon narxlari mamlakatdagi iqtisodiy holatga ham to'g'ridan-to'g'ri o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Birinchidan, oltin respublikaning asosiy eksport tovarlaridan biri hisoblanadi. Avvalgi yillarda uning ulushi 50 foizgacha o'sgan edi.

2021 yilda vaziyat o'zgardi. Garchi oltin ulushi 24,7 foizgacha kamaygan bo'lsa-da, u tashqi savdo-sotiqda muhim ahamiyatga egadir (hajmi bo'yicha faqat sanoat tovarlaridan keyingi o'rinda turadi). Ko'plab oltin ishlab chiqaruvchi mamlakatlarda uni mamlakatning o'zi eksport qiladi, ammo O'zbekistondagi yagona sotuvchi – bu Markaziy Bank (MB) bo'lib, ishlab chiqaruvchilardan (masalan, Navoiy kon-metallurgiya kombinatidan) oltinni sotib oladi va uni boshqa mamlakatlarga (asosan SHveytsariyaga) eksport qiladi. Markaziy Bankda aytishlaricha, oltin, uning narxi qimmatlashgan paytida sotilar ekan.

Ikkinchidan, O'zbekiston zaxiralarining katta qismi aynan oltindan iborat. Ushbu zaxiralar sug'urta yoki «xavfsizlik yostiqlashi» hisoblanadi. Deyarli barcha mamlakatlar favqulodda vaziyatlarda kerak bo'ladigan o'zining zaxirasiga ega.

Turli mamlakatlar o'z zaxiralaridan turlicha foydalanadi. Odatda bu to'lov balansi etishmovchiligini moliyalashtirish, valyuta bozorida intervensiya o'tkazish, milliy valyuta kursini saqlash, tashqi qarzni qoplash va h.k.lar bo'lishi mumkin.

Xalqaro tashkilotlar rivojlanib borayotgan mamlakatlarga, shu qatorda O'zbekistonga ham 3 oylik importni moliyalashtirishga etadigan o'z zaxirasini saqlashni tavsiya qiladi.

Hozirda O'zbekistonga 15 oydan ortiq importni moliyalashtirish uchun 35 mlrd dollar mablag' etarli. Bunday ko'rsatkich esa ishonchli hisoblanadi.

Uchinchidan, Markaziy Bankda ta'kidlashlaricha, qimmatbaho oltin davlat byudjeti daromadlari, shu jumladan oylik maoshlar, nafaqalar va boshqa ijtimoiy sarf-xarajatlar uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday fikrni xalqaro tashkilotlar ham tasdiqlaydi. Masalan, Xalqaro valyuta fondi oltin narxining o'zgarib turishini O'zbekiston iqtisodiyoti uchun tahlikalari vaziyatlardan biri deb ta'kidlaydi.

To'rtinchidan, oltin narxining oshishi oltin qazib oluvchi korxonalardan olinadigan daromad solig'i tushumlarining o'sishiga xizmat qiladi. Bu esa bir necha trln so'm deganidir.

Beshinchidan, oltin O'zbekistonliklar uchun jamg'arma va sarmoyalarning eng maqbul usullaridan biridir.

Jahon oltin bozorida oltin xomashyosi noyob va qimmat metal turi bo'lsa-da, uning keng ko'lamda amaliy foydasi moliya va sarmoya sohasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, oltinning 80 foizi oxir-oqibat zargarlik buyumiga aylanishi bilan tugaydi. Biroq insoniyat yangicha taraqqiyot yo'li – orqaga qaytish yo'li bo'lmagan yuqori texnologiyalar davriga o'tish arafasida. Va, tabiiyki, insonni metal zargarlik buyumi sifati bo'lishidan ko'proq sanoatda keltiradigan ustunlik tomonlari qiziqtiradi.

Metallarni ishlab chiqarish bo'yicha mamlakatlar kesimida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. "World Gold Council, 2022" ma'lumotiga ko'ra, oltin ishlab chiqarishda yuqori o'rinni Xitoy egallab turibdi. Uning yillik ishlab chiqarishi xajmi qariyb 383 tonnani tashkil etgan holda jahon xo'jaligida 1-o'rinda turadi va keying o'rinlarni Rossiya, Avstraliya va AQSh kabi mamlakatlar egallab turibdi.

Jahondagi eng etakchi "Top 10"likni Kanada, Peru, Gana, Janubiy Afrika va Meksika tashkil etgan xolda, uni Braziliya yillik 110 tonna ishlab chiqarish bilan 10-o'rinni egallagan. Ushbu ro'yxatda ko'rib turganimizdek, O'zbekiston o'rin olmagan. Chunki, oltinni kondan qazib chiqarish bilan uni mahsulotga aylantirib jahon bozoriga taqdim qilish, oltin valyuta rezervlariga egalik qilish kabi turli xil statistik ma'lumotlar keltiriladi va ularni alohida o'rganish lozim.

Masalan, 2020 yilda dunyodagi oltin konlarning ishlab chiqarish quvvatiga ko'ra, O'zbekistondagi Murantau oltin koni, AQSHning Nevada oltin konidan so'ng 2-o'rinni (yillik 66 tonna qazib chiqarishi bilan) egallagan²⁵. Xalqaro "KITCO" reytingiga ko'ra, Murantau 2020 yilda eng yirik kon deb tan olindi. Lekin, oltinni mahsulot sifatida ishlab chiqarish bo'yicha etakchilar safiga kirmaymiz. YUqoridagi jadvaldan ma'lumki, yirik konlari mavjud bo'lmasa-da, ishlab chiqarishda Xitoy etakchi o'rinni egallagan.

²⁵ World Gold Council, 2020

Oltin xomashyosini qazib chiqarishda esa jahonda Xitoy, Avstraliya va Rossiya mamlakatlari etakchilik qilishadi. Jahondagi yirik oltin qazib chiqaruvchi mamlakatlar reytingini 8.3-jadval orqali ko'rishimiz mumkin.

8.3-jadval

Jahondagi yirik oltin qazib chiqaruvchi mamlakatlar reytingi ²⁶

O'rin	Mamlakatlar	Miqdori (tonna)	Jahon bo'yicha ulushi (foizda)
1	Xitoy	404,1	12,1
2	Avstraliya	314,9	9,5
3	Rossiya	297,3	8,9
4	AQSh	221,7	6,7
5	Kanada	189,0	5,7
6	Peru	158,4	4,8
7	Indoneziya	136,9	4,1
8	Gana	130,5	3,9
9	JAR	128,9	3,9
10	Meksika	115,4	3,5
...	Boshqa mamlakatlar	1 234,9	37,1
	Jahon bo'yicha	3 332,0	100,0


Manba: ushbu jadval World Gold Council ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Demak, yuqoridagi jahon oltin bozori tahlilidan ko'rinib turibdiki, 2020 yilgi "pandemiya davri" jahon oltin bozorida narxning keskin ko'tarilishiga olib keldi. Bu jarayon esa, oltin xomashyolarga ega bo'lgan mamlakatlarning daromadiga qo'shimcha bonus olib keldi. Xususan, O'zbekistonga ham. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy ma'lumotiga ko'ra, 2020 yilda O'zbekiston o'zining iqtisodiy tarixida eng ko'p miqdorda oltinni eksport qilgan va jahon oltin bozorida narx ko'tarilganligi sababli oltin eksportimizning xajmi salmoqli darajada ko'payganligini ma'lum qilgan.

Butunjahon oltin kengashining (World Gold Council) 2022-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston oltin-valyuta zaxiralari tarkibidagi oltin hajmi bo'yicha dunyoning top-20 taligi reytingida 15-o'rinni egalladi. O'zbekistonning

²⁶<https://www.google.com/amp/s/www.vesti.ru/v/s/www.vesti.ruamp/article/2414883%3famp>

oltin zaxiralari 352,7 tonnani tashkil etadi. Reytingda 1-o'rinni uzoq yillardan beri AQSH egallab kelmoqda, uning zaxiralari [fvjy 8 133 tonnani tashkil qiladi²⁷.




Manba: ushbu jadval World Gold Council ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

8.2-rasm. Oltin ishlab chiqaruvchi eng etakchi “Top-10 mamlakatlar” reytingi (tn.)

Ko'rib turganimizdek, oltin zahiralariga ko'ra etakchilikni AQSH 8000 tonnadan oshiq oltin zahiralar bilan egallab tursa, Rossiya 2000 tonnadan ortig'iga ega, O'zbekiston esa 17-o'rinda 332 tonna oltini bilan egallab turadi. Jahon oltin kengashining hisobotiga ko'ra, 335,9 tonna oltin zaxirasiga ega O'zbekiston dunyoda 17-o'rinda turibdi. Bu mamlakat valyuta zaxirasining 59,1 foizini tashkil etadi.

Undan keyingi o'rinda Saudiya Arabistoni (323,1 tonna, 3,4 foiz). SHuni ham e'tiborga olish kerakki, bu jadvalda mamlakatlar qatorida ikkita yirik xalqaro banklar ham o'rin egallagan: Xalqaro Valyuta fondi va Yevropaning Markaziy Banki. Ularning oltin zahiralar mos ravishda 2800 tonnadan ziyod oltini bilan 3-o'rinda va 504 dan ortiq tonna bilan 13-o'rinda ekanligini ko'rish mumkin.

²⁷ <https://www.google.com/amp/s/kursiv.kz/news/mirovaya-ekonomika/2019-10/uzbekistan-voshel-v-top-20-stran-po-zolotym-rezervam%3>



8.3-rasm. Jahon oltin zahiralari. Xalqaro moliya statistikasi, 2021 yil.

Jahon bo'ylab oltin-valyuta zaxiralari ma'lumotlarini oltinni ishlab chiqarish salohiyatiga doir ma'lumotlar bilan keskin farq qiladi. Tabiiyki, oltin zaxiralar banklarda valyutaning mustahkamligi quvvatlab turuvchi vositadir. Xalqaro bitimlarda pul o'rniga muomalada yuritilishi xam kuzatilgan.

Iqtisodiyot inqirozga uchray deganda, yoki valyuta ayriboshlashga qiyinchilik tug'dirishi oldini olish maqsadida mamlakatlar oltin-valyuta zahiralarini g'amlab qo'yishni maqsad qilib qo'yganlar. Oltinning nodir kimyoviy xususiyatlari bo'lishi turli xil sohalarda qo'llashni mumkin qilsa-da, hozirda bu metal asosan banklarda valyuta zahirasi va zargarlik buyumlari sifatida saqlanib kelmoqda.

8.6. Jahon metal bozorining asosiy ishtirokchi mamlakatlari va metal mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi

Metallurgiya sanoat ishlab chiqarishda etakchi hisoblangan davlatlarda milliy iqtisodiyotning eng asosiy va muhim hamda hal qiluvchi tarmog'i hisoblanadi. Aynan metallurgiya boshqa sohalarga ham global bozorda ustuvorlik qilishga, xususan sifatli prokat ishlab chiqarishga ko'maklashadi.

Bugungi kunda metallurgiya mahsulotining eng yaxshi turlari AQSh, Yaponiya, Rossiya va G'arbiy Yevropa davlatlarida ishlab chiqariladi. Bu davlatlar ishlab chiqaruvchilari ichki bozor talablarini qondiribgina qolmay, balki xorijga yuz millionlab

dollarga teng bo'lgan prokatni eksport qilib kelishmoqda. Dunyo miqyosida sifatli prokatga ehtiyoj ortib borayotganligi ham soha dolzarbligini belgilab bermoqda.

Albatta, jahondagi xomashyo va tabiiy resurslarga boy bo'lgan har qanday rivojlanayotgan mamlakatlar jahon xomashyo bozorlarida munosib joy olishga harakat qilishadi. So'nggi yillarda jahon metallurgiya sanoat tarmog'ida metal prokat, po'lat va quyma temir ishlab chiqarishda aniq o'sish kuzatilmoqda. Bu, asosan, metallurgiya ishlab chiqarish bozorida eng etakchi mamlakatlarning biriga aylangan Xitoyning haqiqiy kengayishi bilan bog'liqdir. SHu bilan birga, metallurgiya tarmog'ida ishlab chiqarishning turli omillari tahlillaridan kelib chiqib, bugungi jahon xo'jaligida jahon metal bozorining qariyb 60 foizini Xitoy; Yaponiya – 8 foiz; Hindiston va AQSh – 6 foiz; Rossiya va Janubiy Koreya – 5 foiz; Germaniya – 3 foiz va Turkiya, Tayvan, Braziliya mamlakatlarining ulushi esa 2 foizni tashkil qiladi.

Jahon metal bozorida o'z xukmronligini o'rnatgan mamlakat bu Xitoydir. U metal mahsulotlarining eksporti va importi hamda savdo aylanmasi miqdori va xajmi jihatidan jahon metal bozoridagi eng etakchi mamlakat hisoblanadi. Xitoy jahon xo'jaligida iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan mamlakatning sanoat ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan turli metallarni ishlab chiqaruvchi asosiy mamlakatlardan biridir. Mamlakat nafaqat ichki talabni qondirish uchun, balki xorijiy mamlakatlarga eksport qilish uchun ham metallarni ishlab chiqaradi.

2018 yilga kelib, Xitoyning po'lat ishlab chiqarishi 880,3 mln. tonnani tashkil etdi va uning yarim tayyor va tayyor po'lat mahsulotlarini eksport qilish hajmi 68 mln.metr tonnnani tashkil etdi. 2019 yilga kelib esa, metal mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi oldingi yilga nisbatan 6,5 foizga o'sib, 937,5 mln.tonnaga etdi. Xuddi shu yili Xitoydan alyuminiy prokatining eksporti 18,1 mlrd.AQSH dollaridan oshdi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Xitoy jahon metal bozorida po'latning eng yirik eksportchisi bo'lib, 2019 yildagi metal savdo balansida ijobiy saldosi 54,4 mln.tonnani tashkil etdi. Xitoydan tashqari, jahon metal bozorida Yevropa va SHimoliy Amerika mamlakatlari ham po'latning asosiy importchilari hisoblanadi. Yaponiya esa po'lat eksporti bo'yicha jahon metal bozorida Xitoydan so'ng 2-o'rinni egalladi. Umuman olganda 2019 yilda jahon metal bozorida butun dunyo bo'yicha jami 36 mln.tonna po'lat eksport qilindi.

Biroq jahon savdosidagi ba'zi etakchi mamlakatlar mahalliy metallarni ishlab chiqaruvchilarga turli xil savdo cheklovlarini qo'yimoqdalar. Xususan

hozirda AQSh va Xitoy o'rtasidagi savdo urushi global savdoni rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. 2020 yilning fevral oyidan boshlab AQSh po'latiga qo'yiladigan tariflardan olinadigan to'lov va Xitoyga alyuminiy importi qariyb bir milliard AQSh dollarini tashkil etdi²⁸.

Jahon qora metallurgiya sanoatida hozirgi vaqtda xom ashyo resurslarini etkazib beruvchi, tayyor metall mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va ularni iste'mol qiluvchi mamlakatlar guruhlarini shakllangan. Jumladan, jahon metal bozoriga temir rudani eksport qilishda Braziliya, Avstraliya, Hindiston, Liberiya davlatlari hamda po'lat ishlab chiqarishda esa Xitoy, Yaponiya, Rossiya, AQSh, Ukraina, Germaniya kabi mamlakatlar yaqqol ajralib turadi.

8.4-jadvaldagi "Jahon 2015-2021 yillarda bo'yicha metal mahsulotlari (po'lat) ishlab chiqarish dinamikasi (mln.tn.)" jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2021 yilda jahon bo'yicha jami 1714,5 mln.tonna po'lat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lsa, shundan deyarli yarmi – 806,3 mln.tonnasi Xitoyga to'g'ri keladi, ya'ni 47,0 foiz ulush demakdir.

8.4-jadval

Jahon 2015-2021 yillarda bo'yicha metal mahsulotlari (po'lat) ishlab chiqarish dinamikasi (mln.tn.)

T/r		2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
1	Jahon bo'yicha	1620,2	1627,2	1729,8	1808,6	1917,7	1608,4	1714,5
2	Xitoy	816,4	819,5	859,0	880,3	937,5	720,7	806,3
3	Boshqa mamlakatlar	803,8	807,6	870,9	928,3	980,2	887,7	908,2

Manba: ushbu jadval World Steel Association (2021) ma'lumotlari asosida ishlab chiqildi.

Tayyor metal mahsulotlarini iste'mol qilishda esa asosan, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar etakchilik qilmoqda. Jahonda ishlab chiqarilayotgan po'latning 80 foizi rivojlangan davlatlar hissasiga to'g'ri keladi hamda ularning

²⁸ statistika.com/statistiss/1098324/economik-trade-impakt-of-covid-19-on-metal-industr

jahon metal bozoriga yuqori sifatli qora metal mahsulotlarini etkazib berish ulushi yuqoridir²⁹.

Jahon temir uyushmasi (World Steel Assosiation WSA) ma'lumotlariga ko'ra, jahonda qora metal sanoati rivojlangan va metal mahsulotlari ishlab chiqaruvchi jami 64 ta mamlakat mavjuddir va ushbu mamlakatlar Jahon temir uyushmasiga a'zo hisoblanishadi.

8.5-jadval

Jahon bo'yicha 1950 – 2022 yillarda po'lat ishlab chiqarish dinamikasi (po'lat ishlab chiqarish, mln.tonna)³⁰

Yillar	Jahon bo'yicha	Yillar	Jahon bo'yicha	Yillar	Jahon bo'yicha
1950	189	2001	852	2012	1 560
1955	270	2002	905	2013	1 650
1960	347	2003	971	2014	1 671
1965	456	2004	1 063	2015	1 620
1970	595	2005	1 148	2016	1 627
1975	644	2006	1 250	2017	1 730
1980	717	2007	1 348	2018	1 809
1985	719	2008	1 343	2019	1 918
1990	770	2009	1 239	2020	1 608
1995	753	2010	1433	2021	1715
2000	850	2011	1538	2022*	1812

Izoh: 2022 yilgi istiqbol.

Manba: Jahon Po'lat Assotsiatsiyasi (World Steel Association, 2021) ma'lumotlari asosida ishlab chiqildi.

8.5-jadvaldagi “Jahon bo'yicha 1950-2022 yillarda po'lat ishlab chiqarish dinamikasi (po'lat ishlab chiqarish, mln.tn.)” jadvaldan ko'rinib turibdiki, jahon bo'yicha 1950 yilda 189 mln.tonna po'lat ishlab chiqarilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2021 yilga kelib 1715 mln.tonnani tashkil qilgan, ya'ni ushbu o'tgan davrdagi ishlab chiqarishga qaraganda 907 foizga o'sgan.

Demak, jahon metal bozorida qora metalning (po'lat) eng yirik iste'molchisi va ishlab chiqaruvchisi ham yaqin yillar ichida Xitoy bo'lib qolaveradi, chunki

²⁹ <http://www.worldsteel.org/>

³⁰ World Steel Association, 2021

xitoyliklarning iste'moli va ishlab chiqarish darajasiga yaqin 10 yillar davomida boshqa mamlakatni quvib etish ehtimoli juda pastdir. Shuningdek, po'latning lom narxi tonnasiga 440 dollar bo'lsa, Xitoyda ishlab chiqarilgan HRC po'lat tonnasiga 750 – 1300 dollar atrofidadir, chunki uning narhi mahsulotning sifati va ishlab chiqarilgan joyiga qarab o'zgaradi.

Bobning qisqacha xulosasi:

Shunday qilib, jahon metal bozori kon'yunkturasi va uning narhini shakllanish xususiyatlari tahlillaridan ko'rinib turibdi-ki, sanoat mahsulotlarining turli-tumanligi ko'payib boraverar ekan, jahon xo'jaligida metallarga bo'lgan ehtiyoj ham kundan-kunga ko'payib boraveradi. Bu esa, o'z navbatida, rivojlangan va rivojlanyotgan mamlakatlarning resurslaridan o'zaro foydalanishni talab etmoqda. Biz esa ularni jahon metalurgiya bozorlarida bevosita “to'qnashishi”ni kuzatishimiz mumkin. Bunday jarayonlar jahon metalurgiya bozorida mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy raqobatni kuchaytiradi, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida.

Shu o'rinda ta'kidlash joiz-ki, jahon metal bozorida eng xaridorgo'y bo'lgan oltin shunday metalki, iqtisodiyot inqirozga uchray deganda, yoki valyuta ayriboshlashga qiyinchilik tug'dirishi oldini olish maqsadida mamlakatlar oltin-valyuta zahiralarini g'amlab qo'yishni maqsad qilib qo'yganlar. Oltinning nodir kimyoviy xususiyatlari bo'lishi turli xil sohalarda qo'llashni mumkin qilsa-da, hozirda bu metal asosan banklarda valyuta zahirasi va zargarlik buyumlari sifatida saqlanib kelmoqda.

Nazorat savollari:

1. Jahon metal bozori tasnifiga ko'ra qanday guruhlariga bo'lingan?
2. Jahon metal bozorida “rangli metallar” guruhidan qanday metallar joy olgan?
3. Jahon metal bozori narhni shakllanishining xususiyatlarini ayting?
4. Jahon metal bozori uchun qanday maxsus xalqaro hisoboti chop etiladi va ushbu hisobot o'z tarkibiga qanday ma'lumotlarni jamlaydi?
5. Jahondagi eng yirik metal bozorlarini sanab o'ting?

6. Nima sababdan jahon metal bozoridagi narhlar doimiy ravishda o'zgaruvchandir?

7. Jahon metal bozorida xomashyolarning narhi qanday aniqlanadi va belgilanadi?

8. Jahon metal bozoridagi eng asosiy xomashyo hisoblangan po'latning narxiga ta'sir etuvchi omillarni sanab o'ting?

9. Jahon bozorlarida yuz beradigan har bir hodisani o'zining xususiyatlariga (iqtisodiy yoki siyosiy inqiroz, pandemiya va x.z.) narxlarning o'zgarishiga qarab qanday bosqichlarga ajratish mumkin?

10. Jahon metal bozorlarining asosiy ko'rinishlarini ayting?

11. Ikilamchi metal bozorining xususiyatini va uning mohiyatini ayting?

12. Ikkilamchi metalni qayta ishlash bozorining qanday ko'rinishlari mavjud?

13. Jahon oltin bozori va uning xususiyatlarini ayting?

14. Jahon bozorida oltinga narx qachondan va eng birinchi qaysi birjada aniqlangan?

15. Oltin narxini belgilovchi asosiy omillarni ayting?

16. Oltin O'zbekistonga qanday ta'sir ko'rsatadi?

17. Jahon metal bozoridagi eng asosiy mamlakat va uning iqtisodiy salohiyatini ayting?

18. Jahon metal bozorining asosiy ishtirokchi mamlakatlari va metal mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasini ayting?

19. O'zbekistonning oltin qazib chiqarish tarmog'i va uning jahon bozoridagi ahamiyatini ayting?

20. Jahon oltin bozoridagi ma'lumotlarni qaysi maxsus tashkilot tomonidan hisobotlari e'lon qilib boriladi?

21. Jahondagi yirik oltin qazib chiqaruvchi mamlakatlar reytingini ayting?

22. Oltin zahirasi deganda nimani tushunasiz?

Uyga vazifa!

Talabalarning "Jahon metal bozori kon'yunkturasi va uning narhini shakllanish xususiyatlari" mavzusini chuqur o'zlashtirishi hamda amaliyot darsiga puxta tayyorgarlik ko'rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

1) mavzu boshida berilgan “Tayanch iboralar” so’zlarining tushunchasiga ega bo’lish;

2) mavzu so’nggida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko’rish;

3) jahon metal bozoridagi asosiy ishtirokchi mamlakatlarning ishlab chiqarish quvvatlari, salohiyatlari va ularning jahon bozoridagi o’rni bo’yicha talabalar tomonidan guruhlariga bo’lingan holda “Taqdimot” o’tkaziladi.

IX BOB. JAHON MOLIYA BOZORI TAHLILI

9.1. Jahon moliya bozori tushunchasi va uning mohiyati.

9.2. Jahon moliya bozori: nazariy qarashlar va umumiy tavsif.

9.3. Jahon moliya bozorida ofshor tushunchasi va uning xususiyatlari.

9.4. Jahon moliya bozorlarining tahlili, maqsadi va asosiy vazifalari hamda uning asosiy ishtirokchilari.

9.5. Jahon moliya bozorining globallashtirish jarayonlari.

9.6. Jahon moliya bozorlari rivojlanishining asosiy xususiyatlari.

Tayanch iboralar: jahon moliya bozori, jahon moliya markazi, xalqaro moliya bozori, liberallashtirish, moliya, bank, tijorat banki, moliya muassasasi, Jahon banki, XVF, inflyatsiya, moliyalashtirish, davlat byudjeti, defitsit, byudjet daromadi, byudjet xarajati, mahalliy byudjet, moliya tizimi, kredit, imtiyozli kredit, moliya siyosati, pul-kredit siyosati.

9.1. Jahon moliya bozori tushunchasi va uning mohiyati

Avvalo, moliya o'zi nima? Moliya - iqtisodiy kategoriya sifatida pul mablag'laridan foydalanish va uning harakatini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar tizimi bo'lib, uning vositasida turli darajada pul mablag'lari jamg'armalari vujudga keltiriladi va ular takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida taqsimlanadi.³¹

Endi bevosita "moliya" tushunchasiga ta'rif bersak. "Moliya kategoriya sifatida xalq xo'jaligida pul resurslarini hosil qilish, ularni taqsimlash va ishlatish borasidagi iqtisodiy munosabatlarni bildiradi".³²

Har qanday iqtisodiy faoliyat mablag' va pul talab qiladi. Ishlab chiqarish qayerda bo'lmasin, baribir moliyani yuzaga keltiradi. Mahsulot ishlatish uchun taqsimlanganda pul shaklidagi moliyaviy fondlar hosil bo'ladi, ular tabiiy holatda moliyaviy resurs hisoblanadi.

Moliya munosabatlariga xos bo'lgan belgilar va xususiyatlar moliyaning vazifalarida ifodalanadi. Moliyaning vazifasi – bu moliya mohiyatining xo'jalik faoliyatidagi aniq ko'rinishi va uning ifodasidir. YUqorida aytganimizdek, moliya mahsulot qiymatini taqsimlash orqali pul fondlarini hosil qilish va ularni

³¹ N.Tuxliev, A.O'lmasov "Ishbilarmonlar lug'ati". - T.Fan, 1993. – B.91.

ishlatilishini bildirar ekan, shunga ko'ra u taqsimlash, rag'batlantirish, ijtimoiy himoya, iqtisodiy informatsiya kabi vazifalarini ado etadi.

Moliya iqtisodiy darajasida o'zaro bog'liq bo'lgan bir qator vazifalarni bajaradi:

Birinchidan, moliyaning iqtisodiy jarayonlarini, tadbirlarni, moliyaviy ta'minlash va unga xizmat ko'rsatish vazifasini bajaradi.

Ikkinchidan, moliyaning taqsimlovchi vazifasi, moddiy ishlab chiqarish sohalarida yaratilgan yalpi milliy mahsulotni, ayniqsa, uning milliy daromadni tashkil qiluvchi qismini davlat va mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, iqtisodiy tarmoqlari, moddiy ishlab chiqarish sohaları mamlakat hududlari o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlashda namoyon bo'ladi.

Jahon moliya bozori - bu ssuda kapitallari bozorining bir qismi bo'lib, unda asosan qimmatbaho kog'ozlarning emissiyasi va savdo-sotig'i amalga oshiriladi.

Jahon moliya markazlari - bu banklar, ixtisoslashgan kredit-moliya institutlari yig'iladigan joydir. Unda xalqaro valyuta, kredit, moliya operatsiyalari, qimmatli qog'ozlar, oltin oldi-sotdisi amalga oshiriladi.

Xalqaro moliya markazlari esa - xalqaro valyuta, kredit, moliyaviy operatsiyalar hamda qimmatli qog'ozlar va oltin bilan bitimlarni amalga oshiruvchi banklar va ixtisoslashgan moliya-kredit tashkilotlarining to'plangan joyi tushuniladi.

Valyuta bozorlari - xorijiy valyutaning milliy valyutaga talab va taklif asosida xosil buluvchi kurs buyicha oldi-sotdisi amalga oshiriladigan markazlardir. Milliy valyuta bozorlari rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan barcha davlatlarda mavjud.

Moliyaviy markazlarning asl mohiyati turli mamlakatlar o'rtasidagi kapital harakatining uzluksizligini ta'minlashdan iboratdir. Biroq, moliyaviy markazlarni talabni qondirish mexanizmi sifatida ko'rishning o'zi maqsadga to'liq javob bermaydi deb hisoblaymiz.

Dastlab ular sanoat jihatidan rivojlangan mamlakatlar (AQSh, G'arbiy Yevropa)da barpo etilgan. Keyinchalik esa, ma'lum omillarning ta'siri ostida ularning joylashishi kengayib bormoqda, aynicha Osiyoning turli mintaqalarida.

Agarda Tokio Yaponiyaning jahon bozoridagi raqobat kurashi borasidagi kuchayishi munosabati bilan moliyaviy markazga aylangan bo'lsa, Singapur,

³² R.V.Abullaev. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent islom universiteti. 2004. – B.94.

Bagam orollari, Panama, Baxreyn kabi moliviy markazlar ushbu yo'nalishdagi past soliqlar, davlat aralashuvining deyarli yo'qligi, liberal qonunchilik va operatsion xarajatlarning nisbatan pastligi tufayli aylangan. Odatda bunday markazlar – ofshor markazi deyiladi, bu xususda keyirngi bo'limda batafsil to'xtalib o'tamiz.

Valyuta - bu biror bir mamlakatning milliy puli va mamlakatga nisbatan xorijiy mamlakatlar puli. Deyarli barcha halqaro hisob-kitoblarda va tashqi iqtisodiy aloqalarda valyuta bilan yoki oltin bilan ish yuritiladi.

Jahon moliya bozorida o'zining qadr-qimmatiga qarab hamma xorijiy valyutalardan nufuzi va qiymatiga qarab “quvayt dinari”ni alohida ta'kidlab o'tamiz.

Uning AQSh dollariga nisbatan har yili taxminan 1 quvayt dinari 4-5 AQSh dollari atrofida belgilanadi. Biroq, quvayt dinari xorijiy valyutalar qatorida e'tirof qilinmaydi, chunki u faqat Quvayt xududidagina o'z qiymatiga egadir.

Qisqasi, yuqorida ta'kidlab o'tilgan etakchi milliy valyutalarning muomalada bo'lishi ushbu milliy valyuta egasi bo'lmish mamlakatlarning jahon iqtisodiyotida muhim o'rinni egallashdan dalolat beradi.

Jahon fond bozorlari - aktsiyalar, obligatsiyalar, opsiyonlar, fyucherslar kabi kimmatli kogozlar bilan uzaro oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshiruvchi korxona muassasalar va ishtirokchilarning jamlanmasidir.

Jahon ssuda kapitallari bozori - xalkaro kredit operatsiyalari amalga oshiriladigan bozor yoki xalkaro ssuda kapitallari bozori.

9.2. Jahon moliya bozori: nazariy qarashlar va umumiy tavsif

Hozirgi globallashuv sharoiti iqtisodiy tushunchalarni mohiyatini mahalliy va xorijiy olimlar, ekspertlar tomonidan tortishuv va mushohadalar (diskussiya), ilmiy-nazariy jihatdan qarashlar, o'sha davr g'oyalari bilan uyg'unlashgan, uni bajaradigan vazifalari, tamoyillari, o'ziga xos xususiyatlari hamda ularning ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar nuqtai nazaridan yanada chuqurroq ilmiy asoslab berish takomillashib bir tizimga keltirilmoqda va hozirgi zamon talablari va fundamental omillarga mos holda u ilmiy jihatdan asoslangan holda rivojlantirib borilmoqda.

Xususan, jahon moliya bozorining iqtisodiy mohiyatini turli davrlarda yashab o'tgan iqtisodchi olimlar tomonidan turli xil g'oyalari orqali nazariyalar yaratilgan. Lekin, har bir iqtisodiy kategoriyalar doimiy ravishda zamonaviy omillar asosida

takomillashib boradi. Jahon moliya bozori ham hozirgi kunda qo'shimcha tarzda noan'anaviy zamonaviy yangi va xilma-xil funktsiyalarni bajarmoqda. SHu nuqtai nazardan uning iqtisodiy mohiyatini bir nechta iqtisodchi olimlarning nazariy ilmiy qarashlarini, hozirgi zamonaviy omillarni va boshqa o'ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda chuqurroq o'rganib chiqish mavzuning dolzarbligini bildiradi.

Oxirgi yillarda shiddat bilan boshlangan global moliyaviy inqiroz arafasida jahon moliya muhitida iqtisodiy agentlarning o'zaro munosabatlari va vositalari juda murakkab shaklga ega bo'ldi. Moliya bozoriga qiziqish doimiy ravishda ortib borgan va ortib bormoqda, yangi tushuncha – jahon moliya bozori shakllanmoqda, u nafaqat jahon iqtisodiyoti, balki milliy iqtisodiyotlarning ham ko'pgina tomonlariga ma'lum ta'sir ko'rsatadi.

Turli mualliflar jahon moliya bozori atamasini bir hilda izohlamaydilar. Ko'pincha ushbu tushunchadan ko'plikda: jahon moliya bozorlari ko'rinishida foydalaniladi. Bundan tashqari, jahon moliya bozorini xalqaro moliya bozorlari va jahon ssuda kapitali bozori tushunchasiga o'xshatish uchrab turadi. Jahon moliya bozori atamasining turli izohlardagi qat'iy farqi uning keng yoki tor ma'nodagi izohi hisoblanadi.

Bunda keng yoki tor ma'nodagi izohi ham turlicha tushuniladi. Masalan, taniqli rossiyalik olim L.N.Krasavinaning qayd etishicha, "jahon moliya bozorlari keng ma'noda – mamlakatlar orasida pulli kapitallarning akkumulyatsiyasi va qayta taqsimotini ta'minlovchi bozor munosabatlari sohasidir. Mohiyatan, bu tushuncha xalqaro moliya bitimlari shartlarini belgilovchi uning ishtirokchilari manfaatlarining o'zaro ta'siri anglatadi. Jahon moliya bozori tor ma'noda fond bozori, ya'ni qimmatli bozorlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar bozoridir"³³.

Olima L.N.Krasavina jahon moliya bozorlarini bir qator me'zonlar bo'yicha va bozor tuzilmasi nuqtai nazaridan quyidagicha tasniflaydi:

valyuta bozorlari (shu jumladan yevrovalyutalar bozori);

ssuda kapitallari bozori, ya'ni ushbu tasnif guruhiga pul bozori, kapitallar bozori va Yevropa bozoriga bo'linadi;

fond bozorlari;

sug'urta bozorlari;

³³ Mejdunarodnie valyutno-kreditnie i finansovie otnoshniya. / Pod red.Krasavinoy L.N. – M.: Finansi i statistika, 2007. – S.289.

Jahon moliya bozorlari tuzilmasi va ishtirokchilari

Milliy ishtirokchilar	Bozor tuzilmasi	Xalqaro ishtirokchilar
1	2	3
Korporatsiyalar	Valyuta bozorlari, shu jumladan yevrovalyuta bozori	Xalqaro korporatsiyalar, TMK
Banklar va ixtisoslashtirilgan kredit-moliya institutlari, shu jumladan sug'urta kompaniyalari	Ssuda kapitallari bozorlari: a) pul bozori; b) kapitallar bozori; v) yevrobozor	Xalqaro banklar, TMB Ixtisoslashtirilgan kredit-moliya institutlari, shu jumladan sug'urta kompaniyalari
Fond va tovar birjalari	Fond bozorlari	Yirik fond va tovar birjalari;
	Sug'urta bozorlari	Xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlari
	Oltin bozorlari	

Manba: ushbu jadval “Mejdunarodnie valyutno-kreditnie i finansovie otnoshniya. / Pod red.Krasavinoy L.N. – M.: Finansi i statistika, 2007. – S.-289-290” asosida ishlab chiqildi.

Jahon moliya bozorlari tuzilmasini milliy hamda xalqaro darajadagi ishtirokchilar bilan o'zaro bog'liqligini 9.1-jadval orqali tahlil qilishimiz mumkin.

Demak, jahon moliya bozorlari tuzilmasiga milliy ishtirokchilar, bozor tuzilmasi va xalqaro ishtirokchilarga bo'linadi. Shuningdek, xalqaro moliyaviy munosabatlar sohasida taniqli rossiyalik olim D.M. Mixaylov jahon moliya bozorini unda muomalada bo'lgan vositalar nuqtai-nazaridan ko'rsatib o'tadi. Uning fikriga ko'ra, jahon ssuda kapitali bozori va jahon moliya bozori “tushuncha nuqtai nazaridan bu tushunchadan ko'proq amaliy foydalanishda o'xshash kategoriyalar hisoblanadi”³⁵, jahon moliya bozorida esa qarz kapitali, qarz vositalari va hosilaviy shartnomalar savdo ob'ektlari sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, D.M.Mixaylov jahon moliya bozorini bajaradigan vazifasi amaliy nuqtai nazardan farqlaydi, u aynan: “xalqaro moliya bozori deganda bank

³⁴ Mejdunarodnie valyutno-kreditnie i finansovie otnoshniya. / Pod red.Krasavinoy L.N. – M.: Finansi i statistika, 2007. – S.290.

³⁵ Mixaylov D.M. Mirovoy finansoviy rinok: tendentsii i instrumenti. – M.: Izdatelstvo «Eksamen», 2000. – S.150.

vositalari bozorida pul kapitalini sub'ektlar o'rtasida qayta taqsimlash va yig'ish bilan bog'liq yo'nalishni ta'minlovchi, xalqaro va mahalliy bozorlarni o'zaro uyg'unlashuvi va yig'indisi hamda boshqa moliyaviy muassasalar ham erishish maqsadi uchun takror ishlab chiqarish va kapitalga talab va taklif o'rtasidagi me'yoriy nisbatan erishish"³⁶ deb e'tirof etilgan.

Olim D.M.Mixaylovning ta'kidlashicha, iqtisodiy jihatdan mohiyatga ko'ra jahon moliya bozori – “kredit resurslarini raqobat asosida mamlakatlar, mintaqalar va tarmoqlar orasida qayta taqsimlash hamda yig'ish va to'plashning o'ziga xos mexanizmi va ma'lum munosabatlar tizimidir”. Moliya bozori va ssuda bozori tushunchalarining o'xshashligini boshqa manbalarda ham uchratish mumkin.

Bundan tashqari yana bir MDH olimi E.F.Avdokushin tomonidan moliya bozoriga shunday tarif beradi: “Moliya bozori (ssuda kapitallari bozori) – kapitalga talab va taklif asosida kapitalni vositachilar yordamida kreditor va qarzdorlar o'rtasida qayta taqsimlash mexanizmi. U amaliyotda pul mablag'lari oqimini mulkdorlardan qarzdorlarga va aksincha yo'naltiruvchi kredit-moliya institutlari yig'indisini namoyon etadi. Moliya bozorining asosiy vazifasi harakatsiz pul mablg'lrini ssuda kapitaliga transformatsiyadan tarkib topgan”³⁷

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.Vahobov, N.Jumaev, U.Burxonovlarning “Xalqaro moliya munosabatlar” O'quv qo'llanmasida “Xalqaro moliya bozorlar - mamlakatlar milliy manfaatlarini himoya qiluvchi tamoyillariga asoslangan bo'lib; bu davlatlararo har tomonlama hamkorlikni bir ko'rinishdagi xalqaro moliya bozorlari va ularning fondli kurinishdagi umumjahon bozorlar yig'indisidir yoki davlatlarni yagona moliya va kredit siyosatini amalga oshiruvchi bozorlar majmuasidir” deb e'tirof etishgan³⁸

Jahon moliya bozorining nazariy qarashlaridan kelib chiqib, ta'kidlash joizki fikrimizcha, xorijiy va xalqaro bozorlarga ajratishda ma'lum chalkashliklar yuzaga kelishi mumkin. Aynan esa xalqaro moliya bozorlari atamasi ko'pincha jahon moliya bozorlariga o'xshatiladi. Ushbu yondashuvda ma'lum ma'no mavjudir.

Agar umumiy ko'rinishda milliy bozor chegarasidan tashqari operatsiyalar haqida fikr bildirilsa, u holda jahon moliya bozorlari va xalqaro moliya bozorlarini bir-biriga tenglashtirish mumkin.

³⁶ Mixaylov D.M. Mirovoy finansoviy rinok: tendentsii i instrumenti. – M.: Izdatelstvo «Ekzamen», 2000. – S.150.

³⁷ Avdokushin E.F. Mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. – M.: Marketing, 2003.

9.3. Jahon moliya bozorida ofshor tushunchasi va uning xususiyatlari

Jahon moliya tizimida kredit idoralarining nerezidentlar bilan xorijiy valyutadagi operatsiyalari natijasida “ofshor” moliya markazlari vujudga keldi. Bu termin taxminan “yevrobozor” tushunchasiga to’g’ri keladi. Ushbu moliya markazlari asosan soliq to’lovlaridan “qochish”ga qo’l keladi, biroq ushbu soliq to’lovlari mahalliy soliqlarga kirmaydi va erkin valyuta o’tkazishlarni chegirlamaydi.

Qisqacha “ofshor” haqida. Gap shundaki, “ofshor” tushunchasini, ko’pincha, salbiy ohangda qo’llash bu atamaga noxush tus bergan. Ammo bu hodisa o’ta noxush emas. Har qanday biznesmen soliqlardan tortib to kreditgacha imkon qadar kam chiqim qilib, ko’p foyda olishga intiladi. SHu sababli biznes, xususan, yirik va faol tijorat yuritishda xarajatni kamaytirishning yo’llaridan biri ofshor paydo bo’lgan.

Jahon iqtisodiyotida ofshor bu qulay soliq sharoitiga ega davlatda xorijiy fuqaro tomonidan rasman ro’yxatdan o’tgan, biroq ushbu mamlakatda faol ish yuritmaydigan firmadir. Huquqiy nuqtai nazardan bu holatda qonunga qarshi hech narsa yo’q, shu tufayli dunyoda ofshor zonalar keng yo’lga qo’yilgan, taxminiy hisoblarga ko’ra, er yuzidagi barcha mablag’ning o’n foiziga yaqini ofshor hududlarda jamlangan.

Xo’sh, ofshor termini qaerdan kelib chiqqan? Jahon iqtisodiyoti Tarixga qaytib. XX asrning o’rtalarida uddaburon firmalardan biri Amerika soliq inspeksiya-siga chap berib, solig’i kamroq boshqa mamlakatda qayddan o’tganida “ofshor” so’zi birinchi bo’lib dunyo og’ziga tushdi. Iqtisodiy tarixdan ma’lumki, qadimda yunonlar ofshor nimaligini azaldan yaxshi bilishgan, soliqdan qochib qadimgi Afinani aylanib o’tishgan, tovarlarini uzoqroqdagi boj to’lanmaydigan ko’psonli orollarga olib borishgan.

Umuman olganda “Ofshor”ning so’zma-so’z tarjimasi “qirg’oq narisida” ma’nosini anglatib, faoliyatni mohiyatan to’g’ri aks ettiradi, xususan: ofshor mintaqalar, asosan, iqtisodiyotni rivojlantirish uchun tabiiy boyliklari yo’q, kichik, iliq mamlakatlarda joylashadi. Bunga Qibris, Kayman orollari, Bermud misol bo’ladi. Xorij kapitalini jalb etishning birdan-bir yo’li ular uchun ofshor biznesidir.

³⁸ Vahobov, N.Jumaev va U.Burxonov. Xalqaro moliya munosabatlar, Darslik. SHarq

Bu ish qanday yuritiladi? Oddiy so'z bilan aytganda, ofshor nima degani? Ofshorning mohiyati shunda-ki, ba'zi mamlakatlarda xorijliklar ta'sis etgan firmalar atayin soliqqa tutilmaydi.

Bu esa mamlakatga pul oqib kelishi va mahalliy aholini ish bilan ta'minlash imkonini yaratadi. Biznes egalari firmalarini shunday mamlakatlarda ro'yxatdan o'tkazishadi va byudjetga tushuvchi belgilangan kichik to'lovlarni to'lab turishadi. Asosiy faoliyatni o'zining mamlakatida yuritadi. Xalqaro huquqqa binoan kompaniya mustaqil sub'ekt hisoblanib, o'zi qayddan o'tgan davlatdagina soliqqa tutilishi mumkinligi uchun bu hol ro'y beradi.

Uning afzalligi nimada? Soliqlar yo'qligidan tashqari ofshorning bir qator foydali taraflari ham mavjuddir, jumladan:

- ko'plab ofshor mamlakatlarda buxgalterlik hisobi yuritish talabi kamaytirilgan yoki umuman yuritilmaydi;
- ortiqcha qog'ozbozlik hujjatlariga chek qo'yilgan;
- qonunlarda maxfiylik ko'zda tutiladi, ya'ni firmalarda yollangan direktorlar va uning boshqaruvchilar ortida turgan asl egalari kimligini bilishning iloji yo'q.

Demak, qisqasi ofshor hududlari yirik tadbirkorlarning o'z mablag'larini ommaga ko'z-ko'z qilmasliklaridan va o'z moliyaviy boyliklarini omma uchun e'lon qilishga istamaganlar uchundir.

SHunday qilib ofshor hududlaridagi jarayondan ishtirokchilarning barchasi mamnundir, ya'ni biznes egasi soliq to'lovlarini tejaydi, ofshor zona yillik mukofot puli oladi. Ayrim mamlakatlarda bu to'lov byudjetga yaxshigina kirim bo'lgani uchun u erda pul evaziga xorijiy kompaniyalarni ro'yxatdan o'tkazish tartibi faqat ma'qullanadi: firma ochishingiz yoki xarid qilishingiz uchun infrastruktura va huquqshunoslarning barchasi xizmatigingizga tayyor. Shu boisdan ham boshqa ko'plab mamlakatlardan ko'ra ofshor zonada tez va osongina firma ochish mumkin.

Bundan tashqari ofshorlar xalqaro sarmoya bozoriga chiqishni, kreditlar rasmiylashtirishni osonlashtiradi, xalqaro bitimlar tuzishni arzonlashtiradi.

Ofshor hududlarda "soliqlardan qochish" tushunchasiga ham to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Ofshor zonada soliqlardan qochishning sxemalari oddiy, ammo ulardan foydalanish uchun yaxshi shart-sharoit yaratish kerak xolos. Masalan, ofshor kompaniya xodimlari maoshidan daromad solig'i to'lamaslik

uchun ularni katta mablag'ga sug'urtalanadi va ish haqi sug'urta holatlari yo'qligiga mukofot puli tariqasida to'lanadi. Bu ham mablag'ni iqtisod qilishning o'ziga xos yo'lidir. Eng yaxshisi ofshor kompaniyalar zanjirini tizishdir, negaki, bittasi biznesning o'sayotgan talabiga bas kelolmaydi. Hozirgi paytda 70 foizdan ortiq korxonalar va mulkdorlar ofshor biznesiga ega, ularning soni tobora o'smoqda.

Demak, bugungi kunda jahonda 26 ga yaqin jahon ofshor markazlari mavjud bo'lib, ularda 100 dan ortiq bo'linmalari va xorijiy banklarning bo'limlari faoliyat ko'rsatmoqda. Jahon moliya tizimida eng ko'p moliyaviy resurslarni jalb qiluvchi ofshor hududlari qatoriga Gonkong, Seyshel orollari, YAngi Zelandiya, Panama, Beliz, Singapur kabilarni e'tirof qilish mumkin.

9.4. Jahon moliya bozorlarining tahlili, maqsadi va asosiy vazifalari hamda uning asosiy ishtirokchilari

Moliyaviy bozorlarning tahlili yoki moliyaviy prognozlash mazkur bozorlar kon'yunkturasini baholash va ulardagi baholar o'zgarishini prognozlashdan iboratdir.

Boshqacha qilib aytganda, agarda moliyaviy tahlil pul (mablag') qo'yilmalari yoki qandaydir moliyaviy operatsiya yoxud tijorat bitimi amalga oshirilishidan qanday samara (daromad) olinishini aniqlash imkonini bersa, moliyaviy bozorlarning tahlili vaqtning muayyan bir oralig'ida mablag'larni qaerga investitsiya qilish samaraliroq ekanligini bilish imkonini beradi.

Xo'sh, **moliyaviy bozor** o'zining xususiyatlariga ko'ra, uning qanday turlari mavjud?

- moliyaviy bozor;
- xalqaro kreditlar bozori;
- valyuta bozori;
- qimmatli qog'ozlar bozori;
- sug'urta va pensiya fondlari bozori.

Moliyaviy bozorlardagi operatsiyalarning mohiyati valyutalar (qimmatli qog'ozlar) kurslarining farqi, tovar – xomashyo birjalaridagi tovarlar baholarining yoki qimmatli qog'ozlar kotirovkalari indekslarining o'zgarishi sifatida daromad olishdan iboratdir.

Moliyaviy bozorni tahlil qilishning maqsadi – minimal xavf-xatar sharoitida maksimal daromad olinishini ta'minlashdir.

Moliyaviy bozorlarning tahlili maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- tovarlarga bo'lgan baholar, valyuta kurslari, qimmatli qog'ozlar kotirovkalari va ishbilarmonlik faolligi indekslarini prognozlash uchun bozorlar kon'yunkturasini baholash;

- baholar (kurslar, kotirovkalar) o'zgarishiga ta'sir qiladigan omillarning tahlili va ularning bozorga ta'sir muddatlari bo'yicha tasnifi, ob'ektiv va sub'ektiv omillarning ajratib ko'rsatilishi. YA'ni, baholar o'zgarishiga bo'lgan qandaydir omillarning ta'siri tugaganligini, agarda tugamagan bo'lsa u holda ushbu holat qachon yuzaga kelishi mumkinligini aniqlash zarur (masalan, u yoki bu mamlakat qishloq xo'jaligidagi hosildorsizlik, siyosiy kursning o'zgarishi, siyosiy inqiroz, harbiy harakatlar, fors-major holatlar va boshqa shu kabilar);

- istiqbolda iqtisodiy ko'rsatkichlar va baholar o'zgarishiga olib kelishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlab topish va bunday o'zgarishlarni baholarga bo'lgan ta'sir darajasini prognozlash;

- sub'ekt o'z operatsiyalarini amalga oshiradigan bozorning chuqur tahlili va uning rivojlanish tendentsiyalarini aniqlash;

- o'xshash bozorlarning taqqoslama tahlili;

- moliya bozoridagi o'yinning aniq belgilangan strategiya va taktikasi hisobiga tavakkalchiliklarni pasaytirish yo'llarini qidirish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi.

Moliya (valyuta) bozorining asosiy ishtirokchilari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- markaziy banklar;

- tijorat banklari;

- investitsiya va pensiya fondlari;

- eksport-import operatsiyalarni amalga oshiruvchi korxonalar;

- valyuta birjalari;

- valyuta operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi broker firmalari;

- xususiy shaxslar.

Fond bozorining asosiy ishtirokchilari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- emitentlar, ya'ni qimmatli qog'ozlarni joylashtirilishi ustidan pul mablag'larini jalb etuvchi korxona va tashkilotlar;

- moliyaviy vositachilar (brokerlar va dilerlar). Ular emitentlar va investorlar o'rtasida vositachilik funktsiyalarini amalga oshirish xuquqini beruvchi tegishli litsenziyalarga ega;

- qimmatli qog'ozlarning birja va birjadan tashqari bozori hamda fond birjalari va birjadan tashqari savdo tizimlari tegishli ravishda;

- investorlar, ya'ni vaqtincha bo'sh pul sarmoyalariga ega hamda ularni qimmatli qog'ozlarga joylashtirishdan manfaatdor bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslardir;

- davlatning muvofiqlashtirish va nazorat organlari, ya'ni Moliya vazirligi, Markaziy bank, Qimmatli qog'ozlar bo'yicha tashkilot va boshqalar;

- o'z-o'zini muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar, ya'ni moliyaviy vositachilarning professional birlashmalari;

- qimmatli qog'ozlar bozorining infratuzilmasi, ya'ni maslahat va axborot firmalari, ro'yxatga oluvchilar, depozitar va hisob-kitob kliring tizimlarini tashkil qiladi.

9.5. Jahon moliya bozorining globallashuv jarayonlari

XXI asrning o'tgan 20 yillik muddat jahon iqtisodiyotida muhim globallashuv jarayonlari yuz berganligi bilan ajralib turadi. Milliy xo'jaliklarning jahon iqtisodiyotiga tobora integratsiyalashib borishi xalqaro resurslar harakati hajmlari va xususiyatlariga ta'sir qilish darajasiga chiqib bormoqda.

Jahon bozorlarida xalqaro savdoning yanada kengayishi imkoniyatlari, faqatgina xalqaro kelishuvlarni moliyalashtiruvchi bank sektori imkoniyatlari bilangina chegaralanib qolmoqda.

Zamonaviy moliyaviy tizimi global xarakterga ega. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining so'nggi o'n yilligi uning globallashuvining yuqori sur'atlari bilan tavsiflanadi va ushbu jarayon iqtisodiyotning transmilliylashuvi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, transport infratuzilmasining rivojlanishi va boshqa geosiyosat omillari bilan bog'langandir.

Barcha ishtirokchilar (korxona va korporatsiyalardan tortib to davlatgacha)ning har qanday bozordagi faoliyati iqtisodiy va siyosiy manfaatlarni qondirishga qaratilganligini aytib o'tish zarur.

Iqtisodiy manfaatning moddiy ifodasi bo'lib oxir oqibatda iqtisodiy daromad (foyda) yoki moliyaviy natija hisoblanadi. Bir mamlakatdan boshqa bir

mamlakatga kapital oqib o'tishining ko'лами qanchalik katta va uning chegaralari qanchalik keng bo'lsa, xalqaro moliya bozorlariga shunchalik ko'p operatsiyalar to'g'ri keladi.

Umuman jahon moliya bozorining globallasuvi jarayoni 1980-yillardan boshlangan bo'lib, ushbu yillardan boshlab moliya bozori tizimi global miqyosda amal qila boshladi. Turli davlatlarning etakchi moliya markazlarini bog'lovchi jahon moliya tarmog'i tizimi yuzaga keldi. Bu tarmoq jahonning eng yirik moliya markazi sifatida shakllangan Nyu-York va boshqa etakchi moliya markazlari, xususan: London, Tokio, Singapur, Gonkong, Syurix kabi moliya markazlarini bir-biriga bog'ladi. 2000 yillarga kelib esa jahon moliya tizimida yangi moliya markazlari vujudga keldi, xususan: Shanxay, Dubay, Stambul, Shenchjen kabi yirik moliya markazlari vujudga keldi.

Agarda ushbu moliya markazlarning kunlik moliyaviy aylanmalari va tuziladigan shartnomalari, miqdorlari va ularning mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasi, nufuzi va darajasi kabi omillar bilan tahlil qilsak, bugungi kunda jahondagi eng yirik moliya markazining yuqori "uchlik" tizimini London, Nyu-York va Tokio moliya markazlari tashkil qiladi.

Mintaqaviy moliya markazlariga esa SHanxay, SHenchjen, Frankfurt, Sidney, Stambul, Moskva va xatto bizning qo'shni Qozog'istonning Ostona moliya markazlari tashkil qiladi.

Jahon moliya bozorlarining o'sishi, ular raqobatdoshligining oshishi va faoliyat doiralarining kengayishi daromad darajasi past bo'lgan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga yanada integratsiyalashishiga imkoniyat yaratadi. Jiddiy moliyaviy muammolar girdobiga tushib qolgan (investitsiyalar va asbob-uskunalar, xomashyo, ehtiyoj qismlar importi hajmining chegaralanganligi, shuningdek, ular tomonidan tuzilgan savdo shartnomalariga ishonchning pastligi) rivojlanayotgan mamlakatlar kengayib borayotgan jahon moliya bozorlarida qatnashishni faollashtirgan xolda rivojlanishning yangi imkoniyatlarini ochishi va iqtisodiy muammolarni xal qilishda tanlov va qarorlar xilma-xilligini oshirishi mumkin.

Lekin hozirgi davrda hali, xaqiqatan ham rivojlanayotgan mamlakatlar xalqaro bozorlar globallasuvidan yutadimi yoki yo'qmi aniq emas. Bir qator sabablar tufayli rivojlanayotgan davlatlarning jahon iqtisodiyotida to'laqonli qatnashish imkoniyatlari xali yo'q. Milliy bozorlar tobora ochiqlashib borayotgan bir paytda jahon bozorlariga chiqish xali xam qiyin bo'lib qolmoqda.

Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlarning mahsulotlariga nisbatan proteksionizm oxirgi o'n yillikda sezilarli darajada kuchaydi, shuningdek, bu guruxdagi davlatlarning qarz olish foizlari sanoati rivojlangan davlatlarning xuddi shu ko'rsatkichidan besh baravar kattadir. SHunday qilib, xalqaro bozorlar globallashuvi jahon bozoriga chiqish imkoniyati bo'lgan davlatlar o'rtasidagi savdo munosabatlaridagi transaksion xarajatlarni kamaytiradi va shu bilan birga globalizatsiya natijalaridan foydalana olmagan davlatlar nisbiy yo'qotishlarni oshiradi.

Jahon iqtisodiyoti tarixidan ma'lumki, jahon moliya tizimida AQSh o'zining milliy valyutasini tashqi savdo munosabatlarda eng asosiy valyuta sifatida qadrlab kelmoqda va u o'zining bir qator tarixiy xususiyatlarga ham borib taqaldi.

Chunonchi, 1985 yilda AQShning Nyu-York shahrida 6 mamlakat o'rtasida tuzilgan "Plazov shartnomasi" keyinchalik Yaponiya va Italiya mamlakatlarning moliyaviy holatiga hamda ushbu mamlakatlarning narh-navo siyosatiga, eng muhimi, ularning tashqi savdo-sotig'iga katta salbiy ta'sir ko'rsatgan edi. Xo'sh, "Plazov shartnomasi" o'zi nima va u qanday mohiyatga ega?

1985 yilning sentyabr oyida Nyu-Yorkda AQSh administratsiyasi tomonidan tashkillashtirilgan AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya va Yaponiya Moliya vazirlari ishtirokida dollarni boshqa etakchi mamlakatlarning valyutalarga nisbatan kursini tushirish uchun "Plazov shartnomasi" imzolandi.

AQShning bu "kuchsiz dollari-kuchli AQSh" g'oyasida tuzilgan mazkur shartnoma Yaponiya va Italiya mamlakatlari iqtisodiyotiga avvaliga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi, ya'ni:

- birinchidan, Yaponiya va Italiyaning AQShdan oladigan mahsulotlarini, ya'ni importni yanada ko'paytirishga olib kelsa;

- ikkinchidan, Yaponiya va Italiya mamlakatlarining eksport mahsulotlarining jahon bozorida o'zaro raqobatdoshligining va YaIMning pasayishiga olib keldi.

Masalan, 1985 yilda "Plazov shartnomasi"ga muvofiq, yapon yeni AQSh \$iga nisbatan kursining tushirildi, ya'ni 1\$-240 dan 1\$-160gacha tushirildi. Avvaliga ushbu qilingan isloxot iqtisodiyotning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Lekin keyinchalik, Yaponiya Markaziy banki va Moliya vazirligi tomonidan qilingan xatolar mamlakat milliy iqtisodiyotini rivojlanishiga katta salbiy ta'sir ko'rsatdi, ya'ni buning eng asosiy sabablari:

- milliy yening kursi birdaniga ko'tarilib ketishi;
- fond birjalarida qimmatbaho qog'ozlar (aktsiya) va erlarning narhini o'sishi;
- ichki bozordagi mahsulotlarning asoslanmagan holda narhlarni o'sib ketishi;
- inflyatsiyaning tez o'sishiga olib kelishi, ya'ni 20%ga etgan;
- mamlakatdagi yuzlab kichik va o'rta korxonalarning yopildi;

korxona va firmalarning ko'plab yopilishi hisobiga ishsizlik darajasi 1987 yilga borib o'sib ketdi, ya'ni oxirgi 30 yil ichida rekord ko'rsatkichni-3,2%ni tashkil qilgan edi.

Shuningdek, quyidagi iqtisodiy tarixga nazar solamiz.

2013 yilning 15 martda Kiprda yuzaga kelgan moliyaviy inqiroz – uning jahondagi yirik “ofshor zona”sining salohiyatiga katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Gap shundaki, Kiprning bank tizimi defoltga uchradi. barcha tijorat banklrida qo'yilgan jamg'rma depozitlar o'z egalariga qaytarish paytida defoltga uchradi. Masalan, birgina rossiyalik fuqarolarning Kipr omonat banklariga qo'ygan kapitallari miqdori qariyb 18 mlrd.AQSh dollarini tashkil qilgan.

Kiprning bir yillik YaIM miqdori esa 16 mlrd.dollarini tashkil qiladi. 2010 yilda Rossiya Kiprga 2,5 mlrd.AQSh dollari miqdorida kredit malag'larini bergan bo'lsa-da, endi Rossiya xukumati o'z aholisining qo'ygan kapitallarini muamosiz olish uchun bir qator muzokaralarini o'tkazdi.

Faqatgina, 2013 yilning 28 martidan boshlab, ya'ni 15 kunlik “dam olish” fursatidan so'ng, har bir Kipr fuqarosiga va shuningdek, kapital qo'ygan xorijlik fuqarolarga faqat pasport orqali kuniga cheklangan miqdorda, ya'ni 300 yevro miqdorida mablag' berish haqida xukumatning qarori chiqdi. Kipr xukumati depozitga qo'yilgan mamblag'larning 100 ming yevrodan ortiq qo'yilgan depozitlardan 40 foiz soliq olishni ko'zda tutmoqda, lekin bu uzil-kesil hal qilimadi.

Hatto globallashuv jarayonlarida bevosita qatnashib kelayotgan rivojlanayotgan davlatlar uchun xam uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari umuman noaniqdir. Xozirgi davrda moliyaviy mablag'larning Er sharining istalgan nuqtasiga o'tkazish deyarli bir zumda amalga oshirilishi mumkin. Transmilliy korporatsiyalar gorizonta va vertika ishlab chiqarish integratsiyasiga ega global fabrikalarni ko'plab davlatlarda tashkil qilmoqda. Boy davlatlarning kichik guruxi xalqaro tovrar va xizmatlar oqimining tobora katta qismini amalga oshirmoqda.

9.6. Jahon moliya bozorlari rivojlanishining asosiy xususiyatlari

Jahon moliya bozori xalqaro moliya institutlarning global ishtiroki, unda xalqaro moliyaviy integratsiya va moliyaviy innovatsiyalarning tezkorlik bilan rivojlanishidir. Dunyo kapitali oqimining o'sishi davlatlar o'rtasida moliyaviy raqobatni kuchaytiradi. Ushbu an'ana ichki bozor faoliyatiga va xalqaro kapital harakatining erkinlashishiga davlat aralashuvining qisqarishiga ko'maklashgan holda, alohida davlat xukumatlariga o'z bosimini o'tkazmoqda.

Agarda jahon moliya markazlarini vujudga kelishi va ularning shakllanish tarixiga nazar solsak, Birinchi jahon urushiga qadar jahon iqtisodiyotida London moliya markazi hukmronlik qilganligini ko'rishimiz mumkin. Buning sababi Buyukbritaniyaning o'sha davrdagi jahon iqtisodiyoti va siyosatida dunyodagi yaqqol peshqadamligi, ko'plab hududlarga egaligi, barcha jahon mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni ustun darajda olib borganligi, nufuzi va qudratining yuqoriligi bilan izohlanadi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng jahon moliya markazi AQShga ko'chib o'tdi va 1930-yillarda AQShning iqtisodiy taraqqiyoti misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etishi mamlakatning eng yirik va ishbilarmon shahri hisoblangan Nyu-York jahon markaziga aylandi. Biroq ushbu moliya markazi uzoq yillrgacha jahon moliya markazi maqomi uchun London bilan raqobat qilishga to'g'ri kelgan bo'lsa-da, kunlik moliyaviy aylanmalar miqdori jihatidan 1999 yilgacha jahon moliya tizimida yaqqol peshqadamlikni o'z qo'liga oldi.

Keyinchalik 1960 yillarda G'arbiy Yevropadagi bir qator mamlakatlarda (Parij, Frankfurt) hamda Yaponiya iqtisodiyotining misli ko'rilmagan darajadagi iqtisodiy taraqqiyoti va salohiyati natijasida jahon iqtisodiyotida Tokio moliya markazi vujudga keldi.

1980 yillarda AQShda rivojlanayotgan qimmatbaho qog'ozlar bozori chet el banklri va brokerlarini o'ziga jalb qilgan bo'lsa, bu vaqtda Yaponiya chet el valyuta bozorini va ichki moliya bozorini erkinlashtirishni boshladi. SHundan so'ng, Yaponiyada chet el obligatsiyalari bozori va pul bozori sezilarli darajda o'sdi. Xuddi shunday tajriba Buyuk Britaniyada ham kuzatildi, ya'ni 1979 yilda kapital ustidan nazorat olib tashlandi va 1986 yilda aktsiyalar bozorini islox qilish ("katta shok") boshlandi. Natijada, Buyuk Britaniya moliya bozorlari xalqaro yevroobligatsiyalari bozori va aktsiyalar bozori faoliyatining kengayishi hisobiga sezilarli darajada o'sdi.

1999 yilda esa Yevropa Ittifoqida yagona “yevro” joriy qilinganligi sababli London moliya markazi yana raqobatchiga aylandi.

Ayni paytda, jahondagi valyuta birjalarning o‘z ish jarayonlari bilan London Valyuta birjasi, keyingi o‘rinlarda Nyu-York, Tokio, Singapur va Gonkong valyuta birjalari egallab turibdi. Demak Osiyoda ham moliya bozori yildan-yildan rivojlanib bormoqda. Hozirda Singapurni jahon moliya bozorida “Osiyoning dollar bozori” deb aytishlari bejiz emas albatta.

9.1-jadal

Jahon moliya markazlarining reytingi (2022 yil)

O‘rin (2021 yilga nisbatan)	Moliya markazi (shahar)	Mamlakat nomi	Indeks-ball (2021 yilga nisbatan)
1 (+0)	Nyu-York	AQSh	762 (-2)
2 (+0)	London	Buyukbritaniya	740 (-3)
3 (+1)	Gonkong	Xitoy (Gonkong)	716 (-25)
4 (+1)	Singapur	Singapur	715 (-25)
5 (+7)	San-Fratsisko	AQSh	714 (-4)
6 (-3)	SHanxay	Xitoy	713 (-29)
7 (+6)	Los-Anjeles	AQSh	712 (-4)
8 (-2)	Pekin	Xitoy	711 (-26)
9 (-2)	Tokio	Yaponiya	706 (-30)
10 (+15)	Parij	Frantsiya	705 (+6)
...14 (-5)	Frankfurt	Germaniya	701 (-26)
...16 (-8)	SHenchjen	Xitoy	699 (-32)
...18 (+1)	Dubay	BAA	694 (-16)
...21 (-11)	TSyurix	SHveytsariya	690 (-30)
...50 (+7)	Moskva	Rossiya	638 (+23)
...61 (+13)	Stambul	Turkiya	615 (+25)
...68 (-13)	Doxa	Qatar	600 (-28)
...75 (+3)	Nur-Sulton (Ostona)	Qozog‘iston	569 (-17)

Manba: ushbu jadval The Global Financial Centres Index (September 2022) ma’lumotiga asosan ishlab chiqilgan.

Umuman “fond birjasi” so‘ziga iqtisodiy ta’rif bersak. Fond birjasi – bu qimmatbaho qog‘ozlar oldi-sotdi qilinadigan birjadir. U shuningdek, bozor infrastrukturasi muhim bo‘g‘ini, qimmatbaho qog‘ozlar (davlat obligatsiyalari,

korxonalar aktsiya va obligatsiyalari, bank kredit biletleri, tijorat veksellari), valyuta oldi-sotdisi bo'yicha muntazam va tashkiliy faoliyat ko'rsatadi.

Jahonning ko'plab mamlakatlarida tashkil qilingan fond birjalari jahon moliya bozorini tartibga solishda o'zlarining faoliyati bilan alohida ajralib turadi hamda jahon iqtisodiyotining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shib boradi. Shuningdek, bank-moliya tizimining xalqaro iqtisodiy munosabatlaridagi ishtiroki nihoyatda muhimdir.

9.1-jadvalidan ko'rinib turibdiki, 2020 yilda yuzaga kelgan pandemiya deyarli aksariyat moliya markazlari faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Jahon moliya markazlarining reytingi jahondagi eng kichik mamlakatlardan biri hisoblangan Singapur moliya bozorini tahlil qilib chiqsak.

Albatta, bugungi kunda Singapur jahondagi etuk halqaro moliya markazlardan biri hisoblanadi. Jahondagi deyarli ko'zga ko'ringan barcha yirik banklarning bo'limlari Singapurda o'zlarining faoliyatlarini olib boradi. Singapurda Markaziy bank xizmat ko'rsatmaydi va umuman yo'q. Mamlakatdagi barcha moliyaviy hisob-kitoblarni va pul muomalasini Moliya boshqarmalari va tashkilotlari olib boradi faqat muomala uchun chiqariladigan pulni ishlab chiqarishdan tashqari. Bank binosiga kirishingiz bilanoq Sizni yoqimli va tabassum chehralar bilan bank xodimlari kutib olishadi va juda qisqa fursatda ishingiz muammosiz va ortiqcha qog'ozbozliksiz hal bo'ladi.

Singapurda valyuta munosabatlarini tartibga solish qonunlari 1978 yildan mamlakatda bekor qilingan. Shunga ko'ra mamlakat xududiga olib kiriladigan yoki olib chiqiladigan barcha valyutalar miqdori cheklanmagan, ya'ni hohlagan hajmda valyuta olib kirish mumkin yoki olib chiqish mumkin. Mamlakatdagi barcha valyuta almashtirish shaxobchalari jahondagi ko'zga ko'ringan barcha valyutalarni muammosiz erkin almashtirilishi mumkin.

Shuning uchun ham hozirgi kunda Singapur moliya markazi jahon reytingida 4-o'rinda turibdi, ya'ni tartib bo'yicha Nyu-York, London va Gonkogn moliya markazlaridan so'ng. Shuningdek jahon moliya va bankir mutaxassislari Singapurni "Osiyo dollar bozori" deb ham yuritishadi. Singapurda qariyb 300 ga yaqin yirik banklar faoliyat ko'rsatadi. Singapur shahrining o'zida jami 156 ta banklar faoliyat ko'rsatishadi, bularning ko'p qismi xorijiy banklar bo'lib, shundan 138 tasi xorijiydir hamda 1 ta shaharda xorijiy banklarning ko'pligini hisobga olsak, bu sohada ham Singapur shahri dunyo shaharlari ichida faqat London va Nyu-Yorkdan keyin 3-o'rinda turadi.

Har bir moliya markazini o'zining ma'lum bir xususiyatiga egadir. Masalan, Nyu-York jahondagi yirik moliya markazi hisoblanadi. London moliya markazi esa – etakchi Yevrovalyuta markazi hisoblanadi. Tokio – jahondagi yirik qimmatbaho obligatsiyalar bozori bo'lib, Yaponiyada jamg'arma xajmining yuqoriligi va kapital miqdorining ortiqchaligi tufayli so'nggi yillarda yanada taraqqiy etmoqda. Ushbu markazlar o'rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishi uch yo'nalishga ega bo'lgan (Yevropa, Amerika va Osiyo) moliyaviy inqilobni yuzaga keltirdi.

Xorij depozitlarining maxfiyligi tufayli Syurix ham etakchi chet el obligatsiyalari bozori hisoblanadi. Boshqa xalqaro moliya markazlari, masalan, Frankfurt, Amsterdam, Parij, Gonkong, Singapur, Bagama orollari dunyo kapitallar oqimi bilan bog'liq turli vazifalarni bajradilar.

Bobning qisqacha xulosasi:

Jahon moliya bozori mavzusining chuqur tahlilidan kelib chiqib, bizning fikrimizcha, jahon moliya bozori – milliy chegaralar hisobga olinmagan global bozor bo'lib, unda turli-tuman moliyaviy aktivlar muomalada bo'ladi. Mohiyatan, bu global moliyaviy muhitdir.

Biroq gap jahon moliya bozori milliy bozorlarning mexanik tuzilishi hisoblanishi haqida emas. Jahon moliya bozori deganda, turli milliy va xalqaro: kredit, valyuta, fond, qimmatbaho metallar bozorida muomalada bo'lgan turli moliyaviy vositalar yig'indisi tushuniladi.

Agar jahon moliya bozori tushunchasiga uning iqtisodiy mohiyati nuqtai nazaridan yondashilsa, u moliya vositalari yoki institutlarining oddiy yig'indisi emasligi shubha tug'dirmaydi. Jahon moliya bozori mamlakatlar, mintaqalar, tarmoqlar va boshqa bozor ishtirokchilari orasida moliya resurslarini raqobat asosida qayta taqsimlash va jamg'arish mexanizmi sifatida namoyon bo'lganda uning iqtisodiy mohiyati aks etadi.

Nazorat savollari:

1. Jahon moliya bozori tushunchasi va uning mohiyatini ayting?
2. Moliya nima degani va unga tarif bering?
3. Jahon moliya bozoriga tarif bering?

4. Jahon moliya markazlari qanday tushunchaga ega?
5. Xalqaro moliya markazlari qanday tushunchaga ega?
6. Jahon fond bozorlari qanday tushunchaga ega?
7. Jahon ssuda kapitallari bozoriga tarif bering?
8. Jahon moliya bozorlari tuzilmasi va uning ishtirokchilarini ayting?
9. Jahon moliya bozorida ofshor tushunchasini va uning xususiyatlarini ayting?
10. ofshor hududlarning qanday afzalliklari mavjud?
11. Moliyaviy bozor o'zining xususiyatlariga ko'ra, uning qanday turlari mavjud?
12. Moliyaviy bozorni tahlil qilishning maqsadini ayting?
13. Moliya (valyuta) bozorining asosiy ishtirokchilarini ayting?
14. Jahon iqtisodiyoti tarixidan joy olgan "Plazov shartnomasi" o'zi nima va u qanday mohiyatga ega?
15. Nima sababdan jahon moliya markazlari reytingida jahondagi eng kichik mamlakatlardan biri hisoblangan Singapur yoki Gonkong kabi mamlakatlar etakchilar qatoridan joy olgan?
16. Nima sababdan jahon moliya bozorida Nyu-York moliya markazi eng etakchi hisoblanadi?
17. Jahon moliya markazlarining reytingidagi etakchi 10 ta markazlarni ayting?

Uyga vazifa!

Talabalarning "Jahon moliya bozori tahlili" mavzusini chuqur o'zlashtirishi hamda amaliyot darsiga puxta tayyorgarlik ko'rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu boshida berilgan "Tayanch iboralari" so'zlarining tushunchasiga ega bo'lish;
- 2) mavzu so'nggida berilgan "Nazorat savollari"ga tayyorgarlik ko'rish;
- 3) jahon moliya bozoridagi asosiy moliya markazlarining asosiy xususiyatlarini tahlil qilib ularning jahon bozoridagi o'rni bo'yicha talabalar tomonidan guruhlarga bo'lingan holda "Taqdimot" o'tkaziladi.

X BOB. JAHON XO'JALIGIDA YUZAGA KELGAN PANDEMIYANING JAHON BOZORIGA TA'SIRI TAHLILI

10.1. Pandemiyaning ilk davrida jahon bozoridagi taxlikalik holatning yuz berishi va uning jahon xomashyo bozorlariga ta'siri.

10.2. Pandemiyaning jahon agrar bozori va undagi mahsulotlar narhiga ta'siri.

10.3. Pandemiya tufayli jahon bozorida neft narxining pasayish jarayoni tahlili.

10.4. Pandemiyaning jahon moliya bozoriga ta'siri.

Tayanch iboralari: koronavirus, pandemiya, “COVID-19”, globallashuv, iqtisodiy jazo, ocharchilik, qurg'oqchilik, kambag'al, qashshoq, karatin cheklovi, “onlayn”, oziq-ovqat xavfsizligi.

10.1. Pandemiyaning ilk davrida jahon bozoridagi taxlikalik holatning yuz berishi va uning jahon xomashyo bozorlariga ta'siri

2019 yilning oxirlarida Xitoyda aniqlangan COVID-19 yuqumli kasalligi 2020 yilning boshlarida butun dunyoga juda tez fursatda tarqalib ketdi va BMT tomonidan ushbu yuzaga kelgan favquloddagi holatni “pandemiya holati” deb atadi. Nufuzli “Time” jurnali (AQSh) dunyo aholisining asosiy qismi avval bu darajadagi “dahshatli yil” bilan to'qnash kelmaganligi sababli, 2020 yilni “jahon iqtisodiyoti tarixidagi eng yomon yil” deb e'lon qildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev: “Pandemiya jahon iqtisodiyoti uchun har oyda qariyb 400 mlrd.dollar miqdorida zarar keltirmoqda. Bugungi kunga qadar dunyo bo'yicha 500 millionta ish o'rni yo'qotilgan”³⁹ deb ta'kidlagan so'zlarini yana bir bor yodga olamiz.

Ushbu inqiroz natijasida butun dunyo mamlakatlari milliy iqtisodiyotining rivojlanishini izdan chiqardi va jahon iqtisodiyoti inqirozga yuz tutdi. Yuzaga kelgan pandemiya milliy iqtisodiyotning barcha sohalariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Jahon mamlakatlarining iqtisodiy inqirozga yuz tutishi xatto Ikkinchi

³⁹ 2020 yil 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://review.uz/uz/post/poslanie-prezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoyeva-oliy-majlisu>

jahon urushida davrida ham bunday holat kuzatilmagan edi. Jahon ishlab chiqarish sohalarining bir necha oy davomida majburiy tarzda o'z faoliyatini to'xtatishi, millionlab ishchi-mutaxassislarning majburiy tarzda mehnat ta'tillariga chiqarilishi hamda jahon bozorlarida xomashyo narxining keskin tushib ketishi natijasida jahon iqtisodiyoti inqirozga uchradi.

Yuzaga kelgan pandemiya natijasida jahon iqtisodiyoti global miqyosda inqirozga yuz tutdi. Jahondagi barcha mamlakatlarning chegaralari yopildi, xatto yagona Yevropa Ittifoqi hududidagi ichki mahalliy chegaralar ham yopildi. Xalqaro va ichki transport ham vaqtinchalik bo'lsa-da, butunlay to'xtatildi, jahon bozorida esa taxlikalik holat yuz berdi.

2020 yilda jahon iqtisodiyotida pandemiya tufayli boshlangan inqirozlarning ilk ko'rinishi va alomatlarining boshlanishi jahon birjalari va bozorlarida birin-ketin namoyon bo'la boshladi. Iqtisodiy inqiroz jahon xomashyo bozorining barcha sohalariga o'z salbiy ta'sirini o'tkazib tahlikalik holatga keltirib qo'ydi. Uzoq yillardan buyon xalqaro birjalarda faoliyat ko'rsatadigan yuqori malakaga ega bo'lgan mutaxassislar va ekspertlar ham xomashyo narxining ertasi kuni qanday narxda bo'lishi yoki narxning ijobiy holatga qaytishi borasida fikr berishga ham ojiz qolishgan edi. Chunki jahon xomashyo bozori uzoq yillardan buyon barqaror ravishda o'z faoliyatini davom ettirayotgan edi. Xatto 2008 yilgi jahon moliyaviy iqtisodiy inqiroz davrida ham inqirozning ta'siri xomashyo birjalariga bu qadar "qattiq zarba" bermagan edi.

Jahon metal bozoridagi vaziyat ham tang ahvolga kelib, jahon sanoat tarmoqlari ishlab chiqarishi uchun eng muhim bo'lgan xomashyolar, ya'ni qora metal, alyuminiy, mis, nikel kabi xomashyolarning narxi jahon bozorida kamida 7-12 foizgacha arzonlashdi hamda jahon metal bozoriga xomashyo etkazib beruvchilar ishlab chiqarish faoliyatlarida moliyaviy muammolarga duch kelishdi.

Pandemiyaning eng kuchli zarbasi jahon neft bozoriga berildi. Zarbaning shunday kuchliligidan jahon neft bozori "nokdaun"ga uchradi va neft narxi tezlik bilan qisqa fursatlar ichida tushib ketdi. Qizig'i 1 barrel "Brent" markali neft narxi 2020 yilning yanvar oyida barqaror bo'lib turgan paytda 2020 yilning boshlarida 68 dollardan 18 kun ichida 19 dollargacha tushib ketishi jahondagi barcha neft ishlab chiqaruvchilarini "shok"ka tushirdi. Chunki jahon neft bozori tarixida narxning bu qadar tezlik bilan pastga sho'ng'ishi shu paytgacha kuzatilmagan edi.

Jahon neft bozoridagi eng yirik kompaniyalaridan biri hisoblangan "British petroleum" (British Petroleum) kompaniyasi o'zining eng og'ir inqirozini boshidan

kechirmoqda. Ushbu kompaniyaning yillik hisobotida, 2020 yilda jahon bozorida neftga bo'lgan talab o'zining eng yuqori nuqtasidan o'tgan bo'lishi mumkinligi taxmin qilingan bo'lib, jahonda neftga bo'lgan talab, aftidan, o'zining eng yuqori nuqtasiga ko'tarilgan va yaqin 30 yil ichidagi misli ko'rilmagan pasayishga duch kelgan.

Demak, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, pandemiyaning birinchi to'lqinidayoq, jahon neft bozorida "Brent" markali neft xomashyosining 1 barrel bahosi 19 dollargacha tushib ketgan bo'lsa-da, keyinchalik uning bahosi 32-36 dollar atrofida "suzib yurdi". XVFning ma'lumotiga ko'ra, 2020 yilning o'zida pandemiya tufayli jahon neft kompaniyalari 10 mlrd.dollardan ziyod zarar ko'rganini ma'lum qilgan.

Pandemiya sharoitida jahon xomashyo bozorlarida narx tushib ketgan bo'lsa-da, biroq oltinning narxi keskin darajada ko'tarildi. Oltinning narxi salmoqli darajada ko'payishi jahondagi oltin ishlab chiqaruvchi mamlakatlarga ancha miqdorda ko'zda tutilmagan mablag'larni keltirdi. Jahon oltin bozorida esa narxning keskin ko'tarilishi yuz berdi hamda oltin xomashyolarga ega bo'lgan mamlakatlarning daromadiga qo'shimcha bonus olib keldi. Jahon oltin bozorida oltin narxi o'zining iqtisodiy tarixida birinchi marta 2020 yil avgust oyida 1 untsiya uchun 2000 AQSh dollarigacha chiqib, rekord narx belgilangan edi. Biroq pandemiya sharoitidagi vaqt o'tishi bilan oltin bozoridagi narx ham asta-sekin yana o'z holiga qaytmoqda.

"Forbes"ning qayd etishicha, pandemiya paytidagi og'ir damlarda narxi ko'tarilgan qimmatbaho metallarga bo'lgan qiziqish koronavirusga qarshi vaktsina muvaffaqiyatlari haqidagi xabarlar pasaytirayotganligini va shu tariqa jahon iqtisodiyoti asta-sekin rivojlanish davriga qayta kirganini ma'lum qilgan.

"Macquarie" investitsiya banki 2021 yilda jahon iqtisodiyotining o'sish ko'rsatkichlari nisbatan yaxshiroq bo'lishini taxmin qilgan va oltinning narxi o'zining yuqori cho'qqisiga ko'tarilganligi hamda 2021 yilda uning narxi 1 untsiya uchun 1550 dollargacha tushishini va 2020 yilga nisbatan 17 foizga pastlashini taxmin qilgan. "Morgan Stanley" banki esa, COVID-19ga qarshi vaktsinaning dunyoga tarqatila boshlanishi oltinga bo'lgan qiziqishni pasayishi va iqtisodiyotni o'z holiga qaytishi mumkinligini bildirgan.

Ma'lumki, inqiroz o'zining avjiga chiqqan paytida jahondagi yirik investorlarning oltin fondlariga bo'lgan qiziqishining oshgani 2020 yilning birinchi yarmida oltin narxining ko'tarilishida muhim omil bo'lib xizmat qildi. 2020

yilning avgust-oktyabr oylarida belgilangan oltin narxining eng baland narxi davridan keyin, unga bo'lgan talabni pasayishi bilan narx asta-sekin tushishni boshladi.

Jahondagi ko'plab yirik kapitalga ega bo'lgan investorlar mablag'larini ishlab chiqarishda foydalaniladigan qimmatbaho metallarga ham tikishni boshlagan, chunki yakunda iqtisodiyotning tiklanishi ularga daromad keltirishi mumkin. Masalan, quyosh batareyalarida foydalaniladigan kumushning narxi ham asta-sekin ko'tarilgan.

SHuni o'z o'rnida ta'kidlash joizki, 2020 yilgi "pandemiya davri" jahon oltin bozorida narhning keskin ko'tarilishiga olib keldi. Bu jarayon esa, oltin xomashyolarga ega bo'lgan mamlakatlarning daromadiga qo'shimcha bonus olib keldi. Xususan, O'zbekistonga ham. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning rasmiy ma'lumotiga ko'ra, 2020 yilning 1-choragida jahon oltin bozorida narh ko'tarilganligi sababli oltin eksportimizning xajmi salmoqli darajada ko'paytirildi.

Yuzaga kelgan jahon iqtisodiy inqirozi sharoitida va ushbu yilning yanvar-fevral oylarida Xitoydan o'z sarmoyasini olib chiqqan jahondagi yirik investorlar tomonidan jahon bozorida oltinni sotib olishni afzal ko'rishdi.

Xo'sh, savol tug'iladi, albatta? Oltin narxlarining o'zgarishi O'zbekiston milliy iqtisodiyotiga qanday ta'sir qildi?

Jahon oltin bozorida 2020 yilning avgust oyida oltin narxining rekord darajaga ko'tarilgani O'zbekistonga qo'l keldi, davlat byudjetiga tushadigan daromadlar miqdori ham ushbu metal narxining 26 foizga oshgani tufayli sezilarli darajada ko'paydi.

O'zbekiston 2020 yilda jahonda oltin sotish bo'yicha etakchi o'rinni egallagan. Masalan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2020 yilning 3-choragida 35 tonna oltinni sotishga muvaffaq bo'lgan va 2020 yilning sentyabr oyida mamlakat umumiy eksportidagi oltin savdosining ulushi 50 foizni tashkil qilgan.⁴⁰ Oltin narxining o'sishi eksportning bir nechta manbalari tushib ketayotgan bir pallada, inqiroz vaziyatda O'zbekiston iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, ya'ni jahon oltin bozorida narx ko'tarilganligi sababli oltin eksportimizning xajmi salmoqli darajada ko'payib qo'shimcha xorijiy valyuta tushumlariga ega bo'lgan.

⁴⁰ <https://www.ft.com/content/a1f0a75c-b3d7-4550-88ef-ea8cad18d0f3>

World Gold Council ma'lumotiga ko'ra, O'zbekiston oltin-valyuta zahirasi miqdori jihatidan dunyo mamlakatlari reytingida 17-o'ringa ko'tarilgan va oltin-valyuta zahirasi miqdori 325,7 tonnani tashkil qilgan⁴¹.

Pandemiya tufayli jahon bozorida yuzaga kelgan inqiroz jahon mamlakatlari iqtisodiyotida sanoat sohasi va uning tarmoqlari 2020-2021 yillar davomida to'la quvvat bilan ishlab chiqarishni yo'lga qo'ya olishmadi. Jumladan, jahon sanoatidagi bugungi kundagi yirik "Boing", "Folksvagen", "Nissan", "Toyota" va boshqa yuzlab yirik kompaniyalarning faoliyatida yuz bergan vaqtinchalik tanaffus ularning umumiy ishlab chiqarish jarayonlariga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Masalan, Yaponiyaning "NHK" ma'lumotiga ko'ra, 2020 yilning oxiriga borib pandemiya tufayli Yaponiyada bankrot bo'lgan kompaniyalarning soni 700 dan oshib ketgan.

Pandemiyadan eng og'ir shikastlangan iqtisodiyot sohaslaridan biri bu – ichki va tashqi turizm bo'ldi. Jahon turizm sohasi butkul tanozulga yuz tutdi va turizm sohasi rivojlangan mamlakatlar ushbu sohaga ixtisoslashgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini vaqtinchalik to'xtatishga majbur bo'lishdi. Turizm sohasidan Yevropadagi barcha mamlakatlar, ayniqsa Frantsiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Chexiya va Avstriya kabi mamlakatlar har yili turizm sohasidan davlat byudjetiga kamida 10 mlrd.yevrodan ortiq daromad kelar edi. Shuningdek, ushbu mamlakatlarning mehnatga layoqatli aholisining eng asosiy qismi band edi.

Masalan 2019 yilda jahonning eng ko'p sayyohlari Frantsiya, Ispaniya, AQSH, Xitoy kabi mamlakatlarga xorijiy mamlakatlardan millionlab sayyohlar tashrif buyurishgan bo'lsa, 2020 va 2021 yilda ularning tashrifi pandemiya sababli keskin ravishda kamaygan xatto Yevropa Ittifoqi mamlakatlari joriy qilingan karantin cheklavlari tufayli 2020 yilda xorijiy mamlakatlardan kam sonli sayyohlar tashrif buyurishgan xolos.

Pandemiya sababli oddiy aholi iste'moli mahsulotlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab va ehtiyoj kamida ikki marotabaga oshdi. Jahonning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida agrar sohaning rivojlanishi va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida mahsulotlarning etishtirilishi xorijiy mamlakatlardan jalb qilinadigan qo'shimcha ishchi kuchi migrantlariga bog'liqdir. Masalan, Yevropa Ittifoqi iqtisodiyotining agrar sohasiga ishchi kuchi har yili, asosan, Shimoliy Afrika va

⁴¹ <https://www.google.com/amp/s/kursiv.kz/news/mirovaya-ekonomika/2019-10/uzbekistan->

Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan jalb qilinadi. 2020 yilda aksariyat Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish miqdori o'tgan 2019 yilga nisbatan kamida 12-15 foizgacha pasaydi.

2020 yilning boshlarida yuzaga kelgan pandemiyaning boshlang'ich davri Yevropaning bir qator mamlakatlariga shu qadar ruhan ta'sir qildi-ki, rivojlangan Buyuk Britaniyaning deyarli barcha shaharlaridagi do'kon peshtaxtalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'yicha keskin taqchilik yuzaga keldi. Mazkur muammo kun sayin jiddiy tus olib, "oziq-ovqat" masalasi eng birinchi dolzarb muammoga aylandi. Britaniyalik fuqarolar kamida "3 oylik oziq-ovqat zahirasi"ni do'konlardan xarid qilishga shoshilishdi. Xatto, Ikkinchi jahon urushi davrida ham Buyuk Britaniyada bunday "tahlikali vaziyat" kuzatilmagan edi.

Jahon bozorida oziq-ovqat mahsulotlari taqchilikka yuz tutgach, Buyuk Britaniya hukumati qo'shni Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan oziq-ovqat masalasida yordam so'ragan bo'lsa-da, biroq, ushbu davrda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining har biriga ham etarli darajadagi oziq-ovqat zahirasini shakllantirish eng muhim masalalaridan biri bo'lib kelayotgan edi. Eng muhimi, Yevropa Ittifoqi ning har bir mamlakati o'zining hududidan ortiqcha oziq-ovqatning tashilishini qattiq nazoratga oldi.

2020 yilning mart oyini ilk kunlarida Britaniya hukumati rasmiy ravishda JAR va Hindistondan meva-sabzavot va aholi iste'moli mahsulotlari importi hajmini salmoqli darajada oshirishini ma'lum qilishining o'ziyoq, Britaniyada oziq-ovqat masalasi qanchalik dolzarb muammoga aylanganligidan darak berar edi, chunki, Britaniyaning ushbu vaziyatda zudlik bilan tahlikali holatdan chiqib ketishi va "panika"dan tezroq qutulishi mahalliy hukumatning eng muhim vazifasiga aylangan edi.

Pandemiya davrining birinchi to'rliginidayoq, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari oziq-ovqat mahsulotlari eksportini vaqtinchalik to'xtatib qo'yganligi sababli, Buyuk Britaniya 1995 yildan boshlab rasman AQShning Yevropa Ittifoqi hududiga mol go'shti mahsulotlari eksporti ta'qiqini bekor qilib, AQShdan mol go'shti mahsulotlari importini yana yo'lga qo'ydi. 2020 yilning boshlarida Rossiyaning Uzoq Sharq hududlariga Xitoyning qishloq xo'jaligi va aholi iste'moli mahsulotlari eksportining to'xtatilishi oqibatida, Primore o'lkasi shaharlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxi birdaniga 3-4 barobarga ko'tarilib ketdi.

Masalan, bodring narxi 280-300 rubl (4-5 dollar) yoki pomidor 170-180 rublgacha (o'rtacha 3 dollar) ko'tarilgan bo'lsa, YAkutiya va boshqa SHimol hududlaridagi bozorlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxi bundan ham qimmatlashdi.

Yuzaga kelgan pandemiyaning "ikkinchi to'lqini" va "uchinchi to'lqini"ni jilovlash va to'xtatish maqsadida 2020 yilning oxirlari va 2021 yilning boshlarida Yevropa mamlakatlarining barchasida kuchaytirilgan karantin qoidalarini joriy qilindi. Yevropa Ittifoqida pandemiya eng og'ir shikast olgan mamlakat Italiya milliy iqtisodiyoti bo'lib, uning pandemiya tufayli avvaliga qisqa uch oy ichida 600 mlrd.dollar miqdorida va yarim yil ichida deyarli 800,0 mlrd.dollar miqdorida iqtisodiy zarar ko'rganligini Italiya Bosh Vaziri Konte ta'kidlab o'tdi.

Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT) 2020 yilgi hisobotida, pandemiya sababli deyarli butun dunyoda ish haqi pasayganligini ma'lum qilgan. 2020 yilning birinchi yarmida dunyo davlatlarining uchdan ikki qismida ish haqi pasaydi yoki ish haqini ishchiga berish jarayoni sekinlashdi. Yaqin kelajakda yillarda ham inqiroz tufayli ish haqining sezilarli darajada pasayish tendentsiyasi saqlanib qolinishi hamda inqiroz, ayniqsa, ayollar va kam maosh to'lanuvchi ishchilarning ish haqiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. XMTning bosh direktori Gay Rayder "COVID-19 inqirozi oqibatida tengsizlikning kuchayishi kambag'allikning va ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlikning halokatli darajada ortishiga olib kelishi mumkin"⁴² deb ta'kidlab o'tgan edi.

"The Bell"ning ma'lumotiga ko'ra, BMT ekspertlari tomonidan amalga oshirilgan tahlillarga ko'ra, COVID-19 pandemiyasi 2 yil davomida global iqtisodiyotning to'rt yillik o'sishini yo'qotishini hamda qariyb 8,5 trln.dollar yo'qotilishi ma'lum qilingan. SHuningdek, pandemiya jahon iqtisodiyotida raqamlashtirish va avtomatlashtirish sohasini rivojlanishini yanada tezlashtirmoqda hamda buning natijasida ish o'rinlarining yanada qisqarishi va ishsizlik darajasining ortishiga olib kelishi mumkinligini ma'lum qilishgan.

Jahon banki ekspertlarining bergan prognozida 2020-2025 yillarda jahon iqtisodiyotining yillik o'sish sur'atlarini 6-7 foiz darajadagi o'sishini bashorat qilishgan edi, yuzaga kelgan pandemiya tufayli 2020-2021 yillarda amalda jahon iqtisodiyotining 3-4 foizga kamayishi yuzaga keldi.

XVF esa, koronavirus tufayli tarixda birinchi marta jahon iqtisodiyotining o'sishi deyarli to'xtab qolganligi, vaziyat esa 2008 - 2009 yillardagi jahon iqtisodiy

⁴² https://www.ilo.org/moscow/news/WCMS_762979/lang--ru/index.htm

inqirozi davridan ham yomonroq holatga kelganligini ma'lum qilishgan. XVF rahbari Kristalina Georgieva: "Biz XVF tarixida hali hech qachon jahon iqtisodiyotining to'xtab qolganini ko'rmaganmiz. Biz tanazzulga yuz tutyapmiz, bu jahon iqtisodiy inqirozidan ham yomonroq", deb ta'kidlab o'tgan.

Jahon xo'jaligidagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol va vaziyat 2020 yilning o'rtalariga borgandagina ijobiy tomonga o'zgara boshladi va jahon mamlakatlari asta-sekin o'z chegaralarini ochishga va xalqaro aviaqatnovlar faoliyatiga ruxsat berildi va bu yana o'z navbatida, jahon bozordagi faoliyatni asta-sekin "qimirlashi"ga olib keldi.

10.2. Pandemiyaning jahon agrar bozori va undagi mahsulotlar narhiga ta'siri

Yuzaga kelgan pandemiya jahon bozorida bir qator strategik mahsulotlarning narhini keskin pasayishiga yoki keskin ko'tarilishiga olib keldi. Ayniqsa neft, qora metal, oltin, qimmatbaho qog'oz, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kabi xomashyo yoki boshqa mahsulotlarni misol qilishimiz mumkin. Masalan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining jahon bozorida ko'tarilishiga sabab sifatida ko'plab mamlakatlarda joriy etilgan karantin cheklovlari natijasida aholining oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab va ehtiyojlari salmoqli darajada oshganligini yoki ko'plab mamlakatlarda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini chegaradan o'tkazilishida cheklov joriy qilinganligini ko'rsatish mumkin.

Xususan Yevropa mamlakatlarida ko'plab qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksportiga cheklovlar joriy qilindi. Chunki, pandemiya sababli, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talabning ortishi ishlab chiqarish pasaygan sharoitda uning zahirasini oshirish hamda ushbu tarmoqqa xorijiy ishchilarning jalb qilinmaganligi davlat chegaralarini yopilishi bilan izohlandi⁴³.

Jahon tashqi savdo-sotiq jarayonlarida agrar sohasining ulushi kam bo'lsa-da, u dunyo aholisining 45,3 foizini oziq-ovqat bilan ta'minlaydi va dunyo aholisining 51 foizi qishloq xo'jaligi tarmoqlarida faoliyat ko'rsatishadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda mehnatga layoqatli aholining atigi 5 foizi agrar sohada faoliyat olib boradigan bo'lsa, jahondagi rivojlanayotgan mamlakatlarning deyarli

⁴³ <https://www.google.com/amp/s/amp.dw.com/ru/%2500>

60 foizi qishloq xo'jaligi tarmoqlarida banddir.

Pandemiyaning jahon agrar sohasiga salbiy ta'siri jahon tashqi savdosiga ham umumiy ko'lamda va xususan, agrar sohasini bir qator tarmoqlarining eksporti miqdorlarini pasayishi orqali o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Shuningdek jahonning ko'plab mamlakatlari pandemiya davrining kamida 1-2 yil davomiyligini hisobga olib, ko'plab va eng muhim strategik qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini to'xtatib, "Milliy oziq-ovqat zahirasi"ni shakllantirishni boshladilar.

Yuzaga kelgan pandemiya Germaniya, Gollandiya va Frantsiya singari mamlakatlar milliy iqtisodiyotining agrar sohasiga ham juda ham katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ushbu mamlakatlar oziq-ovqat xavfsizliklarini ta'minlash maqsadida ba'zi oziq-ovqat mahsulotlarining eksportiga nisbatan vaqtinchalik cheklovlar o'rnatishga majbur bo'ldilar. Ushbu davlatlarning oziq-ovqat mahsulotlari eksportiga qo'yilgan cheklovlari jahon qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Chunki aynan mazkur mamlakatlar jahon qishloq xo'jaligi bozoridagi asosiy etakchi mamlakatlar hisoblanishadi.

Jahon iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab va ehtiyojni keskin darajada oshganligi sababli, jahonning qishloq xo'jaligi sohasi rivojlangan mamlakatlar oldida oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini jahon bozoriga etkazib berish va ularning xajmini yanada oshirishga imkoniyat yuzaga keldi. Albatta, dunyoning ko'plab mamlakatlari pandemiyaning "ikkinchi to'liqini" va "uchinchi to'liqini"ga tayyorgarlik ishlarida eng asosiy muhim bo'lgan vazifa sifatida milliy oziq-ovqat zahirasini shakllantirishga e'tiborni qaratdilar. Ko'plab mamlakatlarda, ayniqsa Yevropa mamlakatlarida oziq-ovqat mahsulotlarining ba'zi turlari bo'yicha taqchillik yuzaga kelishi mumkinligini hisobga olib, uning zahirasini shakllantirish avvaldanoq boshlangan edi.

Pandemiya tufayli oziq-ovqat masalalasida yuzaga kelgan taqchillik sabab jahonning bir qator mamlakatlari ba'zi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari eksportiga vaqtinchalik cheklov joriy qilishdi. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ba'zi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining olib chiqilishining ma'lum bir me'yorini va ba'zi mahsulotlarni olib chiqilishiga esa vaqtinchalik cheklovni joriy qildi.

Jumladan Qozog'iston ham 2020 yilning 1 aprelidan bug'doy va un uchun eksport kvotalarini joriy qildi va vaqtinchalik ushbu mahsulotlar eksportini cheklab qo'ygan edi. Odatda eksport kvotalari iste'molchi mamlakatlarga ushbu turdagi

mahsulotlar importining kamayishiga olib keladi. Lekin mazkur cheklovlarning salbiy ta'siri qishloq xo'jaligi rivojlangan mamlakatlar uchun u qadar ta'sirchan bo'lmaydi, albatta.

Hozirgi vaqtda jahondagi bir qator mamlakatlar tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining jahon tashqi savdosiga kiritayotgan cheklovlari, "COVID-19" tufayli aksariyat mamlakatlarda joriy etilayotgan karantin cheklovlari natijasida mamlakatlarning ichki hududlaridagi qishloq xo'jaligi tarmoqlarida ishchi kuchlari harakatlanishining cheklanishi jahon qishloq xo'jaligi tarmoqlari taraqqiyoti uchun asosiy xatarlardan biri bo'lib qolmoqda.

BMT tahliliga ko'ra, COVID-19ning jahon agrar bozoriga ta'siri, avvaliga salbiy holatga olib kelgan bo'lsa, biroq qishloq xo'jaligi tarmoqlari faoliyati asta-sekin oyoqqa turib, ushbu salbiy ta'sirni engishga muvaffaq bo'lindi. Chunki, rivojlangan mamlakatlarda yuzaga kelgan oziq-ovqat taqchilligidan bir qator qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan mamlakatlarning unumli foydalanishi natijasida ularning qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti xajmlarini salmoqli darajada ko'payishiga olib keldi. Jumladan, jahondagi ko'plab mamlakatlarning oziq-ovqat xavfsizligi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan eng asosiy ozuqa hisoblangan bug'doy va guruch mahsulotlarining narxlari jahon bozorlarida bugungi kunda barqarorligicha qolmoqda.

Don ekinlarining 2019-2020 yillardagi jahon xo'jaligida etishtirish ko'lami va zahiralari avvalgi yillarga qaraganda nisbatan yuqori bo'ldi. Xususan Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Tailand va Pokiston 2020 yilda don ekinlarining hosili mo'l-ko'l bo'ldi. Ayniqsa, Rossiya bilan Qozog'iston o'zining iqtisodiy tarixidagi eng yuqori hosillarni yig'ishga musharraf bo'lishdi. Rossiya o'zining iqtisodiy tarixidagi rekord ko'rsatkich, ya'ni 125 mln. tonna bug'doy etishtirgan bo'lsa-da, biroq, 2020 yilning yarmidan boshlab bug'doyning xorijiy mamlakatlarga vaqtinchalik eksportini to'xtatib qo'ygan⁴⁴.

Jahon sog'liqni saqlash qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, pandemiya AQSh, Hindiston va Braziliya mamlakatlari milliy iqtisodiyotiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatgan. Ma'lumki, AQSh va Hindiston jahon qishloq xo'jaligida eng etakchi "beshlik" qatoridan joy olishgan. Yuzaga kelgan pandemiya ushbu mamlakatlarda oziq-ovqat xavfsizliklarini ta'minlash maqsadida ba'zi muhim qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportiga vaqtinchalik bir qator cheklovlar o'rnatilishiga olib keldi.

⁴⁴ <https://www.google.com/amp/s/amp.dw.com/ru/%2500>

Bu esa, jahon qishloq xo'jaligi savdosiga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalalari bugungi pandemiya sharoitida barcha jahon mamlakatlarining eng muhim vazifalaridan biridir. Jahon xo'jaligida aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yalpi ichki mahsulotning asosiy daromad keltiruvchi manbasi hisoblanadi.

Pandemiya sharoitida milliy iqtisodiyotlarning to'xtovsiz faoliyati aynan agrar sohada bo'ldi. Sababi, karantin joriy qilingan vaqtda hali qishloq xo'jaligining dehqonchilik tarmoqlarida qish fasli va bahorning erta oylarida sovuq iqlim mavjud edi. Biroq keyinchalik dehqonchilik tarmoqlarida ishlar yil so'nggiga qadar to'xtovsiz amalga oshirildi. Shuning uchun ham pandemiya sharoitida ayniqsa jahondagi rivojlanayotgan mamlakatlarning agrar sohasi qolgan sohalarga qaraganda ancha daromadli sohalardan biri bo'ldi. SHuningdek, xorijiy valyutalarni oqib kelishida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ulushi katta bo'ldi.

Umuman olganda 2020 yil boshlaridanoq, jahondagi deyarli barcha rivojlanayotgan mamlakatlarda bahorgi ekin mavsumining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, meva-sabzavot mahsulotlarining yangi hosilini jahon bozoriga etkazib berish uchun barcha choralarni ko'rdi. Albatta, jahon bozoriga qishloq xo'jaligi mahsulotlarni xaridorgo'y bo'lishiga va tez sotilishiga sabab sifatida aksariyat jahon mamlakatlarida karantin cheklovlarini joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Sir emaski, pandemiya tufayli jahonning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida oziq-ovqat tanqisligi vujudga keldi. Pandemiya oqibatida mahalliy bozorlarda oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining sezilarli darajada ko'tarilishi yuzaga keldi. SHuningdek, aholi orasidagi vahimaga asosan eng muhim kundalik oziq-ovqat mahsulotlarining narxi keskin darajada oshib ketdi. Rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarga bo'lgan talab kamida 2-3 marotabaga oshib ketdi.

Masalan O'zbekiston ham agrar sohada etishtirilayotgan mahsulotlar eksporti tarkibi va miqdorlarini yil sayin ko'paytirib borishi natijasida jahon qishloq xo'jaligida eksport qiluvchi asosiy mamlakatlar qatoriga asta-sekin qo'shilib bormoqda. Mavjud imkoniyat va salohiyat O'zbekistonning qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini yanada oshirib borish mumkinligini ko'rsatmoqda va buni albatta, ta'minlay oladi.

Shu jihatdan mazkur yo'nalishda O'zbekistonda maxsus va keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish ayni paytdagi zaruriyat va muhim amaliy qadam sifatida baholanishi lozim. Qishloq xo'jaligi sohasida jahon bozoridan munosib o'rin olish maqsadida mamlakatimizning eksport salohiyatini sezilarli darajada

o'sishiga erishish Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosida keyingi yaqin yillarda mamlakatimizda tashqi savdo miqdorini ko'paytirish chora-tadbirlari o'rin olgan. Unga ko'ra dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravarga oshirib, agrar tarmoqda yillik o'sishni kamida 5 foizga etkazishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish yo'lida umumiy mahsulotlar eksport hajmini yiliga 30 mlrd.dollardan oshirishdan iborat bo'lgan g'oyat ulkan vazifa va chora-tadbirlar belgilanib olingan.

Shu maqsadda so'nggi yillarda tashqi savdoni rivojlantirishda hukumatimiz tomonidan berilayotgan asosiy e'tibor - qishloq xo'jaligi tarmoqlarida mahsulotlar miqdorini yanada ko'paytirish va jahon qishloq xo'jaligida O'zbekistonning imidjini yanada oshirishdan iborat bo'lmoqda. Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida etishtirayotgan va o'zining sifatini tez yo'qotadigan va ayniydigan mahsulotlarimizni saqlash va logistika jarayoni uchun zarur bo'lgan yirik muzlatgich omborlar sonini ko'paytirish va ushbu sohani rivojlantirish agrar sohamizni taraqqiyotiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Mamlakatimizning xorijiy mamlakatlarga eksportga chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining jahon bozorlarida nisbatan arzonroq narxlarda sotilishi aynan xorijliklar uchun O'zbekistonda etishtirilayotgan meva-sabzavotlarga talab va ehtiyojning sezilarli darajada o'sishiga olib kelmoqda. Pandemiya davrida jahon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab yuqoriligicha saqlanib qolmoqda. Shunga ko'ra, O'zbekistonning qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksportini kengaytirish uchun har bir viloyatda tashkil qilingan logistika markazlarini soha mutaxassislari bilan ta'minlash, transport sohasini tubdan yaxshilash, meva-sabzavotlarni saqlash va ularni saralash hududlarini ko'paytirish hamda yuqori sifatli oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash kabi vazifalarni bajarishga kirishilgan.

Ayniqsa, O'zbekistonda etishtirilgan mahsulotlarni ta'mi lazzatli bo'lganligi sababli bizning mahsulotlarimizga bo'lgan talab Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Rossiya va Qozog'iston kabi mamlakatlarda yil sayin tobora ortib bormoqdi. Masalan, 2020 yilda Qozog'iston xurmoni faqat O'zbekistondan import qilishni afzal ko'rdi. Shuningdek, Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur va BAA o'zbek gilosi, Germaniya, Avstriya va Chexiya o'zbek qovuni, xatto Eron va Pokiston o'zbek malinasi va boshqa mamlakatlarga

o'zbek mahsulotlarini etkazib berishda O'zbekiston uchun yangi tashqi bozorlarning eshigi ochildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev 2020-2022 yillarda vazirlik va idoralar rahbarlari ishtirokida agrar sohaga bag'ishlangan videoselektorlarda, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti miqdorini doimiy ravishda oshirib borish, yangi jahon bozorlarini izlash, xalqro standartlar talabiga javob beruvchi sifatli mahsulotlarni etishtirish, va eng muhimi, Boltiqbo'yi, Ukraina, Gruziya, Sharqiy Yevropa va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan qishloq xo'jaligi eksporti borasida hamkorlik olib borish hamda yangi bozorlarga mahsulotlarni etkazib berishda tizimli ishlarni tashkil qilish muhimligini ta'kidlab kelmoqdlar.

10.3. Pandemiyaning jahon neft bozoriga ta'siri

2020 yilning boshlarida jahon bozorida boshlangan tahlikalik holat eng birinchi navbatda neft xomashyosi narxining kunga-kunga va soat sayin pasayishi jarayoni kuzatildi. Yuzaga kelgan ushbu jarayon neft ishlab chiqaruvchilarda taxlikalik holatni yuzaga keltirdi. Xususan Brent markali neft narxi 2020 yilning 9 mart kuni avvalgi minimumidan o'tib, bir barreli uchun 31,38 dollargacha tushib ketdi. WTI markasidagi neftning narxi esa 31,35 foizga tushib, barreli uchun 28,33 dollarga etgan. Brent fyuchers markasidagi neftning narxi 28,69 foizga arzonlashib, bir barreli 32,28 dollarga baholangan.

Umuman olganda Brent markali neft narxining tushishi bundan sal avvalroq, ya'ni 2020 yilning 6 martidayoq boshlangan edi. Bunga Rossiya va OPEK mamlakatlari neft qazib olish hajmlarini qo'shimcha ravishda qisqartirish masalasida bir qarorga kela olmaganligi sabab bo'lgan edi. Kelishuv amalga oshmagan, Saudiya Arabistonining Saudi Aramco neft kompaniyasi aktsiyalari 2020 yilning 8 mart holatiga ko'ra, birinchi marta 9 foizga arzonlashdi. Bu oxirgi 11 yil ichida bir kunda kuzatilgan narxning eng yuqori pasayishi bo'ldi. Saudi Aramco'ning kapitalizatsiyasi IPO narxlaridan ham past qiymatda baholangan.

Albatta, savol tug'iladi, xo'sh, narxlar nima uchun pastladi?

Jahon iqtisodiyotiga tahdid soluvchi yangi koronavirus kasalligining tez sur'atlarda jahon mamlakatlariga tarqalishi sharoitida Avstriyaning poytaxti Vena shahrida 2020 yilning 6 mart kuni, OPEK mamlakatlari va neft qazib olishni qisqartirish bo'yicha kelishuvni qo'llab-quvvatlagan davlatlar vakillarining

uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuv chog'ida yuzaga kelgan turli bahs-munozalar yakniga ko'ra, ishtirokchilar neft qazib olish hajmlarini qo'shimcha ravishda qisqartirish bo'yicha bitim shartlarini kelisha olmadi. Ayniqsa ushbu bo'lib o'tgan uchrashuvda Rossiya va Saudiya Arabistoni mas'ullari qarama-qarshi pozitsiyalarni egalladi. Xususan Rossiya tomoni ishlab chiqarishni qo'shimcha qisqartirishdan bosh tortdi va shartnomani amaldagi sharoitda (neft qazib olishni kuniga 1,7 million barrelga kamaytirish) 2020 yilning ikkinchi choragiga uzaytirishni taklif qildi. Saudiya Arabistoni mas'ullari esa neft qazib olishni kuniga yana 1,5 million barrelga kamaytirishni yoqlab chiqdi.

Saudiya Arabistoni Rossiya hamda Neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti bilan hamkorlik doirasida imzolanishi ko'zda tutilgan kelishuv bekor bo'lgach barcha turdagi neftning narxini arzonlashtirdi. Shuningdek, neft ishlab chiqarish hajmini kuniga 10 million barreldan, zarurat bo'lsa, rekord darajadagi 12 million barrelga oshirishga tayyorligini ma'lum qilgan edi. Saudiya Arabistonining ushbu qo'llagan usuli Rossiya va boshqa neft eksport qiluvchi davlatlarga bosim o'tkazish va ularni Neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti bilan muzokaralarga qaytarishga qaratilganligi va o'zaro hamkorlikka chorlashishini bildirdi.

Avvalo, jahon bozorida neft narxining keskin pasayishi qanday oqibatlariga olib keladi – degan savol tug'iladi, albatta.

2020 yillarning 1-choragida jahonda ayni pandemiya avj olgan bir paytda Rossiya va Neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti (OPEK) kelishuvining buzilishi sharoitida jahonda neft narxining pasayishi tezlashib ketdi. Kelishuv 2022 yilning 1 aprelda o'z kuchini yo'qotdi va ishlab chiqaruvchi davlatlar cheklovlarsiz neft qazib olish imkoniga ega bo'ldi.

Ushbu davrda jahon neft bozoridagi iste'molchi mamlakatlar bo'yicha tahlilni ko'rsak, pandemiya sharoitida Xitoy jahon neft bozoridan eng ko'p miqdordagi neftni import qilgan asosiy mamlakat bo'ldi. Uning eng ko'p miqdorda neftni import qilishini hisobga olsak, jahon neft bozorida pandemiya davrigacha uning kunlik iste'moli 14,0 mln.barrelni tashkil qilgan bo'lsa, biroq 2020 yilning mart oyiga kelib uning kunlik neft iste'moli ko'rsatkichi o'rtacha 8,2 mln.barrelga tushib qoldi. Chunki pandemiya sharoitiga ko'ra yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz tufayli Xitoyning jahon neft bozoridan importining 30 foizga qisqarishi va kunlik iste'molining 10 mln.barreldan ham tushib ketishi oqibatida neft narxi yanada pasaydi.

Yuzaga kelgan inqirozni oldini olish va neft bozorini tartibga solish uchun jahon siyosiy diplomatiyaning sayh-harakatlari evaziga nihoyat 2020 yilning aprelida favqulodda o'tkazilgan "OPEK+" onlayn-video yig'ilishda tashkilotning barcha a'zolari va a'zo bo'lmagan neft ishlab chiqaruvchi mamlakatlar ham bosqichma-bosqich 2 yil davomida neft qazish hajmlarini kamaytirishga kelishib olishdi.

Kelishuvga muvofiq neft narxining keskin tushib ketishi fonida 2020 yilning may-iyun oylarida qazib chiqarish hajmini rekord darajada - kuniga 9,7 mln. barrelga kamaytirish hamda yil oxiriga qadar pandemiya davri davom etadigan bo'lsa u holda kuniga 8 mln. barelgacha kamaytirish bo'yicha tomonlar yakuniy qaror chiqarishdi.

Bo'lib o'tgan ushbu yig'ilishda OPEKning barcha a'zolari va jahondagi neft eksportyorlari, jumladan Rossiya va a'zo bo'lmagan boshqa mamlakatlar ham bir ovozdan neft qazib olish xajmini jahon neft bozorida narxni barqarorlashuvi jarayonigacha tobora kamaytirib borishga kelishib olindi. AQSHning o'zida ham neft ishlab chiqaruvchilar savdo kelishuvi bilan qazib olishni qisqartirishga kelishishdi.

Biroq jahon neft bozoridagi ahvol 2020 yilning so'nggi oylariga borgandagina barqarorlashganligi sababli, 2020 yilning 3 dekabr kuni o'tkazilgan navbatdagi "OPEK+" onlayn-video yig'ilishida neft ishlab chiqaruvchi mamlakatlarga qazib chiqarish miqdorini 2021 yilning 1 yanvaridan boshlab kvotalar ulushida qisman ko'paytirilishiga ruxsat berildi va neft qazib chiqarish xajmi kuniga 500 ming barelgacha oshirishga kelishib olindi.

Xususiy sektordagi neft kompaniyalar jahon neft bozorida narxning tushishiga javoban ishlab chiqarishni yanada qisqartirishga majbur bo'lishdi. Ammo ular neft bozoriga fundamental ta'sir o'tkaza olmaydi. Chunki bozorda tabiiy talab bo'lmaganidan keyin ishlab chiqarishni to'xtatish qo'shimcha ishsizlikni keltirib chiqaradi, xolos.

Xo'sh, jahon iqtisodiyotidagi eng muhim bo'lgan ushbu xomashyo narxini keskin darajada tushib ketishi va jahon neft bozoridagi inqiroz ko'plab yirik mamlakatlarning milliy iqtisodiyotining daromadlarini keskin tushib ketishiga va milliy iqtisodiyotining rivojiga juda ham katta salbiy ta'sir ko'rsatishiga "jahon siyosiy o'yini"ning dahli bormi yoki jahon neft bozorida yuzaga kelgan "iqtisodiy tanglik" bu siyosiy o'yinmi?

Fikrimizcha, yo'q, albatta. OPEK, Rossiya va shu kabi siyosiy sabablar bu erda umuman rol o'ynamaydi. Biroq pandemiyaning ilk to'rlqinida jahon neft bozorida xomashyo narxining keskin darajada tushib ketishiga jahonning ko'plab ommaviy axborot vositalari tomonidan Saudiya Arabistoni va Rossiya o'rtasida neft qazish kvotalari borasida turli qarama-qarshiliklar fonida yuzaga kelganligini ham qisman bo'lsada bildirib o'tishgan edi.

Neft narxining pandemiya sharoitida vaqtinchalik kun sayin keskin tushib ketish jarayoni jahon xo'jaligidagi yirik neft importchilarini ham ancha sarosimaga tushirdi. Chunki neft narxi hamon barqarorlashganicha yo'q va qancha narxgacha tushishi borasida biron bir aniq omil bilan hozirgi sharoitda istiqbollab bo'lmaydi.

Yuzaga kelgan pandemiyaning tugash davrini aniq belgilaydigan yoki uning istiqboli borasida fikr berishga xatto Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ekspertlari ham ojizdir. Shuning uchun ham nafaqat neft bozori, balki xomashyolarning qolgan bozorlardagi narxlarning barqaror holatda bo'lishiga pandemiyaning butkul tugash davriga bog'liqdir. Ekspertlarning tahlillariga ko'ra, pandemiyaning tash davri yana 1-2 yil davom etishi mumkin.

Jahon iqtisodiyoti inqirozi sharoitida sanoatining neftga bo'lgan talabi va ehtiyoji tushib ketdi va natijada uning narxi eng minimum darajaga keldi. Nimaga narx yanada pastga tushdi?

Sababi oddiy, ishlab chiqarilgan neftni hech kim ishlatmayotgani uchun, albatta. Jahon neft narxining ko'tarilishi pandemiyaning tugash davriga bog'liq bo'lib qoldi.

Pandemiya asoratlari davri 2021-2022 yillarda ham davom etgan bo'lsa-da, biroq jahon neft bozorida neftga bo'lgan talab endilikda ortib bordi. Masalan, pandemiyaning 2 yillik davomiyligini hisobga olib, neft xomashyosining narxi jahon neft bozorida yanada pastlashishi ehtimoli mavjud bo'lgan edi. Biroq 2021 yilning mart oyiga kelib neft xomashyosining narxi yana o'zining avvalgi holatiga qayta boshladi.

Xususan 2021 yilning 8 mart kuni jahon neft bozorida 1 barrel "Brent" markali neft xomashyosining narxi 71 dollargacha ko'tarildi va nihoyat, 2022 yilning mart oyiga kelib esa uning bahosi yana 85 dollargacha ko'tarildi. Taxminlarga ko'ra, 2022 yil so'nggiga borib uning narhi kamida 100 dollargacha ko'tarilishi kutilmoqda.

10.4. Pandemiyaning jahon moliya bozoriga ta'siri

Har qanday kutilmagan katta hodisa – u xoh salbiy bo'lsin, xoh ijobiy – insoniyat tarixida chuqur iz qoldiradi. Bunday hodisalar fan tilida “qora oqqush hodisasi” (black swan event) deb ataladi.

“Qora oqqush hodisasi” iborasi ilm-fan, moliya va texnologiya tarixida kutilmaganda sodir bo'ladigan, sodir bo'lishi ehtimoli juda past bo'lgan, ammo sodir bo'lsa jiddiy zarar keltiradigan hodisalarga ishlatiladi.

Bunday hodisalarning murakkab tomoni shundaki, ularning qachon sodir bo'lishini va voqealarning qaysi tomonga va qanchalik tez rivojlanishini taxmin qilishning imkoni yo'q. Iqtisodchilar tili bilan aytganda, keyingi voqealar rivojini taxmin qilish uchun ma'lumotlar etarli emas.

“Qora oqqush” hodisasining iqtisodiy zarari misli ko'rilmagan bo'ladi, uni oldindan taxmin qilib bo'lmaydi, uni faqat to'g'ri iqtisodiy siyosat orqali kam talafot bilan o'tkazish mumkin.

Dunyo iqtisodiyoti oxirgi 10 yil davomida nisbatan barqaror, 3 foiz atrofida o'sgani natijasida Jahon banki mutaxassislari yanvar oyi boshida 2020 yil uchun global YaIMning 3,6 foizga o'sishini taxmin qilishayotgan edi. 2020 yil yakuni bo'yicha esa aksincha, global YaIM 2019 yilga nisbatan 3 foizga qisqardi, ya'ni farq – 6,6 foiz. Bu esa haqiqiy “qora oqqush hodisasi” yuz berganidan dalolatdir.

Xalqaro valyuta jamg'armasining hisobotiga ko'ra, jahon iqtisodiyoti pandemiya natijasida kamida 9,5 trln.dollari miqdorida zarar ko'rdi.

Bu zararining mintaqalar kesimidagi holati quyidagichadir: Yevropa davlatlari YaIM -8,0 foizgacha, AQSh -5,9 foiz va Rossiya -5,5 foiz atrofida zarar ko'rdi. Xitoy va Hindiston kabi Osiyo davlatlarida esa YaIM o'sishi ijobiy ko'rinishda davom etadi.

“Qora oqqush” hodisasining yana bir xislati shundaki, u qanchalik chuqur bo'lsa, shunchalik tez tiklanishi ehtimoli ham bor. Biroq bu safargi moliyaviy inqiroz 2008 yildagi inqirozdan ham ancha jiddiy tus olishini tan olish kerak, buni hatto oxirgi 100 yillikdagi eng yirik moliyaviy inqiroz deb atasa ham bo'ladi.

Epidemiya natijasida jahon moliya bozori 1929 yildagi inqirozdan ham jiddiy zarar ko'rishi mumkin. O'shanda S&P500 aktsiyalarining 20 foizga arzonlashishi uchun 30 kun talab qilingan bo'lsa, Covid-19 boshlangandan keyin bunga atigi 16 kun etarli bo'ldi.

Albatta, bu erda moliya bozorining 2020 yilda 1929 yilga nisbatan ancha sezuvchan bo'lib qolgani va bugungi kunda jahon hamjamiyatining inqiroz bilan ishlashda nisbatan ancha tajriba to'plaganini ham hisobga olsak, bu safargi inqirozdan tez chiqib ketishga umid qilsak bo'ladi.

Buning uchun jahon hamjamiyati iqtisodiyot, siyosat va sog'liqni saqlash sohalarida uzviy mustahkam hamkorlikni amalga oshirishi va o'zaro hamjihatlikning ahamiyati har doimgidan muhimligini anglab etishi lozim. Mamlakatlararo moliyaviy ko'mak, birgalikda vaktsina ishlab chiqish va o'z vaqtida axborot almashinuvi esa muammoning keng ko'lam olib ketishini oldini olishda asosiy vosita hisoblanadi.

Bobning qisqacha xulosasi:

2020 yilning boshlarida jahonda yuzgan bergan "COVID-19" pandemiyasi butun dunyo mamlakatlari milliy iqtisodiyotining rivojlanishini izdan chiqardi va jahon iqtisodiyoti inqirozga yuz tutdi. Yuzaga kelgan pandemiya milliy iqtisodiyotning barcha sohalariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Jahon mamlakatlarining iqtisodiy inqirozga yuz tutishi xatto Ikkinchi jahon urushida davrida ham bunday holat kuzatilmagan edi.

Ayniqsa, ko'plab mamlakatlarda joriy etilgan karantin cheklovlari natijasida aholining oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab va ehtiyojlari salmoqli darajada oshdi. Pandemiya sharoitida oziq-ovqat mahsulotlari narxining 2-3 marotabaga oshib ketishi ko'plab mamlakatlarda agrar sohaga bo'lgan e'tiborini yanada oshirdi.

Jahon iqtisodiyoti inqirozi sharoitida jahon bozorlaridagi ko'plab xomashyolar narxini keskin tushib ketganligi yoki ba'zi mahsulotlar narxining ko'tarilganligi milliy iqtisodiyotlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi va ham ijobiy foyda keltirishi mumkin ekan. Demak, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, talab qisqarib borsa, narx ham tushib boraveradi, ehtiyoj ko'paysa narx ham ko'tariladi, bu iqtisodiyotning eng oddiy qonuniyatidir.

Nazorat savollari:

1. Pandemiyaning jahon bozoriga salbiy ta'sirining boshlang'ich bosqichlarini aytib bering?

2. Pandemiyaning ilk davrida jahon bozoridagi taxlikalik holat qanday yuz berdi?
3. Pandemiyaning jahon agrar bozori va undagi mahsulotlar narhiga ta'sirini ayting?
4. BMT tomonidan nima uchun 2020 yilni "jahon iqtisodiyoti tarixidagi eng yomon yil" deb e'lon qilindi?
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoev tomonidan 2020 yilning 29 dekabridagi Oliy Majlisga Murojaanomasida pandemiyaning jahon iqtisodiyotiga salbiy ta'siri haqida nima degan edilar?
6. Pandemiyaning "birinchi to'liqini" jahon metal bozoriga qanday ta'sir ko'rsatdi?
7. Pandemiyaning "birinchi to'liqini" jahon neft bozoriga qanday ta'sir ko'rsatdi?
8. Pandemiyaning "birinchi to'liqini" jahon moliya bozoriga qanday ta'sir ko'rsatdi?
9. Pandemiyaning ilk davrida jahon bozoridagi qaysi mahsulotlarning narxlari keskin ko'tarildi?
10. Jahon oltin bozorida oltin narxlarining o'zgarishi O'zbekiston milliy iqtisodiyotiga qanday ta'sir qildi?
11. Jahon bozorida oziq-ovqat mahsulotlari taqchilikka yuz tutgach, Buyuk Britaniya xukumati qaysi mamlakatlardan va qanday mahsulotlar eksportini ko'paytirishni rasman iltimos qilgan edi?
12. Nima uchun Yevropa Ittifoqi mamlakatlari uyushmaning ichki hududlarida ham oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga cheklov o'rnatdi?
13. Jahon bozorida neft narxining pasayish jarayonini aytib bering?
14. Neft narhini tartibga solishda qanday tashkiliy ishlar amalga oshirildi?
15. "COVID-19"ning jahon agrar sohasiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
16. Pandemiya sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksportida O'zbekistonning qanday salohiyatlari va imkoniyatlari bor?
17. Mamlakatimizning qaysi qishloq xo'jaligi mahsulotlariga va ularga qaysi mamlakatlardan talab va ehtiyoji ko'paydi?
18. Pandemiya sharoitida O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini yanada oshirishida qanday chora-tadbirlarni amalga oshirdi?

Uyga vazifa!

Talabaning “Jahon xo’jaligida yuzaga kelgan pandemiya va siyosiy inqirozning jahon bozoriga ta’siri tahlili” mavzusini chuqur o’zlashtirishi hamda amaliyot darsiga puxta tayyorgarlik ko’rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

1) mavzu boshida berilgan “Tayanch iboralari” so’zlarining tushunchasiga ega bo’lish;

2) mavzu so’nggida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko’rish;

3) jahon bozoriga (neft, oltin, moliya, xomashyo, agrar va boshqalar) pandemiyaning salbiy ta’siri mavzusi bo’yicha talabalar guruhlariga bo’lingan holda “Taqdimot” o’tkaziladi.

XI BOB. JAHONDA YUZAGA KELGAN SIYOSIY INQIROZNING JAHON BOZORIGA TA'SIRI TAHLILI

11.1. 2022 yilda jahonda yuz bergan siyosiy inqirozning jahon bozorlariga ta'siri tahlili.

11.2. Siyosiy inqirozning jahon savdosiga ta'siri.

11.3. Siyosiy inqirozning jahon moliya bozori va O'zbekiston moliya bozoriga ta'siri tahlili.

11.4. Siyosiy inqirozning O'zbekiston ichki bozoriga ta'siri.

Tayanch iboralari: iqtisodiy sanksiya, embargo, siyosiy inqiroz, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), global savdo tizimi, globallashuv, pessimistik, optimistik, brend, bitkoin, elektron valyuta, birja.

11.1. 2022 yilda jahonda yuz bergan siyosiy inqirozning jahon bozorlariga ta'siri tahlili

BMT Bosh kotibi Antoniu Guterresh va jahondagi bir qator etakchi va nufuzli nashrlar ham 2022 yilni jahon iqtisodiyoti uchun 2020 yilgi pandemiya davri singari “og'ir yil”lardan biri sifatida iqtisodiy tarixdan joy olishini ma'lum qildi.

Shveytsariyaning Davos shahrida 2022 yilda bo'lib o'tgan Jahon iqtisodiy forumida Yevropada ro'y bergan siyosiy inqirozini jahon savdosiga ta'sirining mumkin bo'lgan variantlarini tavsifladi. Ma'lum bo'lishicha, mojaro “misli ko'rilmagan savdo va boshqa iqtisodiy sanksiyalar”ga olib keldi. Geosiyosiy ziddiyatning kuchayishi uning global savdo tizimiga ta'siri haqida savollar tug'dirmoqda.

Ushbu forumda ekspertchi iqtisodchilarning ta'kidlashicha, dunyoni bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan iqtisodiy bloklarga bo'lish noto'g'ri strategiya, chunki raqobatdosh davlatlar hozir bir-biriga juda bog'liqdir. Shuning uchun, milliy xavfsizlik nuqtai nazaridan savdo sanksiyalari qo'llanilganda, ular xalqaro huquqning eng qo'pol buzilishi tufayli sanksiyalar bilan cheklanishi lozim⁴⁵.

Yuzaga kelgan siyosiy inqirozning milliy va jahon iqtisodiyotiga hamda jahon bozoriga salbiy ta'siri xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

⁴⁵ <https://www.weforum.org/agenda/2022/01/davos-2022-world-economic-forum-annual->

Sh.Mirziyoev shunday deydi: "Bugungi kunda dunyodagi vaziyat juda jiddiy, buni bilgan biladi. Neft mahsulotlari 50 foizgacha, ayrim oziq-ovqat turlari, masalan, o'simlik yog'lari 70 foizgacha oshib ketdi. Bu albatta bizga ham ta'sir qilmay qolmaydi. Mana bir misol - shakar zavodlarimiz ishlashi uchun xomashyoni Braziliyadan keltirar edik. Afsuski, hozirgi ayrim siyosiy vaziyatlar tufayli yo'llar yopilib qolib, ishlar to'xtadi.

Shuning uchun narx oshishi va inflyatsiyaning xalqimiz hayotiga salbiy ta'sirining oldini olish maqsadida biz yanada ko'proq harakat qilishimiz, tinmay ishlashimiz kerak. Toki bir kun vaqtimiz bor ekan, bitta daraxt ekishga, bitta hosil olib xalqimizga etkazishga harakat qilishimiz kerak"⁴⁶.

Avvalo siyosiy inqirozning jahon bozoriga ta'siri fonida, Yevropani xomashyo va mineral resurslar bilan ta'minlab beradigan eng asosiy mamlakat, ya'ni Rossiyaga qarshi 2022 yilning fevral oyidan boshlab turli iqtisodiy sanksiyalarning qo'llanilishi oqibatida yuz bera boshladi.

Gaz. Jahon bozorida gaz narxlari 40 foizga keskin oshib ketdi, ekspertlarning fikricha, bu ko'rsatkich gaz uchun narx ko'tarilishining boshlang'ich davridir. Yevropada gaz almashinuvi narxi 41 foizga oshdi. 2022 yilning 2 mart kuni birjadagi savdolar chog'ida Yevropada gaz narxi 2021 yil dekabr oyi oxirida qayd etilgan tarixiy rekordni yangilab, 1000 kub metr uchun deyarli 2230 dollargacha ko'tarildi. Bu haqda ICE London birjasi ma'lumotlari darak bermoqda.

Umuman olganda, gaz narxi 59,4 foizga oshgan. Niderlandiyadagi TTF markazida aprel fyucherslari narxi 1000 kub metr uchun 2226 dollargacha ko'tarilgan.

Gaz uchun birja kotirovkalarining o'sishi AQSh, Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya, shuningdek, boshqa davlatlarning Rossiya Prezidenti Vladimir Putindan so'ng bir qator rossiyalik yuridik va jismoniy shaxslarga qarshi sanksiyalar qo'llashini e'lon qilgani fonida kuzatilmoqda.

Bundan ham dahshatlisi, Yevropada gaz narxi jahon iqtisodiyoti tarixida 2022 yilning 17 mayida birinchi marta ming kubometr uchun 3000 dollardan oshdi. Bir yil oldin gaz narxi 10 baravar past edi va Yevropada gaz narxi yana bir bor o'zining tarixiy maksimalini yangiladi va har ming kub metr uchun 3000

meeting-may/

⁴⁶ <https://t.me/c/1100705576/42830>

dollardan oshdi va Londoning ICE Futures birjasi tarixidan ham joy oldi⁴⁷. Yevropada gaz narxi 2021 yilning bahoridan beri oshib bormoqda. Bir yil avval gaz narxi 250-300 dollar edi va dekabr oyida birinchi marta 2000 dollardan oshdi.

Mutaxassislar narxlarning oshishini Osiyoda suyultirilgan gazga bo'lgan talab, yirik etkazib beruvchilar tomonidan cheklangan ta'minot va Yevropadagi erosti omborlari bilan bandlik darajasi pastligi bilan izohladi. Gaz narxi oshishining qo'shimcha omili Rossiyaning Ukrainadagi harbiy harakatlari va undan keyin Rossiyaga qarshi sanksiyalar joriy etilishi bo'ldi. Jumladan, Rossiyadan Germaniyaga o'tadigan "SHimoliy oqim 2" gaz quvuri loyihasi muzlatib qo'yilgani ham bunga sabab bo'ldi.

O'z o'rnida, Rossiya iqtisodiy sanksiyaga javob tariqasida "nodo'st davlatlar"dan gaz va neft uchun rublda haq to'lashini e'lon qildi. Bundan bo'yin tovlagan ayrim davlatlar, xususan Polsha va Bolgariyani gaz ta'minotidan to'liq uzdi. Ayrim davlatlar o'zlari Rossiya gazini rad eta boshlashdi. 11 may kuni esa Rossiya hukumati 31 ta xorijiy kompaniyaga nisbatan sanksiyalar e'lon qildi. Ular qatorida "Gazprom"ning xorijdagi sho'ba korxonalari ham bor. Jumladan, "EuRoPol GAZ" kompaniyasi tasarrufidagi "YAmal – Yevropa" gaz quvurining Polshadagi uchastkasi orqali "Gazprom" gaz o'tkazilishi to'xtatilganini ham rasman e'lon qildi.

Ma'lumki, hozirgi kunda Yevropa Ittifoqi davlatlari sanksiyalarning oltinchi paketiga RF neftiga nisbatan to'liq embargo joriy etish ustida bosh qotirmoqda. Bu qadamni Rossiya energiya resurslariga ko'proq bog'liq bo'lib turgan Vengriya, Slovakiya va Chexiya kabi davlatlar ko'p ham xushlashmayapti.

Chunki ma'lum bir muddat o'tgach Rossiya neftining o'rnini bosa oladigan muqobil topsa bo'lar, biroq Rossiya gaziga muqobil topish qiyin. Rossiya o'tgan davr ichida Yevropa Ittifoqi ning ko'plab davlatlarini amalda arzon bo'lgan rus gazini iste'mol qildirishga o'rgatib qo'ygan. Muqobil yo'nalish uchun eng avvalo zarur infratuzilma yo'q. AQSh, Kanada va Fors ko'rfazi davlatlaridan suyultirilgan gaz tashish esa karrasiga qimmatga tushadi. Masalan, Rossiya 2021 yilda uzoq xorij davlatlariga 185 mlrd kub metr gaz eksport qilgan. Ularning katta qismi (130 mlrd kub metrdan ortig'i) Yevropa davlatlari hissasiga to'g'ri keladi. Iste'mol hajmining 30 foizi rus gazidan iborat bo'lgan Yevropa gazdan uzilib, oqim

⁴⁷ <https://ICE Futures>

Xitoyga yo'naltirilsa, "Sibir kuchlari" gaz quvuri to'liq quvvat bilan ishlaganida ham yiliga 50 mlrd kub metr gaz o'tkaza oladi, xolos.

Mavjud siyosiy kon'yunkturaga asosan, Yevropaga gaz eksport qilish bilan bog'liq turli risklar vujudga kelayotgani ortidan jahon bozorlarida tabiiy gaz narxi ko'tarilishi kuzatilmoqda. Qolaversa, "gaz urushlari" tufayli "Gazprom"ning eksporti hajmi deyarli yarim barobarga qisqargan.

Ko'rinib turibdiki, vaziyat har ikki tomon uchun ham manfaatli emas. Yevropaga gaz etkazish to'xtatiladigan bo'lsa, Rossiyadagi gaz konlari ham to'xtaydi. Buncha hajmni saqlash, etkazish uchun imkoniyatlar yo'q. Yevropa davlatlari gaz uchun rublda haq to'lashni rad etib, rus gazidan voz kechadigan bo'lsa, bir necha karra qimmatroq gaz topishga majbur bo'ladi. Ular iste'mol qiladigan hajmni bekamu-ko'st etkazib bera oladigan boshqa davlatning o'zi yo'q.

Yevropa Ittifoqi yillar davomida ikki tomon uchun ham o'ta muhim bo'lgan munosabatlarga yakun yasagan holda bir necha yillar mobaynida etkazib berilgan Rossiya gazidan voz kechmoqchiligini ma'lum qildi. Siyosatning kutilmaganda o'zgarishiga sabab – Rossiyaning ta'minotlarni to'xtatish haqidagi tahdididir. Bu oddiy masala emas, zero mintaqadagi iste'mol hajmining uchdan bir qismi asosiy ta'minotchi importiga to'g'ri keladi. Rejaning eng muhim qismi Rossiyadan boshqa ishlab chiqaruvchilar, jumladan, AQSHdan suyultirilgan tabiiy gaz sotib olishni ko'paytirishdir.

Kundan kunga murakkablashib borayotgan vaziyat Yevropada energetika inqirozi va uning ketidan iqtisodiy bo'hronlarni keltirib chiqarishi tayin. Bularning barchasiga Ukrainada tezroq tinchlik qaror topishi nuqta qo'yishi mumkin.

Jahon neft bozoridagi holat. Avvalo, jahon bozorida neft narxining keskin pasayishi, dollarning yuqorilashi qanday oqibatlariga olib keladi – degan savol tug'iladi, albatta. SHuningdek, siyosiy inqiroz fonida endi jahon neft bozorining yaqin 2-3 yildagi istiqboli haqida nima deyish mumkin?

AQShning Goldman Sachs investitsiya banki tahlilchilarining fikricha, Brent markali neft narxi bir barrel uchun kamida 150 dollargacha ko'tarilishi mumkin. Bundan tashqari, 2023 yilning 1-yarmida ham Brent neftining bir barreli narxi 130-150 dollar atrofida bo'lishini taxmin qilishmoqda.

Jahon neft bozoridagi eng yirik neft xomayoshsi eksportyori davlatlardan biri hisoblangan Rossiya Federatsiyasi Energetika vaziri A.Novakning aytishicha, endilikda mamlakatda neft qazib olish hajmi mamlakat kompaniyalari rejalariga

bog'liq bo'ladi, chunki g'arb mamlakatlari tomonidan ko'plab neft va gaz kompaniyalarga iqtisodiy sanksiyalar qo'llanilgan.

2022 yil fevral-mart oylarida yuzaga kelgan keskin vaziyat jahon bozorida neft narxining sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Xususan, Brent markali neft narxi 2022 yil boshidan 11,3 foizgacha oshdi va 1 barreli uchun 108 dollarga etdi. SHuni ta'kidlab o'tish joizki, 2022 yil mart oyida neft narxi 1 barreli uchun 129 dollargacha ko'tarildi

O'z o'rnida ta'kidlash joizki, jahon bozorida neft mahsulotlarining oshishi O'zbekistonda ham benzin narxining biroz qimmatlashishiga olib kelishi mumkin, albatta.

Ko'mir. Jahon hamjamiyatining Rossiya ko'miridan voz kechishi jahon bozorini qanday o'zgartiradi?

Jahon ko'mir bozori Yevropa Ittifoqining Rossiya ko'miriga embargo joriy etish to'g'risidagi qaroridan keyin eksport oqimlarida yana bir katta o'zgarishlarni kutmoqda. Chunki ekspertlarning tahlillariga ko'ra, 2022 yilning oxiriga qadar ko'mir narxi ikki barobardan ko'proq oshadi. Rossiya, chegirma bilan bo'lsa ham, Hindistonga etkazib berishni oshiradi va yevropaliklar Rossiyadan ko'mirni Kolumbiya va Amerika importi bilan almashtiradi.

Yevropa Ittifoqining Rossiya ko'mirini sotib olishni ta'qiqlashi va buning natijasida eksport bozorlarining almashuvi dunyoda ko'mir narxining yana bir o'sishiga olib kelishi mumkin. Rossiya eksportini Yevropa Ittifoqidan boshqa bozorlarga yo'naltirish so'nggi ikki yildagi ikkinchi yirik muvozanat akti bo'lmoqda, ya'ni:

Birinchisi 2020 yilda Xitoy ikkinchi yirik ko'mir eksportchisi bo'lgan Avstraliyadan ko'mir eksportini to'xtatganda sodir bo'lgan. Oqibatda, Avstraliyaning Xitoy importidagi ulushi 43 foizdan 10 foizgacha qisqardi.

Indoneziyaning ulushi esa 20 foizdan 50 foizgacha ko'tarildi. Avstraliya o'z ko'mirini boshqa Osiyo mamlakatlariga sota boshladi. Biroq bozorlarning almashuvi ko'mir bozorida taqchillikka va narxlarning oshishiga olib keldi.

Rossiyaning Yevropa Ittifoqi ko'mir importidagi ulushi 65 foizni tashkil qiladi. Dunyoda hozirgi ko'mir tanqisligi bilan Yevropa uchun bozorni almashtirish juda qiyin bo'ladi.

Hisob-kitoblariga ko'ra, Indoneziya, Avstraliya, Janubiy Afrika, Kolumbiya va Qo'shma Shtatlar vakili bo'lgan asosiy eksport qiluvchi mamlakatlardan faqat oxirgi ikkitasi mamlakatlarni qo'shimcha ko'mir bilan

ta'minlay oladi. Kolumbiya 14 mln.tonna qo'shimcha ko'mir ishlab chiqarishi mumkin. AQSh esa etkazib berishni 9 mln.tonnagacha oshirishi mumkin. Qolgan davlatlar eksportni oshirsa ham bu u qadar katta hajmda bo'lmasligi mumkin.

Tahlilchilar vaziyatning rivojlanishi uchun uchta stsenariyni ishlab chiqdi, jumladan:

- asosiy;
- optimistik;
- pessimistik.

Asosiy va optimistik stsenariyga ko'ra, Yevropa Ittifoqi 2022 yilda ham Rossiya ko'miridan to'liq voz kecholmaydi. Agar bu sodir bo'lsa, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi va Hindistonda ko'mir tanqisligi yuzaga keladi. Oqibatda narxlar yanada keskin oshib ketadi.

Agarda 2022 yilning birinchi choragida Avstraliya ko'mirining narxi bir tonna uchun 197 dollarni tashkil etgan bo'lsa, to'rtinchi chorakda ular optimistik stsenariyda bir tonna uchun 475 dollargacha va asosiy stsenariyda 450 dollargacha ko'tarilishi kutilmoqda.

Pessimistik stsenariy global iqtisodiyotning sekinlashishi va ko'mirga bo'lgan talabning qisqarishini nazarda tutadi. Ko'mir narxlari 2022 yilning to'rtinchi choragida, isitish mavsumi boshlanganida yanada oshishi muqarrar.

Rossiyaning ko'miri Yevropa Ittifoqidan boshqa bozorlarga yo'naltirish qobiliyatiga kelsak, bu uchta stsenariyda ham sharqdagi temir yo'l infratuzilmasi imkoniyatlari cheklanganligi sababli qisman muvaffaqiyatli bo'ladi.

2021 yil uchun ma'lumotlarga ko'ra, 172 mln.tonnadan 63 mln.tonna yoki Rossiyadan ko'mirning 37 foizi qayta yo'naltirilishi kerak. Gap shundaki, Yevropaga 46 mln.tonna va Yaponiyaga 17 mln.tonna eksport haqida bormoqda. Bu hududlar hozirgacha Rossiya ko'miridan butkul voz kechish niyatini e'lon qilgan.

Ko'mir eksportining Osiyoga yo'naltirilishi Rossiya ko'mirining xalqaro ko'rsatkichlarga nisbatan chegirmalarining oshishiga olib keladi.

Xitoy Rossiya uchun muhim bozor bo'lib qolsa-da, mamlakat o'z ko'mir qazib olishni ko'paytirishda agressiv harakat qildi.

Ekspertlarning fikriga ko'ra, Rossiya ko'mirining eng istiqbolli yo'nalishi - bu termal ko'mirning sof importchisi va iste'mol hajmi bo'yicha Xitoydan keyin dunyoda ikkinchi o'rinda turadigan Hindiston.

Shu bilan birga, Rossiyaning Hindiston importidagi ulushi atigi 5 foizni tashkil qiladi. Rossiya va Hindiston hukumatlari allaqachon kokslanuvchi ko'mir eksportini ko'paytirish bo'yicha kelishuv imzolagan.

Rossiya ko'miri jahon standartlariga nisbatan sezilarli chegirma bilan sotilgan bo'lsa-da, realizatsiya qilingan narxlar darajasi 2021 yilning ikkinchi choragidagidan 30-40 foizga yuqori.

Bundan tashqari, jahon bozorlarida narxlarning ko'tarilishi bilan Rossiya ko'miriga bo'lgan talab Yevropaga muqobil ko'mir etkazib beruvchilar bilan bog'liq boshqa infratuzilma muammolari fonida o'sadi.

Oltin. Jahon bozorida 2021 yilda oltin narxi 1710 -1870 dollar oralig'ida shakllangan bo'lsa, 2022 yilga kelib bu ko'rsatkich keskin tebranishlar qayd etib, yil boshiga nisbatan 1,7 foizga qimmatlashdi. Xususan, 1-chorak davomida oltin narxi o'zining tarixiy maksimum darajasiga (2053 doll./tr.un.) ko'tarildi.

2021 yilda oltin narxining tebranishiga pandemiya sharoiti bilan bog'liq xatar va noaniqliklar asosiy sabab bo'lgan edi. Biroq 2022 yil boshida mintaqadagi geosiyosiy notinch vaziyat natijasida global iqtisodiyotdagi noaniqliklar investorlarning oltinga bo'lgan alternativ tanlov sifatidagi qiziqishini kuchaytirdi.

Jahon bozorida oltin narxining keyingi dinamikasi dunyodagi geosiyosiy vaziyatga bog'liq bo'ladi. BMO Capital Markets tahlilchilari ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda oltin narxi o'rtacha 1 untsiyasi uchun 1 895 dollarni tashkil etishi prognoz qilinmoqda (avvalgi prognozdan 8 foizga yuqori). 2023 yil uchun prognoz 1 750 doll./tr.un.gacha yuqorilagan.

Shuningdek, Goldman Sachs tahlilchilari keyingi 12 oyda oltin narxi 2 500 doll./tr.un.gacha yuqorilashi mumkinligi prognoz qilishgan.

Bunday o'sishga hozirda dunyoning deyarli barcha davlatlarida inflyatsiya darajasining ko'tarilishi va tashqi iqtisodiy sharoitlardagi noaniqliklar asosiy sabablar qilib ko'rsatilgan.

O'z o'rnida ta'kidlash joizki, jahon bozorida oltin narxining oshishi O'zbekiston uchun qo'shimcha daromad olib kelish imkoniyatini yaratishi mumkin.

Jahon oziq-ovqat bozori. Siyosiy inqirozlar natijasida jahon bozorida oziq-ovqat inqirozi yuzaga kelmoqda. Biroq bug'doy etishtirish bo'yicha Rossiya 2022 yilda rekord darajada hosil oldi. Masalan 2021 yilda 121,3 mln.tonna hosil olgan bo'lsa, 2022 yilda esa qariyb 123,1 mln.tonna bug'doy yig'ib olindi. Bundan tashqari 41,5 mln.tonna shakar lavlagi, 22,6 mln.tonna yog' mahsulotlari, 6,8

mln.tonna kartoshka, chorvachilik va parrandachilikda tirik og'irligi 16,4 mln.tonna, baliq mahsulotlari esa 5,1 mln.tonnani tashkil qilgan. Biroq bu mahsulotlarni eksport qilishda muammolar tug'ilishi mumkin, albatta.

Yuzaga kelgan vaziyat yuzasidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) dunyoda oziq-ovqat taqchilligining keskin kuchayishi haqida ogohlantirdi. BMT, Yevropa Ittifoqi, hukumat va nodavlat tashkilotlarning oziq-ovqat inqirozi bo'yicha xalqaro alyansi bo'lgan Global oziq-ovqat inqiroziga qarshi kurash tarmog'i (GNAFC) hisobotiga ko'ra, oziq-ovqat xavfsizligiga duch kelgan odamlar soni bir yilda qariyb 40 million kishiga ko'paygan.

Jahon bozorida oziq-ovqat mahsulotlarini keskin ko'tarilib borishiga nafaqat mintaviy mojarolar, balki iqlim inqirozi, COVID-19ning "to'rtinchi to'ldini", yoqilg'i narxlarining ko'tarilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Aynan ushbu sabablarga ko'ra jahonda ochlik misli ko'rilmagan darajaga ko'tarilmoqda, global vaziyat esa yomonlashishda davom etmoqda. Jahon bozorida oziq-ovqat mahsulotlarining narxлари 2022 yilda rekord darajada ko'tarildi, jumladan, o'simlik moylari va sut mahsulotlari bo'yicha narxlar rekord darajaga etdi.

Dunyo bo'ylab go'sht narxлари yanvarga qarganda 1,1 foizga o'sdi. Mol go'shti kotirovkalari kuchli global import talabi, Braziliyada so'yishga tayyor qoramollarning cheklangan ta'minoti va Avstraliyada qo'yilgan cheklovlar sababli yangi rekord darajaga etdi.

Shakar narxлари Hindiston va Tailand kabi yirik eksport qiluvchi mamlakatlarda ishlab chiqarish oshayotganligi tufayli 1,9 foizga kamaydi. Fevral oyidagi narxlarning o'sishi qisman Ukrainadagi urush bilan ham bog'liq bo'ldi. Biroq ta'kidlash joizki, jahon mamlakatlarida bug'doy va makkajo'xori ishlab chiqarish hajmi 2022 yilda oldingi yilga nisbatan 1,2 foizga o'sgan.

2021 - 2022 yillarda global dondan foydalanish hozirda 2,8 mln tonnani tashkil etadi. Bu yillik 1,5 foizga o'sishdir. 2022 yilda tugaydigan global don zaxiralari yil davomida bir oz o'sib, 836 mln tonnagacha etdi.

Hindiston jahon narxlarının keskin sakrashini inobatga olib va oziq-ovqat xavfsizligini saqlab qolish maqsadida bug'doy eksportiga 2022 yilning 15 maydan boshlab ta'qiq joriy qildi. Buning asosiy sababi sifatida Hindistonda jarima issiq tufayli bug'doy etishtirish hajmi kamayib ketdi. Albatta Hindistonning bug'doy eksportini to'xtatishi natijasida dunyoda don narxi yanada oshadi va bu ko'proq Osiyo va Afrikadagi davlatlarga ta'sir qiladi. Hindiston xukumatining ushbu qarori

ko'plab omillar ta'sirida bug'doyning xalqaro maydondagi narxlari keskin oshib ketishini hisobga olib, ichki narxlar o'sishini nazorat qilish chora-tadbirlari doirasida qabul qilinishini ma'lum qildi.

Nega Qozog'iston bug'doy va un eksportini cheklayapti? Qozog'iston hukumati ichki bozorda taqchillik yuzaga kelishining oldini olish uchun bug'doy va unning eksportiga vaqtinchalik kvota kiritdi. Qozog'iston bug'doy etishtirish bo'yicha etakchi mamlakatlardan biri hisoblansa-da, mamlakatga ma'lum miqdorda Rossiyadan don mahsulotlari import qilinardi. 2021 yilda Qozog'istonda g'alla hosili me'yordan taxminan chorak baravarga kam bo'lgan. Bu esa bug'doy eksportini boj yoki kvotalar orqali cheklash masalasini kun tartibiga chiqargan.

Ammo Rossiyadan Qozog'istonga katta miqdorda bug'doy eksport qilinishi (EOII doirasida tovar etkazib berishda eksport bojlari olinmasligi hisobiga ham Rossiyadan import qilish narxlarni qimmatlashtirmaydi) mamlakat ichki bozorini sezilarli darajada qo'llab-quvvatlagan. Raqobat vujudga kelishi narxlarning barqarorligini ta'minlagan va Qozog'istonda etishtirilgan don mahsulotlarining bir qismi Markaziy Osiyo davlatlariga (xususan, O'zbekistonga) eksport qilingan.

Bug'doy uni narxi oshishi borasida quyidagi bir qator omillarni sanash mumkin:

Un narxi bilan bog'liq muammo rivojlanayotgan davlatlar, umuman rivojlangan dunyoda koronavirus pandemiyasi boshlangandan beri kattaroq muammolardan biriga aylanib ulgurgan edi. Rossiya–Ukraina urushi boshlanganidan keyin esa bu muammo yanada jiddiylashdi. Umuman olganda, butun dunyoga bug'doy eksportining 25-30 foizi Ukraina va Rossiya hissasiga to'g'ri keladi. Ikki davlat o'rtasidagi mojaro tufayli Ukrainada hosilni yig'ib olish, umuman uni etishtirish, shuningdek, eksport muammolari Ukrainadan keladigan bug'doyga qattiq bog'langan davlatlar va boshqa mamlakatlarga ham jiddiy ta'sir qilmoqda. Ukraina bug'doy eksporti bo'yicha jahonda 5-o'rinni egallaydi.

O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'izistonni un bilan ta'minlashda Qozog'iston va Rossiyaning ahamiyati yuqori. Qozog'iston nafaqat O'zbekistonga, balki barcha Markaziy Osiyo davlatlariga eksport qiladi. O'zbekistonga eksport tovarlarining 2021 yilda 1/4 qismini bug'doy tashkil qilgan. Tojikistonda undan ham yuqori – 33 foiz. Qozog'istonning Tojikistonga butun eksportining 1/3 qismini bug'doy tashkil etgan. Bu katta raqam, Tojikistonning o'zida

Qozog'istondan keladigan bug'doy umumiy iste'molining teng yarmini tashkil qiladi.

Rossiyada 2022 yilda rekord darajadagi bug'doy hosili kutilayotganiga qaramay, rossiyalik regulyatorlar don eksportini qattiq nazorat qilishni davom ettirishga harakat qilmoqda, endilikda EOII mamlakatlari darajasida ham. Agar ittifoq davlatlari eksportga cheklov qo'ymasa, boshqa a'zolar Rossiya g'allasining reeksporti bilan shug'ullanishi va bundan yaxshigina foyda olishi mumkin.

Taklif etilayotgan eksport siyosatiga asosan Qozog'iston qarshi bo'lib, u o'z zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlar doirasida xorijga don etkazib berishni rivojlantirishdan maksimal darajada manfaatdor. Hozirgi cheklovlar, jumladan, qozoq donining reeksportchilari tomonidan Sibirda bug'doyni keng miqyosda xarid qilishning kuchayishi bilan bog'liq.

“Bloomberg”ga ko'ra, Rossiya va Ukraina jahonda g'alla ekinlarining asosiy eksportchilari bo'lib, bu davlatlar o'rtasidagi ziddiyat xalqaro maydonda bug'doy ta'minoti barqarorligiga tahdid solmoqda.

Global eksportning 30 foizi shu ikki davlat hissasiga to'g'ri keladi. Azov va Qora dengizdagi Rossiya bosib olgan ukrain portlari ukrain va rus bug'doyini xalqaro bozorga eltadigan asosiy eksport marshrutidir.

Rossiya va Ukraina birgalikda yiliga 112 million tonnaga yaqin bug'doy ishlab chiqaradi. Bu AQSh va Kanada bozorlarining umumiy hajmidan uch barobar ko'p. Jahon bug'doy savdosining chorak qismidan ko'prog'i, makkajo'xori savdosining 20 foizi va kungaboqar yog'i savdosining 80 foizi mazkur ikki davlat hissasiga to'g'ri keladi.

11.2. Siyosiy inqirozning jahon savdosiga ta'siri

Siyosiy inqirozning jahon savdosiga qanday ta'sir qiladi? Uning ta'sirini 5 hil stsenariy asosida istiqbolli tahlillar bilan ko'rib chiqish mumkin. Jahon savdo tashkiloti ekspertlarining tahlillariga ko'ra, urush va yangi sanksiyalar fonida jahon savdosi qanday rivojlanishi mumkinligi haqida beshta istiqbolni ilgari surdi. Bular ichida sulh tuzilgan taqdirda ham Rossiya bilan munosabatlarni tiklashdan tortib, dunyoning raqobatdosh bloklarga bo'linishigacha bo'lgan taxminlar bor.

Ekspertchilarning tahlillariga ko'ra, mamlakatlar o'rtasidagi savdo aloqalarini rivojlantirishning beshta mumkin bo'lgan stsenariylarini aniqladi, xususan:

Birinchisi – “Rossiyani boykot qilish”. Bu variant bilan sanksiyalar faqat Rossiya va Belarusga nisbatan qo'llaniladi, Ukrainadagi urush cho'zilsa, cheklovlar kengayadi va global kompaniyalar mamlakatni tark etishda davom etadi.

Ikkinchisi – “reabilitatsiya” stsenariysi. Agar Ukrainada sulhga erishilsa, u holda Rossiyaning boshqa davlatlar bilan savdo aloqalari asta-sekin tiklanishi mumkin. Bu global savdo tizimining yanada parchalanish xavfini kamaytiradi.

Uchinchisi - “reaktiv parchalanish”. Bunda Rossiyani moliyaviy qo'llab-quvvatlovchi Jahon savdo tashkiloti mamlakatlariga ikkilamchi sanksiyalar qo'llaniladi.

To'rtinchisi - hamkor davlatlar o'rtasidagi aloqalarni chuqurlashtirish, masalan, raqamli iqtisodiyot yoki ekologiya sohasida yangi umumiy qoidalar ishlab chiqilishi mumkin.

Beshinchisi esa, “kambag'al” ittifoqdosh bo'lmaganlar. Bunday holda JSTdagi hamfikir davlatlar “Liberal jahon iqtisodiyoti tartibi” qadriyatlariga ega bo'lgan davlatlar bilan savdo hamkorligini davom ettiradi. Buning oqibatida boshqa davlatlar savdo imtiyozlaridan mahrum bo'ladi.

Ukrainada harbiy operatsiya boshlanganidan keyin dunyoning ko'plab davlatlari Moskvaga qarshi iqtisodiy sanksiyalar kiritdi. Cheklovlar Rossiya bilan savdoga ham ta'sir qildi. Bu jarayon esa bevosita jahon savdosiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

Katta Etilik davlatlari Rossiya bilan eng qulay davlat rejimini to'xtatish niyatini e'lon qildi. Jahon savdosi uchun asosiy bo'lgan ushbu rejim, ma'lum bir davlat bilan savdo qilganda, ushbu rejim amal qilayotgan barcha mamlakatlar bir xil imtiyozlardan foydalanadi va bir hil majburiyatlar qo'llaniladi.

Jahon savdo tashkiloti Ukrainadagi urush oqibatlari tufayli 2022 yilda jahon yalpi ichki mahsuloti o'sishi bo'yicha prognozini qayta ko'rib chiqdi. Ma'lumotlarga ko'ra, o'sish 2023 yilda 3,2 foizga bo'lishi kutilmoqda. Bu 2010-2019 yillardagi 3 foiz o'sishga yaqin ko'rsatkichdir.

JST, shuningdek, 2022 yil uchun global savdo o'sishi prognozini 4,7 foizdan 3 foizgacha tushirgan. Ukrainadagi urushdan tashqari, Xitoyda COVID-19 tarqalishining oldini olish uchun joriy qilingan karantin tovar birjasiga ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayon yana ishlab chiqarish resurslarining tanqisligiga va inflyatsiyaning oshishiga olib kelishi mumkin.

JST bosh direktori Ngozi Okonjo-Iweala Ukrainadagi vaziyat, ayniqsa, qashshoq mamlakatlarga ta'sir qilishini aytgan. Bu kam daromadli mamlakatlarda oziq-ovqatga sarflanadigan xarajatlar bilan bog'liq, chunki hozirda Rossiya va Ukraina oziq-ovqat ta'minotida asosiy o'rinlarni egallaydi. Buning oldini olish uchun esa savdoni kengaytirish zarur.

Gaz narxining oshishiga kelsak, bu jarayon AQShdan ko'ra ko'proq Yevropaga ta'sir qiladi. Bundan tashqari, MDHga a'zo davlatlarda ishlab chiqarish hajmi 7,9 foizga, import esa 12 foizga qisqarishini bashorat qilgan.

Inflyatsiya ortib borayotgani va Ukrainadagi urush sabab tanqislik vahimasiga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qiluvchi ba'zi davlatlar buni to'xtatmoqda. 2022 yilning o'rtalaiga kelib jahondagi aksariyat mamlakatlar bir qator oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportiga ta'qiq belgilashdi.

Xalqaro oziq-ovqat siyosati tadqiqot instituti (IFPRI) ma'lumotlariga ko'ra, siyosiy inqiroz boshlanganidan beri 50 dan ziyod mamlakatlar eksportga cheklovlar kiritdi. Eksport ta'qiqlari foyda beradimi?

Dastlab eksportga mo'ljallangan oziq-ovqat mahalliy narxlarni pasaytirib, ichki bozorlarga yo'naltirilishi mumkin. 2007-2008 yillarda moliyaviy inqirozdan so'ng oziq-ovqat narxlari ko'tarilgach, bugungi inqirozga eng yaqin parallel ravishda, bir qancha davlatlar tezda ko'plab ekinlarga eksport cheklovlarini kiritdi. SHunga qaramay, eksport ta'qiqlarini ta'sirini hukumatlarning oziq-ovqat zaxiralarini chiqarishi yoki hatto hosilga ta'sir qiladigan ob-havo kabi boshqa omillardan ajratish qiyin bo'lishi mumkin.

Eksportni ta'qiqlash bir nechta zararli ta'sirlarga ega. Misol uchun, fermerlar ta'qiq bekor qilinmaguncha o'z mahsulotlarini saqlashi mumkin. CHunki istalgan turdagi mahsulotni mahalliy aholiga sotishdan ko'ra eksport qilish ancha foydaliroq. 2000 yillarda janubiy va sharqiy Afrikadagi beshta davlat makkajo'xori eksportini vaqti-vaqti bilan ta'qiqlaganida, bu hodisa sodir bo'ladi.

Natijada narxlar yanada o'zgaruvchan bo'ladi. Uzoq muddatda eksportni ta'qiqlash fermerlarni eksport qilish cheklanmagan ekinlarga o'tkazishga undashi mumkin. Bu esa ichki ishlab chiqarishni kamaytiradi.

Bundan tashqari, agar ichki narxlar tushib ketsa ham bu yaxshi belgi bo'lmasligi mumkin, chunki jahondagi ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag'allarning ko'p qismi qishloq xo'jaligidan tirikchilik qiladi. Eksport ta'qiqlari odatda qashshoq mamlakatlardagi qishloq aholisiga qaraganda siyosiy nufuzga ega bo'lgan shahar aholisiga ko'proq yordam beradi.

Demak, eksport ta'qiqlari hammaga har xil ta'sir qiladi. Biroq bu ko'proq yomon tomonga deyish mumkin. Garchi kichik eksport qiluvchi mamlakatlar global narxlariga katta ta'sir ko'rsatmasa ham yirik davlatlardagi eksport ta'qiqi og'riqliroq bo'ladi. Masalan, Hindiston ta'qiqni e'lon qilgan kundan keyin bug'doyning global bahosi 6 foizga oshdi. Buning ortidan boshqa davlatlar ham bug'doy eksportiga ta'qiq qo'yishi mumkin.

Yoki boshqa bir misolni keltirish mumkin: 2008 yilda Vetnam guruch eksportini ta'qiqladi va bu tezda Hindiston, Xitoy va Kambojani ham shunday qilishga undadi. Jahon banki tadqiqotchilarining hisob-kitoblariga ko'ra, o'sha davrda eksport cheklovlarining umumiy ta'siri guruchning xalqaro narxini 52 foizga oshirgan edi.

Dunyo aholisining qariyb 80 foizi oziq-ovqat mahsulotlarini import qiluvchi mamlakatlarda yashaydi. Iqtisodchilar eksportni ta'qiqlashdan ko'ra yaxshiroq echim savdoni ochiq ushlab turganda ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlarini kuchaytirish bo'lishini taklif qilmoqda.

11.3. Siyosiy inqirozning jahon moliya bozori va O'zbekiston moliya bozoriga ta'siri tahlili

Ukraina atrofidagi ziddiyatlar kuchayganidan keyin Yevropa va Osiyoda qimmatli qog'ozlar narxi moliya bozorlarida tushib ketdi. Bozor qiymatining yo'qolishi, taxminan, 1 trln dollarni tashkil qilishi mumkin.

Jahon moliya bozoridagi inqirozni birinchilardan bo'lib eng og'ir zarbani Rossiya qabul qilib oldi. Rossiya fond bozori "qora dushanba"ni boshdan kechirdi. Rubl yo'qotishlari 3,3 foizga etdi. Moskva fond bozorlari esa dollar bilan ifodalangan RTS indeksi 13,2 foizga tushib ketdi. Rubлга asoslangan MOEX Rossiya indeksi bir yil ichida eng past darajaga — 10,5 foizga pastladi. SHu tariqa ushbu indeks oktyabr oyidagi cho'qqisidan 30 foizga tushib ketdi. G'arb davlatlari Rossiyaga qarshi keskin sanksiyalar qo'llaganligi sababli uning qimmatli qog'ozlari katta zarar ko'rmoqda. SHuningdek, tadbirkorlar va savdogarlarga bo'lgan sanksiyalar xavfi tobora ortayotganligi sababli Rossiya bozorlari chekinmoqda.

Rubl kursi bir necha yillardan beri eng past darajaga tushib ketib, hozirda dunyodagi eng o'zgaruvchan valyuta bo'lib turibdi. Voqealar ortidan 2022 yilning

fevral-mart oylarida sarmoyadorlar xavfsizroq investitsiyalarga intilishlari sababli oltinning narxi yanada ko'tarildi.

Shuningdek, Rossiyaning bir qator yirik banklariga ham sanksiyalar joriy qilindi va buning natijasida quyma oltin narxlari jami 2,2 foizga oshdi. Bundan tashqari, ba'zi rossiyalik kreditorlar trillion dollarlab tranzaktsiyalarni amalga oshiruvchi SWIFT xalqaro moliya tizimidan chiqarib yuborildi.

Rossiya markaziy banki asosiy foiz stavkalarini deyarli yigirma yil ichida eng yuqori darajagacha ko'targan bir paytda mahalliy hukumat ham javob choralarini ko'rdi. SHuningdek, Rossiya bilan bog'liq xorijdagi aktsiyalar va qarz majburiyatlari narxlari tushib ketgani bois aktsiya va obligatsiyalar savdosini butunlay bekor qildi.

Moliyaviy bo'shliq jahon iqtisodiyoti o'sishiga zarba berishi yoki AQSh Federal zaxira tizimining dollarlarni etkazib berishida undan ma'lum harakatlarni talab etishi mumkinligi bo'yicha xavf-xatarlar ortib bormoqda.

O'zbekistonning moliya 2022 yilning mart-aprel oylarida so'mning dollarga nisbatan muvozanati biroz o'zgardi, xususan: rubl 50 foizdan, tengge esa 20 foizdan ortiqroqqa qadrsizlanishi fonida, o'zbek so'mining dollarga nisbatan 3-5 foiz atrofida o'z qiymatini yo'qotdi.

So'mning dollarga nisbatan muvozanati o'zgarishining asosiy sabablar nimada degan savol tug'iladi, albatta? So'mning dollarga nisbatan biroz o'zgarishi yuz berayotgani atrofimizdagi, ya'ni qo'shni savdo hamkorlarimizga bog'liqdir. Masalan, Qozog'istonda nima bo'lyapti? Ma'lumki, Qozog'iston bizning tashqi savdodagi Rossiya va Xitoydan so'ng uchinchi savdo hamkorimiz hisoblanadi, ularning milliy valyutasi qozoq tengesi 22-23 foizgacha dollarga nisbatan qadrsizlandi. Bu tendentsiya eng yuqoriga chiqqan paytda qozoq tengesi 25 foizga qadrsizlandi. Hozir esa asta-sekin mustahkamlanyapti. Agarda 2022 yilning 23 fevral holatiga taqqoslaydigan bo'lsak, 20-22 foiz qadrsizlandi.

YAna bir savdo hamkorimiz Qirg'izistonda qirg'iz valyutasi o'zining qiymatini yo'qotyapti – 18-20 foiz. Savdo hamkorlarimiz bilan pastga, janubga qarab tushamiz: Tojikistonning milliy valyutasi somoniy to'liq nazorat qilinadi, ya'ni bozor asosida shakllanmaydi; fiksirlangan holda boshqariladi valyuta kursi. Hattoki shu fiksirlangan somoniyning dollarga nisbatan kursi 3-4 kun oldin 15 foizga devalvaltsiya qilindi.

Eng asosiy hamkorlarimizdan biri Rossiya haqida gapiradigan bo'lsak, agarda biz eng yuqori darajada rublning qadrsizlanish kunlariga qaytadigan

bo'lsak, 55-60 foizgacha qadrsizlandi. Bugungi kundagi rubl kursining muvozanatlashgan davrida kurs 30-32 foizga qadrsizlanganini ko'rish mumkin. Bular – asosiy savdo hamkorlarimiz, qo'shnilarimiz. Ularning milliy valyutasida ro'y berayotgan voqealar bizga ta'sir etmasligi mumkin emas. Qaysidir biri oldinroq, qaysidiri ma'lum muddatdan keyin ta'sir qiladi.

Qirg'iziston, Qozog'iziston kabi biz Rossiya bilan bitta iqtisodiy hududda emasmiz, ya'ni ittifoqchi emasmiz. Ulardan farqli ravishda, o'zgarishlarning ta'sirini iqtisodiyotimizda, milliy valyutamiz kursida bir muddat o'tib ko'ramiz. Migrantlarimizning pul oqimlari, ya'ni asosiy pul o'tkazmalari Rossiyadan yuboriladigan pul o'tkazmalari bilan bog'liq bo'lgan asosiy ta'sirni ko'rishimiz mumkin. Tahlillarga ko'ra, agarda 2022 yilning fevral oyining dastlabki 15 kunligi va mart oyining dastlabki 15 kunligini oladigan bo'lsak, ba'zi hududlarda pul o'tkazmalarining hajmi 3 barobargacha pasaygan.

Umuman, O'zbekiston bo'yicha olib qarasak, ikki barobar pul o'tkazmalari kamaygan. Bu faqat mehnat migrantlarimizning Rossiyadagi daromadlari kamaygani bilan bog'liq emas, ular pul o'tkazmalarini keyinga qoldirib turgani bilan ham bog'liq. Xuddi shu kunlarda iqtisodiy ma'lumotga ega migrantlar pul o'tkazmalarini to'xtatib turishdi va to'g'ri qilishdi.

2022 yilning aprel oyidan boshlab Rossiya gazining ba'zi Yevropa mamlktriga rublda eksport qilishi evaziga rublning muvozanatlashayotganini yaqqol ko'rish mumkin.

So'mning dollarga nisbatan hozirgi sharoitda qadrsizlanishi qanchalik xavotirli? 2022 yilning birinchi aprel-may olariga kelib 23 fevraldagi kurs bilan solishtirganda so'm dollarga nisbatan 3-5 foiz qadrsizlanganini ko'rish mumkin. Biz global dunyoda yashayapmiz, ozmi-ko'pmi o'zimizning chegaralarimiz mavjud. Integratsiyalashuvimiz Qozog'iston va Rossiyachalik emas. Lekin ma'lum ma'noda chegaralarga egamiz. Kecha va undan oldin valyuta birjasida va birjadan tashqari savdolarida dollarning so'mga nisbatan kursining oshib borayotganini tabiiy qabul qilish kerak bo'ladi.

O'zbekistonda pul-kredit siyosatini oqilona tashkil qiinishi natijasida, 2022 yilda milliy valyuta almashuv kursi bo'yicha prognozlar odindan amalga oshirilmadi va qaytanga, so'mning AQSh dollariga nisbatan kursi ichki valyuta bozorida ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllangan talab va taklif muvozanatiga bog'liq bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank almashuv kursining keskin tebranishlarini oldini olish va bozorning barqaror faoliyatini ta'minlash maqsadida 2022 yil mart oyining birinchi yarmida "neytrallik tamoyillari" doirasida ichki valyuta bozorida interventsiyalar hajmini oshirdi. Mazkur interventsiyalar 2021 yilda valyuta bozorida ijobiy sharoitlar natijasida yuzaga kelgan qo'shimcha zaxiralar hisobidan amalga oshirildi. SHuningdek asosiy stavkaning oshirilishi ham ma'lum ma'noda milliy valyuta kursini barqarorlashtirishga xizmat qildi.

Eng muhimi, 2022 yilda jahondagi aksariyat malkatlarda naqd pul taqchilligi eng asosiy muammolaridan biri bo'lgan bo'lsa, mamlakatimizda naqd dollar yoki yevro taqchilligi holatlari kuzatilmadi. Tijorat banklari ichki bozorda naqd xorijiy valyuta etarliligini ta'minlab kelmoqdalar. Mavjud naqd valyuta zaxiralari o'rtacha 3-4 oylik naqd ayirboshlash operatsiyalariga bo'lgan talabni to'liq qondira oladi.

2020 yilda pandemiyaning boshlang'ich davrida aviaqatnovlar bo'yicha aksariyat davlatlar tomonidan kiritilgan cheklovlar sababli tijorat banklari tomonidan naqd xorijiy valyutaning mustaqil olib kelinishi qiyinlashgan edi. Bunday vaziyatda Markaziy bank tomonidan naqd xorijiy valyutani olib kelish jarayoni markazlashgan holda tashkil etilib, tijorat banklariga taqdim etilgan.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonunining 22-moddasiga muvofiq, jismoniy shaxlar uchun naqd xorijiy valyutani O'zbekiston Respublikasidan olib chiqib ketish 100 mln. so'm ekvivalentidan oshmagan summada amalga oshirilishi mumkinligi, yuridik shaxslar uchun naqd xorijiy valyutani mamlakat hududidan olib chiqib ketish ta'qiqlangan. Ushbu talab norezidentlar uchun ham amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank raisi M.Nurmurodovning so'zlariga ko'ra, "Biz uchun asosiy masala valyuta kursi emas, inflyatsiya. Markaziy bank valyuta kursini emas, inflyatsiyani jilovlashni asosiy maqsadi deb biladi. Yil boshidan beri so'm dollarga nisbatan 6,8 foizga qadrsizlandi, chunki taklif kamayishi va talab ortishi bir vaqtda ro'y berdi. O'zbekistonda naqd dollar va yevro taqchilligi kuzatilayotgani yo'q"⁴⁸.

Inflyatsiya darajasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining maqsadli ko'rsatkichlari traektoriyasidan yuqoriroq shakllandi. Inflyatsiyaning

⁴⁸ <https://kun.uz/news/2022/03/17/biz-uchun-asosiy-masala-valuta-kursi-emas-inflatsiya-mamarizo-nurmurodov>

yuqori o'sishiga tashqi iqtisodiy xatarlarning kuchayishi va yuqori noaniqliklar sharoitida mart oyida kuzatilgan so'm kursining qadrsizlanishi ta'sir ko'rsatdi.

11.4. Siyosiy inqirozning O'zbekiston ichki bozoriga ta'siri

2022 yilda yuzaga kelgan geosiyosiy vaziyat O'zbekiston iqtisodiyotiga ham o'z ta'siri ko'rsatganligini va xususan valyuta kursi, savdo va moliyaviy kanallarni asosiy ta'sir kanallari sifatida ajratib ko'rsatish mumkin:

- so'mni dollarga nisbatan kursining o'zgarishi;
- savdo va moliyaviy jarayonlarni pasayishi;
- O'zbekistonning jahon bozoridan import qiladigan ba'zi mahsulotlar narhining ko'tarilishi;
- tashqi vaziyatning keskinlashuvi nafaqat bizning mintaqaga, balki dunyo bozorida ta'minot zanjirlarining uzilishi va logistik tizimlarning vaqtincha to'xtashiga olib keldi;
- an'anaviy yuk tashish yo'nalishlari murakkablashdi.

Ushbu omillarni yuzaga chiqishida asosiy savdo hamkorlarimiz milliy valyutalarining qadrsizlanishi so'mga qisqa muddatli devalvatsion bosimni yuzaga keltirmoqda. Jumladan, pul o'tkazmalari hajmi AQSh dollari ekvivalentida kamaymoqda, aholi va tadbirkorlarda devalvatsion kutilmalar oshdi. Bunday bosim muqarrar, lekin o'rta muddatli istiqbolda, inqirozning eng yuqori ta'sirli bosqichi o'tganidan so'ng, savdo hamkorlarning valyuta kurslari o'zining muvozanatli qiymatlariga etadi va shunga mos ravishda so'mning almashuv kursiga bosim o'tkazishni to'xtatadi.

O'zbekiston import qiladigan neft, metallar, don mahsulotlari, o'simlik yog'i kabi qator xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlarining jahon bozorlarida narxining keskin oshishi kuzatildi. Bundan tashqari, an'anaviy yuk tashish yo'nalishlari murakkablashdi. Bu esa yana import qilinadigan tovarlar narxining oshishiga olib keldi.

2022 yilning boshlarida ro'y bergan Yevropadagi siyosiy inqiroz va jahon arenasida yuzaga kelgan siyosiy holatning taranglashuvi O'zbekistonning ichki bozoridagi va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini jahon bozoridagi narxlarga qanday ta'sir qilishi mumkin?

Ma'lumki, Rossiya va Ukraina hukumatlari tomonidan ba'zi turdagi oziq-ovqat mahsulotlari eksportiga ta'qiq kiritilishi, albatta, O'zbekiston ichki

bozorida narxlarning ham qimmatlashishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, 2022 yil 1 martdan boshlab Ukraina hukumatining tegishli qarori bilan go'sht, suli, javdar, grechka, shakar, sharbat va tuz eksportiga cheklov joriy qilindi. SHuningdek bug'doy, jo'xori, parranda go'shti, tovuq tuxumi va kungaboqar yog'i kabi mahsulotlar eksporti mamlakat iqtisodiyot vazirligining tegishli ruxsatnomasi bilangina amalga oshirilishi belgilanib qo'yildi.

Rossiya hukumati ham 2022 yilning 14 martidan boshlab Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlariga bir qancha turdagi donli ekinlar, oq shakar va shakarqamish eksport qilish bo'yicha ta'qiq kiritdi, xususan: bug'doy, arpa, makkajo'xori, javdar, shakar kartoshka kabi mahsulotlarini eksport qilish cheklandi. SHuningdek, eksport qilinadigan kungaboqar yog'i uchun boj to'lovi 2022 yilning 1 apreldan 313 dollargacha oshirildi.

2021 yilda O'zbekiston Rossiya bilan 7,51 mlrd dollarlik (import hajmi 5,45 mlrd dollar), Ukraina bilan esa 704 mln dollarlik (import hajmi 472,4 mln.dollar) tashqi savdo aylanmasi qayd etgan. Ushbu mamlakatlardagi eksport ta'qiqlari O'zbekiston ichki bozoriga qanday ta'sir qilishi mumkin?

Avvalo, Rossiya va Ukrainadan O'zbekistonga qanday oziq-ovqat mahsulotlari import qilinadi?

2021 yilda O'zbekistonga xorijiy mamlakatlardan jami 2,92 mlrd dollarlik oziq-ovqat tovarlari import qilingan. Bu asosan Qozog'iston (34,1 foiz), Rossiya (27,3 foiz), Braziliya (11,2 foiz), Belarus (3,6 foiz) va Ukraina (2,2 foiz) kabi davlatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Ukrainadan asosan go'sht (ushbu mamlakatdan umumiy oziq-ovqat importining 18,4 foizi), shakardan tayyorlangan qandolat mahsulotlari (ulushi 13,4 foiz), o'simlik yog'i (ulushi 12,6 foiz), kakao va undan tayyorlangan mahsulotlar (ulushi 11,6 foiz) import qilingan.

Rossiya esa o'simlik yog'i (26 foiz), margarin (10,8 foiz), kakao va undan tayyorlangan mahsulotlar (10,5 foiz), spirtsiz ichimliklar (4,6 foiz), qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari (4,3 foiz), sut mahsulotlari (2,2 foiz) va go'sht (1,2 foiz) kabi tovarlar importida salmoqli ulushni egallagan.

Belarusdan esa go'sht (79 foiz), sut va sut mahsulotlari (12,1 foiz) va bshoqa mahsulotlarni import qilingan.

Demak, ushbu mamlakatlarda ko'plab oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportiga cheklov joriy qilinganligi sababli O'zbekistondagi go'sht,

shakar, o'simlik moyi va don mahsulotlari narxlariga ta'sirini ikki xil omil bilan baholash mumkin bo'ladi.

O'zbekistonga don mahsulotlari va un asosan Qozog'istondan import qilinadi. 2021 yilda Qozog'istondan O'zbekistonga don mahsulotlari etkazib berish hajmi 648,3 mln dollarni (umumiy don importining 97,9 foizi), un etkazib berish esa 92,9 mln dollarni (umumiy un importining 97,2 foizi) tashkil qilgan. Biz quyida mamlakatimizning qo'shni mamlakatlardan oziq-ovqat mahsulotlarini importi bo'yicha asosiy strateshgik mahsulotlar bo'yicha to'xtalib o'tsak maqsadga muvofiqdir.

Don mahsulotlari. Don mahsulotlari importida Rossiyaning ulushi juda kam bo'lsa-da, bu boshqa omil bilan xususiyatlanadi. Eldala.kz ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yilda Qozog'istonda g'alla hosili me'yordan taxminan 25 foizga, ya'ni odatiy yillardagi 20-22 mln tonna o'rniga 16 mln tonna kam bo'lgan. Bu esa bug'doy eksportini boj yoki kvotalar orqali cheklash haqida takliflar yangrashiga sabab ham bo'ladi. Ammo Rossiyadan Qozog'istonga katta miqdorda bug'doy eksport qilinishi mamlakat ichki bozorini sezilarli darajada qo'llab-quvvatlagan. Ma'lumki, EOII doirasida tovar etkazib berishda eksport bojlari olinmasligi hisobiga ham Rossiyadan import qilish narxlarini qimmatlashtirmaydi. Raqobat vujudga kelishi narxlarning barqarorligini ta'minlagan va Qozog'istonda etishtirilgan don mahsulotlarining bir qismi Markaziy Osiyo davlatlariga (xususan, O'zbekistonga ham) eksport qilingan.

O'zbekiston Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yil yakuniga qadar 2 mln 771 ming tonna bug'doy doni va 357,7 ming tonna un xususiy sektor tomonidan asosan Qozog'istondan import qilingan hamda 26,8 ming tonna bug'doy doni (Tojikistonga hamda Qirg'izistonga) va 949,1 ming tonna un (1 mln 265 ming tonna bug'doy hisobida) Afg'onistonga eksport uchun yo'naltirilgan. Rossiyada don mahsulotlari eksportiga ta'qiq joriy qilinishi esa Qozog'iston ichki bozorida talabning ortishiga, narxlarning nisbatan oshishiga va eksport qisqarishiga (yoki narxlari oshishiga) olib kelishi mumkin. Bu esa O'zbekistondagi don mahsulotlari va un bahosiga bevosita ta'sir o'tkazadi.

Shuningdek, Rossiyaga qarshi kiritilgan iqtisodiy sanksiyalar fonida don narxi jahon bozorida keskin ko'tarilib ketdi. Chunki Rossiya dunyodagi eng yirik bug'doy eksportchisi (jahon savdosining deyarli 20 foizi) hisoblanadi.

Bundan tashqari, tabiiy gaz narxlari oshishi hisobiga mineral o'g'itlar narxi qimmatlashishi ham don mahsulotlari narxiga (mahsulotni etishtirish tannarxi oshishi) ta'sir o'tkazadigan omillardan yana biri bo'lishi mumkin.

Un narxi oshmoqda: sabab va prognozlar. O'zbekistonda 2022 yidlning 1-yarim yilligida bug'doy uni narxi 15-23 foizga oshdi. Un narxining oshishi jahon miqyosida kuzatilmoqda va keyingi oylarda yangi hosil o'rilishi, shuningdek, Qozog'istonda eksport kvotasi bekor qilinishi sabab O'zbekistonda bu mahsulot narxi barqarorlashishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2022 yildan boshlab har oyda ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat tovarlarining o'rtacha chakana narxlarini e'lon qilib bormoqda. Mazkur ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, berilayotgan taxliliiy ma'lumotlarda bug'doy uni narxining oshib borgnligini ko'rish mumkin.

Go'sht va shakar. O'zbekiston tashqi bozorlardan katta miqdorda go'sht va shakar import qilmaydi va ushbu mahsulotlarga bo'lgan ichki ehtiyoj mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ta'minlanadi. Ammo ushbu mahsulotlar narxlarining qimmatlashishiga ham bir qancha omillar sabab bo'lishi mumkin.

Xususan, o'tgan yilda «Angren shakar» MChJ va «Xorazm shakar» MChJ korxonalari tomonidan 595,5 ming tonna shakar ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2021 yilning yanvar-noyabr oylarida 23,2 ming tonna shakar xorijdan import qilingan.

SHu bilan bir qatorda, o'tgan yil yakuniga qadar 620 ming tonna shakar xomashyosi Braziliyadan import qilingan, ya'ni mahalliy ishlab chiqaruvchilar ham tayyor mahsulot uchun xomashyoning asosiy qismini xorijdan eksport qiladi. SHu nuqtayi nazardan, quyidagi ikki omil shakar narxlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin:

Birinchidan, G'arb davlatlarining sanksiyalari sababli O'zbekistondan olisda joylashgan Braziliyadan xomashyo import qilishdagi logistika xarajatlari oshadi. Ayni vaziyatda yuk tashish sanoati jiddiy muammolarga duch kelmoqda.

Ikkinchidan, neft va gaz narxi oshishi bevosita shakar, makkajo'xori va ayrim o'simlik moylari narxi oshishiga olib keladi. Qanday qilib neft shakar narxiga ta'sir ko'rsatishi mumkin? Savolga javob juda oddiy – bioetanol orqali. Neft qanchalik qimmat bo'lsa, bioetanol ishlab chiqarish shunchalik foydali bo'ladi va etishtirilgan shakarqamish hajmi bioetanol ishlab chiqarishga yo'naltiriladi va shakar hamda ozuqa ishlab chiqarish uchun ular shuncha kam taklif qilinadi.

Statistikaga ko'ra, go'sht mahsulotlari ham asosan O'zbekistondagi mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan etishtiriladi. Narxlarning qimmatlashishiga arpa, bug'doy va boshqa chorva ozuqalarining qimmatlashishi va Qozog'iston tomonidan chorva mollari eksportiga ta'qiqlar joriy qilingani ta'sir o'tkazishi mumkin.

O'simlik yog'i. O'zbekiston iste'mol bozorida o'simlik yog'iga bo'lgan yillik ehtiyojining (475 ming tonna) o'rtacha 45 foiz qismi import hisobidan qoplanadi. Kungaboqar etishtirish bo'yicha dunyodagi eng etakchi mamlakatlar esa aynan Ukraina va Rossiya (mos ravishda 1-va 2-o'rinlarda turadi). Ushbu mamlakatlarda bojlar oshirilishi va ma'lum cheklovlar o'rnatilishi esa O'zbekiston ichki bozorida o'simlik yog'i narxlariga ta'sir qilish ehtimoli juda yuqori.

Xususan, 2021 yil birinchi choragida eksport qilishdagi muammolar sabab o'simlik yog'i narxi keskin qimmatlab ketgandi. SHundan so'ng narxni barqaror saqlash maqsadida ushbu mahsulot vaqtinchalik muddatga qo'shimcha qiymat solig'idan ozod ham qilingan.

Yuqorida ta'kidlanib o'tilganidek, Rossiya Federatsiyasining bug'doy va shakar eksportiga kiritgan vaqtinchalik cheklovlari O'zbekistonda mazkur mahsulotlar hajmiga va narxiga u qadar jiddiy ta'sir ko'rsatgani yo'q.

Hozirgi holatdan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, Ukraina hududidan va Boltiqbo'yi davlatlari portlaridan keyinchalik Rossiya hududi bo'ylab tranzit holda O'zbekistonga etib keladigan ko'plab turdagi mahsulotlar bahosi qimmatlashadi. Shuningdek, Rossiya orqali eksport qilinadigan ba'zi mahsulotlarimizni xalqaro bozorga etkazib berishda ma'lum muammolarga ham duch kelinishi mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib ta'kidlash joizki, mamlakatimizda aholi va korxonalar talabini uzluksiz, etarli miqdorda va barqaror narxlarda bug'doy, un, shakar mahsulotlari bilan ta'minlash hamda ichki bozorlarda narxlarning keskin o'zgarishini oldini olish borasida xukumatimiz tomonidan to'liq amaliy ishlar amalga oshirildi.

Xo'sh, siyosiy inqiroz natijasida 2022 yilning yarmiga kelganda mamlakatimizning ichki bozorida oziq-ovqat mahsulotlari narhi qanchalik o'zgardi? Tahlillarga ko'ra, oziq-ovqat tovarlaridan bug'doy uni, yog', go'sht, sut (parranda va baliq go'shti) mahsulotlari, shakar va salqin ichimliklar narxlari

ushbu davrda sezilarli qimmatlashgan bo'lsa, banan va kartoshka narxlari arzonlashdi.

Shakar va un narxining oshishi ushbu mahsulotlardan ishlab chiqariladigan qandolat mahsulotlari, salqin ichimliklar narxlari o'sishiga sabab bo'ldi.

Grechka, pishloq, kungaboqar yog'ining eksportyor davlatlarda (Rossiya va Qozog'iston) ishlab chiqaruvchilar tomonidan narxlarning keskin oshirilishi ichki bozorlarda ushbu mahsulotlar narxiga qo'shimcha bosimni yuzaga keltirmoqda.

O'z navbatida kungaboqar yog'i narxidagi o'zgarishlar natijasida mahalliy ishlab chiqariladigan paxta yog'i narxi ham ko'tarildi. Ulgurji sotuvchilarda yil boshiga nisbatan kungaboqar yog'i 25 foizga, paxta yog'i esa 12 foizga qimmatlashgan. Meva va sabzavotlar narxlaridagi o'zgarishlar mavsumiylik bilan bog'liq.

Broyler etishtirishda zarur bo'lgan ozuqa mahsulotlari asosan Argentina, Rossiya va Qozog'istondan quruqlik transporti orqali, muzlatilgan tovuq go'shti esa ko'proq Turkiyadan import qilinmoqda.

Bunda yanvar-mart oylarida ozuqa narxlarining o'sishi, Turkiya va Yevropa davlatlarida parranda grippining keng tarqalishi jahon bozoridagi narxlarga va ma'lum kechikish bilan mahalliy bozorlarda ta'sir eta boshladi.

Ozuqa narxlari qimmatligi sut mahsulotlari narxi o'sishidagi muhim omillardan biri bo'lib qolmoqda. Mart oyida yog'ingarchilikning etarli miqdorda bo'lgani yaylovlar va ekin maydonlari uchun foydali bo'lishi kutilmoqda. Bu esa chorva ozuqasi zaxirasini yaratishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Qozog'iston va Belarusdan go'sht importi oshishi ichki bozorlarda taklif narxining pasayishiga sabab bo'ldi.

Umuman olganda yuz bergan siyosiy inqiroz mamlakatiimizning ishlab chiqarish sohalariga va ba'zi xizmat ko'rsatish sohalariga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Masalan, 2022 yilning aprel-may oylarida tashqi vaziyat ta'sirida jahon bozorlarida neft narxi rekord darajada qimmatlashdi. Ushbu mahsulotlarga bo'lgan talabning ortishi va narxlarning shunga mos tarzda shakllanishi O'zbekistonda yoqilg'i mahsulotlari narxining oshishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Yoqilg'i narxlarining qimmatlashishi natijasida yo'lovchi tashish va etkazib berish xizmatlari narxi oshdi. SHuningdek, ijara haqi, restoran va kafe xizmatlari, maishiy tovar va xizmatlar narxlarida ham o'sish kuzatildi. Global yarim o'tkazgichlar taqchilligi, bundan tashqari, butlovchi ehtiyot qismlari

etishmasligi sharoitida ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan 2022 yil mart oyining dastlabki haftasida yangi avtomobillar narxi oshirildi.

Bundan tashqari, avtomobil boshqarish darslari hamda haydovchilik guvohnomasini olish uchun imtihon xizmatlari, repetitorlik va sog'liqni saqlash sohasidagi narxlar sezilarli darajada qimmatlashdi.

Shuningdek, Ukrainadan farmatsevtika mahsulotlari etkazib berilishidagi uzilishlar fonida dori vositalari narxi qimmatlashdi.

Qurilish mavsumi boshlanayotganligi sababli tsementga bo'lgan talabning ko'payishi, shuningdek, ayrim korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlari to'liq hajmda ishlamasligi holatlari kuzatildi. Bu ichki bozorlarda tsement narxining qimmatlashishiga sabab bo'ldi.

SHaxsiy gigiena, maishiy texnika, mebellar, kantselyariya va qurilish mollari ham qimmatlashdi.

Bunga valyuta kursidagi o'zgarishlar, asosiy importyor davlatlar (Rossiya, Xitoy) ishlab chiqarish narxlarining oshishi, logistikadagi uzilishlar hamda ushbu tovarlar sotuvida kuzatilayotgan taqchilliklar sabab bo'lganligini ta'kidlash joiz.

Eng muhimi, ijobiy ta'sirini ham ta'kidlash joiz. Gap shundaki, mamlakatimizda etishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining Rossiyaga eksporti sezilarli darajada oshdi. Bundan tashqari Rossiyadan mamlakatimizga turistlarning soni o'tgan 2021 yilning birinchi yarim yilligidagi ko'rsatkich bilan taqqoslaganda deyarli 5 barobarga oshdi.

2022 yilning fevral oyida 2021 yilning fevraldagi holatga nisbatan narxlarning o'sish sur'ati quyidagicha bo'ldi:

go'sht mahsulotlari — 9,6 foiz;

donli ekinlar va yorma mahsulotlari — 7,5 foiz;

baliq va boshqa dengiz mahsulotlari — 11,8 foiz;

sut mahsulotlari va tuxum — 9,6 foiz;

yog'lar va moylar — 23 foiz;

mevalar va yong'oqlar — 14,7 foizga o'sdi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda oliygohlarga o'qishga kirganlar soni sezilarli ravishda – 9 foizdan 25 foizga o'sdi. Bu esa ish o'rinlarini sifatini oshirib, qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Narxlar ko'tariladi, ammo ularning o'sishi fojiali bo'lmaydi. Bu O'zbekiston o'z-o'zini asosiy mahsulotlar bilan ta'minlashi, import esa YaIMning

bor-yo'g'i 33 foiziga to'g'ri kelishi bilan izohlanadi. 2022 yilda inflyatsiya 12-14 foizni tashkil qilishi, 2023 yilda 7-9 foizgacha pasayishi kutilmoqda.

Rossiyaning G'arb kompaniyalari mahsulotlaridan ayrilib qolgani O'zbekiston kompaniyalari uchun potentsial imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Bu nafaqat oziq-ovqat mahsulotlariga, balki avtomobillarga ham tegishli. G'arb brendlari Rossiyadan chiqib ketar ekan, UzAuto Motors etkazib berish hajmini ko'paytirish imkoniyati paydo bo'ladi.

O'zbekistonning 2020-2022 yillar oralig'idagi inqiroz davrida oltin narxining ko'tarilishi fonida oltin eksportini 1-2 mlrd dollarga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Demak, Prognozlar ijobiy bo'lsa-da, bir jihatni unutmaslik kerak. Global beqarorlik bizga ham ta'sir qilmasdan qolmaydi. Markaziy bank joriy yil uchun asosiy ko'rsatkichlarni o'zgartirgani ham import qilinadigan oziq-ovqat narxlarining o'sishi bilan bog'liq.

Bobning qisqacha xulosasi:

O'zbekiston geosiyosiy jihatdan olib qaralganda urushdan uzoqda bo'lib, Yevropadagi siyosiy inqiroz natijasida ko'rilgan ziyon eksport, oltin va investitsiyalar orqali qoplanadi. O'rta muddatda esa O'zbekiston iqtisodiyoti islohotlar, kuchli demografiya va zaxiralar hisobiga barqaror holatni saqlab turadi. Masalan, ichki bozor Rossiyadan qaytgan mehnat migrantlarini qabul qilishga yaxshi tayyorlangan. Bu so'ngi yillarda tadbirkorlikni diversifikatsiya va qo'llab-quvvatlash uchun qilingan ishlar bilan izohlanadi.

Umuman olganda, o'tgan 2021-2022 yillarda jahonda yuzaga kelgan pandemiya va siyosiy inqirozdan so'ng, 2023 yil jahon iqtisodiyoti va milliy iqtisodiyotimiz uchun ham pandemiyadan keyin tiklanish yili bo'ladi.

Mamlakatimizda 2022-2023 yillarga mo'ljallangan makroiqtisodiy va tarkibiy islohotlar borasidagi chora-tadbirlar belgilab olinganligi sababli, yuzaga kelgan har bir salbiy ta'sirni oldini olishga qaratilgan muhim vazifalar o'z vaqtida amalga oshirildi. Xukumatimiz tomonidan ichki bozorda narxni keskin ko'tarilishini monitoring qilgan holda eng zarur oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish choralrini ko'rmoqda. Bu, o'z navbatida, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiyotga tashqi shoklarning salbiy oqibatlarini yumshatish imkonini bermoqdi.

Nazorat savollari:

1. 2022 yilda jahonda yuz bergan siyosiy inqirozning jahon bozorlariga ta'sirini ayting?
2. Nima sababdan BMTning Bosh kotibi A.Guterresh 2022 yilni jahon tarixidagi "og'ir yil"lardan biri sifatida e'tirof qilgan?
3. 2022 yilda yuzaga kelgan siyosiy inqirozning milliy va jahon iqtisodiyotiga hamda jahon bozoriga salbiy ta'siri xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoev qanday fikr bergan?
4. Siyosiy inqiroz qaysi jahon bozorlariga jiddiy ta'sir ko'rsatdi?
5. BMT tomonidan jahon bozoridagi qaysi mahsulotlarning narxining oshganidan xavotirda va nima uchun?
6. Nima sababdan jahon bozorida gazning nrxi keskin ko'tarildi?
7. Jahon neft bozoridagi holatni ayting?
8. Siyosiy inqiroz jahon oltin bozoriga ta'sirini ayting?
9. Jahon oziq-ovqat bozorida qqaysi mahsulotlarning narxi keskin ko'tarildi?
10. Nima sababdan Hindiston jahon bozorimiga bug'doy eksportini to'xtatdi?
11. Siyosiy inqirozning jahon savdosiga ta'sirini aytib bering?
12. Siyosiy inqirozning jahon moliya bozoriga ta'sirini ayting?
13. Siyosiy inqirozning O'zbekiston bozoriga ta'sirini ayting?
14. Siyosiy inqiroz natijasida qaysi oziq-ovqat mahsulotlarning yanada ko'tarilishi mumkin?
15. O'zbekiston ichi bozorining hozirgi holatini aytib bering?
16. O'zbekiston xukumati ichki bozor narxlarini stabil holatda ushlab turishi uchun qanday choralarni amalga oshirdi?

Uyga vazifa!

Talabanning "Jahonda yuzaga kelgan siyosiy inqirozning jahon bozoriga ta'siri tahlili" mavzusini chuqur o'zlashtirishi hamda amaliyot darsiga puxta tayyorgarlik ko'rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu boshida berilgan "Tayanch iboralari" so'zlarining tushunchasiga ega bo'lish;
- 2) mavzu so'nggida berilgan "Nazorat savollari"ga tayyorgarlik ko'rish;

3) har bir talaba tomonidan siyosiy inqirozning O'zbekiston ichki bozoriga ta'siri bo'yicha Mustaqil ish topshirishadi va uni auditoriyada "Taqdimot" orqali o'zining mustaqil tushunchalarini namoyon qiladi.

XII BOB. O'ZBEKISTONNING JAHON BOZORIGA INTEGRATSIYALASHUVI

12.1. O'zbekistonning tashqi savdosi va uning geografik yo'nalishlari tahlili.

12.2. O'zbekistonning jahon bozoriga integratsiyalashuv jarayonini faollashtirish chora-tadbirlari.

12.3. O'zbekistonning jahon bozoriga mahsulotlar eksporti xajmini oshirishdagi salohiyatlari va imkoniyatlari.

12.4. O'zbekistonning jahon bozoriga chiqishdagi asosiy muammolari.

12.5. O'zbekiston mahsulotlarini xorijga eksport qilishning usullari.

Tayanch iboralari: integratsiya, prognoz, tashqi savdo, iqtisodiy geografiya, ichki bozor, logistika, qadoqlash, bojxona, boj to'lovi, transafg'on, tranzit, konventsiya, jahon hamjamiyati.

12.1. O'zbekistonning tashqi savdosi va uning geografik yo'nalishlari tahlili

2020 va 2022 yidla ro'y bergan pandemiya va jahon siyosiy inqirozi O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi. 2020 yilda tashqi savdomiz 2019 yilga nisbatan 13,1 foizga kamaygan bo'lsa, 2022 yilda esa 2021 yilga nisbatan esa 3,2 foizga oshishi taxmin qilingan.

O'zbekiston uzoq yillardan buyon o'zbek qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy importchisi Rossiya va Qozog'istondir. SHunday ekan, ulkan hududga ega bo'lgan va qariyb 150 million aholiga ega bo'lgan Rossiyaning uzoq o'lkalari va turli hududlarida yangi bozorlar, savdo-logistika markazlarini barpo etish ayni muddaodir, chunki ushbu sohada salohiyatimiz va imkoniyatlarimizning yanada oshganligi mazkur vazifalarni amalga oshirilishini taqozo etadi. Agarda hozirdanoq ushbu g'oyalarni amalga oshira olmasak, yirik Rossiya bozorlarini Turkiya yoki Ozarbayjon kabi mamlakatlarda etishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari butkul egallab olishi mumkin.

Ma'lumki 2020-2021 yillarda Rossiya tomonidan mamlakatimizda etishtirilgan pomidor, qalampir, quritilgan o'rik va shunga o'xshash ba'zi qishloq xo'jaligi mahsulotlarimiz eksportiga nisbatan Rossiya tomonidan vaqtinchalik ta'qiq qo'yilgan edi. Bu ta'qiqning qo'yilishi natijasida qishloq xo'jaligi

mahsulotlarini etishtirayotgan korxonalar va tadbirkorlarni biroz bo'lsa-da taajub va xavotirga qo'ydi. SHuning uchun ham O'zbekiston "Bojxona tartib-qoidalarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risidagi xalqaro konventsiya"ga qo'shilsa, mahsulotlarning eksporti kafolatlanadi va tadbirkorlarga qulay sharoit yaratiladi. Importda ham xuddi shunday, ya'ni chet eldan mahsulotni sifatli kirib kelishini ta'minlaydi.

O'zbekiston 2021 yil yakuniga ko'ra dunyoda eng ko'p kartoshka import qilgan davlatlar beshligiga yaqinlashdi. "EastFruit" xalqaro nashrning ma'lumotiga ko'ra, 2021 yilda O'zbekistonga kartoshkaning umumiy import hajmi birinchi marta 500 ming tonnadan oshishi mumkinligini ta'kidlagan. Bu orqali mamlakat eng katta kartoshka importyorlari ro'yxatida Belgiya, Gollandiya, Germaniya va Italiyadan keyingi o'ringa ko'tariladi. Qayd etilishicha, dastlabki uch etakchi kartoshkani, asosan, qayta ishlash ehtiyojlari uchun import qiladi va muzlatilgan "fri" hamda boshqa kartoshka mahsulotlari sifatida eksport qiladi. O'zbekiston esa kartoshkani mamlakat ichida sotish uchun olib keladi. Bu orqali O'zbekiston sof import hajmi bo'yicha Italiyani chetlab o'tib, dunyoda birinchi o'rinni band etishi mumkin.

Shuningdek, 2022 yilda Erondan O'zbekistonga meva va sabzavotlar importi keskin oshishi kuzatilgan. Bundan tashqari, "Ichki iste'mol bozorini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hukumat qarori qabul qilinib, O'zbekistonga 2021 yilda qanday oziq-ovqat mahsulotlari import qilinishi ma'lum qilingandi. Unga ko'ra, respublika bo'yicha jami 2 449 108 tonna kartoshka import asosida keltirilishi nazarda tutildi⁴⁹.

Amlakatimizning tashqi sadosida x'izmat ko'rsatish sohasinign ulushi ham tobora ortib bormoqda. Xususan O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirish ham muhim vazifalardan biri bo'lmoqda va bunda xalqaro turizm ulushi tashqi savdo miqdorining o'sishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunonchi, Buyuk Britaniyaning The Independent nashri O'zbekiston 2022 yilda sayohat qilish uchun eng yaxshi mamlakatlardan biri siqfatida e'lon qilganligi mamlakatimizda ushbu sohaga berilayotgan e'timbordan darak bermoqda. Jahonning turizm sohasiga ixtisoslashgan jurnalistlarning tavsiya va takliflari asosida jahon sayohlari uchun eng ommabop 10 ta yo'nalishni e'lon

qilingan va ushbu ro'yxatga Normand orollari, SHimoliy Irlandiya, Kanada, Ispaniya, Italiya, Turkiya, O'zbekiston, Misr va Butan kabi mamlakatlar kiritilgan. Muhimi shundaki, ushbu ro'yxatdan o'rin olgan O'zbekistonga sayohat qilish taassurotlarga boy bo'lishini hamda O'zbekiston bir necha yil avval Buyuk Britaniya fuqarolariga viza talablarini engillashtirgani, endi ular mamlakatda vizasiz 30 kungacha bo'lib turishi mumkinligi ham qayd etilgan.

O'z o'rnida ta'kidlash joizki, 2021 yilda O'zbekiston turizm sohasi eng tezkor rivojlanayotgan davlatlar reytingida 4-o'rinni egallagani, O'zbekiston yashash uchun eng arzon mamlakatlar reytingida 6-o'rinni band etgani hamda O'zbekiston xavfsizligi yuqori bo'lgan davlatlar ro'yxatiga kiritilganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda va bu ko'rsatkichlar bilan "YAngi O'zbekiston"ning jahon arenasiga tobora yaqinlashib borayotganligidan dalolat bermoqda.

2022 yilda O'zbekistonda etishtirilgan tarvuzlar 21 ta davlatga eksport qilingan bo'lsa, qovun eksporti geografiyasi 27 mamlakatni qamrab oldi. Qovun eksporti geografiyasi tarvuzga nisbatan 1,7 barobar keng ekanligining o'ziga yarasha sababi bor. Zero, O'zbekistonda etishtirilgan qovunlar ta'mi tilni yorar darajada shirin. Poliz mahsulotlari boshqa mamlakatlar, xususan, Turkiya va Rossiyaning janubiy hududlarida ham etishtiriladi. Ammo, tabiiy shirin ta'mi, o'tkir hidi va vitaminlarga boy xususiyati bilan O'zbekiston qovunlari alohida ajralib turadi.

Yovvoyi holda janubi-g'arbiy Osiyo va Afrikada uchraydigan qovunning vatani, aslida, Kichik va Markaziy Osiyodir. Markaziy Osiyoda qovun ekilgan maydonlar boshqa poliz ekinlariga nisbatan ko'proq erni egallaydi. Jahondagi eng totli qovunlar esa O'zbekistonda etishtiriladi! Xalq seleksiyasida uning 150 dan ortiq navlari mavjud. Oqurug', Bo'rikalla, Ko'kcha, mahalliy sariq handalak, Obi novvot, Shakarpalak, Gurlan kabilar eng ko'p ekiladigan navlardir.

Shunday bo'lsa-da, eksport hajmi bo'yicha O'zbekiston jahondagi yirik eksportchi mamlakatlarning birinchi o'ntaligiga kirmaydi. Bu yilgi eksport hajmining rekord darajada ekanini hisobga olsak, mazkur miqdor jahon bozoridagi jami eksport hajmining taxminan 2 foizini tashkil qiladi, xolos. Vaholanki, tabiati, iqlim sharoiti, mahalliy dehqonlarning qovun etishtirish va uni saqlash borasidagi asriy an'analari jihatidan O'zbekiston qovun eksporti bo'yicha jahon bozorida etakchi o'rinlarni egallash salohiyatiga ega. Misol uchun, jahon bozorida eng yirik

qovun eksportyorlari hisoblanmish Ispaniya va Gvatemala davlatlari yiliga taxminan 350 mln. dollarlik mahsulot – 400-450 ming tonna qovun eksport qiladi.

12.2. O'zbekistonning jahon bozoriga integratsiyalashuv jarayonini faollashtirish chora-tadbirlari

Bugungi globallashtirish sharoitida mamlakatimizning jahon bozoriga integratsiyalashuv jarayonini faollashtirishda e'tibor qaratish lozim bo'lgan muhim masalalar bor. Bular O'zbekistonda milliy bank, sug'urta, korporativ boshqaruv tizimlari modellarini isloh etish va takomillashtirish, xususiylashtirish mexanizmlari, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, tashqi investorlar bilan davlat-sheriklik asosida ishlab chiqarishni rivojlantirish kabi qator ustuvor vazifalarni o'z ichiga oladi.

O'zbekistonning jahon bozoriga integratsiyalashuvida yana bir muhim yo'nalish borki, bu mamlakatda moliyaviy shaffoflikni ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekistonda byudjet qonunchiligi takomillashtirilmoqda va 2019 yildan mamlakatda o'rta muddatli byudjetni rejalashtirishga o'tildi. Hisob va hisobdorlik tizimlarining xalqaro standartlarga mosligi ta'minlanmoqda. Fiskal ma'lumotlar ochiq qilinmoqda, xususan, 2018 yildan fuqarolar uchun byudjet to'plamini nashr etish yo'lga qo'yildi. Shu tariqa O'zbekiston hukumati fuqarolarga byudjet mablag'larini shakllantirish manbalari va sarflash yo'nalishlari haqidagi ma'lumotlarni taqdim etuvchi yuzdan ortiq davlatlar qatoriga qo'shildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Murojaatnomada eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotga o'tish, ichki bozorda raqobat muhitini shakllantirishimiz zarurligi xususida aytib o'tdi.

“Transport-logistika tizimini takomillashtirish ham eng dolzarb masaladir. Chunki, dengizga chiqish imkoniyatimiz cheklangani uchun mahsulotni eksport qilishda ko'plab qiyinchiliklar paydo bo'lmoqda. Shu bois, “O'zbekistan Eyrveys” va “O'zbekiston temir yo'llari” kompaniyalari tovarlarimizni eksport qilish bo'yicha zamonaviy logistika yo'nalishlarini yaratishlari zarur, dedi davlatimiz rahbari.

12.3. O'zbekistonning jahon bozoriga mahsulotlar xajmini oshirishdagi salohiyatlari va imkoniyatlari

O'zbekistonda jahon sanoati uchun ulkan zahiralari va mineral resurslar mavjuddir. Eng asosiylaridan biri sifatida – tabiiy gazni alohida ta'kidlash joizdir. Mamlakatimizda gaz konlari hali to'liq o'zlashtirilmagan. Ammo taxmin bo'yicha kamida to'rt-besh trillionlik gaz zaxiralari bor. Albata, istiqbol yillarda quyosh va shamol energiyalariga bo'lgan talab ommaviylashib boradi va gazni siqib chiqaradi.

Avvalo, so'nggi yillarda gaz eksporti va uning iste'moi borasida bir qator muammolar yuzaga tashlangan edi, ya'ni O'zbekiston qanday qilib gaz eksport qiluvchi davlatdan import qiluvchi davlatga aylandi, degan savolga javob topish lozim. Bu erda ikkita omil mavjud: qazib chiqish imkoniyatlari hamda ichki talab va iste'mol. Masalan, rivojlangan mamlakatlarga nisbatan, birgina Toshkentning o'zida 1 kub metr maydonni isitish uchun 4 barobar ko'proq energiya sarflanadi.

Hozirgacha O'zbekiston hududida ishlayotgan eng katta kompaniya "Lukoil" bo'lsa, umumiy hisobda ushbu sohaga 7 mlrd dollardan ortiq investitsiya kiritgan. Bizda Rossiyaning ikkita gaz kompaniyasi faoliyat ko'rsatadi: "Lukoil" va "Gazprom". "Gazprom" Ustyurtda faoliyat olib bormoqda, ularning ham olgan mahsulotidan 50 foizi davlatniki.

Agar bizda ham dengizga chiqish imkoniyati bo'lganida, xuddi shu tabiiy gazimizni suyultirilgan gazga aylantirib, Xitoyga yoki Yevropaga sotishimiz mumkin edi.

Mustaqillikka erishganimizda 19 mln aholimiz bo'lgan bo'lsa, hozirda 35 mln.dan oshdi. Albatta, milliy iqtisodiyotimiz ham yil sayin tobora rivojlanib bormoqda, masalan: kichik va o'rta biznes rivojlanyapti, qurilish materiallari, kimyo sohasi, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, turizm va hokazo sohalar o'ziga yarasha o'sib ketdi. Bu talabni qondirish kerak. YAngi katta konlar topilmayapti, ichki zaxiralari ham cheksiz emas.

Umuman hozirgi jahondagi siyosiy inqiroz sharoitida sanksiyalar ostida qolgan Rossiya O'zbekiston bilan ko'proq savdo qilishidan manfaatdordir. G'arb sanksiyalari Rossiya ta'minot zanjirlarining uzilishiga, eksporti va importi uchun mamlakatlarning yopilishiga, yuk oqimining qisqarishiga va janubda suv va havo transportining vaqtincha to'xtab qolishiga olib keldi. SHu tufayli, Rossiya

transport-logistika kompleksini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator echimlarni ishlab chiqdi.

O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston va BAAda tranzit operatsiyalarini amalga oshirish markazlarini tashkil etib, u erga "do'stona bo'lmagan" mamlakatlardan importni tashkil etish va keyinchalik ularni Rossiyaga eksport qilish shular jumlasidandir.

O'zbekistonning jahon bozoriga mahsulotlar xajmini oshirishda qanday salohiyatlar va imkoniyatlar mavjud?

Ushbu savolga javob berish maqsadida biz yaqin yillar ichida yil sayin tobora jahon bozoridan o'rin olayotgan qovun mahsuloti bo'yicha uning jahon bozorida munosib mavqeni egallashi va eksport hajmini oshirishda mavjud potentsial hamda istiqbollar mavjudligini ko'rib chiqamiz.

Qovun eksportida O'zbekistonning jahon bozoridagi potentsiali va istiqbollari bo'yicha imkoniyatlar mavjud, albatta. Ammo, an'anaviy o'zbek qovuni iste'molchi nuqtai nazari bilan qaraganda, qator kamchiliklarga ega ekanini ham hisobga olish lozim. Jumladan:

- Birinchidan, o'zbek qovunining o'ziga xos hidi va shirin ta'mi – bir vaqtning o'zida ham ustunlik, ham kamchilikdir. Negaki, Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi iste'molchilar butunlay boshqacha qovun ta'miga o'rgangan. Albatta, "shirin ta'm bozori"ni shakllantirish mumkin. Biroq bu muayyan sarf-xarajatlarni talab etadi va qator tashkiliy ishlarni bajarishga to'g'ri keladi.

- Ikkinchidan O'zbekiston qovunlarining hajmi va o'lchami. Bunday qovun Yevroittifoq mamlakatlari bozorida donalab sotilishi qiyin. Chunki, mazkur bozorlar uchun u juda katta hisoblanadi. SHu bois yirik qovunni tilimlab sotadigan yoki qayta ishlaydigan importchilar xarid qilishlari mumkin. Albatta, bu yuqorida aytilgan birinchi masala bo'yicha hammasi ko'ngildagidek bo'lgan holatda amalga oshiriladi.

- Uchinchidan, O'zbekistonda qovunlar g'arq pishganidan so'ng terib olinadi, shuning uchun uzoq masofaga transportirovka qilinganda ular iste'molga yaroqli holda etib borishi muhim. Albatta, Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga eksport qilishda ma'lum bir tajriba orttirildi. Biroq aynan eksportbop qovun etishtirish borasida ko'p muammolar echimini topishi kerak. Bunda urug', nav, pishish bosqichidan tortib, qadoqlash va marketinggacha bo'lgan jarayonni hisobga olganda.

Umuman olganda, mahsulotni nafaqat sarxilligicha, balki muzlatilgan holatda ham qandolatchilik yoki boshqa turdagi qayta ishlash uchun butun yil davomida sotish mumkin va bu borada ham katta salohiyatga ega. Yaqin kelajak yillarda O'zbekiston qovunlari uchun bozori istiqbolli va xaridorgir bozorlar qatoriga, albatta, Rossiya Federatsiyasi va shuningdek, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari. Biroq, agar mahsulotni muzlatilgan holda etkazib berish yo'lga qo'yilsa, unda Yevropa Ittifoqi bozorida va ayniqsa, AQSh, Kanadada katta imkoniyatlar eshigi ochilishi mumkin.

O'zbekiston qovunlarini yangi uzilgan holatida eksport qilish haqida so'z yuritadigan bo'lsak, unda bu ajoyib mahsulotni Osiyoning eng rivojlangan mamlakatlariga eksport qilish va shu yo'nalishni rivojlantirishga harakat qilish mumkin. O'zbek qovunlari Rossiya bozorlariga sobiq Ittifoq davridan buyon etkazib beriladi va albatta ushbu yo'nalishda eksport hajmini oshirish mumkin hamda ushbu yirik bozorda mavqeni mustahkamlash va raqobatbardoshlikni oshirish uchun barcha chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Bugungi kunda O'zbekistonda qovunni qayta ishlashning keng tarqalgan usuli – bu uni quritishdir. Quritilgan qovun Rossiya bozoriga etkazib berilmoqda. Olib bozorlar (AQSh, Kanada va Osiyoning uzoq mamlakatlari)ga qayta ishlangan qovunni etkazib berish istiqbollari bo'yicha marketing izlanishlarini olib borish darkor. Bundan tshqari, quritilgan qovun eksport uchun logistika jihatidan ancha qulay hisoblanadi.

Mozori-Sharif – Qobul - Peshovar temir yo'li loyihasini ishga tushirish bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari transafg'on koridori orqali Janubiy Osiyoning istiqbolli bozorlariga mutlaqo yangi va eng qisqa yo'lni ochib beradi. Janubiy Osiyo bilan iqtisodiy aloqalarning keng imkoniyatlari mintaqaning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va ushbu hududning o'sish dinamikasiga bog'liq bo'lib, jami aholisi salkam 2 mlrd.aholi soniga ega bo'lgan (dunyoning to'rtidan biri) va yalpi ichki mahsuloti 3,5 trln.dollar bo'lgan Janubiy Osiyo dunyodagi eng tez (yiliga 7,5 foizgacha) o'sayotgan mintaqasi hisoblanadi.

Transafg'oniston yo'lining qurilishi, shuningdek, Markaziy Osiyodagi transport oqimlarini diversifikatsiya qiladi. Chunki mintaqasi mamlakatlari arsenalida janubiy dengizlarga chiqish imkonini beruvchi ikkita yo'l bo'ladi. Bir tomondan, Chabahar va Bandar-Abbos portlarga chiquvchi amaldagi koridor, ikkinchi tomondan — keyinchalik Karachi va Gvadar portlariga chiqish imkoniyatini beruvchi Mozori-Sharif—Kobul—Peshovar.

Masalan, loyiha to'liq amalga oshirilishi bilan Pokistondan O'zbekistonga yuklarni tashishga 35 kun emas, balki 3—5 kun etarli bo'ladi. Deyarli bir oylik yo'l o'rniga, atigi bir hafatadan kam vaqt ketadi. Afg'oniston, Pokiston va O'zbekiston davlatlari o'rtasida o'tkazilgan uch tomonlama uchrashuvda Mozori-SHarif—Kobul—Peshavor temir yo'li uzunligi 573 kilometr bo'lishi, qurilish loyihasiga 4,8 milliard dollar kredit jalb qilinishi ma'lum qilingan.



12.1-rasm. “O'zbekiston-Qirg'iziston-Xitoy” temir yo'l qurilishi loyihasining jahon xaritasidagi ko'rinishi.

Temir yo'l qurish loyihasini moliyashtirish uchun O'zbekiston, Afg'oniston va Pokiston davlat rahbarlari nomidan qo'shma murojaati asosida AQSh Xalqaro taraqqiyot moliya korporatsiyasining va boshqa xalqaro moliya institutlari mablag'larining jalb etilishi ko'zda tutilgan.

Shuningdek, yaqin 10-15 yillardan buyon avvaldan loyihalashtirilgan va bir qator muzokaralaradan so'ng O'zbekiston-Qirg'iziston-Xitoy yo'nalishi bo'yicha temir yo'lni 2022 yildan qurilish ishlarini boshlash e'lon qilindi.

12.4. O'zbekistonning jahon bozoriga chiqishdagi asosiy muammolari

Eksport uchun asosiysi - arzon narx va sifatli mahsulotdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev O'zbekiston, Afg'oniston va Pokiston tomonidan amalga oshirilayotgan Mozori-Sharif – Qobul - Peshovar temir yo'lini qurish loyihasining ahamiyati haqida to'xtalib o'tib, "Agar 27 yil ichida biz Xitoy yoki boshqa bir Osiyo mamlakatiga temir yo'l qurganimizda, eksport qilinadigan mahsulotlarimiz narxi 60 - 70 foizga arzonroq bo'lar edi"⁵⁰.

O'zbekiston mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqishda xamon Rossiya yoki Qozog'iston orqali eksport qilishga to'g'ri kelmoqda. Transafg'on temir yo'li qurilishi boshlangandan so'ng O'zbekiston o'z eksport bozorlarini diversifikatsiya qiladi, qo'shni davlatlar esa O'zbekiston mahsulotlari uchun tranzit tariflarini pasaytiradi.

"Bu foyda keltiradi, ammo temir yo'lda xavfsizlikni kim ta'minlay oladi? Faqat 200 million aholisi bo'lgan Pokiston. Agar biz ushbu bozorga kira olsak, dunyoning boshqa bozorlariga dengiz portlari orqali chiqa olamiz"⁵¹. 600 km uzunlikdagi Mozori-Sharif—Kobul—Peshovar temir yo'l loyihasini amalga oshirishni jadallashtirish masalasi – eksportimiz miqdorining oshirish yo'lidagi eng asosiy dolzarb masalalaridan biridir.

O'zbekistonning jahon bozoriga chiqishdagi asosiy muammolari

1) Rivojlanayotgan jahon mamlakatlarida onlayn platforma yo'q, logistika qimmat, byurokratiya va boshqa muammolarni ta'kidlash lozim.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti O'zbekistonda hali oxiriga etilmagan xazinadir. Agar ushbu soha oqilona boshqarilsa davlatimizga millionlab dollar keltirishga qodir. Biroq tayyor mahsulotni xorijiy iste'molchilarga etkazishda qanday to'siqlarni oshib o'tiladi? Ularni qanday bartaraf etish mumkin?

Avvalo, tadbirkor uchun kerak bo'ladigan narsa bu – albatta tovaridir.

Tovar qaerda arzon bo'lsa, tabiiyki, tadbirkor o'sha erdan uni xarid qilib oladi. O'zbekistonda chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari jahon bozorida boshqalarnikiga nisbatan bir necha barobarga arzon. Bizdagi asosiy muammo esa, o'sha arzon mahsulotni sifatini buzmagani holatda, jahondagi qimmat va yuqori narxlarda sotiladigan bozorlarga etkazib berish yoki sotish bilan bog'liq masala hisoblanadi.

O'zbekiston qonunchiligida shunaqangi bir holatga duch kelasizki, eksport bilan shug'ullanuvchi korxona, albatta mahsulot ishlab chiqaruvchi bo'lishi kerak,

⁵⁰ <https://www.gazeta.uz/ru/2021/02/11/route/>

degan tushuncha mavjud. Ya'ni, shu sohaga oid qonun bilan tanishib chiqib, mana shunday xulosaga kelish mumkin. Aslida, dunyo tajribasi bilan qiyoslaydigan bo'lsak, eskport bilan shug'ullanuvchi korxona yoki tashkilot, shartli ravishda ishlab chiqaruvchi bo'lish kerak, degan tushuncha, biror bir rivojlangan davlatlar qonunlarida qayd etilmagan.

Oddiy dehqon-fermer, mahsulotini etishtiriganidan keyin, uni sotish uchun yoki eksport qilish uchun shu ishlarni bilimdonlari hisoblangan eksportyorlarga, ya'ni soddaroq nom bilan aytganda, savdogarlarga muhtoj bo'ladimi?

Yoki oddiy dehqon dunyo kezib, masalan, Yaponiyaga, Koreyaga, Yevropa davlatlariga yoki Avstraliyaga, Yangi Zelandiyaga qatnab, u erdagi bozorlarni tahlil qilib, kelasi yilga nima ekishi kerakligi bo'yicha rejalar tuzib yuradimi?

Albatta yo'q. Tabiiyki, bu ishlarni bajarishga jismonan ulgurmasligi bitta sabab bo'lsa, bu ishlar alohida bilim va tajribadan tashqari, qo'shimcha sarf-xarajatlarni talab etadi. Balki, oddiy dehqon uchun eng oson va qulay tarafi, ichki bozordagi xaridorgir bo'lgan mahsulotlarni etishtirib sotish afzaldir.

Eksportyorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlarning vazifasi esa, O'zbekiston bozorini va o'z navbatida jahon bozorini o'rgangan holda, qaysi mamlakatning va uning qaysi shaharida o'zbek mahsulotlariga bo'lgan talab borligini va tez sotilishini hamda u erga etkazib berilish xarajatlarining hisob-kitobini qilib, foydasini qanchalik ekanligini aniqlab chiqish hisoblanadi. Albatta, bu jarayonda zamonaviy marketing tadqiqotlari o'ta muhim hisoblanadi. SHunday hisob-kitoblarga tayanib, dunyoning bir nechta shaharlariga mahsulotlarni eksport qilish mumkin.

Xo'sh, ushbu ishlarni amalga oshirishda qanday muammolar yuzaga kelgan?

Birinchidan, eng avvalo bizdagi eksport bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarning shu sohaga oid O'zbekistonning amaldagi qonunchiligi bilan bog'liq muammolaridir. Ya'ni, qonun biz kabi eksportyorlarni moddiy tovar ishlab chiqaruvchi tadbirkor sifatida ko'radi. Lekin o'zbek xalqida "qonunchilikni bilmaslik – bu javobgarlikdan ozod qilmaydi" degan naql bor.

Ikkinchidan, tadbirkor uchun kerakli narsa bu tovar-mahsulot. Ichki bozorimizdan kerakli bo'lgan mahsulotni topdik ham deylik. Aslida, O'zbekiston ichida eksportbop mahsulot topishning o'zi bir katta muammo hisoblanadi. Hozirgi

⁵¹ <https://www.gazeta.uz/ru/2021/02/11/route/>

axborot texnologiyalari rivojlangan bir zamonda O'zbekistonda onlayn bozorlar yo'q hisobida desak bo'ladi. Ya'ni, ulgurji-ko'tara mahsulotlar sotiladigan onlayn bozorlar yo'qligi ham muammo sanaladi. Bu soha milliy iqtisodiyotimizda raqamli iqtisodiyotga o'tish davrida endigina asta-sekin shakllanib bormoqda.

Uchinchidan, logistika muammosi. Logistika deganda ko'pchilikning oddiy tasavvurida yuklarni uzoq va yaqin manzillarga tashuvchilar gavdalanadi. Aslida esa, logistika butun bir tarmoq, bog'lanish demakdir. Misol uchun, bizni mamlakatimiz sharoitini oladigan bo'lsak, men kabi tadbirkor bilan ekin etishtiradigan dehqon o'rtasida bevosita o'zaro bog'lanish, ya'ni logistika yo'q.

To'rtinchidan, respublika hududlarida eksportbop mahsulotlarni etishtiruvchi asl dehqonlar izlab topish muammosi. Ko'pincha bunday dehqonlarni izlash davomida, albatta, o'rtada dalollarga duch kelinadi. YA'ni, o'rtada turib o'zining ozmi-ko'pmi foydasini qo'shadigan uchunchi, to'rtinchi ob'ektlar turib qoladi. Bu esa mahsulotning narxi sun'iy ravishda oshishini anglatadi.

Beshinchidan, bu eksportyorlar uchun zamonaviy sharoitlarning yaratilmaganligidir. Agar biz eksportni rivojlantirmoqchi bo'lsak, bozorning zamonaviy infrastrukturasini shakllantirishimiz kerak. Va, haqiqatan, jahon bozoriga O'zbekiston mahsulotlarini sotmoqchi ekanmiz, mamlakatda onlayn qidiruv bozorlar bazasini shakllantirishimiz kerak bo'ladi (OLX saytida ma'lumotlar juda sayoz va etarli darajada emas). Bugun bizda barcha sohadagi ishlab chiqaruvchi va eksportyorlarni o'zaro birlashtiradigan, konstruktiv tarzda yondashib ishlab chiqilgan loyihaga ehtiyoj bor.

Masalan, tadbirkorlar tomonidan mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan yoki etishtiralyotgan arzon va kerakli mahsulotni topish uchun hozirda ijtimoiy tarmoqlarning turli telegram kanallari, saytlaridan foydalanishga majbur. Ularni har birini ochib qidirish ham gohida qiyinchilik tug'diradi.

Misol uchun qo'shni Qozog'istonda "Flagma" deb nomlangan loyiha bor va ushbu loyiha oqali mahsulotlarning onlayn bozori bazasi mavjuddir. Mamlakatimizda bu kabi loyihalar bo'lmagani sababli, o'z-o'zidan ma'lumki bunday vositalardan foydalanilmaydi va bizning oddiy eksportyorlarimizning aksariyati kerakli mahsulotni mamlakatning ichidan xaridor izlanadi.

Bu muammoni mahalliy hokimiyatlar darajasida hal etish mumkin va bugungi kunda har bir mahallaga tayinlangan "Xokim yordamchilari" tomonidan amalga oshirish imkoniyati mavjud bo'lgan loyihadir. Chunki, ularda o'z hududlari bo'yicha barcha ma'lumotlar mavjud bo'ladi hamda o'sha mahalliy hokimiyatlar

tomonidan mahsulotlarning moddiy bazasini, ya'ni qaerda, qanday, qancha miqdorda va narxdagi mahsulotlar borligi xaqidagi ma'lumotlar bazasini yaratish uchun hech qanday to'siq mavjud emas.

Masalan, ular oddiy qilib, qaysi fermer xo'jaligida qancha mahsulot bor, yoki boshqa fermerda yana qaysi turdagi xomashyo mahsuloti bor va x.z. kabi rasmiy ma'lumotlar bazasini yaratib qo'yishi eksportning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan bo'ladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda Afg'oniston, Suriya, Iordaniya kabi mamlakatlar bizning mamlakatdan juda ko'p marotaba tuxum mahsulotlarini import qilganigi yoki Turkiyaning bir necha ming tonna piyoz mahsulotlarini import qilganligi haqidagi ma'lumotlar mavjud. Biroq ularning qaysi hududan yoki qaysi fermerdan import qilganligi haqida batafsil ma'lumotlar mavjud emas.

Bu dastur shunday bo'lishi kerakki, dunyoning istalgan mamlakatidan turib ushbu bazaga kirish imkoniyati bo'lib, o'sha erdan turib to'g'ridan- to'g'ri shartnomalar tuzish mumkin bo'lsin. Ya'ni, o'sha bazada sotuvchi eksportyorning barcha koordinatalari ko'rsatilgan bo'lishi va u bilan bevosita xorijliklar ham bog'lanishi uchun imkoniyat bo'lsin. Yoki boshqacha aytganda, ularning logistiklari o'zlari kelib, mahsulotni o'z ko'zlari bilan ko'rib, olib ketadigan darajada sharoitlarni yaratishimiz kerak.

Misol uchun aksariyat Osiyo mamlakatlari O'zbekistonda mosh etishtirilishi haqidagi ma'lumotga ega emaslar. Mosh, loviya, fasol kabi mahsulotlarni asosan afg'on savdogarlar egallashgan. Aslida Afg'onistonda katta hajmda bu kabi mahsulotlarni topish qiyin. Lekin, ular o'rtada turib o'zbek mosh, loya va fasol kabi mahsulotlarni sotishda juda ishbilarmonlik qilishmokda.

Bizda esa shuncha imkoniyatlarimiz bo'la turib, afg'onistonliklar darajasida ishbilarmonlik qilolmaymiz. Bunga sabab esa bitta. Avvalo bunga bizda tashqi bozorlar talabini bilmasligimiz sabab bo'lsa, undan so'ng, ekin maydonlarimizda hali hanuz majburiy buyruqbozlik boshqaruv shakli saqlanib qolayotganligi bo'lsa ajablanmaslik kerak.

Oltinchidan, mahsulotlarni joyidan transportirovka qilish bilan bog'liq muammodir. Bu erda ham xuddi bundan oldingi holatga ko'ra, transportlar xaqidagi ma'lumotlar bazasi mavjud emasligi bilan bog'liq muammo. Tadbirkorda har doim tanlov xilma-xil bo'lishi kerak. Shunga yarasha taklif bo'lishi tabiiy. Bizda esa ma'lum bir firmalar rasman faoliyat ko'rsatadi. Saytiga kirib, telefoni orqali ular bilan bog'lanasiz. Bulardan boshqa firmalar kam bo'lgani uchun

narxlari ham baland bo'ladi. Ayniqsa, poytaxtdan olis bo'lgan hududlarga, qishloq joylariga borishi uchun juda katta narxlar belgilangan.

Demak, bizda tadbirkorlar uchun yuk jo'natuvchilar, etkazib beruvchilarning bozorlari bo'lishi kerak.

Ettinchidan, furalarning narxi bilan bog'liq muammodir. Bugungi kunda furalarning 1 km uchun eng past narxi 1,5 AQSh dollarga teng keladi. Bizdagi furalar bunday narxni belgilashda, manzilga borish bilan birga, u erdan joyiga qaytib kelish xarajatini ham inobatga olib hisoblaydi.

Agar yuqorida ta'kidlaganimdek ularning umumiy bazasi bo'lsa yoki masalan, xuddi MY TAXI yoki "Yandeks-Taksi" kabi formatda ishlaydigan dastur bo'lsa, u holda haligi narx 1,5 AQSh dollari emas, balki teng yarmiga kamayishi mumkin. Chunki ular qaytishi uchun ham buyurtmani dastlabki etib borgan manzilning o'zidan olish imkoniyati bo'ladi.

Biznes uchun mana shunday zamonaviy sharoitlarni yaratish orqali biz logistikamizni ham arzonlashtirishimiz mumkin ekan.

Xitoyda yoki Yevropa mamlakatlarida yuk tashuv xizmati shunday shaklda qurilgan. Ya'ni, borish va kelish uchun bitta narx belgilamaydi. Faqat bir tomonga narx qo'yadi. Ular qaytayotganida ham buyurtmasi bo'ladi.

Bular ham bizning eksportyorlar oldida turgan muammo hisoblanadi.

O'z navbatida, muammolar sifatida sanayotgan har bir holatning eksport qilinayotgan mahsulot tannarxiga ta'siri bo'lib, uning qimmatlashuvini keltirib chiqaradi. Bu esa jahon bozorida bizning mahsulotimizdan ham arzonrok takliflar bilan raqobatlasha olmasligimizdan darak berishi mumkin.

Bugungi yuk tashuvchi transport vositalarining harakatlanishi uchun, albatta, dizel yoqilg'isi zarur bo'ladi. Bizda davlat kursi bo'yicha birjadagi dizelning narxi belgilab boriladi. Qo'lda yoki rasmiy tilda aytilganda, "qora bozorda" nisbatan arzonroq. Hozirgi mavjud holatda furalar Qozog'istondan yoqilg'i baklarini to'ldirib, O'zbekistonga olib kirishadi va hatto, shundan ham foyda ko'rishadi. Chunki, qo'shni mamlakatda ushbu dizel yoqilg'isi nisbatan arzon va o'z-o'zidan savol tug'iladi: "O'zbekneftegaz" kompaniyasi yoqilg'i narxlarini belgilash masalasini qayta ko'rib chiqishi maqsadga muvofiqdir. Demak, eksportyorlar oldida turgan beshinchi muammo - bu dizel yoqilg'isining O'zbekistonda qimmat narxdaligidir.

Sakkizinchidan, yukni O'zbekiston chegarasidan olib chiqishdagi jarayonlaridagi muammo. Mahsulotni manziliga etkazib borish uchun

transportirovka qilish muddati ko'pi bilan 5 kun bo'lsa, yuk mashinasi ichidagi mahsuloti bilan naqd bir sutkani O'zbekiston chegarasining o'zida yo'qotadi. Ya'ni, sifati buzilishi mumkin mahsulot bojxona nazoratida kamida bir sutka ushlanib qolinadi. Do'konlarga mahsulot qancha erta etkazib berilsa, ular uchun ham juda qulay vaqt hisoblanadi.

Shuningdek, bojxonada qishloq xo'jaligi mahsulotiga beriladigan sanitariya sertifikatini berish bilan bog'liq muammo bo'lib 3-4 kun vaqtni talab qiladi. Yevropa davlatlari yoki Rossiyada 1-2 soat ichida shunday sertifikatni olish mumkin. Hatto qo'shni Qirg'izistonda ham jarayon uzog'i bilan 5-6 soatda taqdim qilinadi.

Demak, yuqoridagi berilgan tahlillardan ko'rinib turibdiki, biz jahon bozoriga narxi va sifati bilan raqobatlasha oladigan mahsulotlar taklif eta olishimiz kerak va shundagina eksport xajmini oshirish ishlarini to'liq amalga oshirish mumkin.

12.5. O'zbekiston mahsulotlarini xorijga eksport qilishning usullari

Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan va etishtirilayotgan eksportbop mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqishdan nafaqat korxona yoki fermer, balki davlatimiz ham manfaatdordir, albatta. Chunki eksport evaziga keladigan xorijiy valyuta tushumi davlat byudjeti hazinasini boyitishiga ulkan hissa qo'shadi.

Mahsulotni chetga eksport qilish bo'yicha jahon bozoriga tovar etkazib berishning eng qulay usullarin aniqlash darkor. Mamlakatimizda o'zlari ishlab chiqarayotgan mahsulot va xizmatlarni xorijiy davlatlarga eksport qilayotgan korxonalar va tadbirkorlarga yordam berish maqsadida xukumatimiz tomonidan bir qator engilliklar, imtiyozlar va shart-sharoitlar yaratib borilmoqda. Xo'sh, mahsulotlarimiz eksportining jahon bozoriga olib chiqishda qanday usullari mavjud?

- mahsulotni eksportga tayyorlash, ya'ni jahon bozoriga mos ravishda sifatli qadoqlash va x.z.;

- xorijiy hamkorni topish va u bilan muzokara olib borish hamda muzokara jarayonini ijobiy hal qilish;

- mahsulotlarni nufuzli jahon ko'rgazmalarida reklama qilish kabilar oddiy usullardir, biroq ushbu usullar bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladigan ishlar ancha sifatli va puxta amalga oshirilishi lozim. Bundan tashqari logistika masalasiga ham alohida urg'u berish lozimdir. Bugungi kunda ko'plab eksportchi

korxonalarimiz logistika jarayoniga u qadar e'tibor bermasa-da, biroq logistika mahsulotni eksportga chiqarganda muhim ahamiyat kasb etadi.

Logistika — eksportning muhim bir qismi. Chunki transport xarajatlari mahsulotning shartnoma narxiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Hatto mahsulot oliy sifatli bo'lganida ham uning narxi transport xarajatlarini inobatga olgan holda, raqobatdosh bo'la olmasligi mumkin. Bu holatni eksportchi korxonalar va fermerlar hisobga olishlari lozim, chunki ularning hamkorlari O'zbekiston chegarasidan bir necha ming km uzoqlikda joylashgan bo'lishi mumkin.

Transport xarajatlarini minimal darajaga olib kelish uchun ba'zi vazifva va choralarni oldindan ko'rib qo'yish lozim. Masalan shartnoma bo'yicha yukni etkazishda transport-logistika kompaniyalari bilan yaxshi hamkorlik munosabada bo'lib, ular bilan eksport logistika detallarini maslahatlashgan holda eksport yukini transportirovkasi bo'yicha uning narxi, etkazish vaqti va boshqa omillarning bir necha variantlarini aniqlash va muxokama qilib olish darkor.

Transport xizmatlari va ekspeditorni tanlash. Transport-ekspeditorlik tashkilotlarining asosiy maqsadi yukni tashish paytida yuk yuboruvchi va yuk qabul qiluvchilar talabini sifatli va o'z vaqtida ijro etishdir.

Ekspeditor — yuk yuboruvchi, yuk tashuvchi va yuk qabul qiluvchi o'rtasida bog'lovchi vosita hisoblanadi. Sotuvchi yoki xaridorning topshirig'iga binoan quyidagi xizmatlarni amalga oshiradi:

- yuk tashishning effektiv marshrutini tanlash;
- munosib transport turini tanlash;
- yuk tashuvchilar bilan tutashuvni kelishib olish;
- transport vositalarining to'xtab qolmaslik choralarini ko'rish;
- turli to'lov va yig'uvlarni amalga oshirish.

Marshrut va transport turlari. Yuk tashish marshrutini tanlash — bu eng muhim va mas'ul bosqichi hisoblanadi. Qulay marshrut va kerakli transport xilini to'g'ri tanlash yuk tashish narxi, ishonchliligi va muddatiga ishonchli natija beradi.

Qulay marshrutni tanlash yukning xususiyati, uning o'lchami va belgilangan yo'nalishga bog'liq. Ekspeditor yo'l marshrutini belgilashda quyidagi parametrlarga e'tibor berishi kerak, jumaladan: transport vositalarining texnik xususiyati, yukning xususiyati, alohida tashish sharoitlari, hamma marshrut bosqichlarini nazorat qiladigan tashkilotlarni jamlash kabilar.

Xalqaro yuk tashish tizimidagi transport vositalari quyidagilardan iborat:

Temir yo'l transporti eksportning eng arzon transporti hisoblanadi. U ko'plab imtiyozlarga, ya'ni katta hajmdagi yuk ko'tarish qobiliyati, ishonchlilik va nisbatan katta tezlikka ega. Hozirgi paytda temir yo'l orqali xilma-xil yuklar, asosan, ommaviy, ya'ni xomashyo va qishloq xo'jalik mahsulotlari tashilmoqda. Konteynerlarning ommalashtirilishi temir yo'l raqobatini yanada kuchaytirdi.

Avtomobil transporti - transportning eng ommalashgan turi hisoblanib, ning imtiyozlari: manevrga ega ekanligi, moslashuvchanligi, tezligi. YUk tashishda tashqi savdo kompaniyalarini qoniqtiradigan transport — bu avtomobil transporti turidir. Avtomobil transporti orqali yuk tashilganda hisob uchun quyidagi omillar inobatga olinadi: yuklash vaqti, yo'l vaqti (haydovchining dam olish vaqti ham nazarga olinadi), xalqaro chegaralardan o'tish vaqti, geografik marshrut.

Havo transporti – mahsulot eksportida xorijiy hamkorga eng tez etkazib beradigan transport hisoblanadi va shuningdek, transportlar ichida eng qimmat transport turi hisoblanadi. Havo transporti marshrutning uzoqligiga qarab avtomobil va temir yo'l transporti bilan bimalol raqobatga ega turdir. Havo transporti orqali tez ayniydigan mahsulotlar va juda qimmat buyumlar va pochta tashiladi.

Dengiz transporti esa, jahondagieng qadimiy transport turi hisoblanadi va o'zining imtiyoziga qarab juda arzon va dunyo yuk aylanmasining 60–70 foizini tashkil etadi. Katta tezlikka ehtiyoj bo'lmagan yuklar dengiz transporti orqali tashiladi. Dengiz va okeanlardagi yuk tashishda suv transportiga raqobat umuman yo'q.

Tashqi iqtisodiy aloqalarda transport turini tanlash iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Masalan dengizga chiqish yoki chiqmaslikda ushbu mamlakat kompaniyalari tomonidan transport turini tanlash uziga xos ta'sirga ega. O'zbekistonning iqtisodiy-geografik joylashuvini nazarga oladigan bo'lsak bu erda dengiz transporti faoliyatini qat'iy belgilaydigan milliy hujjatlar yo'qdir. Bizning eksporterlarimiz dengiz transportidan faqat multimodal yuk tashuvida foydalanishadi.

Demak, yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, mahsulotlarni xorijga eksport qilishda o'ziga yarasha qiyinchilik, yuqori xarajat hamda qog'ozbozlik siyosati bilan mahsulotni hamkorga etkazib berishda yuqori muddatni talab qilmoqda.

**“JAHON BOZORI KON’YUNKTURASINI TAHLILI”
FANIDAN TEST SAVOLLARI**

1. Yuzaga kelgan pandemiya jahon iqtisodiyotiga har oyda qancha miqdorda iqtisodiy zarar keltirmoqda?

- A) qariyb 100 mlrd.dollar;
- B) qariyb 200 mlrd.dollar;
- C) qariyb 300 mlrd.dollar;
- D) qariyb 400 mlrd.dollar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020 yilning 24 yanvaridagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “ochiq bozor” haqida qanday fikrni bergan edi?

- A) “Ochiq bozor - mahsulot sifatini oshirish va tannarxni pasaytirish”;
- B) “Ochiq bozor - bozor islohotlarini jadal rivojlantiradi ”;
- C) “Ochiq bozor - yangi texnologiyalar olib kelishga majbur qiladi”;
- D) hamma javoblar to‘g‘ri.

4. Quyidagi qatorlardan “Jahon bozori kon’yunkturasini tahlili” fanining maqsadini toping?

- A) jahon bozoridagi holat va vaziyatni aniqlash hamda jahon bozorida narx-navo dinamikasini tahlil qilish;
- B) jahon bozori kon’yunkturasini tahlil qilish;
- C) jahon bozorida narxni iqtisodiy ko‘rsatkichlar yordamida aniqlash;
- D) hamma javoblar to‘g‘ri.

5. Quyidagi qatorlardan “Kon’yunktura prognozi”ning maqsadini toping?

- A) “Kon’yunktura prognozi”ning maqsadi - kon’yunkturaga ta’sir o‘tkazuvchi omillarning yaqin istiqboldagi xususiyatlarini aniqlash;
- B) “Kon’yunktura prognozi”ning maqsadi - xalqaro jahon bozorlarini kechagi, bugungi va istiqboldagi faoliyati va ahvoli-holatlarini tahlil qilish;
- C) “Kon’yunktura prognozi”ning maqsadi - jahon bozorida narxni iqtisodiy ko‘rsatkichlar yordamida aniqlash;
- D) “Kon’yunktura prognozi”ning maqsadi - bozordagi holatning asosiy parametrlarini aniqlash.

6. “Jahon bozori kon’yunkturasini tahlili” fanini o’rganish davomida jahon bozorlarini tahlil qilib qanday taklif yoki tavsiya berilishi mumkin?

- A) xalqaro bozorlarga chiqishda O’zbekistonning imkoniyati;
- B) xalqaro jahon bozorlariga chiqishda mamlakatimizning shart-sharoitlari;
- C) jahon bozorlari faoliyatida O’zbekiston ulushini yanada oshirish;
- D) hamma javoblar to’g’ri.

7. Bozor kon’yukturasini o’rganish zarurati quyidagi qaysi xususiyatga bog’liq bo’ladi?

- A) odatda bozorning sig’imi va segmentlanishi o’zgarib boradi, shu sababli ularning monitoringini doimiy ravishda amalga oshirish lozim;
- B) bozordagi omillar kompleks ravishda ta’sir o’tkazish sababli ularni alohida o’rganish tegishli samara bermaydi;
- C) bozor to’g’risidagi ma’lumotlar odatda istiqbolli vaziyatga ega, shu sababli, rejalashtirish uchun maxsus usullar talab qilinadi;
- D) hamma javoblar to’g’ri.

8. Quyidagi qatorlardan “Kon’yunktura” so’zining ma’nosini toping?

- A) Kon’yunktura - bu muayyan tovarlarga to’lash imkoniyati va uning taklifi o’rtasidagi nisbatdir;
- B) Kon’yunktura - tub mazmuni bilan bu bozor iqtisodiyoti kategoriyasidir;
- C) Kon’yunktura - bozor holati, undan xabardor bo’lib turishdan iboratdir;
- D) hamma javoblar to’g’ri.

9. Bozor kon’yunkturasini belgilab beruvchi omilni toping?

- A) talab va taklif;
- B) narx;
- C) raqobat;
- D) barcha javoblar to’g’ri.

10. Quyidagi qatorlardan “Kon’yunktura prognozi”ni toping?

- A) bozordagi holatni ma’lum davr ichida oldindan ko’rish;
- B) bozordagi holatni oldindan chuqur tahlil qilish;
- C) bozordagi holatning asosiy parametrlarini aniqlash;
- D) barcha javoblar to’g’ri.

11. O'zbekistonning mustaqillik yillaridagi quyidagi qaysi mamlakat mamlakatimizning tashqi savdodagi "Eng asosiy hamkor mamlakat" sifatida nom qozonmoqda?

- A) Rossiya;
- B) Xitoy;
- C) Turkiya;
- D) Qozog'iston.

12. 1 barrel necha litr?

- A) 59 litr;
- B) 69 litr;
- C) 149 litr;
- D) 159 litr.

13. "Bozor kon'yunkturasi" tushunchasi quyidagi qaysi xalqaro so'zlashuvdan olingan?

- A) lotinchadan;
- B) fransuzchadan;
- C) inglizchadan;
- D) nemischadan.

14. Quyidagi qatorlardan "bozor" tushunchasini toping?

- A) Bozor - keng ma'noda muomala sohasi bo'lib, tovar ayriboshlash munosabatlari va jarayonlari majmuidir;
- B) Bozor - ma'lum tarmoq tovarlariga ehtiyoj sezuvchi va uni qondirish imkoniyatiga ega bo'lgan potentsial iste'molchilarning majmui;
- C) Bozorda tovar bilan oldi-sotdi munosabatlari tovar ishlab chiqarish, tovar ayriboshlash va pul muomalasi qonunlari asosida amalga oshadi;
- D) hamma javoblar to'g'ri.

15. Quyidagi qatorlardan bozor kon'yunkturasining turini toping?

- A) kon'yunktura axborotnomasi;
- B) kon'yuktura tahlili;
- C) kon'yunktura istiqboli (prognozi);
- D) barcha javoblar bozor kon'yunkturasining turlari hisoblanadi.

16. Quyidagi qatorlardan “tashqi bozor”ga berilgan tarifni toping?

- A) Tashqi bozor - mamlakat ichki bozoriga xorijdan tovarlar sotib olib keltirishdan iborat bo'ladi;
- B) Tashqi bozor – bu mamlakat ichidagi tovar mahsulotlarining ayirboshlanishini qamrab oladi;
- C) Tashqi bozor - bu ishlab-chiqarilgan mahsulotlarning mamlakat ichidan tashqariga savdo uchun olib chiqilishi tushuniladi;
- D) hamma javoblar to'g'ri.

17. Quyidagi qatorlardan xom-ashyo tovarlari bozori kon'yunkturasi tahlilining xususiyatini toping?

- A) xom-ashyo tovarlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilishdagi o'zgarishlar;
- B) xom-ashyo bozori tarkibidagi o'zgarishlar va xom-ashyo tovarlarining xalqaro savdosining hajmi;
- C) tovarlarning geografik oqimlari va narx shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari;
- D) hamma javoblar to'g'ri.

18. Quyidagi qatorlardan “jahon bozori”ga berilgan tarifni toping?

- A) Jahon bozori - bu mamlakatlar o'rtasidagi oldi-sotdi, ya'ni tovar-pul munosabatlardan iborat;
- B) Jahon bozori – bu mamlakat ichidagi tovar mahsulotlarining ayirboshlanishini qamrab oladi;
- C) Jahon bozori - bu mamlakatda ishlab-chiqarilgan mahsulotlarning mamlakat ichidan tashqariga savdo uchun olib chiqilishi tushuniladi;
- D) hamma javoblar to'g'ri.

19. Quyidagi qatorlardan “ichki bozor”ga berilgan tarifni toping?

- A) Ichki bozor - bu mamlakatlar o'rtasidagi oldi-sotdi, ya'ni tovar-pul munosabatlardan iborat;
- B) Ichki bozor – bu mamlakat ichidagi tovar mahsulotlarining ayirboshlanishini qamrab oladi;
- C) Ichki bozor - bu mamlakatda ishlab-chiqarilgan mahsulotlarning mamlakat ichidan tashqariga savdo uchun olib chiqilishi tushuniladi;
- D) hamma javoblar to'g'ri.

20. Quyidagi qatorlardan “Kon’yunktura axborotnomasi”ni toping?

- A) bu bozor kon’yunkturasining hozirgi holati va uning asosiy xususiyatlarini aks ettiruvchi hujjatdir;
- B) bu bozor kon’yunkturani o’rganishning eng sodda shakli bo’lib, odatda savdo assortimentining maqbulligini baholash uchun foydalaniladi;
- C) bu bozor kon’yunkturasi haqidagi batafsil tahlillar ma’lumotnomasidir;
- D) barcha javoblar to’g’ri.

21. Quyidagi qatorlardan “Jahon bozori kon’yunkturasini tahlili” fanining vazifasini toping?

- A) jahon bozoridagi holat va vaziyatni aniqlash;
- B) jahon bozorida narx-navo dinamikasini tahlil qilish;
- C) jahon bozorida narxni iqtisodiy ko’rsatkichlar yordamida aniqlash;
- D) hamma javoblar to’g’ri.

22. Quyidagi qatorlardan “Kon’yunktura”ga berilgan tarifni toping?

- A) Kon’yunktura - bu muayyan tovarlarga to’lash imkoniyati va uning taklifi o’rtasidagi nisbatdir;
- B) Kon’yunktura - tub mazmuni bilan bozor iqtisodiyoti kategoriyasidir;
- C) Kon’yunktura - bozor holati, undan xabardor bo’lib turishdan iboratdir;
- D) hamma javoblar to’g’ri.

23. Jahon oltin bozorida oltinning narxini qaysi bozor aniqlab va belgilab beradi?

- A) London oltin bozori (London Gold Market Fixing Limited);
- B) Nyu-York oltin bozori (New York Gold Market Fixing Limited);
- C) SHveytsariya oltin bozori (Switzerland Gold Market Fixing Limited);
- D) Gonkong oltin bozori (Hong kong Gold Market Fixing Limited).

24. Quyidagi qatorlardan jahondagi eng yirik paxta mahsulotini (tola) sotadigan birjani toping?

- A) Nyu-York birjasi;
- B) CHjenchjou birjasi;
- C) Liverpul birjasi;
- D) Singapur birjasi.

25. 1 unsiya necha gramm?

- A) taxminan 11 gramm;
- B) taxminan 21 gramm;
- C) taxminan 31 gramm;
- D) taxminan 41 gramm.

26. 1 funt og'irlik o'lchovi qanchani tashkil qiladi?

- A) taxminan 0,45 kg.ni tashkil qiladi;
- B) 54 kg.ni tashkil qiladi;
- C) 540 kg.ni tashkil qiladi;
- D) 5,5 tn.ni tashkil qiladi.

27. Quyidagi qatorlardan moliyaviy bozorning xususiyatini toping?

- A) xalqaro kreditlar va qimmatli qog'ozlar bozori;
- B) valyuta bozori;
- C) sug'urta va pensiya fondlari bozori;
- D) hamma javoblar to'g'ri.

28. Quyidagi qatorlardan kotirovka so'zining ma'nosini toping?

- A) narxning shakllanish jarayoni;
- B) kontraktatsiyani amalga oshirish jarayoni;
- C) xalqaro bozorlarda narxni keskin ko'tarilish yoki pasayishi jarayoni;
- D) mahsulotning birjalardagi eksport narxi.

29. Quyidagi qatorlardan moliyaviy bozor tahlilining vazifasini toping?

- A) tovarlarga bo'lgan baholar uchun bozorlar kon'yunkturasini baholash;
- B) kotirovkalar o'zgarishiga ta'sir etgan omillarni tahlil qilish;
- C) jahon bozorlaridagi valyutalarni kelgusi holatini prognoz qilish;
- D) hamma javoblar to'g'ri.

30. Jahon bozorida gaz narxi quyidagi qaysi o'lchov birligiga asoslanadi?

- A) 1 m³;
- B) 10 m³;
- C) 100 m³;
- D) 1000 m³.

GLOSSARIY

Aktsiya – uning egasi aktsiyadorlik jamiyati kapitaliga o'zining ma'lum hissasini qo'shganiga va uning foydasidan dividend shaklida daromad olish xuquqi borligiga guvohlik beruvchi qimmatli qog'oz.

Aktsiyadorlik jamiyati (kompaniyasi) – kapitali qimmatli qog'oz shaklida rasmiylashtirilgan turli omonatchilarning pul mablag'laridan tarkib topuvchi korxona (kompaniya).

Aktsioner – korxona yoki kompaniya aktsiyalarining egasi. **Bojxona boji** — tovar davlat chegarasini kesib o'tganda solinadigan maxsus pul solig'i.

ASEAN – Janubi-SHarqiy Osiyo mamlakatlarining submintaqaviy uyushmasi. 1967 yilda tashkil etilgan bo'lib, ushbu uyushmaga Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand, Filippin, Vetnam, Kambodja, Bruney, Myanma va Laos mamlakatlari a'zo.

Aholining real daromadlari – narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori, ya'ni aholining ixtiyorida bo'lgan daromadning xarid quvvati.

“Aqlli kishilarning ketib kolishi” - mamlakatdan “intellektual elita” vakillarining chet elda ishga joylashish maqsadida chiqib ketishi.

Bandlik – mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini

qondirish bilan bog'liq bo'lgan va qonunga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati.

Bank aktivlari – banklarning asosiy faoliyatini amalga oshirishda foydalanuvchi turli moddiy va moliyaviy resurslar majmui. Ular asosan bank kreditlari, asosiy vositalari, sotib olgan qimmatli qog'ozlari, investitsiyalari, valyuta ko'rinishida bo'ladi.

Bank depozitlari – jismoniy va yuridik shaxslarning bank muassasalariga ma'lum muddatga va muddatsiz omonat shaklida qo'yilgan bo'sh pul mablag'lari.

Bank tizimining likvidligi – bankning o'z majburiyatlarini vaqtida va so'zsiz bajara olish imkoniyati.

Bank-moliya tizimining barqarorligi – banklarning va boshqa moliya muassasalarining o'z majburiyatlari yuzasidan talablarga to'la javob bera olishi. Bu likvidlilik, kapitalning etarliligi, aktivlar sifati, rentabellik ko'rsatkichlari orqali aniqlanadi.

Bank o'tkazmalari — o'tkazuvchi (to'lovchi) talabiga muvofiq, uning hisobidan oluvchi (benifitsiar) foydasiga bir bank tomonidan boshqa bankka to'lov talablari vositasida bajariladigan hisob-kitob ko'rinishi.

Bankrot — xo'jalik sudi tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga yoki majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini bajarishga qodir emasligi.

Barqarorlik — narsa va hodisalarning amal qilishi va rivojlanishdagi o'ziga xos muayyanlik holati.

Barter — tovarni tovarga to'g'ridan-to'g'ri ayirboshlanadigan savdo bitimi.

Birja — bu doimiy ishlovchi ulgurji bozorning zamonaviy eng ko'p rivojlangan shakli bo'lib, unda standartlar (belgilangan navlar) bo'yicha, ba'zan namunalar bo'yicha ommaviy almashtiriluvchi tovarlarning, shuningdek, almashtiriluvchi qimmatli qog'ozlar va horijiy valyuta oldi-sotdisi amalga oshiriladi. Birjalar tovar, fond, fraxta va valyuta birjalariga bo'linadi.

Biznes — foyda olishga qaratilgan (ehtiyoj va muhtojlikni qondirish natijasida) tadbirkorlik faoliyatini anglatadi. U o'zining mulkiy javobgarligi ostida xususiy yoki qarz mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan, asosiy maqsadi foyda olish va o'z ishini rivojlantirish nuqtai nazaridan yuritiluvchi iqtisodiy faoliyat.

Bojxona boji — tovar davlat chegarasini kesib o'tganda solinadigan maxsus pul solig'i.

Bojxona ittifoqi — ikki va undan ortiq davlatlarning bir-biriga va uchinchi mamlakatlarga nisbatan soddalashtirilgan tarif siyosatini o'tkazishidir.

Bojxona tarifi — tovar oqimlarining chegarani kesib o'tishida davlat tomonidan olinadigan soliq miqdori ko'rsatilgan tartiblangan tovarlar ro'yxati.

Bozor kon'yunkturasi — muayyan vaqt mobaynida tovarlar bozorining holatini tavsiflovchi vaqtinchalik iqtisodiy vaziyat bo'lib, quyidagi belgilar orqali aniqlanadi: ichki va tashqi savdodagi o'zgarishlar; ishlab chiqarish va qurilish dinamikasi; tovar zahiralar harakati; narxlar dinamikasi va boshqalar.

Byudjet defitsiti — byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan oshib ketishi natijasida vujudga kelgan taqchillik.

Byurokratik to'siqlar — iqtisodiyotning turli darajalarida xo'jalik faoliyatini tashkil etish, xo'jalik echimlarini samarali hal etishga to'sqinlik qiluvchi, asossiz ravishdagi va sub'ektiv tavsifdagi rasmiyatchilik, tartib-qoidalar.

Valyuta — ma'lum bir davlatning qonun bilan o'rnatilgan pul vositasi (milliy valyuta), bir yoki bir necha etakchi mamlakatlarning valyutasi ko'rinishidagi jahon

rezerv pullari, Xalqaro valyuta fondi va Yevropa valyuta tizimi a'zolari tomonidan ko'p tomonlama hisob-kitoblarda foydalaniladigan xalqaro valyuta birliklari.

Valyuta arbitraji- svoplar va ssuda kapitali bozorida bitimlar birgalikda amalga oshirilini nazarda tutuvchi banklararo operatsiyalar.

Valyuta bozorlari — milliy valyuta ishtirokida talab va taklif ta'sirida yuzaga keluvchi valyuta kursiga muvofiq xorijiy valyutalarini oldi-sotdi qilinadigan rasmiy markazlar.

Valyuta intervensiyasi — davlat organlari tomonidan milliy bozorda xorijiy valyutani sotish va sotib olish.

Valyuta kliringi – ikki va undan ortiq hukumat o'rtasida moliyaviy talablar va majburiyatlarni o'zaro hisobga olish haqidagi kelishuv.

Valyuta kotirovkasi – bir valyuta bahosini boshqa valyutalarga ifodalashining sonli yozuvi.

Valyuta kursi — milliy valyutalar o'rtasidagi nisbat, bir mamlakat valyutasining xorijiy pul birliklarida ifodalanishi.

Valyuta rezervlari — xorijiy valyuta, oltin, SDR, XVFDagi rezerv pozitsiya ko'rinishidagi valyuta-likvid vositalarning jami.

Valyuta siyosati — mamlakatda xorijiy valyutalarning pul-kredit aylanmasini tartibga solishga yo'naltirilgan tadbirlar tizimi.

Valyuta cheklashlari – xorij valyutasi va boshqa qimmatli narsalar (oltin) bo'yicha operatsiyalarni cheklash uchun yo'naltirilgan ma'muriy va qonuniy tartibda belgilangan me'yoriy qoidalar tizimi.

Veksel – belgilangan ko'rinishda tuzilgan yozma qarzдорlik majburiyati, veksel egasi ko'rsatilgan muddat tugaganidan so'ng belgilangan pul miqdorini qarzдорdan talab qilishga haqlidir.

GATT — Savdo va tariflar bo'yicha Bosh kelishuv — tashqi savdo operatsiyalarini o'tkazishda belgilangan tamoyillarga amal qilishga rozi bo'lgan mamlakatlarni birlashtiruvchi savdo va tarif masalalari bo'yicha xalqaro akt.

Global moliyaviy-iqtisodiy bozor – jahon mamlakatlari o'rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy aloqalarni yagona xo'jalik tarzida amal qilishiga asoslangan munosabatlar.

Global muammolar — olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan va o'z echimini topishida jahondagi barcha mamlakatlarning birgalikdagi harakatlarini talab etuvchi tsivilizatsiyamizning eng dolzarb masalalari.

Davlat byudjeti – davlat daromadlari va sarflarining moliyaviy rejasi.

Davlat qarzi – davlatning o'z fuqarolari, banklar, korxona va tashkilotlar, shuningdek, xorij mamlakatlaridan qarzi. O'z manbaiga qarab, davlat qarzlariga, ya'ni ichki va tashqi davlat qarziga bo'linadi. Davlat o'z xarajatlarini daromadi bilan qoplay olmay qarz oladi, qarz hisobidan o'z byudjetining kamomadini vaqtincha qoplaydi.

Davlat mulki – davlat vazifalari bajarishga xizmat qiluvchi davlat korxona va muassasalarining mulki.

Daromad solig'i – fuqarolarni bir yil davomidagi yalpi daromadidan olinadigan majburiy to'lov (soliq).

Devalvatsiya – milliy valyuta kursini xorijiy valyutaga nisbatan pasaytirilishi (teskari jarayon - revalvatsiya).

Demping – tovarlarni tashqi bozorda ichki bozorga nisbatan arzon bahoda sotish. Tashqi bozorni egallash uchun mamlakatlar o'z tovarini ba'zan ishlab chiqarish xarajatlaridan ham past (arzon) baholarda chetga chiqarishi mumkin. YA'ni: demping (dumping) tovarlarni bozorda sun'iy pasaytirilgan narxlarda, hatto qiymatidan past narxda sotishdir.

Dempingdan asosiy maqsad, raqobatchilarni siqib chiqarish va tashqi sotuv bozorlarini egallash hisoblanadi. SHu sababli, ba'zi holarda bu amaliyot adolatsiz raqobat sifatida baholanishi mumkin. Bu holda demping ham eksporter-firma vositalari yordamida, ham davlat yordamida eksport etkazib berishlarini davlat byudjeti mablag'laridan subsidiyalash hisobiga amalga oshirilishi mumkin. SHuningdek, ko'pchilik shirkatlar dempingdan sotuv narxlar va ustama darajasini qisqartirish hisobiga soliq to'lovlarini qisqartirish maqsadlarida ham foydalanishadi. Bu soliqqa tortishni minimallashtirishning turli sxemalarini joriy qilish imkoniyati bilan bog'liq bo'lib, uning hajmi ustama darajasi va korxona yalpi mahsuloti bilan to'ridan-to'g'ri bog'liq.

Denominatsiya- Denominatsiya (lotincha denominato) – mamlakatdagi narxlar ko'lamini pul birligini yiriklashtirish (uning o'zini qayta nomlashsiz) hisobiga yiriklashtirish jarayoni bo'lib, bu to'lov aylanmasi, hisob-kitoblarni soddalashtirish va milliy valyutaga to'laqlonlilik berish maqsadlarida amalga oshiriladi. SHu yo'l bilan milliy valyuta yangi qiymat hosil qiladi.

“Demografik portlash” - jahonning kam rivojlangan va kambag'al mamlakatlarida nazorat qilib bo'lmaydigan darajada aholi sonining o'sishi.

Deflyatsiya – inflyatsiya davrida muomaladagi qog'oz pulni kamaytirish. Davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va pul - kredit tadbirlarini qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Diversifikatsiya – (lotinchadan diversus- har xil va facere-qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko'paytirish.

Dividend – aktsionerlik jamiyati sof foydasidan aktsiya egalariga to'lanadigan qismi bo'lib, u aktsionerlarga naqd pul yoki aktsiyalar bilan to'lanadi.

Dollar – dollar, birinchidan AQSH pul birligi, 100 tsentga teng. 1786 yilda kumush dollar, 1965 yilda esa oltin, kumush, mis-nikelli dollar zarb qilingan. AQSh dollari xalqaro valyuta hisob-kitoblarida keng qo'llanadi. Muomalada 100, 50, 20, 10, 5, 2, 1 dollarli qog'oz pullar. Dollar, ikkinchidan Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Liberiya, Efiopiya, Malayziya, Singapur, Bermud orollari, Britaniya Gondurasi kabi davlatlarining pul birligi hisoblanadi.

Yevro - universal yevropa hisob-kitob-to'lov birligi bo'lib, Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar hududida EKYU o'rniga joriy etilgan.

Yevropa valyuta tizimi (EVT) - Yevropa Ittifoqi a'zolarining hududiy valyuta guruhi.

Yevropa Ittifoqi (EI) - Yevropaning 27 ta davlatini birlashtiruvchi iqtisodiy va siyosiy guruh.

Yevropa erkin savdo uyushmasi (EESU) – Yevropadagi qator etakchi sanoati va savdosi rivojlangan mamlakatlarning savdo-iqtisodiy tashkiloti bo'lib, 1960- yilda Buyuk Britaniya va SHimoliy Irlandiya birlashgan qirolligi tashabbusi bilan Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati davlatlari ishtirokida tashkil topdi. “Umumiy bozor”ga qo'shilishi munosabati bilan 1973-yili Buyuk Britaniya va Daniya, 1986-yili Portugaliya EESUdan chiqdi. Bu uyushmaning hozirgi a'zolari Avstriya, Islandiya, Norvegiya, SHvetsiya, SHveytsariya, Finlyandiya. Kotibiyatining shtab-kvartirasi Jeneva shahridir.

Jahon banki – 1944 yilda Xalqaro valyuta fondi bilan bir vaqtda tuzilgan birinchi davlatlararo investitsiya institutidir. Bank o'zining faoliyatini 1946 yil 25 iyundan boshlagan.

Jahon bahosi - talab va taklif egri chiziqlari ta'sirini hisobga olgan holda milliy narx ko'rsatkichlari ta'sirida xalkaro savdo markazlarida xosil bo'ladi.

Jahon bozori — moddiylashtirilgan va moddiylashtirilmagan ko'rinishidagi ijtimoiy mahsulotni ishlab chikarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol boskichlarni o'z ichiga oluvchi XIM sub'ektlari (milliy va hududiy iqtisodiyotlar, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar)ning o'zaro iqtisodiy ta'sirlashish global muhitidir.

Jahon bozori kon'yunkturasi - jahon tovar bozorlaridagi sotish sharti, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o'zgarish tendentsiyalari.

Jahon valyuta-moliya tizimi (JVMT) — xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida uzoq davom etgan evolyutsiya natijasida shakllangan va davlatlararo bitimlar orkali mustahkamlangan valyuta munosabatlarini tashkil etish ko'rinishidir.

Jahon ishchi kuchi bozori (JIKB) — milliy xo'jalik tizimlari va jahon iqtisodiyoti doirasida ishlab chiqaruvchi kuchlarning darajasi, tabiati va joylashuviga sezilarli ta'sir etuvchi iqtisodiy faol aholining mamlakatlar va hududlar o'rtasida jami migratsion aylanmasi.

Jahon puli – xalqaro miqyosda hamma uchun umumiy xarid vositasi, umumiy to'lov vositasi, boylikning umumiy moddiy timsoli, baynalminal qiymat ifodasi bo'lgan puldir. Jahon puli vazifasini dastlab ma'lum vazifadagi oltin yombilari bajargan, so'ngra xalqaro miqyosda obro'-e'tiborli milliy pul (dollar, funt sterling) jahon pullari deb e'tirof etilgan.

Jahon savdo tashkiloti (JST) — (World Trade OrganizationWTO). Bu tashkilot GATT (Tariflar va savdolar to'g'risidagi bosh bitim) doirasidagi Urugvay raundi muzokaralari natijasida paydo bo'lgan. Uning shtab-kvartirasi Jeneva shahrida joylashgan. JST GATT, GATS (Xizmatlar ko'rsatish savdosi to'grisidagi bosh bitim) va TRIPS (Intellectual mulk xuquqining savdo aspektlari to'grisidagi bosh bitim)lar asosida tashkil etilgan ko'ptomonlama savdo-iqtisodiy tashkilotdir. SHuningdek, u - xalqaro savdoni institutsional va xuquqiy asosini tashkil etuvchi mustaqil davlatlararo tashkilot.

Joriy kon'yunktura – muayyan davrda tovarlarga bo'lgan talab va taklifning tarkibi, dinamikasini shakllantiruvchi iqtisodiy sharoit va omillar majmui. Joriy kon'yunktura ayni davrdagi milliy va jahon iqtisodiyotining u yoki bu omillaridan tarkib topgan vaqtinchalik vaziyatni ifodalaydi.

Ijtimoiy siyosat - daromadlarni taqsimlashda iqtisodiyot qatnashchilari o'rtasida tengsizlik natijasida vujudga keladigan ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan davlatning chora tadbirlaridan iborat.

Ijtimoiy iqtisodiy ehtiyojlar - kishilarning yashashi, mehnat qilishi va ma'lum iqtisodiy mavqega ega bo'lishi uchun iste'mol etilishi zarur bo'lgan mahsulotlar va xizmatlar majmuidir. Bu faqat tirikchilik ehtiyoji emas, balki insonning shaxs sifatida kamol topish zaruriyati hamdir.

Immigrant – muhojir, boshqa mamlakatdan ko'chib kelgan kishi.

Immigratsion kvota — xorijiy fuqarolarning kirib kelishini davlat tomonidan miqdoriy cheklash.

Import – mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini, texnologiyasini va xizmatlarni olib kelish. Import xalqaro mehnat taqsimoti natijasidir. U vaqtni tejashga, iqtisodiyot, aholi ehtiyojini qondirish vazifalarini muvaffaqiyat bilan hal qilishga ko'maklashadi.

Import operatsiyalari- mahsulotni xorijiy sheriklardan sotib olish va mamlakatga olib kirish.

Investitsiya – bu iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog'ozlar (aktsiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir.

Investitsiya dasturi – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish uchun ishlab chiqilgan dastur.

Investitsiyaviy muhit — mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning samarali aylanishi zarur bo'lgan shart-sharoitlar kompleksi.

Investitsiya muhiti – investitsiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar majmui.

Investitsiyaviy kreditlar – ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizatsiyalash va rekonstruktsiya qilish, yangi bino va inshootlarni qurish uchun zarur bo'lgan vositalar hamda qimmatli qog'ozlarni sotib olish maqsadida olingan uzoq muddatli kreditlar.

Investitsiyaviy loyiha dasturi - O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunchilik andozalariga muvofiq, ishlab chiqilgan zaruriy hujjatlarni hisobga olgan holda kapital qo'yilmalar hajmi va amalga oshirish muddatining maqsadga muvofiqligini asoslovchi va investitsiyalarni (biznes-reja) amalga oshirish bo'yicha amaliy faoliyat dasturi.

Investitsiyaviy siyosat – savdo menejmenti umumiy strategiyasining bir qismi bo'lib, korxonani rivojlantirish uchun aktivlarni kengaytirishning eng samarali yo'llarini tiklashni nazarda tutadi.

Investitsiyaviy hamkorlik - xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bir ko'rinishi bo'lib, resurslarni ratsional taqsimlash, xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish natijasidagi ustunliklaridan foydalanish orqali davlat tomonidan iqtisodiyotda nisbatan yuqori natijalarga erishish, texnologik ishlab chiqarish tuzilmasini yangilash kabilarni maqsad qilgan.

Investor - kapital mablag' sarflayotgan davlat, tashkilot, korxona yoki shaxs.

Injiniring — ishlab chiqarishni ta'minlash, mahsulot sotishni uyushtirish, ishlab chiqarish ob'ektini ko'rib, ishga tushirish bo'yicha xizmatlar.

Inkasso – mijoz (eksportyor) buyrug'iga ko'ra jo'natilgan tovarlar yoki xizmatlar uchun importyordan to'lovni qabul qilish va bu mablag'larni eksportyor hisobiga o'tkazish operatsiyasi.

Inkotermc - (Incoterms – international commerce terms) tovarlarni ortish, tashish, tushirish va sug'urta qilish bilan bog'liq xalqaro savdo shartlarini anglatuvchi savdo iboralari. Iboralar Halqato savdo palatasi tomonidan belgilangan va eksport va import qiluvchilarning xalqaro savdo bitimlarida tovarlarni etkazib berish uchun to'lovni amalga oshirishni tartibga solishga taalluqli barcha huquq, majburiyat va javobgarligini belgilaydi.

FCA – «Franko tashuvchik» (joy nomi) iborasi sotuvchi bojxona to'lovlaridan o'tgan tovarni haridor tomonidan ko'rsatilgan tashuvchiga aytilgan joyga qadar olib borib berishini bildiradi. Qayd etish kerakki, etkazib berish joyini tanlash ushbu joyda tovarni tushirib olish va ortish bilan bog'liq majburiyatiga ta'sir qiladi. Agar etkazib berish sotuvchining binosida amalga oshirilayotgan bo'lsa, u holda ortish uchun sotuvchi javob beradi. Agar etkazib berish boshqa joyga bo'ladigan bo'lsa, u holda tovarni ortish uchun sotuvchi javob bermaydi.

FAS – «Kema bortigacha franko» (ortish porti nomi) deganda, ushbu soniyadan boshlab tovarni yo'qotish va unga ziyon etishi bilan bog'liq barcha xarajatlar haridor zimmasiga tushishi tushuniladi. FAS iborasi shartlariga ko'ra, sotuvchiga tovarni eksport qilish uchun tayyorlash majburiyati yuklanadi. SHu bilan «Inkotermcning» ushbu 2000-yilgi nashri oldingilaridan farq qiladi. Ilgarigi nashrlarda eksport qilish uchun bojxona to'lovlarini amalga oshirish haridor zimmasiga yuklanar edi.

FOB – «Franko bort» (ortish porti nomi) tovar ortish portida kema chegarasidan o'tgandan vaqtdan boshlab, sotuvchi etkazib berishni bajardi deganidir. Bu, ushbu soniyadan boshlab tovarni yo'qotish va unga ziyon etishi bilan bog'liq barcha xarajatlar haridor zimmasiga o'tishini bildiradi. FOB iborasi shartlariga ko'ra, tovarni eksport qilish bilan bog'liq barcha xarajatlar sotuvchi zimmasiga yuklanadi.

CFR – «Qiymat va fraxt» (etkazib berish porti nomi) iborasi haridor tovar ortish portidagi kema chegarasidan o'tgandan boshlab etkazib berishni amalga oshirganligini anglatadi. Sotuvchi tovarni aytilgan portga etkazib berish bilan bog'liq xarajat va fraxtni to'lab berishga majbur. Ammo, tovarning yo'qotilishi va unga ziyon etishi bilan bog'liq hamda tovar ortilgandan keyingi boshqa barcha qo'shimcha xarajatlar sotuvchidan haridorga o'tadi.

CIF – «Qiymat, sug'urta va fraxt» (etkazib berish porti nomi) iborasi haridor tovar ortish portidagi kema chegarasidan o'tgandan boshlab etkazib berishni amalga oshirganligini anglatadi. Sotuvchi tovarni aytilgan portga etkazib berish bilan bog'liq xarajat va fraxtni to'lab berishga majbur. Ammo, tovarning yo'qotilishi va unga ziyon etishi bilan bog'liq hamda tovar ortilgandan keyingi boshqa barcha qo'shimcha xarajatlar sotuvchidan haridorga o'tadi. Ammo, CIF iborasi shartlariga ko'ra, sotuvchiga haridor foydasi va tovarni tashish paytida yo'qotish va yonga ziyon etishi havfiga qarshi dengiz sug'urtasini sotib olish majburiyati yuklanadi. CIF iborasi shartlariga ko'ra, sotuvchiga tovarni eksport qilish bo'yicha bojxona to'lovlarini amalga oshirish majburiyatlari ham yuklanadi.

CPT – «Fraxt/tashishga ...gacha haq to'langan (etkazib berish porti nomi) iborasi sotuvchi tovarni unga aytilgan etkazib beruvchiga qadar etkazib berishini bildiradi. Bundan tashqari, sotuvchi tovarni aytilgan joyga qadar etkazib berish bilan bog'liq barcha xarajatlarni to'laydi. Bu, haridor, tovar etkazib beruvchiga topshirilgandan keyin uning yo'qolishi yoki ziyon etishi bilan bog'liq barcha havflarni o'z zimmasiga oladi, deganidir. Bunda “etkazib beruvchi” deganda tovarni shartnoma asosida temir yo'l, avtomobil, havo yo'li, dengiz orqali va ichki suv yo'li yoxud ushbu transportlardan aralash foydalangan holda o'zi etkazib beradi yoki etkazib berishni o'z bo'yniga oladi.

Tovar kelishilgan joyga bir necha etkazib beruvchilar tomonidan tashib berilgan holda, havf ularning birinchisiga berilgan paytda o'tadi. SRT iborasi shartlariga ko'ra, sotuvchi zimmasiga tovarni eksport uchun bojxona tozalashi vazifasi yuklanadi.

CIP – «Fraxt/tashuv va sug'urta ...gacha haq to'langan (etkazib berish porti nomi) iborasi sotuvchi tovarni unga aytilgan tashuvchiga etkazib berishini bildiradi. Bundan tashqari, sotuvchi tovarni aytilgan joyga qadar etkazib berish bilan bog'liq barcha xarajatlarni to'laydi. Bu, haridor tovarni shunday yo'l bilan etkazib berish bilan bog'liq barcha havflar va qo'shimcha xarajatlarni zimmasiga olishini bildiradi. Ammo CIP shartlariga ko'ra, sotuvchiga shuningdek, tovarni haridor foydasiga tashish paytida yo'qotish va ziyon etish havfidan sug'urta qilish majburiyati ham yuklanadi. Tovar kelishilgan joyga bir necha etkazib beruvchilar tomonidan tashib berilgan holda, havf ularning birinchisiga berilgan paytda o'tadi.

DAF – «CHegaragacha etkazib berish» (etkazib berish porti nomi) iborasi sotuvchi bojxona tozalashidan o'tkadilgan hali tushirilmagan tovarni eksport uchun taqdim etganda, lekin hali tashib kelingan transport vositasida haridor ixtiyoriga chegarada u ko'rsatgan nuqta yoki joyda tovarning import uchun qo'shni mamlakat bojxona chegarasiga qadar etkazib berishni amalga oshirganligini bildiradi. «CHegara» deganda eksport mamlakati chegarasini ham qo'shgan holda har qanday chegara tushuniladi.

DES – «Kemadan tashib berish» (etkazib berish porti nomi) iborasi sotuvchi bojxona tozalashidan o'tmagan tovarni import uchun haridor ixtiyoriga aytilgan etkazib berish portidagi kema bortida taqdim qilgan holda etkazib berishni bajarganligini bildiradi. Sotuvchi tovarni u tushirilganga qadar, aytilgan portga etkazib berish bo'yicha barcha havf va xarajatlarni zimmasiga oladi.

DEQ – «Pristandan etkazib berishi» (etkazib berish porti nomi) iborasi shartlariga ko'ra, import uchun bojxona tozalashidan o'tmagan tovar haridor ixtiyoriga aytilgan port pristanida taqdim qilingan paytdan boshlab etkazib berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajargan hisoblanadi. Sotuvchi tovarni pristanga etkazib berish va tushirish bilan bog'liq barcha xarajatlar va havflarni zimmasiga olishi kerak. DEQ iborasi haridorga tovarni import uchun bojxona tozalashidan o'tkazish, import bilan bog'liq boshqa soliqlar, bojlar va boshqa yig'implarni to'lash majburiyatini yuklaydi.

DDU – «Boj to'lashsiz etkazib berish» (etkazib berish porti nomi) iborasi sotuvchi bojxona tozalashidan o'tmagan, transport vositasidan tushirilmagan tovarni haridor ixtiyoriga aytilgan portda taqdim qilishini bildiradi. Haridor tovarni ushbu joyga tashib kelish bilan bog'liq barcha xarajat va havflarni, etkazib berilayotgan mamlakatda importdan olinadigan har qanday yig'implarni istisno qilgan holda, o'z zimmasiga olishi kerak. Bunday yig'implar, shuningdek, u import uchun bojxona

tozalashidan vaqtida o'ta olmaganlik bilan bog'liq barcha boshqa xarajat va havflarni haridor o'z zimmasiga oladi. Tovarni tushirish va qayta ortish majburiyati, havflari va xarajatlari etkazib berish uchun tanlangan joy kimning nazoratida ekanligiga bog'liq.

DDP – «Bojni to'lash sharti bilan etkazib berish» (etkazib berish porti nomi) iborasi sotuvchi bojxona tozalashidan o'tgan va tashib keligan transport vositasida tushirilmagan tovarni haridor ixtiyoriga aytilgan portda taqdim qilishini bildiradi. Sotuvchi tovarni tashish bilan bog'liq barcha havf va xarajatlarni, shu jumladan, etkazib berish mamlakatga import qilish uchun barcha yig'implarni ham, o'z zimmasiga olishi kerak. EXW iborasi sotuvchiga minimal majburiyatlar yuklasa, DDP iborasi sotuvchining maksimal majburiyatlarini bildiradi.

Innovatsiya – fan yutuqlari va ilg'or tajribadan foydalanishga asoslangan texnika, texnologiya, mehnatni tashkil qilish, boshqaruv sohasida yangilik kiritish.

Innovatsion faoliyat — Nazariy modelni bozor talabiga mos texnologiya-tovarga aylantirishdan iborat uzoq jarayondir.

Innovatsion texnologiyalar – iqtisodiyotga yangiliklarni tadbiq etish bosqichlarida qo'llaniluvchi usul va vositalar majmui bo'lib, o'z ichiga joriy etish, trening, konsalting, transfert, audit, injiniring kabi turlarini oladi.

Integratsiya – bir necha elementlarni bir butunga birlashtirish. Iqtisodiyotda xo'jalik hayotni baynalminallashtirishning oliy shakli bo'lib, bunga xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashtirish ob'ektiv ravishda sabab bo'ladi.

Inflyatsiya – pul muomalasi qonunlarining buzilishi natijasida milliy valyutaning qadrsizlanishi, narxlarning o'sishi.

Inflyatsiya darajasi – ma'lum vaqt ichida (oy, yil) narxlar darajasining foizdagi o'zgarishi.

Infratuzilma – tovar ishlab chiqarish shartlarini ta'minlovchi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari kompleksi: yo'llar, aloqa, transport, maorif, sog'liqni saqlash.

Inqirozga qarshi mo'ljallangan choralar dasturi – jahon mamlakatlari tomonidan va xususan O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan iqtisodiy inqirozga qarshi ishlab chiqilgan choralar dasturi bo'lib, mazkur dasturda talabni rag'batlantirishga yo'naltirilgan bir qator moliyaviy imtiyozlar va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlovchi chora-tabdirlar majmui o'z aksini topgan.

Ipoteka – bankning garov xat, ko'chmas mulk garovi asosida muayyan muddatga ssuda berishi.

Ipoteka krediti - joylarda tasdiqlangan namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga barpo etiladigan uy-joy garovi ostida beriladigan uzoq muddatli kredit. Ipoteka kreditlari tijorat banklari tomonidan qaytarishlik, to'lovlik, ta'minlanganlik va muddatlilik shartlarida beriladi.

Iste'mol – ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining oxirgi fazasi, ijtimoiy mahsulotdan aholini iqtisodiy talablarini qondirish jarayoni.

Iste'mol bozori - aholi iste'moli uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlarning ayirboshlanishi.

Iste'mol savati - muayyan oziq-ovqat, sanoat mollari va xizmatlarning tirikchilikni ta'minlash uchun etarli bo'lgan miqdori.

Iste'mol krediti – markaziy bank tomonidan barqarorlik davrida qo'llaniladigan pul siyosati dastagi. U banklar va boshqa maxsus kredit institutlari tomonidan aholining uzoq muddatli iste'mol tovarlarini sotib olish uchun beriladigan kredit.

Ish bilan band bo'lgan jami aholi – ishchi kuchi (iqtisodiy faol aholi)ning ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan qismi.

Ishlab chiqarish – ma'lum davrda alohida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tarmoqlar va iqtisodiy sektorlar tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar qiymati.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi – ishlab chiqarishning rivojlanishi uchun tashqi shart-sharoitlarni ta'minlovchi tarmoqlar majmui bo'lib, o'z ichiga temir va avtomobil yo'llari, elektr, gaz va suv ta'minoti, aloqa kommunikatsiyalari, ombor xo'jaligi va boshqalarni oladi.

Ishsizlik – iqtisodiy jihatdan faol aholining bir qismi o'z kuchini qo'llay olmay “ortiqcha” bo'lib, mehnat zahirasi armiyasi bo'lib qolish hodisasi.

Iqtisodiy va ijtimoiy kengash (EKOSOS) — BMTning asosiy boshqaruv organlaridan biri bo'lib, uning XIM sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib turadi.

Iqtisodiy integratsiya — hududiy miqyosda sifat jihatdan yangi iqtisodiy muhitni yaratish yo'li orqali milliy xo'jalik komplekslarini o'zaro yaqinlash va bir-biriga kirib borishi jarayoni.

Iqtisodiy ittifoq — iqtisodiy integratsiyaning oliy ko'rinishi, u umumiy xuquqiy me'yorlar, soliq bazasini soddalashtirilishi, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda yagona standartlarni joriy etish, yagona valyutaga o'tish kabilar bilan tavsiflanadi.

Iqtisodiy o'sish – real yalpi ichki mahsulot umumiy hajmining yoki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real yalpi ichki mahsulotning oldingi yilga nisbatan o'sishi.

“Katta ettilik” (G7) – norasmiy tashkilot bo'lib, etakchi industrial etti davlati (AKSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya, Yaponiya va Italiya). Bu tashkilot har yili jahon xo'jaligidagi dolzarb muammolarni hal qilishga qaratilgan yuksak darajadagi uchrashuvlarni uyushtiradi.

“Katta sakkizlik” (G8) – norasmiy tashkilot bo'lib, etakchi industrial etti davlat (AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya, Yaponiya va Italiya) hamda Rossiya davlatini o'z ichiga oladi. “Katta ettilik” tashkilotiga 1997 yilda Rossiya Federatsiyasi a'zo bo'lganidan keyin tashkil bo'lgan “Katta sakkizlik” tashkilotidir. Biroq, 2014 yili Qrim mojarosi tufayli mazkur tashkilot a'zolidan Rossiya chiqarib yuborilgan va oldingidek “G7” tashkiloti sifatida yuritiladi.

“Katta yigirmalik” (G20) – jahonning 20 ta yirik mamlakatlar guruhi bo'lib, unga jahondagi eng boy mamlakatlar va yirik rivojlanayotgan davlatlar kiradi va ular hissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining 90 foiz ulushi to'g'ri keladi.

Kartel - tashki savdo assotsiatsiyasi (uning a'zolari alohida tovar guruhlari bo'yicha ishlab chiqarish va narx siyosatini muvofiqlashtirib olishadi).

Kliring — qarama-qarshi tovar oqimlarida valyutadan foydalanmasdan (nakdsiz) vositachi orqali o'zaro hisob-kitobni nazarda tutuvchi savdo operatsiyasi.

Kon'yunktura – bu bozorda ma'lum bir vaqtda yuzaga kelgan iqtisodiy holatdir (asosan talab hamda taklif nisbati va u bilan bog'liq bo'lgan narxlar darajasi orqali yuzaga keladi).

Kredit – jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bo'sh mablag'larini muayyan tamoyillar asosida qaytarish sharti bilan foydalanishga berish jarayonida vujudga kelgan iqtisodiy munosabatlar majmui.

Lizing — mashina, kurilmalar, texnologiya va ko'chmas mulkni ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun uzoq muddatga ijaraga berish.

Litsenziyalash — davlat tomonidan xuquqiy va jismoniy shaxslarga tashki iqtisodiy operatsiyalar olib borishga ruxsat berish amaliyoti.

Logistika (yunonchada logistike — hisoblash, muhokama san'ati):

1) matematik mantiq tushunchasining sinonimi; 2) B. Rassel va uning maktabi vakillarining asarlarida bayon etilgan matematik mantiq taraqqiyotidagi

bosqichning nomi. Nazariy mat. ga qarama-qarshi qo'yiladigan hisoblash va geometrik o'lchovlar "san'ati" qadimiy mat. da Logistika deb atalgan. G. V. Leybnits "Logistika" va matematik mantiq terminlarini o'zi ishlab chiqqan xulosa chiqarishdagi hisobning sinonimi sifatida qo'llagan. Uning g'oyalari xoz. zamon matematik mantiqda o'zining to'liq ifodasini topgan.

Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi – mamlakatning o'rta va uzoq muddatga iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlab turish qobiliyati.

Marja – valyuta xaridori va sotuvchisi kurslari o'rtasidagi farq.

"Maasrixt shartnomasi" – shartnoma 1993-yilning 1 fevralida imzolangan bo'lib, Yevropa iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo bo'lgan 12 davlat o'rtasidagi kelishuv.

Maxsus qarz olish xuquqi — Xalqaro valyuta fondining maxsus hisoblaridagi kredit yozuvlari ko'rinishidagi xalqaro aktivlar (ya'ni, zahira va to'lov vositalari) bo'lib, ularning mikdori XVFGa a'zo-mamlakat-larning kvotalariga mos keladi.

Mehnat bozori – mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo'lgan va band bo'lmagan qismlari va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi shartnomalar asosida ishchi kuchi xarid qilish - sotishni amalga oshiruvchi, shuningdek, unga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi, bozor iqtisodiyotining murakkab, ko'p aspektli, o'suvchi va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimchasidir.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi – iqtisodiyotning to'lovga qodir talabga mos keluvchi, iqtisodiy o'sish va turmush sifatini oshirishni ta'minlaydigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish va ichki hamda tashqi bozorlarda sotish qobiliyati.

Modernizatsiya – ob'ektni takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me'yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko'rsatkichlariga moslashtirish.

Moliya tizimi – moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.

Moliya-bank tizimi – tarixan shakllangan va belgilangan qonun qoidalar asosida faoliyati yurituvchi mamlakatdagi moliya–kredit muassasalari majmuidir.

Moliyaviy institutlar – belgilangan qonun-qoidalar doirasida faoliyat yurituvchi mamlakatdagi moliya-kredit tashkilotlari.

Narx – tovar qiymatining puldagi ifodasi.

Nou-xau - mualliflik guvohnomasi (patent) bilan himoyalanmagan ishlab chiqarish tajribasi va mahorat sirlari.

Oziq-ovqat xavfsizligi - milliy va global ehtiyojlarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash imkoniyati.

Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB)- (Asian Development Bank, ADB)- Tinch okeani havzasida va Osiyo mamlakatlaridagi rivojlanish loyihasi uchun beriladigan uzok muddatli kreditlar bilan shug'ullanuvchi mintaqaviy davlatlararo bank.

Oferta – aniq shart-sharoitlar asosida bitim tuzish taklifi.

Ofshor hududlar - milliy iqtisodiy makonning bir qismi bo'lib, bu erda xorijiy xuquqiy va jismoniy shaxslar tijoriy operatsiyalarni chet el valyutasida amalga oshirashadi.

Paritet – turli mamlakat valyutalarining oltinga aylangan holdagi nisbati yoki ularning xarid qila olish quvvatiga binoan nisbati.

Portfel investitsiyalar — xo'jalik ob'ektini ekspluatatsiya qilish tufayli daromad olish xuquqini kafolatlovchi kapital qo'yilmalari.

Preferentsiya – iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxona va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.

Proteksionizm – davlatning xorij raqobatidan ichki bozorni himoya qilish siyosati, mamlakatga olib kelinayotgan tovarlarga yuqori bojlar belgilaydi, ayrim tovarlarni olib kelish cheklanadi yoki umuman ta'qiqlanadi.

Pudrat – shartnoma yoki xo'jalik yuritishning bir turi. Bir tomonning ikkinchi tomon talabiga ko'ra belgilangan ishni bajarishi to'g'risidagi shartnoma.

Pul - kredit siyosati – davlat tomonidan iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida pul muomalasini tashkil etish va barqarorligini ta'minlash uchun amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlar majmui.

Pul – hamma tovar va xizmatlar ayirboshlanadigan, umumiy ekvivalent sifatida foydalaniladigan, boshqa barcha tovarlar qiymatini ifodalaydigan maxsus tovar.

Ratifikatsiya – shartnomalarni tasdiqlash.

Rekonstruktsiya (qayta tiklash) – faoliyat yuritayotgan korxonani ma'naviy va jismoniy eskirgan qurilma va asbob-uskunalarni ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, texnologik bo'g'inlar va yordamchi xizmatdagi nomutanosibliklarni yo'qotish yo'li bilan almashtirish yordamida to'liq

yoki qisman o'zgartirish. Qayta tiklashda eski tsexlar o'rniga yangi tsexlarni qurishga ruxsat beriladi.

Savdo va taraqqiyot bo'yicha BMT Anjumani (YUNKTAD) — BMT tizimi doirasidagi maxsus muassasa.

Savdoda eng qulay sharoit yaratish rejimi — mamlakatlar o'rtasida kelishilgan xolda o'rnatilgan savdo operatsiyalarining imtiyozli tartibi.

Sanoat taraqqiyoti bo'yicha BMT Anjumani (YUNIDO) — BMT tizimi doirasidagi maxsus muassasa.

Saldo - muayyan vaqt davomida moliyaviy tushumlar va sarflar, eksport va import qiymati (savdo balansi saldosi), xorijiy to'lovlar va tushumlar (to'lov balansi saldosi) o'rtasidagi farq.

Soliq imtiyozi – soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to'lashdan to'liq, qisman va vaqtincha ozod qilish shakli.

Soliq stavkasi – soliqlarni hisoblashda soliq bazasining har bir birligi hisobiga to'g'ri keladigan soliq me'yori.

Soliqlar – belgilangan va muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi.

Strategik alyanslar – jaxon bozoridagi global iqtisodiy masalalarni birgalikda hal etish maqsadida tuziladigan firmalararo ittifoq bo'lib, ushbu iggifoq mazkur firmalarning boshqa sohalarda raqobatlashuviga to'sqinlik qilmaydi.

Talab – xaridor, iste'molchilarni bozorda muayyan tovarlarni, ne'matlarni sotib olish istagi; bozorga olib chiqilgan va pul imkoniyatlari bilan ta'minlangan ehtiyojlar.

Tannarx – mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun ketgan barcha xarajatlarning qiymati.

Tarkibiy o'zgarishlar – milliy iqtisodiyotning samarali va barqaror tarkibiy tuzilishini ta'minlash maqsadida uning tarmoq va sohasini izchil ravishda o'zgartirib borish. Tarkibiy o'zgarishlar o'z ichiga yangi tarmoqlarni barpo etish, ba'zilarini kengaytirish, ayrim samarasiz, istiqbolga ega bo'lmagan tarmoqlarni qisqartirish kabi chora-tadbirlarni oladi.

Tashqi qarz – mamlakat hukumati, moliya-kredit tashkilotlari, yirik korxonalarining boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag'larining jami hajmi.

Tashqi nodavlat qarzlari – mamlakatdagi xususiy shaxslar (moliya muassasalari, korxonalar va aholi) tomonidan boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag'larining jami hajmi.

Tashqi savdo – bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdosi.

Tashqi savdo siyosati – bir mamlakatni boshqa mamlakatlar bilan olib borayotgan savdosi (eksporti va importi) borasidagi siyosati. Bunga teng xuquqlilik va ikki tomonlama manfaat olish ko'zda tutiladi. Eksport va importning tovar tarkibi va geografik hajmiga asosan olib boriladi.

TIFni tartibga solishning tarifli usullari — soliq cheklashlari (bojxona yigimlari, bojlar, aktsizlar va boshqalar) yordamida tashqi savdoga ta'sir o'tkazish vositalari yig'indisi.

TIFni tartibga solishning tarifsiz usullari — tashqi savdoga ta'sir o'tkazishning bevosita, ma'muriy vositalari guruhi (kvotalash, litsenziyalash, texnik standartlarni joriy qilish, sanitar me'yorlar va boshqalar).

Transmilliy korporatsiyalar (TMK) – bosh kompaniya bir mamlakat kapitaliga tegishli bo'lib, filiallari esa dunyo bo'ylab tarqalib ketgan kompaniyalar.

Transmilliy banklar (TMB) – jahon ssuda kapitali va moliyakredit xizmatlari bozorida faol qatnashish imkonini beruvchi kapitalga ega yirik banklar.

Tijorat banklari – sanoat va savdoni qisqa muddatli kreditlar bilan ta'minlash, shuningdek xususiy mijozlarga turli turdagi bank xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan banklar.

Turmush darajasi – aholining zaruriy, moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda xizmatlar bilan ta'minlanganlik hamda ularni iste'mol qilish darajasi.

To'g'ri investitsiyalar — foyda olish bilan birgalikda kapital ko'yilayotgan ob'ekt ustidan nazoratni ta'minlash xuquqini beruvchi kapital qo'yilmalari.

To'g'ridan – to'g'ri investitsiyalar – bevosita mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil etish yoki yanada kengaytirish maqsadida xorijiy sheriklar tomonidan uzoq muddatli kapital qo'yilmalar kiritish. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar investorlarga mazkur ishlab chiqarish jarayonlari ustidan nazorat qilish imkonini beradi.

To'lov balansi - mamlakatning barcha rezidentlarining qolgan barcha mamlakatlar bilan ma'lum vaqt oraligidagi (odatda bir yil) iqtisodiy bitimlari natijalarini sitsemalashtirilgan xolda qayd etilishidir. SHuningdek, u **to'lov balansi** – muayyan muddat davomida mamlakatning chet ellarga to'lagan va xuddi shu davr mobaynida mamlakatga chet eldan tushgan to'lovlar summalari nisbatini

tavsiflaydi. To'lov turkumiga tashqi qarz, uning foizi, chetdan olingan tovarlar va xizmatlar haqi, xorijiy investitsiyalar, xorijda diplomatik ishlarni, iqtisodiy aloqalarni yuritish xarajatlari, fuqarolar va qo'shma korxonalarning chet elga pul o'tkazmalari va boshqalar kiradi.

Xavfsizlik, global (ommaviy) – umumplanetar miqyosda inkirozni keltirib chikaruvchi, jahondagi atrof muhitni destabillashti-rishga kodir bo'lgan taxdidlarga qarshi ekologik holat va xalqaro munosabatlar miqyosi-dagi xavfsizlik tizimi.

Xavfsizlik, xalqaro – xalqaro munosabatlar miqyosidagi beqarorlik.

Xavfsizlik, mintaqaviy – Mintaqaviy miqyosda bekarorlik xavfini tug'diruvchi, inkiroz va to'qnashuvlar keltirib chikaruvchi tahdidlarga qarshi dunyoning u yoki bu mintaqasidagi davlatlar o'rtasidagi himoyalani sh tizimi. Mintaqaviy xavfsizlik milliy xavfsizligini ta'minlash shartlaridan bo'lib, xalqaro xavfsizlikning organik tuzilmalaridan biridir.

Xavfsizlik, ekologik – insoniyat yashab turuvchi muhitni, biosferani, atmosferani, gidrosferani, litosferani va o'zida hayvonot va nabotot olamini aks ettiruvchi yaqin kosmik borliqni, qolaversa, tabiiy resurslarni insonning faoliyati davomida yuzaga keluvchi ichki va tashki taqdidlardan himoyalani sh muhiti.

Xalqaro valyuta fondi – xalqaro savdo va valyuta hamkorligini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatish maqsadida 1944 yilda tashkil etilgan xalqaro valyuta-moliya tashkiloti. Xalqaro valyuta fondi – a'zo davlatlar o'rtasida valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solib turish va ularga to'lov balansining kamomadi bilan bog'liq valyutaviy qiyinchiliklar paytida chet el valyutasida qisqa va uzoq muddatli kreditlar berish yo'li bilan moliyaviy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan hukumatlararo tashkilot. XVF o'z amaliy faoliyatini 1947 yil 1 martdan boshlagan. XVF — yirik hukumatlararo valyuta-moliya tashkilot bo'lib, BMTning maxsuslashtirilgan muassasasi sifatida tartibga solish, maslahat berish va moliya-kredit sohasidagi vazifalarni bajaradi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar — mamlakatlar va hududlar o'rtasidagi, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar ishtirokidagi xo'jalik aloqalari tizimi.

Xalkaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi — ishlab chiqarish bosqichlarining o'zaro bir-birini to'ldirishi va ularni muvofiqlashtirish maqsadida milliy iqtisodiy komplekslarning hamkorlik qilishi.

Xalqaro savdo — milliy xo'jaliklar o'rtasida to'lanadigan jami tovar aylanmasi ko'rinishidagi mehnat mahsulotlari ayirboshlashning o'ziga xos shakli.

Xalqaro tashkilotlar – ularning har biri xalqaro siyosatda o'zlarining faoliyat maqsadlari yo'nalishlariga qarab, er yuzi taraqqiyotida egallab turgan mavqelariga qarab, umuman xalqaro siyosiy-amaliy munosabatlar jarayonida harakatlarga kirishadigan boshqa xalqaro tashkilotlar tizimidagi maqomlariga qarab ahamiyat kasb etadilar.

Xalqaro tranzit - xorijiy yuklarni jo'natish va qabul qilib olish punktlari berilgan mamlakat hududidan tashqarida bo'lishi shartida tashilishidir. Agar tovarlar bojxona omboriga joylashtirilmasdan tashilsa bevosita xalqaro tranzit, bojxona omboridan foydalanilsa – bilvosita xalqaro tranzit hisoblanadi.

Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESR) — eng rivojlangan industrial mamlakatlar birlashmasi.

Xalqaro hisob-kitoblar — turli davlatlarning xuquqiy va jismoniy shaxslari o'rtasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlardan kelib chikuvchi pul talablari va majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni tashkil etish va tartibga solish jarayoni.

Xarid qobiliyati pariteti nazariyasi — valyuta kursi ikki mamlakat pul birliklarining nisbiy kiymati bilan aniklanadi, u muomaladagi pul mikdoriga bog'lik. Jumladan, J M. Keynsa tamoyiliga ko'ra, davlat tomonidan foiz stavkasini manipulyatsiya qilish mamlakatga xorijdan investitsiya oqimlarini quyidagicha o'zgartiradi: foiz stavkasi kamaytirilsa, tashqi qarzlar hajmi ortadi, foiz stavkasi oshirilsa, aksincha, kamayadi.

Xeksher—Olin—Samuelson tamoyili — mamlakatning eksportga ixtisoslashuvi milliy iqtisodiyotdagi ortiqcha ishlab chiqarish omillarining mavjudligiga asoslangan.

Xizmat ko'rsatish sohasi – ijtimoiy ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan ko'rinishga ega bo'lmagan iste'mol qiymatlarini yaratishga yo'naltirilgan sohalari. U o'z ichiga moddiy xizmatlar ko'rsatish (transport, aloqa, savdo, maishiy xizmat va boshqalar) hamda nomoddiy xizmatlar ko'rsatish (xuquqiy maslahatlar berish, o'qitish, malaka oshirish va boshqalar)ni oladi.

Umumiy bozor — ishlab chiqarish omillarini milliy chegaralar orqali erkin ko'chib o'tishi ta'minlanadigan iqtisodiy integratsiya ko'rinishi.

Unifikatsiya – turli xildagi mahsulotlar, detallar, uzellar va boshqa qo'llaniladigan materiallar va texnologik jarayonlarni ratsional jihatdan bir xilligini ta'minlash.

Fyuchers — qatnashchilar tomonidan xatarlarni sug'urtalash maqsadida kelishilgan kurs bo'yicha fond birjasida bajariladigan tezkor muddatli valyuta-moliyaviy operatsiyalar.

Fond bozori – qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy vositalarning oldi-sotdi jarayonlari amalga oshiriluvchi maxsus tashkillashtirilgan bozor.

Franchayzing — bir kompaniyaning boshqa yirikroq yoki bosh kompaniyaning savdo markasi, tovar belgisi va boshqa atributlaridan foydalanish.

Eksport – tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish.

Eksport kvotasi - mamlakat eksporti hiymatining unig yalpi ichki mahsuloti (YAIM)ga nisbati (foizlarda).

EKYU – Yevropa valyuta tizimida 1979-1998 yillarda foydalanilgan valyuta birligidir.

Embargo - alohida mamlakat yoki davlatlar guruhi bilan savdoni butunlay ta'qiklash.

Erkin iqtisodiy hududlar - mamlakatning shunday hududiki, bu erga olib kirilgan tovarlar milliy bojxona yurisdiksiyasidan tashkarida hisoblanadi, binobarin bojxona nazorati va solikka tortishdan ozod etiladi, ya'ni - bu milliy iqtisodiyotning bir kismini tashkil etib, bu erda mamlakatning boshka hududlarida qo'llanilmaydigan o'ziga xos imtiyozlar va ragbatlantirishlar tizimidan foydalaniladi.

Erkin savdo hududlari (ESX) — preferentsial hudud hisoblanib, uning doirasida bojxona va miqdoriy cheklashlardan xoli savdo tartibiga rioya qilinadi.

Emissiya – qog'oz pullarning g'aznaxonaga yoki boshqa davlat moliya organlari tomonidan muomalaga chiqarilishi; barcha shakldagi pul belgilarini muomalaga chiqarish.

Erkin industrial - iqtisodiy zona – mamlakat hududining xorijiy mamlakatlar tomonidan turli shakllardagi hamkorlikdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun ruxsat etilgan qismi. Mazkur zonalarda maxsus imtiyozli shart-sharoitlar, jumladan, imtiyozli soliqlar, bojxona to'lovlari, ijara, viza olish, valyuta ayirboshlash, mehnatga yollashning qulay tartiblari belgilangan bo'ladi.

YAlpi ichki mahsulot (YAIM) — ma'lum davr (odatda bir yil) davomida bir mamlakat hududida yaratilgan jami qiymat.

YAngi industrial mamlakatlar (YAIM) — iqtisodiy jihatdan eng tez rivojlanayotgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi davlatlar guruhi

Yalpi ichki mahsulot – mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan jami pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor qiymati. YOki kenorq ma'noda – YAIM (Gross Domestic Product GDP) – davlat hududida foydalanilgan ishlab chiqarish omillarining milliy kelib chiqishidan qati ravishda iste'mol qilish, eksport va yig'ish uchun yil davomida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ishlab chiqarilgan (ya'ni, bevosita iste'mol qilishga mo'ljallangan) tovar va xizmatlarning bozor qiymati.

YaIMning nominal (mutlaq) va real (inflyatsiyani hisobga olga holda) turlari mavjud. Real YAIMda YAIMning o'sishi qaysi darajada narxlarning o'sishi bilan emas, balki real ishlab chiqarishning o'sishi bilan belgilanishi hisoblanadi.

YaIM iste'mol, sarmoyalar, davlat xarajatlari va eksport hajmlarining eksportni chiqarib tashlagandagi hosil bo'ladigan summasi hisoblanadi. YAIM har chorak va bir yilda hisoblanadi.

Qarzni restrukturizatsiyalash — kreditni to'lash muddatlarini, foizlarni to'lashni orqaga surish orkali cho'zish.

Qashshoqlik – insoniyatning global muammolaridan biridir. ijtimoiy-iqtisodiy, minimal hayotiylik standartining past darajasini aks ettiruvchi kategoriyadir.

Qashshoq “janub” – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi buyicha etakchi industrial davlatlardan ortda koluvchi, yer sharining janub o'lkalarida joylashgan davlatlardan tashkil etilgan guruh.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1.1. 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, 7 fevral 2017 yil PF-4947, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, www.lex.uz.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018 y.

1.3. O'zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi O'RQ -598-sonli Qonuni. 2019 yil 25 dekabr.

1.4. O'zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida”gi O'RQ-604-sonli Qonuni. 2020 yil 17 fevral.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmonlari

2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi” to'g'risidagi PF-4947-sonli Farmoni.

2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3303 son qarori. 2017 yil 29 sentyabr.

2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5614-sonli Qarori.

2.4. “Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 yanvar, PF-5643-son Farmoni. [//http://lex.uz/docs/4182345](http://lex.uz/docs/4182345).

2.5. “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 mart, PF-5975-son Farmoni. [//http://lex.uz/docs/4776669](http://lex.uz/docs/4776669).

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari

3.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ekologiya va atrof-

muhitni muhofaza qilish sohasida ilmiy-tadqiqot bazasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 958-son qarori. 16.11.2018.

3.2. "Jahon banki ishtirokida "O'zbekiston koronavirus COVID-19 infeksiyasiga qarshi shoshilinch choralar ko'rish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 iyul PQ-4772-sonli qarori.//https://static.norma.uz/official_texts/.pdf

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev asarlari

4.1. Mirziyoev SH.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". – Toshkent, O'zbekiston, 2016.

4.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi www.UzA/28-12-2018.

4.3. Mirziyoev SH.M. BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so'zlagan nutqi – <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/1063>

4.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutqi. <http://president.uz/uz/lists/view/1132>

4.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://review.uz/oz/post/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-savkat-mirzieevning-olij-mazlisga-murozaatnomasi>. 28.01. 2020.

4.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // <https://review.uz/uz/post/poslanie-prezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoyeva>

5. Xorijiy manba va adabiyotlar

5.1. United Nations Industrial Development Organization, 2020. Competitive Industrial Performance Report 2020. Vienna, Austria.

5.2. The Global Competitiveness Index. 2020.// <https://gtmarket.ru/ratings/the-imd-world-competitiveness-yearbook/info>

5.3. The Global Risks Report 2019, 14th Edition, is published by the World Economic Forum.

5.4. ASEAN Sekretariat, "ASEAN: statyearbook2019".

5.5. Handbook of International Trade and Statistics. UNCTAD. New York and Geneva.2019. P.14.

5.6. Global Risk Report. World Economic Forum. 2017.

<http://www.cnbc.com/2017/01/11/top-five-global-risks-for-2017-wef.html>

5.7. A.S.Bulatov. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. Uchebnik. – M.: KNORUS, 2017. -916 s.

5.8. Kiani K.M. On business cycle fluctuations in USA macroeconomic time servies//Economic modeling. 2016. Vol.53-P.179-186.

5.9. Volovik N.P. Mejdunarodnaya praktika sozdaniya spetsialnix ekonomicheskix zon. – M.: IPEI, - 2016. – 99 s.

5.10. Global Risk Report.World Economic Forum. 2015.

5.11. T.YU.Klichev. “Perspektivi razvitiya TNK na mirovom rinke”// Rossiyskoe predprinimatelstvo. – 2014 g.- №13.

5.12. The World Vank. “Development for climate change”. Washington. Annual Report. 2010. P.4.

5.13. Kolesov V.P., Kulakov M.V. “Mejdunarodnaya ekonomika”: Uchebnik. - M.: INFRA-M, 2008. - 474 s.

5.14. “Vsemirniy turisticheckiy komitet”. 2008. S-12.

5.15. Mirovaya ekonomika v vek globalizatsii: Uchebnik /O.T. Bogomolov. – M.: ZAO Izdatelstvo “Ekonomika”, 2007. 432.

6. Darsliklar va o’quv qo’llanmalar

6.1. N.Ismailova, U.Dadaboyev. “Xalqaro biznes shartnomalar”, TDIU, 2021 y. – 289 b.

6.2. D.R.Ergashev. “Milliy va jahon iqtisodiyoti”, T.: TDIU, 2021 y. – 667 b.

6.3. Islamov B.A., Shodiev R.X., Ismailova N.S., Shodieva Z.T., Yoziyev G’.L. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik.–T.: IQTISODIYOT, 2019. –262 b.

6.4. N.S.Ismailova, U.U.Shagzatov. “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar”. - T.: “Noshir” nashriyoti. 2019 y. – 320 b.

6.5. E.Nigmanov, N.Ismailova, S.Yusupov. “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar”. – T.: “Lesson press”, 2019 y, 283 b.

6.6. Sirojiddinov N. Xalqaro iqtisodiyot. Birinchi qism. Tashqi savdo nazariyasi va siyosati. Darslik.-T.: “IQTISODIYOT”, 2019. -181 b.

6.7. Vaxobov A.V., Tadjibaeva D.A., Xajibakiev X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: Darslik. – Toshkent, 2015. – 584 b.

6.8. Isadjanov A.A., Ismailova N.S. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi. O’quv qo’llanma. T.: “Iqtisodiyot”, 2019. – 154 b.

6.9. Isadjanov A.A. Global iqtisodiyotda xizmatlar sohasi. O’quv qo’llanma. O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi. “Tafakkur bo’stoni” nashriyoti.

Toshkent.2019 yil. 300-b.

6.10. Vaxabov A.V., Xajibakiev SH.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: “Moliya”, 2016. – 324 b.

6.11. Vahobov A.V. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. T. O'zbekiston milliy universiteti. 2015. - 519 b.

7. Ilmiy monografiya va maqolalar

7.1. Uzbekistan podderjivaet tseli ustoychivogo razvitiya OON do 2030 goda.// <http://www.trend.az/casia/uzbekistan/2438516.html>.

7.2. Piskulova N.A. Razvitie mirovoy ekonomiki: ekologicheskiy vektor. //Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie otnosheniya. M.: 2010. № 12.

7.3. Globalnie tendentsii 2030: Alternativnie miri. Publikatsiya natsionalnogo Soveta po razvedke. – NIC, 2012-001. <http://expert.ru/2012/12/12/alternativnyie-miryi/?n=2299433>.

7.4. Tolametova Z.A. Xalqaro mehnat migratsiyasi va uning o'ziga hos xususiyatlari.

7.5. O'zbekiston Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi sifatida a'zo bo'ladi.//<https://parstoday.com/uz/news/uncategorised-i51959>

7.6. Ekonomika Yevropeyskogo Soyuza v usloviyax uxudsheniya mirovoy konyunkturi. Byulleten o tendentsiyax mirovoy ekonomiki. Vipusk 53. Fevral 2020. Analiticheskiy tsentr pri Pravitelstve RF. 2020. – S.4.

7.7. Bir makon – bir yo'l" tashabbusini Markaziy Osiyoda nima kutmoqda? Jahon 20 May 2017 28678// <http://kun.uz/news/2017/05/20/bir-makon-bir-jul-tasabbusini-markazij-osieda-nima-kutmokda>

8. Elektron ta'lim resurslari

8.1. <http://www.lex.uz>

8.2. www.uz.a.uz – O'zbekiston Respublikasi milliy axborot agentligi.

8.3. www.nfa.uz – O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi

8.4. www.gov.uz

8.5. <http://info-invest.uz>

8.6. <https://www.mift.uz/uz>

8.7. <http://www.chamber.uz/uz/index>

8.8. www.mineconomy.uz (Iqtisodiyot vazirligi);

8.9. www.mfer.uz (Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi);

- 8.10. www.stat.uz (Davlat statistika qo'mitasi);
- 8.11. www.lex.uz (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi);
- 8.11. <https://www.worldbank.org>
- 8.12. <http://wto.org>
- 8.13. <http://wipo.org>

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. “JAHON BOZORI KON’YUNKTURASI TAHLILI”	
FANINING DOLZARBLIGI, MAQSADI VA VAZIFALARI	5
1.1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasidan kelib chiqqan holda fanni o’qitilishining dolzarbligi	5
1.2. “JAHON BOZORI KON’YUNKTURASI TAHLILI” fanining maqsad va vazifalari	8
1.3. YAngi O’zbekistonning 2022–2026 yillarga mo’ljallangan taraqqiyot strategiyasi va unda tashqi savdoni ko’paytirish chora-tadbirlari.	10
1.4. Mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyatining 2021 yilgi asosiy iqtisodiy ko’rsatkichlari tahlili.	11
II BOB. JAHON BOZORI KON’YUNKTURASI TAHLILI VA UNING NAZARIY ASOSLARI	17
2.1. Kon’yunktura tushunchasi	17
2.2. Jahon bozori kon’yunkturasini tahlilining mohiyati va ahamiyati hamda uning hozirgi davrdagi o’ziga xos xususiyatlari	18
2.3 Jahon bozori konyunkturasini va unga ta’sir etuvchi omillar	19
2.4. Kon’yunktura tahlilining bosqichlari	24
III BOB. JAHON BOZORI VA JAHON BOZORI KON’YUNKTURASINI O’RGANISH USLUBIYOTI	31
3.1. Tovar bozori tushunchasi va tovar bozori turlari	31
3.2. Jahon bozori va ichki bozor tushunchalari hamda ularning bevosita uzviy bog’liqligi	35
3.3. Kon’yunkturani shakllantiruvchi omillar	39
3.4. Jahon xomashyo tovarlari bozoridagi narxning shakllanish qonuniyatlarini o’rganish	40
3.5. Jahon bozoridagi asosiy strategik mahsulotlar narxining aniqlanishi va ularning narhiga ta’sir etuvchi omillar.	43
3.6. Jahon tovar bozorlari kon’yunkturalarini o’rganish uslubiyoti	45
3.7. Jahon bozorlarida strategik xomashyo va mahsulotlarning hozirgi holati tahlili	37
IV BOB. JAHON JAHON TOVAR BOZORI KON’YUNKTURASINING ISTIQBOLLASH USULLARI BOZORI VA UNING KON’YUNKTURASI ..	50

4.1. Tovar bozori kon'yunkturasini istiqbollash bo'yicha asosiy yondashuvlar .	50
4.2. Ekstrapolyatsiya usullarini jahon tovar bozorlari kon'yunkturalarini istiqbollashda qo'llash .	54
4.3. Marketingda jahon tovar bozorlari kon'yunkturalarini istiqbollash.	58
4.4. Korxonalar faoliyatida turli hil istiqbollash usullaridan foydalanish.	59
V BOB. JAHON BOZORIDA XOMASHYO TOVARLARI SAVDOSI VA XOMASHYO TOVARLARI BOZORI KON'YUNKTURASI TADQIQOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	63
5.1. Jahon bozorida xomashyo tovarlari savdosi	63
5.2. Jahon xomashyo tovarlari bozori kon'yunkturasi tadqiqotining o'ziga xos xususiyatlari.	65
5.3. Jahon xomashyo bozorining hozirgi holati.	67
5.4. Jahon neft va neft mahsulotlari bozorida narx shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari	70
VI BOB. JAHON BOZORIDA TOVARLAR AYLANMASI VA UNDA EKSPORT-IMPORTNING UZVIY BOG'LIQLIGI	76
6.1. Jahon tashqi savdosining tarkibi va uning ulushlari.	76
6.2. Jahon bozorining asosiy ishtirokchi mamlakatlari.	79
6.3. Jahon bozorida eksport va importning uzviy bog'liqligi	82
6.4. Jahon bozorida rivojlanayotgan mamlakatlarning faol qatnashish imkoniyatining asosiy omillari.	83
VII BOB. JAHON BOZORIDA EKSPORTNING TURLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	86
7.1. Eksport – jahon bozorining asoschisi	86
7.2. Jahon bozorida eksportning turlari va ularning xususiyatlari	87
7.3. Jahon bozorida dumping siyosati	91
VIII BOB. JAHON METAL BOZORI KON'YUNKTURASI VA UNING NARHINI SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI	95
8.1. Jahon metal bozori tasnifi va uning xususiyatlari.	95
8.2. Jahon metal bozori kon'yunkturasi va narxni shakllanishi	96
8.3. Jahon metal bozorida narh shakllanishining asosiy xususiyatlari.	99
8.4. Jahon metal bozorlari va ularning asosiy ko'rinishlari.	101
8.5. Jahon oltin bozori va uning xususiyatlari.	104
8.6. Jahon metal bozorining asosiy ishtirokchi mamlakatlari va metal mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi.	110

IX BOB. JAHON MOLIYA BOZORI TAHLILI	117
9.1. Jahon moliya bozori tushunchasi va uning mohiyati	117
9.2. Jahon moliya bozori: nazariy qarashlar va umumiy tavsif	119
9.3. Jahon moliya bozorida ofshor tushunchasi va uning xususiyatlari	123
9.4. Jahon moliya bozorlarining tahlili, maqsadi va asosiy vazifalari hamda uning asosiy ishtirokchilari.	125
9.5. Jahon moliya bozorining globallashtirish jarayonlari.	127
9.6. Jahon moliya bozorlari rivojlanishining asosiy xususiyatlari	131
X BOB. PANDEMIYANING JAHON BOZORIGA TA'SIRI TAHLILI	136
10.1. Pandemiyaning ilk davrida jahon bozoridagi taxlikalik holatning yuz berishi va uning jahon xomashyo bozorlariga ta'siri	136
10.2. Pandemiyaning jahon agrar bozori va undagi mahsulotlar narhiga ta'siri	143
10.3. Pandemiyaning jahon neft bozoriga ta'siri	148
10.4. Pandemiyaning jahon moliya bozoriga ta'siri tahlili.	152
XI BOB. JAHONDA YUZAGA KELGAN SIYOSIY INQIROZNING JAHON BOZORIGA TA'SIRI TAHLILI.	156
11.1. 2022 yilda jahonda yuz bergan siyosiy inqirozning jahon bozorlariga ta'siri tahlili	156
11.2. Siyosiy inqirozning jahon savdosiga ta'siri.	165
11.3. Siyosiy inqirozning jahon moliya bozori va O'zbekiston moliya bozoriga ta'siri tahlili.	168
11.4. Siyosiy inqirozning O'zbekiston ichki bozoriga ta'siri	172
XII BOB. O'ZBEKISTONNING JAHON BOZORIGA INTEGRATSIYALASHUVI.	182
12.1. O'zbekistonning tashqi savdosi va uning geografik yo'nalishlari tahlili	182
12.2. O'zbekistonning jahon bozoriga integratsiyalashuv jaranini faollashtirish chora-tadbirlari	185
12.3. O'zbekistonning jahon bozoriga mahsulotlar eksporti xajmini oshirishdagi salohiyatlari va imkoniyatlari	186
12.4. O'zbekistonning jahon bozoriga chiqishdagi asosiy muamolari	189
12.5. O'zbekiston mahsulotlarini jahon bozoriga eksport qilishning usullari	195

“JAHON BOZORI KON’YUNKTURASINI TAHLILI” FANIDAN

TEST SAVOLLARI 198

GLOSSARIY 204

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI 248

1. O’zbekiston Respublikasi qonunlari. 225
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmonlari. 225
3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari. 225
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev asarlari. 226
5. Xorijiy manba va adabiyotlar. 226
6. Darsliklar va o’quv qo’llanmalar. 227
7. Ilmiy monografiya va maqolalar. 228
8. Internet saytlari. 228

СОДЕРЖАНИЕ

ВВЕДЕНИЕ.....	12
 I ГЛАВА. "АНАЛИЗ СВЯЗИ С МИРОВЫМИ РЫНКАМИ"	
ФУНКЦИИ, ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ НАУКИ.....	14
1.1. Актуальность преподавания наук на основании Послания Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева Олий Мажлису от 29 декабря 2020 года.	14
1.2. Цели и задачи предмета “АНАЛИЗ МИРОВЫХ РЫНКОВ”	17
1.3. Новая Стратегия развития Узбекистана на 2022-2026 годы и меры по увеличению внешней торговли.	19
1.4. Анализ основных экономических показателей внешнеэкономической деятельности страны в 2021 году.	21
 ГЛАВА II. АНАЛИЗ СВЯЗИ С МИРОВЫМ РЫНКОМ И ЕЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ.....	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ.....	27
2.1. Понятие конъюнктуры.	27
2.2. Сущность и значение анализа конъюнктуры мирового рынка и ее особенностей в настоящее время.	28
2.3 Конъюнктура мирового рынка и факторы, на нее влияющие.	29
2.4. Этапы конъюнктурного анализа.	35
 ГЛАВА III. МЕТОДОЛОГИЯ ИЗУЧЕНИЯ МИРОВЫХ РЫНКОВ И МИРОВЫХ РЫНКОВ.....	
МИРОВЫХ РЫНКОВ.....	42
3.1. Понятие товарного рынка и виды товарных рынков.	42
3.2. Понятия мирового рынка и внутреннего рынка и их непосредственная интегральная связь.	46
3.3. Факторы, формирующие ситуацию.	51
3.4. Изучение закономерностей ценообразования на мировом рынке сырья.	52
3.5. Определение цен на ключевые стратегические товары на мировом рынке и факторы, влияющие на их цены.	54
3.6. Методы изучения конъюнктуры мировых товарных рынков.	57

3.7. Анализ текущего состояния стратегического сырья и продукции на мировых рынках.	58
--	----

ГЛАВА IV. КОНЪЮНКЦИЯ МИРОВЫХ ТОВАРНЫХ РЫНКОВ РЫНОК СПОСОБОВ ПРОДВИЖЕНИЯ И ЕГО СВЯЗЬ.....63

4.1. Основные подходы к прогнозированию конъюнктуры товарных рынков.	63
4.2. Применение методов экстраполяции в прогнозировании мировых товарных рынков.	66
4.3. Прогнозирование мировых товарных рынков в маркетинге.	71
4.4. Использование различных методов прогнозирования в деятельности предприятий.	72

ГЛАВА V. ХАРАКТЕРИСТИКА ИССЛЕДОВАНИЯ ТОВАРНО-СЫРЬЕВОЙ КОНЪЮНКТУРЫ НА МИРОВОМ РЫНКЕ..... 75

5.1. Торговля сырьем на мировом рынке.	75
5.2. Особенности изучения мирового рынка сырья.	77
5.3. Текущее состояние мирового товарного рынка.	79
5.4. Особенности ценообразования на мировом рынке нефти и нефтепродуктов.	82

ГЛАВА VI. МИРОВАЯ ТОРГОВЛЯ НА МИРОВОМ РЫНКЕ И МЕЖДУНАРОДНАЯ ЗАВИСИМОСТЬ ЭКСПОРТА-ИМПОРТА ОТ НЕГО.....88

6.1. Структура мировой внешней торговли и ее доля.	88
6.2. Основные игроки на мировом рынке.	91
6.3. Неотъемлемая взаимосвязь экспорта и импорта на мировом рынке.	94
6.4. Ключевые факторы способности развивающихся стран активно участвовать в мировом рынке.	95

ГЛАВА VII. ВИДЫ ЭКСПОРТА НА МИРОВОМ РЫНКЕ И ИХ СВОЙСТВА.....99

7.1. Экспорт является основателем мирового рынка.	99
7.2. Виды экспорта на мировом рынке и их характеристика.	100
7.3. Демпинговая политика на мировом рынке.	104

ГЛАВА VIII. СВЯЗЬ С МИРОВЫМ РЫНКОМ МЕТАЛЛОВ И ЕЕ ЦЕНОВЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ.....	109
8.1. Классификация мировых рынков металлов и ее характеристики. .	109
8.2. Конъюнктура мирового рынка металлов и ценообразование.	110
8.3. Основные особенности ценообразования на мировом рынке металлов.	113
8.4. Мировые рынки металлов и их основные виды.	116
8.5. Мировой рынок золота и его характеристики.	119
8.6. Основные игроки на мировом рынке металлов и динамика производства металлопродукции.	126
ГЛАВА IX. АНАЛИЗ МИРОВОГО ФИНАНСОВОГО РЫНКА.....	133
9.1. Понятие мирового финансового рынка и его сущность.	133
9.2. Мировой финансовый рынок: теоретические перспективы и общая характеристика.	135
9.3. Понятие оффшора на мировом финансовом рынке и его характеристика	139
9.4. Анализ, цель и основы мировых финансовых рынков функций и ее основных участников.	142
9.5. Процессы глобализации мирового финансового рынка.	144
9.6. Основные черты развития мировых финансовых рынков.	148
ГЛАВА X. ВЛИЯНИЕ ПАНДЕМИИ НА МИРОВОЙ РЫНОК АНАЛИЗ	154
10.1. В первый период пандемии складывалась конъюнктура мировых рынков и ее влияние на мировые товарные рынки.	154
10.2. Влияние пандемии на мировой аграрный рынок и цены на его продукцию.	161
10.3. Влияние пандемии на мировой рынок нефти.	167
10.4. Анализ влияния пандемии на мировые финансовые рынки.	171
ГЛАВА XI. АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ ПОЛИТИЧЕСКОГО КРИЗИСА НА МИРОВОЙ РЫНОК НА МИРУ.....	175
11.1. Анализ влияния мирового политического кризиса 2022 года на мировые рынки.	175
11.2. Влияние политического кризиса на мировую торговлю.	184
11.3. Мировой финансовый рынок политического кризиса и Узбекистан	

анализ воздействия на финансовый рынок.	186
11.4. Влияние политического кризиса на внутренний рынок Узбекистана.	190

ГЛАВА XII. ИНТЕГРАЦИЯ УЗБЕКИСТАНА В МИРОВОЙ РЫНОК. 201

12.1. Анализ внешней торговли Узбекистана и ее географических направлений.	201
---	-----

12.2. Меры по активизации процесса интеграции Узбекистана в мировой рынок.	204
---	-----

12.3. Потенциалы и возможности Узбекистана по увеличению экспорта на мировой рынок.	205
--	-----

12.4. Основные проблемы выхода Узбекистана на мировой рынок. . .	209
--	-----

12.5. Способы экспорта узбекской продукции на мировой рынок. . .	215
--	-----

ИЗ АНАЛИЗА МИРОВОГО РЫНКА

ПРОВЕРОЧНЫЕ ВОПРОСЫ.	218
----------------------------------	------------

ГЛОССАРИЙ.	224
------------------------	------------

СПИСОК ССЫЛОК.	248
----------------------------	------------

1. Законы Республики Узбекистан.	248
---------------------------------------	-----

2. Постановления и указы Президента Республики Узбекистан.	248
---	-----

3. Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан.	248
---	-----

4. Труды Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева.	249
---	-----

5. Зарубежные источники и литература.	249
--	-----

6. Учебники и пособия.	250
-----------------------------	-----

7. Научные монографии и статьи.	251
--------------------------------------	-----

8. Веб-сайты.	252
--------------------	-----

CONTENTS

INTRODUCTION.....	12
I CHAPTER. "ANALYSIS OF WORLD MARKET ECONOMICS"	
FUNCTIONS, GOALS AND OBJECTIVES OF SCIENCE.....	14
1.1. The urgency of teaching science based on the Address of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M.Mirziyoev to the Oliy Majlis of December 29, 2020.	14
1.2. Goals and objectives of the subject "ANALYSIS OF WORLD MARKETS".	17
1.3. New Uzbekistan Development Strategy for 2022-2026 and measures to increase foreign trade.	19
1.4. Analysis of the main economic indicators of foreign economic activity of the country in 2021.	21
CHAPTER II. ANALYSIS OF THE WORLD MARKET CONNECTION AND THEORETICAL FUNDAMENTALS.....	27
2.1. The concept of conjuncture.	27
2.2. The essence and significance of the analysis of the world market situation and its peculiarities in the present.	28
2.3 World market conditions and factors influencing it.	29
2.4. Stages of conjuncture analysis.	35
CHAPTER III. METHODOLOGY OF STUDYING WORLD MARKETS AND WORLD MARKETS.....	42
3.1. Commodity market concept and commodity market types.	42
3.2. The concepts of the world market and the domestic market and their direct integral relationship.	46
3.3. Factors shaping the situation.	51
3.4. Study of the laws of price formation in the world market of raw materials.	52
3.5. Determining the prices of key strategic products in the world market and the factors influencing their prices.	54
3.6. Methods of studying the situation on world commodity markets.	57

3.7. Analysis of the current state of strategic raw materials and products in world markets.	58
CHAPTER IV. WORLD COMMODITY MARKET CONJUNCTION PROMOTION METHODS MARKET AND ITS CONNECTION.....63	
4.1. Basic approaches to forecasting commodity market conditions.	63
4.2. Application of extrapolation methods in forecasting world commodity markets.	66
4.3. Forecasting the world commodity markets in marketing.	71
4.4. Use of different forecasting methods in the activities of enterprises. ...	72
CHAPTER V. CHARACTERISTICS OF RESEARCH COMMODITY TRADE AND RAW MATERIALS MARKET CONDITIONS IN THE WORLD MARKET.....75	
5.1. Trade in raw materials in the world market.	75
5.2. Peculiarities of the study of the world market for raw materials.	77
5.3. The current state of the world commodity market.	79
5.4. Peculiarities of price formation in the world oil and oil products market. .	82
CHAPTER VI. GLOBAL TRADE IN THE WORLD MARKET AND INTERNATIONAL DEPENDENCE OF EXPORT-IMPORT ON IT..... 88	
6.1. The structure of world foreign trade and its share.	88
6.2. The main players in the world market.	91
6.3. The integral relationship of exports and imports in the world market. .	94
6.4. Key factors in the ability of developing countries to actively participate in the world market.	95
CHAPTER VII. TYPES OF EXPORT IN THE WORLD MARKET AND THEIR PROPERTIES..... 99	
7.1. Export is the founder of the world market.	99
7.2. Types of exports in the world market and their characteristics.	100
7.3. Dumping policy in the world market.	104
CHAPTER VIII. WORLD METAL MARKET CONNECTION AND ITS PRICE PROPERTIES.....109	
8.1. World metal market classification and its characteristics.	109
8.2. World metal market situation and price formation.	110
8.3. The main features of price formation in the world metal market.	113
8.4. World metal markets and their main views.	116

8.5. World gold market and its characteristics.	119
8.6. The main players in the world metal market and the dynamics of production of metal products.	126
CHAPTER IX. WORLD FINANCIAL MARKET ANALYSIS.....	133
9.1. The concept of the global financial market and its essence.	133
9.2. World Financial Market: Theoretical Perspectives and General Description.	135
9.3. The concept of offshore in the global financial market and its characteristics	139
9.4. Analysis, purpose and basics of global financial markets functions and its main participants.	142
9.5. Globalization of global financial markets.	144
9.6. The main features of the development of world financial markets. . . .	148
CHAPTER X. THE EFFECT OF THE PANDEMIA ON THE WORLD MARKET ANALYSIS	154
10.1. In the first period of the pandemic, the occurrence of the global market situation and its impact on world commodity markets.	154
10.2. The impact of the pandemic on the world agricultural market and the prices of its products.	161
10.3. The impact of the pandemic on the world oil market.	167
10.4. Analysis of the impact of the pandemic on global financial markets.	171
CHAPTER XI. ANALYSIS OF THE IMPACT OF THE POLITICAL CRISIS ON THE WORLD MARKET ON THE WORLD.....	175
11.1. Analysis of the impact of the global political crisis in 2022 on world markets.	175
11.2. The Impact of the Political Crisis on World Trade.	184
11.3. The global financial market of political crisis and Uzbekistan financial market impact analysis.	186
11.4. The impact of the political crisis on the domestic market of Uzbekistan.	190
CHAPTER XII. UZBEKISTAN'S INTEGRATION TO THE WORLD MARKET.....	201
12.1. Analysis of foreign trade of Uzbekistan and its geographical directions.	201

12.2. Measures to intensify the process of integration of Uzbekistan into the world market.	204
12.3. Potentials and opportunities of Uzbekistan to increase exports to the world market.	205
12.4. The main problems of Uzbekistan's access to the world market. . . .	209
12.5. Methods of exporting Uzbek products to the world market.	215
FROM THE WORLD MARKET ANALYSIS	
TEST QUESTIONS.	218
GLOSSARY	224
LIST OF REFERENCES.	248
1. Laws of the Republic of Uzbekistan.	248
2. Resolutions and decrees of the President of the Republic of Uzbekistan	248
3. Resolutions of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan.	248
4. Works of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M.Mirziyoev.	249
5. Foreign sources and literature.	249
6. Textbooks and manuals.	250
7. Scientific monographs and articles.	251
8. Websites.	252

N.S.Ismailova, D.R. Ergashev, U.R.Xalikov

JAHON BOZORI KONYUNKTURASI TAHLILI

**Toshkent – «INNOVATSION RIVOJLANISH
NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2022**

Muharrir:

Tex. muharrir: A. Moydinov

Musavvir: A. Shushunov

Musahhih: L. Ibragimov

Kompyuterda

sahifalovchi: Sh. Shoaslonov

E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899920-90-35

№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.

Bosishga ruxsat etildi 05.08.2022.

Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Timez Uz» garniturasini.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 42,5 . Nashriyot bosma tabog'i 42 .

Tiraji: . Buyurtma №

«INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI»

bosmaxonasida chop etildi.

100174, Toshkent sh, Olmazor tumani,

Universitet ko'chasi, 7-uy.